Множества всех обыкновенных точек аналитического множества  $A$  обозначаются через  $A^\circ$ . Тогда комплексная размерность  $A^\circ$  равна размерности аналитического множества  $A$ , т.е.  $\dim_{\mathbb{C}} A^\circ = \dim_{\mathbb{C}} A = n$ .

**Определение 2.** Функция  $u(z) \in L_{loc}^1(A)$ , заданная на неприводимое аналитическое множество  $A$ , называется  $m$ -субгармонической на  $A$ , если

1) она полунепрерывна сверху на  $A$ , т.е.  $\forall z^0 \in A$  имеет место неравенства

$$\overline{\lim}_{z \rightarrow z^0} u(z) \leq u(z^0);$$

2)  $u(z) \in m - sh(A^0)$ .

В частном случае, при  $m = 1$  мы получаем плюрисубгармоническую на  $A$  функцию (см. [4]), класс таких функций и обозначается как  $psh(A)$ ,  $1 - sh(A) = psh(A)$ . При  $m = n$ , функция  $u(z) \in n - sh(A)$  называется субгармонической на  $A$ , и обозначается как  $sh(A)$ .

Пусть заданы  $A \subset \mathbb{C}^N$ ,  $\dim_{\mathbb{C}} A = n$  неприводимое аналитическое множество и  $P \subset A$  — некоторое подмножество.

**Определение 3.** Если существует функция  $u(z) \in m - sh(A)$ ,  $u(z) \not\equiv -\infty$ , такая, что  $u(z) = -\infty \forall z \in P$ , то множество  $P$  называется  $m$ -полярным множеством. При  $m = 1$ , множество называется плюриполярным, а при  $m = n$ , множество называется полярным.

**Теорема 1.** Множества критических точек аналитического множества  $A$  является плюриполярным множествами.

**Доказательство.** Пусть  $A^0$  — множества обыкновенных точек. Тогда множества критических точек  $A \setminus A^0$  являются аналитическими множествами и их комплексная размерность будет меньше комплексной размерности  $A$ ,  $\dim A \setminus A^0 < \dim A$ . Предположим, что аналитическое множество определяется так:  $A = \{f_1(z) = \dots = f_l(z) = 0\}$ ,  $l \in \mathbb{N}$ . Здесь функции  $f_j(z)$  — голоморфные функции в  $\mathbb{C}^N$ . Тогда множества  $A \setminus A^0$  можно определить как  $A \setminus A^0 = \{f_1(z) = \dots = f_l(z) = f_{l+1}(z) = \dots = f_L = 0\}$ , добавляя еще несколько голоморфных функций.

Ясно, что функция  $f_1 \bar{f}_1 + \dots + f_l \bar{f}_l + \dots + f_L \bar{f}_L \in C^2(\mathbb{C}^N) \cap psh(\mathbb{C}^N)$  и более того, функция  $v(z) = \ln(f_1 \bar{f}_1 + \dots + f_l \bar{f}_l + \dots + f_L \bar{f}_L)$  тоже является плюрисубгармонической в  $\mathbb{C}^N$ . Поэтому  $v(z)$  будет плюрисубгармоническим на  $A^0$ . Так как она кроме того локально ограничена сверху на  $A$ , то  $v(z) \in psh(A)$ . Заметим, что  $v|_A \not\equiv -\infty$  ибо вне множества  $A \setminus A^0$  как минимум один из  $f_{l+1}(z) = \dots = f_L = 0$  равенств не выполняется. Отсюда, множество  $A \setminus A^0$  является плюриполярным. Теорема 1 доказана.

**Следствие 1.** Множества критических точек аналитического множества  $A$  является  $m$ -полярным множеством на  $A$ .

**Доказательство.** Всякая плюрисубгармоническая функция является также  $m$ -субгармонической,  $psh = 1 - sh \subset 2 - sh \subset \dots \subset n - sh = sh$ . т.е.

$$v(z) \in psh(A) \Rightarrow v(z) \in m - sh(A).$$

Поэтому, согласно Теореме 1  $A \setminus A^0$  является  $m$ -полярным множеством на  $A$ . Следствие 1 доказано.

**Теорема 2.** Объединение счетного числа  $m$ -полярных множеств на  $A$  является  $m$ -полярным, т.е. если  $E_j \subset A$  являются  $m$ -полярными, то  $E = \bigcup_{j=1}^{\infty} E_j$  — тоже  $m$ -полярное.

**Доказательство.** Множества  $E_j$  являются  $m$ -полярными множествами, значит существуют функции  $u_j \in m - sh(A)$ ,  $u_j \not\equiv -\infty$ ,  $u_j|_{E_j} = -\infty$ . Так как полярное множество имеет меру нуль,  $\dim_n E_j = 0$ , то счетное объединение  $E = \bigcup_{j=1}^{\infty} E_j$  также имеет меру нуль,  $\dim_n E = 0$ .

Используя это, можно найти точку  $z^0 \in A^0 \setminus E$  такую, что функции  $u_j(z^0) \neq -\infty$ ,  $j = 1, 2, \dots$ .

С помощью точки  $z^0$  построим функцию  $u(z)$  такую, что выполняется  $u \in m - sh(A)$ ,  $u = u|_A \not\equiv -\infty$ ,  $u|_E = -\infty$ .

Сначала берем исчерпание  $A = \bigcup_{j=1}^{\infty} A_j$ ,  $A_j \subset\subset A_{j+1} \subset\subset A$ ,  $z^0 \in A_1$  и обозначим  $M_j = \sup_{A_j} u_j(z)$  ( $\Rightarrow M_j > u_j(z^0)$ ). Используя  $u_j(z^0) \neq -\infty$  и  $M_j \neq -\infty$  построим  $u(z) = \sum_{j=1}^{\infty} \frac{u_j - M_j}{2^j (M_j - u_j(z^0))}$ . Тогда на любом фиксированном компакте  $K \subset\subset A$ , начиная с некоторого номера  $j \geq N(K)$ , члены этого ряда отрицательны. Отсюда следует, что частные суммы ряда, начиная с номера  $j \geq N(K)$  монотонно убывая, сходятся к функции  $u(z)$ . Так как частные суммы являются  $m$ -субгармоническими функциями на  $A$ , то  $u(z) \in m - sh(A)$ . Из  $u(z^0) = -1$  вытекает, что  $u(z) \not\equiv -\infty$ . Ясно, что  $u|_E = -\infty$  и  $E$  — полярное множество. Теорема 2 доказана.

**Нарзиллаев Нурбек Хамрокулович** (докторант кафедры Математического анализа Национального университета Узбекистана; email: [n.narzillaev@nuu.uz](mailto:n.narzillaev@nuu.uz))

$m\mathcal{W}$  — ПОЛЯРНЫЕ И  $\mathcal{L}_{m\mathcal{W}}$  — ПОЛЯРНЫЕ МНОЖЕСТВА В  $\mathbb{C}^n$ .

**Annotatsiya.** Bu ish  $\mathbb{C}^n$  fazoda  $\mathcal{L}_{m\mathcal{W}}$  — polar to‘plamlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Bunda  $m\mathcal{W}$  — polar va  $\mathcal{L}_{m\mathcal{W}}$  — polar to‘plamlarning ekvivalentligi isbotlanadi.

**Аннотация.** Работа посвящена  $\mathcal{L}_{m\mathcal{W}}$  — полярным множествам в  $\mathbb{C}^n$ . В ней доказывается эквивалентность  $m\mathcal{W}$  — полярных и  $\mathcal{L}_{m\mathcal{W}}$  — полярных множеств.

**Annotation.** This work is dedicated to  $\mathcal{L}_{mw}$  – polar sets in  $\mathbb{C}^n$ . In it, the equivalence of  $mW$  – polar and  $\mathcal{L}_{mw}$  – polar sets is proved.

**Kalit so‘zlar:**  $mW$  – polar to‘plamlar,  $\mathcal{L}_{mw}$  – polar to‘plamlar, vaznli  $mW$  – Grin funksiyasi.

**Ключевые слова:**  $mW$  – полярные множества,  $\mathcal{L}_{mw}$  – полярные множества, весовая  $mW$  – функция Грина.

**Key words:**  $mW$  – polar sets,  $\mathcal{L}_{mw}$  – polar sets, weighted  $mW$  – Green’s function.

С классом  $m$  – субгармонических функций тесно связан класс слабо  $m$  – субгармонических  $(m - wsh)$  функций, определяемый простым оператором  $dd^c u \wedge \left( dd^c |z|^2 \right)^{n-m} \geq 0$ .  $m - wsh$  функции имеют наглядную геометрическую характеристику: полунепрерывная сверху функция  $u(z)$  будет слабо  $m$  – субгармонической, если она субгармонична на  $(n - m + 1)$  – мерных комплексных плоскостях. Такие функции изучены в работах Р.Харви и Б.Лаусон, Б.Дровзека и Ф.Форстнерич [1,2]. Ряд свойств класса  $m - wsh$  функций, характерные Теории потенциала изучены в работах Б. Абдуллаева, [3,4,5]. В частности, доказано введение понятия  $mW$  – полярных множеств, и их связь с  $\mathcal{P}_{mw}$  – мерами  $\omega^*(z, E, D)$ .

Настоящая статья посвящена изучению  $mW$  – полярных множеств во всем пространстве  $\mathbb{C}^n$ , их связи с функцией Грина в классе  $m - wsh$  функций. Отметим, что свойства функции Грина и  $m$  – полярных множеств в классе  $m - sh$  функций подробно изложены в работе Абдуллаев Б.И., Шарипова Р.А. [6].

1. Заметим, что  $sh = 1 - wsh \supset 2 - wsh \supset \dots \supset n - wsh = psh$ . Кроме того,  $m - sh \subset m - wsh$ . Однако, изучение класса  $m - wsh$  функций при  $1 \leq m < n$  несколько отличается от изучения класса плюрисубгармонических  $(psh)$  функций. Особенно в вопросах свойств Грина, в вопросах  $mW$  – полярных множеств эти различия ярко проявляются. Дело в том, что в определении функции Грина основную роль играет фундаментальное решение

оператора  $dd^c \omega_m(z) \wedge \left( dd^c |z|^2 \right)^{n-m} = 0$ . Если для  $m = n$  (случай плюрисубгармонических функций) решение  $\omega_n(z) = const \cdot \ln |z|$ , оно стремится к  $+\infty$  при  $z \rightarrow \infty$ , то для

$$1 \leq m < n \quad \text{фундаментальное решение} \quad \omega_m(z) = - \frac{const}{|z|^{2(n-m)}},$$

$dd^c \omega_m(z) \wedge \left( dd^c |z|^2 \right)^{n-m} = \delta_0$ , где  $\delta_0$  – мера Дирака. Как мы видим, оно ограничено сверху в  $\mathbb{C}^n$ ,  $\omega_m(z) < 0$ .

2. Для  $1 \leq m < n$  нам удобно определить класс Лелона как

$$\mathcal{L}_{mw} = \left\{ u(z) \in m - wsh(\mathbb{C}^n) : u(z) \leq 1 \right\}.$$

Тогда функция  $K_m(z) = -\frac{1}{|z|^{2(n-m)}} + 1 \in \mathcal{L}_{mw}$  и

$$dd^c K_m \wedge \left( dd^c |z|^2 \right)^{n-m} = 0, \quad z \in \mathbb{C}^n \setminus \{0\}.$$

Следовательно,  $K_m(z)$  является максимальной  $m - wsh$  функцией в  $\mathbb{C}^n \setminus \{0\}$ . В дальнейшем функция  $K_m(z)$  часто используется при изучении функции Грина. Отметим, что если  $m = n$ , то  $m - wsh = psh$ , и класс  $\mathcal{L}_{mw}$  тривиален,  $\mathcal{L}_{mw} = \{const\}$ .

Для изучения  $mw$  – функции Грина весьма важна следующая теорема, для  $psh$  функций которая была доказана Садуллаевым (см. 7. стр. 149).

**Теорема 1.** *Если  $E \subset \mathbb{C}^n$  является  $mw$ –полярным множеством, то оно является  $\mathcal{L}_{mw}$  – полярным множеством. Другими словами, если существует  $u(z) \in m - wsh(\mathbb{C}^n) : u(z) \not\equiv -\infty, u|_E = -\infty$ , то существует функция  $w(z) \in \mathcal{L}_{mw} : w(z) \not\equiv -\infty, w|_E = -\infty$ .*

**Доказательство.** Пусть  $u(z) \in m - wsh(\mathbb{C}^n) : u(z) \not\equiv -\infty, u|_E = -\infty$ . Если функция  $u(z)$  ограничена сверху,  $u(z) \leq C$ , то функция  $w(z) = u(z) - C \in \mathcal{L}_{mw}$  и доказательство теоремы в этом случае является тривиальной. Рассмотрим случай, когда  $u(z)$  не ограничена сверху,  $\overline{\lim}_{z \rightarrow \infty} u(z) = +\infty$ . Тогда, по принципу максимума  $M_j = \max_{|z| \leq 2^j} u(z) \rightarrow +\infty$  при  $j \rightarrow \infty$ .

Воспользуемся максимальной в  $\mathbb{C}^n \setminus \{0\}$  функцией

$$k_m(z) = -\frac{1}{|z|^{2(n-m)}} \in \mathcal{L}_{mw}.$$

Положим

$$v_j(z) = \begin{cases} \max \left\{ \frac{1}{2^j} \cdot \frac{u(z) - M_j}{M_j} - \gamma_j, k_m(z) \right\}, & \text{при } |z| \leq 2^j \\ k_m(z), & \text{при } |z| > 2^j \end{cases}$$

где,  $\gamma_j = -\frac{1}{2^{2j(n-m)}}$ . Ясно, что  $v_j \in m - wsh(\mathbb{C}^n)$ , причем  $v_j(z) < 0$ . Следо-

вательно, сумма  $v(z) = \sum_{j=1}^{\infty} v_j(z) \in m - wsh(\mathbb{C}^n)$ , ибо частные суммы

$S_N(z) = \sum_{j=1}^N v_j(z) \in m - wsh(\mathbb{C}^n)$  монотонно убывая сходятся,  $S_N(z) \downarrow v(z)$ . Кроме

того, если  $u(z^0) \neq -\infty$ , в некоторой фиксированной точке  $z^0 \in \mathbb{C}^n \setminus \{0\}$ , то

$$v(z^0) = \sum_{j=1}^{\infty} v_j(z^0) = \sum_{2^j \geq |z^0|} v_j(z^0) + \sum_{2^j < |z^0|} v_j(z^0) = I + II.$$

Вторая сумма  $II$  здесь конечная, а первая сумма

$$\begin{aligned} I &= \sum_{2^j \geq |z^0|} v_j(z^0) \geq \sum_{2^j \geq |z^0|} \left[ \frac{1}{2^j} \cdot \frac{u(z^0) - M_j}{M_j} - \gamma_j \right] = \\ &= u(z^0) \sum_{2^j \geq |z^0|} \frac{1}{2^j M_j} - \sum_{2^j \geq |z^0|} \frac{1}{2^j} - \sum_{2^j \geq |z^0|} \frac{1}{2^{2j(n-m)}} \end{aligned}$$

Является также ограниченной. Таким образом,  $v(z) \neq -\infty$ .

Далее, так как  $v(z) < 0$ , то  $w(z) \in \mathcal{L}_{mw}$ . Остается показать, что  $v(z) = -\infty \quad \forall z \in E$ . В самом деле, если  $u(z^0) = -\infty$ , то

$$\begin{aligned} v(z^0) &= \sum_{j=1}^{\infty} v_j(z^0) = \sum_{2^j \geq |z^0|} v_j(z^0) + \sum_{2^j < |z^0|} v_j(z^0) = \\ &= \sum_{2^j \geq |z^0|} k_m(z^0) + \sum_{2^j < |z^0|} v_j(z^0) = k_m(z^0) \sum_{2^j \geq |z^0|} 1 + \sum_{2^j < |z^0|} v_j(z^0) = -\infty. \end{aligned}$$

Это означает, что множество  $E$  является  $\mathcal{L}_{mw}$  – полярным. Теорема доказана.

Теорема 1 очень полезна в приложениях к весовой функции Грина.

**3.** Фиксируем множество  $E \subset \mathbb{C}^n$  и берем функцию  $\psi(z)$  – ограниченную на множестве  $E \subset \mathbb{C}^n$ . Так как функция Грина определяется при помощи класса Лелона  $\mathcal{L}_{mw} = \{u(z) \in m - wsh(\mathbb{C}^n) : u(z) \leq 1\}$ , то нам необходимо рассматривать функции, не превосходящие 1, считать что  $\psi(z) < 1$ .

Пусть

$$\mathcal{L}_{mw}(E, \psi) := \{u(z) \in \mathcal{L}_{mw}, u(z)|_E \leq \psi(z)\}.$$

Положим

$$V_{mw}(z, E, \psi) := \sup \{u(z) : u(z) \in \mathcal{L}_{mw}(E, \psi)\}, z \in \mathbb{C}^n.$$

Регуляризация  $V_{mw}^*(z, E, \psi) = \overline{\lim}_{\xi \rightarrow z} V_{mw}(\xi, E, \psi)$  называется *весовой  $mw$ -функцией*

Грина  $K$  относительно  $\psi(z)$ .

Нетрудно доказать следующие простые свойства весовых  $mw$ -функций Грина:

1)  $V_{mw}^*(z, E, \psi) \in \mathcal{L}_{mw}$ , она является максимальной функцией;

2) Функция Грина  $1 \geq V_{mw}^*(z, E, \psi) \geq \inf_E \psi(z)$ .  $V_{mw}^*(z, E, \psi) \equiv 1$  тогда и

только тогда, когда  $E$  является  $mw$  – полярным множеством в  $\mathbb{C}^n$ .

Действительно. Если  $E \subset \mathbb{C}^n$  является  $mw$  – полярным множеством, то согласно теореме 1 существует функция

$$u(z) \in \mathcal{L}_{mw} : u(z) \not\equiv -\infty, u(z) = -\infty \forall z \in E.$$

Тогда

$$w_j(z) = \frac{u(z)}{j} + \left(1 - \frac{1}{j}\right) \in \mathcal{L}_{mw}(E, \psi)$$

и

$$V_{mw}(z, E, \psi) := \sup \{u(z) : u(z) \in \mathcal{L}_{mw}(E, \psi)\} \geq \sup_j \{w_j(z)\} = 1$$

для всех  $z \in \mathbb{C}^n : u(z) \not\equiv -\infty$ . Отсюда следует, что  $V_{mw}^*(z, E, \psi) \equiv 1$ .

И наоборот, пусть  $V_{mw}^*(z, E, \psi) \equiv 1$ ,  $E \neq \emptyset$ . Отметим, что множество

$$\left\{z \in \mathbb{C}^n : V_{mw}(z, E, \psi) < V_{mw}^*(z, E, \psi)\right\} = \left\{z \in \mathbb{C}^n : V_{mw}(z, E, \psi) < 1\right\}$$

является полярным множеством, ибо  $sh \supset m - wsh$ . Следовательно, существует точка

$$z^0 \in \mathbb{C}^n : V_{mw}(z^0, E, \psi) = 1.$$

Так

как

$V_{mw}(z, E, \psi) = \sup \{u(z) : u(z) \in \mathcal{L}_{mw}(E, \psi)\}$ , то существует последовательность

$u_j(z) \in \mathcal{L}_{mw}(E, \psi) : u_j(z^0) > 1 - \frac{1}{2^j}$ . Сумма  $u(z) = \sum_{j=1}^{\infty} [u_j(z) - 1]$  – является

$m - wsh$  функцией в  $\mathbb{C}^n$ , ибо  $u_j(z) - 1 < 0$ . Она  $\not\equiv -\infty$ , ибо  $u_j(z^0) > -1$ . Однако,

$u(z) = -\infty \forall z \in E$ , ибо для таких точек  $u_j(z) \leq \psi(z) < 1$ . Свойство 2) доказано.

#### Использованная литература:

1. Harvey F.R., Lawson H.V. An introduction to potential theory in calibrated geometry. Amer J. Math. 131, № 4, 2009, pp. 893 – 944.
2. Harvey F.R., Lawson H.V. Duality of positive currents and plurisubharmonic functions in calibrated geometry. Amer J. Math. 131, №. 5, 2009, pp. 1211 – 1240.
3. Абдуллаев Б.И.  $m - wsh$  функции. Доклады АНРУз., 2012, №5, с. 15 – 18.
4. Абдуллаев Б.И. Задача Дирихле в классе  $m - wsh$  функций. «Узбекский математический журнал», Ташкент, 2012, №4, с. 3 – 10.
5. Абдуллаев Б.И. Задача Дирихле в классе  $m - wsh$  функций. «Узбекский математический журнал», 2012, №6, с. 3 – 10.
6. Абдуллаев Б.И., Шарипов Р.А.  $m$  – субгармонические функции во всем пространстве  $\mathbb{C}^n$ . Функции Грина. «Узбекский математический журнал», 2013, № 3, с. 3 – 8.
7. Садуллаев А. Теория плюрипотенциала. Применения. Германия, Palmarium Akademic Publishing, 2012, с. 202.

Одинаев Адхам Саъдуллоевич  
(юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD); [adham\\_os@mail.ru](mailto:adham_os@mail.ru))  
МАЖБУРИЯТ ХУҚУҚИДА НЕУСТОЙКАНИНГ МАҚСАДИ, ФУНКЦИЯЛАРИ ВА  
ПРИНЦИПЛАРИ

**Аннотация.** Мазкур мақолада тадбиркорлик субъектлари томонидан шартнома мажбуриятлари бажарилмаганлиги ёки лозим даражада бажарилмаганлиги, шунингдек, фуқаролик-ҳуқуқий мажбуриятлар ижросини таъминлаш учун неустойка қўллашни такомиллаштириш илмий-назарий таҳлил этилиб, тегишли таклифлар берилган.

**Аннотация.** В данной статье приведен научный и теоретический анализ невыполнения или ненадлежащего исполнения договорных обязательств субъектами хозяйствования, а также совершенствования применения неустойки для обеспечения выполнения гражданско-правовых обязательств и даны соответствующие рекомендации.

**Annotation.** This article provides a scientific and theoretical analysis of the non-fulfillment or inadequate fulfillment of contractual obligations by business entities, as well as the improvement of the application of neustoyka to ensure the fulfillment of commercial obligations of civil law relations and makes relevant recommendations.

**Калим сўзлар:** шартнома, пул мажбурияти, тижорат мажбурияти, тижорат муомаласи, неустойка, лафзсизлик тўлови, жарима, пеня, айбона, муқобил неустойка, мутлақ неустойка, кредитор, қарздор, компенсация, неустойка тўғрисидаги келишув, бажарилмаган мажбурият, бузилган мажбурият, зарар, зарарни қоплаш, жарима, астрент.

**Ключевые слова:** договор, денежное обязательство, коммерческое обязательство, коммерческая сделка, неустойка, штраф, пеня, альтернативная неустойка, абсолютная неустойка, кредитор, должник, компенсация, неустойка, невыполненное обязательство, нарушенное обязательство, убыток, компенсация, штраф, астрент.

**Key words:** contract, monetary obligation, commercial obligation, commercial transaction, alternative neustoyka, absolute neustoyka, creditor, debtor, compensation, neustoyka agreement, unfulfilled obligation, breached obligation, loss, indemnification, fine, astreine.

Бугунги цивилистикада шартнома интизомини мустаҳкамлаш, кредиторлар ҳуқуқларини таъминлаш ва мажбуриятни бажармаган ёки лозим даражада бажармаган қарздорга нисбатан қўлланиладиган фуқаролик-ҳуқуқий жавобгарлик чоралари самарадорлигини ошириш долзарб масалалардан саналади. Зеро, 2017–2018 йилларда дунё савдо ҳажми 10 фоизга ошиб, 25 трлн. АҚШ долларига етган бўлса, Халқаро савдо ташкилотининг дастлабки тахминларига кўра, 2019–2021 йилларда глобал савдонинг ҳажми 3,7 фоизга кўпаяди ва жаҳондаги ишлаб чиқариш ўсишини 0,7 фоизга ортда қолдиради.<sup>1</sup> Шу боис мажбурият бажарилишини таъминлаш воситаси ва мажбуриятни бажармаганлик учун неустойка қўллашнинг таъсирчан ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш зарур.

Айни пайтда, дунё мамлакатларида мажбурият бажарилишини таъминлаш ҳамда жавобгарлик чораси сифатида неустойкани қўллаш, кредитор ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг мақбул, самарали, таъсирчан ҳамда мутаносиб усуллари ва воситаларини такомиллаштиришга бўйича янги ёндашувлар кузатилмоқда. Жумладан, шартнома тузиш эркинлигини таъминлаш, товарлар, хизматлар ва капиталларнинг бутун дунё бўйлаб эркин ҳаракатига тўсқинлик қилмаслик, тарафларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишни такомиллаштириш долзарб аҳамиятга эга.

Янги Ўзбекистонни барпо этиш жараёнида мамлакат иқтисодиётининг локомотиви бўлган тадбиркорлик субъектлари ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, бу борада фуқаролик-ҳуқуқий жавобгарлик институтини такомиллаштириш, шу билан бирга, тадбиркорларга етказилган зарарни қоплашнинг адолатли тартибини таъминлашга алоҳида аҳамият берилмоқда. Бизнес субъектларига имтиёз ва преференциялар беришни ташкилий ва ҳуқуқий жиҳатдан тартибга

<sup>1</sup> [https://unctad.org/system/files/official-document/a74d221\\_ru.pdf](https://unctad.org/system/files/official-document/a74d221_ru.pdf)



солиш,<sup>1</sup> тадбиркорларнинг ўз мажбуриятларини, қонун олдидаги масъулиятларини унутмасликлари ғоят муҳимдир.<sup>2</sup> Бу борада мажбурият ҳуқуқида хўжалик юритувчи субъектлар ўртасида шартнома талаблари ва интизомига риоя қилмаганлик учун қўлланиладиган неустойканинг ҳуқуқий табиати, принциплари, унинг фуқа-ролик қонунчилигидаги ўрни ва функциясини очиб бериш муҳимдир.

Неустойка мажбуриятларга риоя этилишини таъминлаш орқали натижада шартнома бажарилишини рағбатлантириш мақсадини кўзлайди.

Неустойканинг функцияларини мақсад концепцияси билан боғлаб ўрганган муаллифлар унинг уч элементини ажратадилар:

◆биринчи – неустойканинг мақсади ҳуқуқий институт нуктаи назаридан тартибга солинганида;

◆иккинчи – шартнома бўйича тарафларнинг мажбуриятларига нисбатан неустойка мақсадининг аниқлигида;

◆учинчи – шартномаларни бажариш жараёнида неустойканинг мақсадини амалга ошириш имконияти мавжудлигида.

Неустойка шартнома мажбуриятларининг ривожланиш босқичига (шартномани тузиш, уни бажариш, шартнома лозим даражада бажарилиши билан уни тугатиш ёки жавобгарлик) қараб турли кўринишлардаги функцияларни бажаради. Неустойканинг функциялари масаласи хусусида илмий адабиётларда икки хил нуктаи назар илгари сурилган.

Биринчи гуруҳ олимлар неустойка шартнома бўйича мажбуриятлар лозим даражада бажарилишини рағбатлантириш ва кредиторнинг бузилган ёки бузилиши мумкин бўлган мулк ҳуқуқларини тиклаш функцияларини бажаради, деб ҳисоблайдилар.<sup>3</sup>

Иккинчи гуруҳ олимлар неустойканинг бир вақтнинг ўзидаги кўп функцияли роли ҳақидаги нуктаи назарни асослашга ҳаракат қиладилар.<sup>4</sup>

Бунда турли муаллифлар неустойкага рағбатлантирувчи ва компенсацион функциялардан ташқари, жазолаш,<sup>5</sup> тарбиявий, сигнализацион ва огоҳлантириш функцияларини юклайдилар.<sup>6</sup>

Lucinda Miller ўзининг илмий ишларида кредитор томонидан неустойка ундирилиши қарздор учун умумий ва хусусий мақсадларни кўзловчи жазо эканлигини таъкидлайди.<sup>7</sup>

Бизнингча, мажбуриятларнинг бажарилишини таъминлаш усули ва шартномавий муносабатларни таъминловчи жавобгарлик шакли бўлган неустойка шартнома интизоми таъминлашни назарда тутаяди.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, мажбурият ҳуқуқида неустойкани рағбатлантирувчи, компенсацион ва сигнализацион функцияларни бажаради, деб ҳисоблайдиган муаллифлар фикрига қўшилаемиз. Шу муносабат билан, неустойканинг асосий функцияси – мажбурият лозим даражада бажарилишини рағбатлантириш, кредиторнинг бузилган ҳуқуқини тиклаш ҳисобланади. Мажбуриятнинг бузилиши босқичида ҳуқуқни ҳимоя қилиш усули – мажбуриятни бажаришга мажбурлаш билан бириқиб, неустойканинг рағбатлантирувчи функцияси ҳуқуқни тикловчи хусусият касб эта-

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019, 16-бет.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураемиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017, 357-бет.

<sup>3</sup> Aristides N. Hatzis. Having the Cake and Eating it Too: Efficient Penalty Clauses in Common and Civil Contract Law // *International Review of Law & Economics*, Vol. 22, №4, December 2002. 26 p. Posted: 14 Sep 2002; Martin Janku. Contractual Penalty and the Right to Payment for Delays Caused by Force Majeure in Czech Civil Law under the New Civil Code. December 2015. *Danube* 6(4). DOI: 10.1515/danb-2015-0016.

<sup>4</sup> Kamil Abdu Oumer. Penalty Clauses: A Comparative Analysis between the Turkish and Ethiopian Laws // *January 2017. Beijing Law Review* 08(04):423-439/DOI: 10.4236/blr.2017.84023; Prince Saprui. The Penalties Rule and the Promise Theory of Contract // *Canadian Journal of Law & Jurisprudence*. Volume 26, Issue 2. July 2013, pp. 443–469/DOI: <https://doi.org/10.1017/S0841820900006147>.

<sup>5</sup> Simas Vitkus. Penalty clauses within different legal systems. “Social Transformations in Contemporary Society”, 2013 (1) ISSN 2345-0126 (online)/<http://stics.mruni.eu/wp-content/uploads/2013/06/153-162.pdf>.

<sup>6</sup> Larry A. Dimatteo. Behavioural Case for Contractual Penalties under the Common Law. *European Review of Private Law*. Volume 23, Issue 3 (2015), pp. 327–353.

<sup>7</sup> Lucinda Miller. Penalty Clauses in England and France: A Comparative Study *The International and Comparative Law Quarterly*. Vol. 53, №1 (Jan., 2004), pp. 79–106 (28 pages). Published By: [www.jstor.org/stable/3663137](http://www.jstor.org/stable/3663137).

ди. Ўз навбатида, неустойка шартнома мажбуриятининг бузилиши босқичида компенсацион ва сигнализацион функцияларни ҳам бажаради.

М.И.Брагинскийнинг фикрига кўра, мажбуриятнинг амалда ва лозим даражада бажарилишини таъминлашга қаратилган рағбатлантирувчи функция неустойканинг бош функцияси сифатида эътироф этилиши лозим.<sup>1</sup> Бу ҳолда неустойкада бирдан-бир мақсад бўлиши мумкин эмас. Унинг асосий вазифаси шартнома шерикларини рағбатлантириш ҳисобланади.

Германия мажбурият ҳуқуқида неустойка қарздорга таъсир ўтказиш ҳамда кредитор кўриши мумкин бўлган зарарни қоплаш функциясини бажариб,<sup>2</sup> қарздор ўз мажбуриятларини бузган тақдирда, келишган пулни кредиторга тўлаш мажбуриятини олади, шунингдек, неустойка нафақат пул суммаси тарзида, балки бошқа мол-мулк тарзида ҳам ифодаланиши мумкин.

Фикримизча, бугунги кун мажбурият ҳуқуқида неустойканинг компенсацион функцияси устувор аҳамиятга эгадир.

Ҳуқуқшунослар томонидан шартнома интизомини мустаҳкамлаш юзасидан илгари сурилган таклифларнинг аксарияти жавобгарликнинг янги шаклларини ўрнатиш, мажбуриятларнинг бажарилишини неустойка ёрдамида, унинг миқдорини кўпайтириш йўли билан таъминлашдан иборат бўлган. Аммо Ю.Г.Басин таъкидлаганидек, бундай таклифлар, ҳатто улар мақсадга мувофиқ бўлса ҳам, жавобгарликни такомиллаштиришнинг умумий йўналишига бўлган муносабатга таъсир кўрсата олмайди, чунки жавобгарликнинг мавжуд шаклларида ҳам амалда тўлақонли фойдаланилмайди.<sup>3</sup>

Бугунги кунда неустойканинг рағбатлантирувчи функцияси ролини кучайтириш масаласи қонунчилик даражасида ҳам, ҳуқуқни қўллаш амалиётида ҳам ҳар томонлама ўрганиш ва комплекс ҳал қилишни талаб этадиган долзарб мавзу саналади.

Шартнома мажбуриятларига доир ҳуқуқий муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиш масалалари фуқаролик муомаласи субъектларининг иқтисодий манфаатдорлигини ҳисобга олган ҳолда ечилиши керак.

Неустойканинг яна бир муҳим функцияси – бу компенсацион, ҳуқуқни тиклаш ёки тақсимлаш функцияси бўлиб, мазкур функциянинг амал қилиши шартнома тарафлари томонидан мажбуриятнинг бажарилиши босқичида ёки тарафлардан бири, ўз шартнома мажбуриятларини бузганидан кейинги даврда, яъни ҳуқуқбузарлик факти мавжуд бўлганида намоён бўлади. Бу ҳолда неустойка мажбуриятнинг бажарилишини таъминлаш усули сифатида эмас, балки мулкий жавобгарлик шакли сифатида амал қилади.

Неустойканинг компенсацион функцияси мавжудлиги туфайли, шартнома бўйича мажбурият бузилганда (мажбуриятни лозим даражада бажармаганлик учун жавобгарлик босқичи) кредиторда мажбурият бажарилмагани ёки лозим даражада бажарилмагани натижасида юзага келган кўнгилсиз оқибатларни (зарар) неустойканинг ундирилган суммалари ҳисобидан қисман ёки тўлиқ қоплаш ҳуқуқи ва имконияти пайдо бўлади.

Неустойканинг сигнализацион функцияси мазмуни шуки, у “огоҳлантириш воситаси” вазифасини бажаради, яъни ўз мажбуриятларини лозим даражада бажармаган хўжалик юритувчи субъектдаги “беқарорлик нуқталари” ҳақида ишончли ахборот беради. Бу эса корхонанинг ишлаб чиқариш нуқсонларини бартараф этишни, корхонада ҳуқуқбузарликларга йўл қўймаслик учун тегишли қарорлар қабул қилишни талаб этади. Ҳозирги вақтда неустойканинг сигнализацион функциясида банклар фаолиятида (улар тўлов қобилятига эга бўлмаган корхоналар тўғрисидаги маълумотларни ягона тизимга узатадилар) кўпроқ фойдаланилади.

Ҳар қандай неустойка ўз табиати ва мақсадларига кўра, аралаш хусусият касб этиб, бир томондан, тарафларнинг шартнома бузилиши натижасида вужудга келиши мумкин бўлган зарарларни олдиндан баҳолаш, бошқа томондан, қарздорни шартнома интизомига риоя этишга рағбатлантириш усули сифатида намоён бўлади. Оддий қилиб айтганда, кредитор неустойка механизми ёр-

<sup>1</sup> Брагинский М.И., Иванов В.И. О функциях неустойки в хозяйственных отношениях. Проблемы совершенствования советского законодательства. Тр, ВНИИСЗ, т. 10, М., 1977, с. 32.

<sup>2</sup> Cases Materials & Texts on Contract Law (Casebooks on the Common Law of Europe). Beale H., Kotz H., Hartkamp A., Tallon D. 2002, p. 869; Савиньи Ф.К. Обязательственное право. М., 1876, с. 540.

<sup>3</sup> Басин Ю.Г. Гражданско-правовые формы экономического стимулирования как фактор укрепления договорной дисциплины. Договорная дисциплина в советском гражданском праве. Свердловск, 1985, с. 35.

дамида контрагент шартномани бузган тақдирда, ўзи кўриши мумкин бўлган зарарларнинг минимал даражада қопланишини кафолатлайди.

Фуқаролик ҳуқуқи, жумладан, мажбурият ҳуқуқи назариясида неустойка принциплари ҳусусида ягона фикр мавжуд эмас. Муаллифлар бу принциплар сонини мулкӣ ва жарима санкциялари<sup>1</sup> ҳамда жавобгарликнинг муқаррарлигига кўра белгилайдилар.

Умуман олганда, неустойкани ҳуқуқӣ тартибга солиш принципларини таснифлаш қуйидаги тўрт мезонга мувофиқ амалга оширилиши мумкин:

1) неустойкани амалга оширишнинг фуқаролик ҳуқуқида жавобгарлик юклашнинг умумий асослари билан ўзаро нисбатига кўра (тарофлар жавобгарлигининг муқаррарлиги ва тенглиги принципи);

2) неустойкани таъминлаш объектига, яъни таъминланувчи мажбуриятга кўра (мажбуриятни амалда тўла бажариш принципи);

3) мажбуриятга доир ҳуқуқӣ муносабат субъектлари – кредиторга (неустойканинг қўлланилишидан кредиторнинг манфаатдорлиги принципи) ва қарздорга (неустойкани амалга оширишда ҳуқуқбузарнинг айбдорлиги принципи) нисбатан;

4) неустойканинг ўзига нисбатан (неустойка миқдорини ва уни қўлланиш асосларини дифференциациялаш принципи).

Неустойкани амалга оширишнинг яна бир муҳим принципи – тарофлар жавобгарлигининг тенглиги бўлиб, мазкур принцип шартномани бажариш учун тарофлар қарши мажбуриятларидан ҳар бирининг аҳамиятига баҳо беришга асосланади.<sup>2</sup>

Хулоса шуки, неустойка, бир томондан, мажбурият бажарилишини таъминлаш усули, бошқа томондан, фуқаролик-ҳуқуқӣ жавобгарлик шакли сифатида амал қилади. Неустойка шартномани тузиш ва бажариш босқичида рағбатлантирувчи, сигнализацион ҳамда кредиторнинг бузилиши мумкин бўлган мулкӣ ҳуқуқларини тиклаш функцияларини бажаради, шартноманинг лозим даражада бажарилишини таъминлайди, мажбуриятнинг бузилиш босқичида эса ўзига хос жавобгарлик шаклига айланиб, ўзида компенсацион, жазолаш, тарбиявий функцияларни намоён этади.

Бундан ташқари, неустойка юридик жавобгарликнинг тарбиявий функциясига хос жиҳатларга эга бўлганлиги сабабли ҳам унинг моҳиятида мажбуриятлар бажарилишини таъминлашга хос бўлган жиҳатлар мавжуд. Шу сабабли неустойканинг мазкур икки ҳуқуқӣ институт таркибига киритилишидаги мантиқ ҳам ушбу омил билан боғлиқ ва бундай иккиёкламаликда устуворлик неустойканинг ундирилиш босқичига берилади. Бу босқич эса фуқаролик-ҳуқуқӣ жавобгарлик қўлланилганда вужудга келиб, дастлаб, мажбурият бажарилишини таъминлаш усули сифатида белгиланган неустойкани шартнома бузилганида ундириладиган жавобгарлик чорасига айлантиради.

---

<sup>1</sup> Лазарева Т.П. Штрафные санкции в хозяйственных отношениях. М., 1997, с. 7.

<sup>2</sup> Шу манба. С. 7.

Қаҳхарова Матлюба (Ўзбекистон Халқаро Ислоҳ академияси Халқаро муносабатлар ва ижтимоий гуманитар фанлар кафедраси профессори, фалсафа фанлари доктори; [matlyuba71@mail.ru](mailto:matlyuba71@mail.ru))

**ОИЛА МУҲИТИДА ШАХС ХУЛҚ-АТВОРИНИНГ ИЖТИМОЙ НАЗОРАТИ  
МУАММОСИ**

***Аннотация.** Оила муҳитини барқарорлаштиришда ижтимоий назоратнинг таъсири долзарб аҳамиятга эга ҳисобланади. Мазкур мақолада муҳит ва унинг қўрсаткичларини шахс хулқ-атвори даражасига таъсири ва ўзаро алоқадорлиги ҳамда ижтимоий назоратнинг оила муҳитини соғломлаштиришдаги аҳамияти очиқ берилган. Шахс хулқ-атворининг ижтимоий назорати жамият тараққиётига боғлиқ эканлиги илмий асосланган.*

***Аннотация.** Роль и влияние социального контроля имеет актуальное значение в благополучии семьи. В данной статье рассматриваются категория “среда”, семейная среда и его индикаторы. А также методологические основы изучения благополучия семьи. Благополучие семейной среды зависит от уровня поведения личности. Научно обосновано, что социальный контроль поведения человека связан с развитием общества.*

***Annotation.** The role and influence of social control is relevant to the well-being of the family. This article discusses the “environment” category of the family environment and its indicators. As well as the methodological foundations for studying the well-being of the family. The well-being of the family environment depends on the level of personality behavior. It is scientifically proven that social control of human behavior is associated with the development of society.*

***Калим сўзлар:** оила, оила муҳити, хулқ-атвор, ижтимоий назорат, ижтимоий муҳит, соғлом оила, жамият, маҳалла.*

***Ключевые слова:** семья, семейная среда, поведение, социальный контроль, социальная среда, здоровая семья, общество, махалля.*

***Key words:** family, family environment, behavior, social control, social environment, healthy family, society, mahalla.*

Оила шахсининг ғоявий, сиёсий, иқтисодий қарашларини шакллантирувчи, теварак-атрофга, дунёга муносабатлари тизимини, яъни дунёқараш, эътиқоди, эҳтиёжлари, қизиқишлари, идеаллари, мотивлари ва ҳаётий мақсади йўналишини белгиловчи микромуҳит, жамиятнинг энг кичик бўғинидир. Мазкур муҳит муайян миллий, ахлоқий ва маиший тартиб-қоидалар, ўзаро ҳамкорлик ва аҳиллик шакллантирилади.

Шарқ мамлакатларида, хусусан, Ўзбекистонда қадимдан оила муқаддас ватан саналган. Агар оила муҳити соғлом ва мустаҳкам бўлса, маҳаллада тинчлик ва ҳамжихатликка эришилган. Бинобарин, маҳалла, юрт мустаҳкам бўлсагина, давлатда осойишталик ва барқарорлик ҳукм суради. Барчамизга маълумки, ислоҳотларимиз натижалари, бўлаётган ўзгаришлар ва аҳолининг кайфияти аввало маҳаллада сезилади. Шу маънода «Маҳалла – жамиятимизнинг ёруғ юзи ва виждони кўзгуси», десак, тўғри бўлади.<sup>1</sup> Зеро, оила фаровонлиги миллий фаровонлик асосидир. Шу боис ҳам жамиятда оила ва маҳаллалардаги ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, «Обод ва хавфсиз маҳалла» тамойилининг тўлақонли ва самарали жорий этиш, оила институтини мустаҳкамлаш бўйича, энг аввало, «Соғлом оила – соғлом жамият» ғоясини ҳаётга татбиқ этишга йўналтирилган ягона давлат сиёсатини юритиш<sup>2</sup> муҳим масала сифатида қаралмоқда. Модомики, ҳар қандай жамият соғлом фарзанд туғилишидан ҳамда ушбу фарзандларнинг эмин-эркин, маънавий жиҳатдан баркамол бўлиб вояга етишидан манфаатдор экан, демак, жамиятда оила муҳити ғоят муҳим аҳамият касб этади.

Оила омилининг илмий фалсафий тавсифи мамлакатнинг иқтисодий, сиёсий, ижтимоий ривожланишини белгилашда муҳим аҳамият касб этади. Жамият ҳаётининг ўзгариши, маълум жиҳатдан оилага, унинг аъзоларига боғлиқ бўлганлиги боис, бу муаммони ўрганиш ва таҳлил этиш

<sup>1</sup> [www.lex.uz](http://www.lex.uz). Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида. ПФ-5938-сон, 2020 йил 18 февраль.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2021, 464-бет.

долзарб жараён ҳисобланади. Чунки, оиланинг ижтимоий институт сифатидаги функциясини, ба-жарадиган вазифаларини бошқа бирон-бир тузилма бажара олмайди. Биринчидан, у инсон учун энг яхши хулқ намуналарини ўзлаштиради, иккинчидан, бошқа муҳитлар билан ҳамкорлик қилади, учинчидан, мулоқотни мустаҳкамлайди, тўртинчидан, энг муҳим масала авлодлараро жамланган «ҳаёт тажрибалари»ни ворисийлик қонунияти асосида давомийлигини таъминлайди. Агарда шахснинг шаклланишида биологик, табиий ва маданий муҳит, ижтимоий тажриба, одамлар билан муносабат каби омиллар муҳим аҳамият касб этишини инобатга олсак, буларнинг барчаси оилада мужассамлашгандир. Оила ижтимоий-тарихий тараққиёт жараёнида турли анъана, маросим, урф-одат, расм-русумларни вужудга келтирганки, булар жамиятнинг ривожланишига, шахснинг ҳар томонлама, жисмоний, маънавий жиҳатдан камолотга эришишига, унинг ҳаёт тарзига ўз ижобий таъсирини ўтказиб келган.

Замонавий жамиятдаги оила моделлари жуда хилма-хилдир, уларда эски ва янги нормалар ва ғоялар ўзига хос тарзда бирлаштирилган. Эскирган хулқ-атвор намуналари ва янги пайдо бўлаётган элементларнинг ўзаро муносабат ва алоқаларида аънавийлик ва замонавийликнинг, бир томондан, уйғунлашуви, иккинчи томондан, кескин қарама-қаршиликларини, ҳатто зиддиятларни ҳам кузатиш мумкин.

Инсон маънавиятини шакллантиришнинг энг мақбул маскани оиладир. Оила қайси миллатга мансуб бўлса, ўша халқнинг маънавиятини ўзида мужассамлаштириб, бир неча асрлик тарихга эга бўлган анъаналарни, маънавиятни авлоддан-авлодга етказди. Зеро, шахс маънавияти, унинг дунё-қараши, эътиқоди, ҳаётий тамойиллари, идеаллари, қадриятлари, кўникмалар мажмуи асосан оилада шаклланади. Шу маънода, оила маънавият кўрғони ҳисобланиб, оила қайси миллатга тааллуқли бўлса, ўша миллатнинг маънавиятини ўзида акс эттиради. Демак, ўзбек оиласининг ўзига хос миллий характери, оиладаги шахслараро муносабатларда намоён бўлиши, турли оилавий маросимлар, урф-одатлар, анъаналар, миллий-маънавий қадриятларимиз оила орқали намоён бўлади. Ўзбек оилаларидаги ўзаро ҳурмат, эҳтиром, ота-онага эъзоз, фарзандларга меҳр-шафқат ва кичикларга иззат-икром бу кишини баркамол инсон, мукаммал шахс сифатида шакллантирадиган, ахлоқий ва маънавий жиҳатдан гўзал ҳамда етук қиладиган, инсоний фазилатларни ривожлантирадиган қадриятлар бўлиб ҳисобланади. Бу қадриятларнинг мазмун-моҳияти фарзандлар онгига дастлаб оилада сингдирилади. Шахснинг шаклланишида шахс маънавиятининг таркиб топиши ва ривожланишида оиланинг ўрни, аҳамиятини ҳеч нарсага тенглаштириб бўлмайди.

Жадид намояндаси Абдулла Авлоний шахс тарбиясида оилани ўрни алоҳида аҳамиятга эга эканлиги ҳақида «Боланинг саломати ва саодати учун яхши тарбия қилмак, танани пок тутмак, ёш вақтидан маслақини тузатмак, яхши хулқларни ўргатмак, ёмон хулқлардан сақлаб ўсдурмакдир», деб таъкидлайди.<sup>1</sup> Бу эса оилада ёшлар тарбиясидаги хулқ-атворни шаклланиши халқимизда, аҳолида миллий характер, миллий темперамент, миллий орзу, миллий истак, миллий ғурур, миллий шараф, миллий эътиқод, миллий қадрият ва миллий хотира таркиб топишида муҳим аҳамият касб этади. Ижтимоий назорат жамият ҳаётида муҳим роль ўйнайди, чунки ҳеч бир жамият ижтимоий назорат тизимисиз муваффақиятли фаолият кўрсата олмайди ва ривожлана олмайди. Бундан ташқари, инсон тинч ва фаровон ҳаётдан, ижтимоий тартибдан, жамиятнинг муваффақиятли ривожланиши ва фаолият юритишидан манфаатдор. Буларнинг барчасини ижтимоий назорат институти таъминлайди. У қанчалик ривожланиб, такомиллаштирилса, жамият шунчалик уюшган ва фаровон бўлади. Шу сабабли ижтимоий назорат тизимини чуқурроқ ўрганиш, ижтимоий зиддиятларни ҳал қилишнинг турли йўллари топиш, ҳозир мавжуд ижтимоий маданиятни яхшилаш керак.

Оила муҳити барқарорлигида шахс хулқ-атворининг ижтимоий назоратини ўрганиш долзарб аҳамиятга эга. Ижтимоий назорат назорат қилишнинг ўзига хос бўлган муҳим турларидан бири ҳисобланади. Маълумки, ижтимоий назорат – бу текширув, жамият ва ижтимоий гуруҳларнинг шахсга унинг хулқ-атворини тўғрилаш, муайян умумийлик меъёрларида умумқабул қилинган қоидаларга мувофиқлаштириш мақсадида шахсга таъсир ўтказиш усуллари тизимидир. Ижтимоий назорат ижтимоий тизим барқарорлигига эришиш ва уни сақлашга ҳамда унинг ижобий ривожланишини таъминлашга хизмат қилади. Албатта, ижтимоий назорат мазмунига чегара қўйиш нисбий тушунча ҳисобланади. Ўз даврида машҳур позитивист файласуф Герберт Спенсер «Ахлоқ фани-

<sup>1</sup> М.Бехбудий ва бошқалар. Одоб-ахлоқ китоби. “Янги аср авлоди”, Тошкент, 2020, 44-бет.

нинг асослари», «Тарбия» каби асарларида ижтимоий назорат масаласига эътибор қаратган.<sup>1</sup> Шунингдек, бир қатор назариётчи олимлар назоратнинг бевосита ҳамда якуний мақсадларини таҳлил қилган. Хусусан, ижтимоий назорат – индивиднинг маданиятни ўзлаштириш жараёнини таъминловчи ва авлоддан-авлодга ўтувчи восита деб қаралади. Энг самаралиси, гуруҳ томонидан амалга ошириладиган ижтимоий назорат гуруҳ аъзоларида ўзини-ўзи назоратни шакллантиради ва уларга мазкур гуруҳ ва умуман ижтимоий фикрда муваффақиятли уйғунлашишга имкон беради.<sup>2</sup> Ижтимоий назорат – бу жамият одамларнинг хатти-ҳаракатларини бошқарадиган усуллар ва стратегиялар тизими, унинг ёрдамида шахс ўз хатти-ҳаракатларини яқинларининг, атрофдаги ижтимоий муҳитнинг талаблари билан мувофиқлаштиради.

Олимларнинг фикрича, назоратнинг бевосита мақсади – жамиятдаги субъектларнинг муносабатларида ҳамда фаолиятнинг белгиланган қонун-қоидаларида ўз ифодасини топади. Шу жиҳатдан ижтимоий назорат фаолиятини самарали ташкил этишга хизмат қиладиган бефарқликни жиловлаб, дахлдорлик ҳиссини шакллантириш масалаларига алоҳида эътибор қаратади.

Ижтимоий назоратнинг асосий вазифаси – муайян ижтимоий тизимнинг барқарорлиги ижобий ўзгаришлар учун шароит яратиш, шу билан бирга, ижтимоий барқарорликни сақлашдир. Бу назоратдан катта мослашувчанликни, фаолиятнинг ижтимоий нормаларидан четга чиқишни тан олиш қобилиятини ҳам, ривожланиши учун зарур бўлган рағбатлантирилиши ҳам талаб қилади.

Ижтимоий назоратнинг уч шакли мавжуд:

- оддий (асосан, мажбурловчи);
- жамоатчилик фикри;
- ижтимоий институтлар.

Ижтимоий назорат тартибга солиш соҳаси ва жамиятда мавжудлигига қараб, қуйидаги турларга бўлинади:

– оила назорати;

– жамоатчилик назорати;

– диний назорат;

– давлат назорати институтлари. Давлат назорати юқоридаги таснифда асосий ўринни эгаллайди. Яъни, қонунчиликнинг бузилиши, кишилар ва фуқароларнинг ҳуқуқлари эркинликлари ва қонуний манфаатлари камситилишининг олдини олишга йўналтирилган давлат идоралари, жамоатчилик уюшмалари (ташкilotлар) фаолиятидир. Давлат назорати – (ҳуқуқда) давлат ҳокимиятини амалга оширишнинг давлат органлари чиқарадиган қонуларга ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга риоя этилишини таъминлайдиган шаклларида биридир.<sup>3</sup>

Ижтимоий назоратнинг мазмунида, аввало, жамият муҳитида ҳам маънан, ҳам иқтисодий барқарорликни таъминлаш, мўътадилликни мустаҳкамлаш мақсадида шахс ва жамият ўртасидаги муносабатларни тартибга солиш, қатъий тартиб-қоида, интизомийлик, ижтимоий қабул қилинадиган хулқ-атвор моделларининг сақлаш каби ижтимоий тизимнинг самарали ишлашини таъминлайдиган жараёнлар ва механизмлар тизими ўз ифодасини топади. У инсон хулқ-атворини меъёрий тартибга солиш орқали амалга оширилади ва ижтимоий меъёрларга риоя қилишни таъминлайди.

Ижтимоий назоратни амалга оширувчи институт сифатида маҳалла ва оилаларда шахс хулқ атвори, хатти-ҳаракатларига маҳалла жамоаси ва оила аъзоларининг муносабати ўта нозик, заргарона ёндашувни талаб қилувчи назорат турларидан бири ҳисобланади. Мазкур ижтимоий назорат институти оила ва маҳалла аъзоларининг хулқ-атворини ҳам расмий ва норасмий бошқаради, мониторинг ва назорат қилади. Хусусан, огоҳлантириш, муҳокама қилиш (шахсни ножўя қилинган ҳаракат учун оила ва маҳалла жамоаси томонидан уялтириш, тарбиявий йўналтириш, хулқ-одобини коррекциялаш ёхуд ижобий, фазилатли хатти-ҳаракатлар ва фаолияти учун шахснинг фаолиятини ёки ишини рағбатлантириш, мақтовлар, миннатдорчилик, эътироф этиш, касбий, илмий ютуқлар учун маънавий ва моддий мукофотлар ижтимоий назоратни амалга ошириш жараёнидаги жиддий кузатувчанлик, синчиковлик, дахлдорлик, зийраклик, эътибор, моҳирлик, зукколикни, ал-

<sup>1</sup> Г. Спенсер. «Социальная статистика» (Social Statics, 1851) и «Социологические исследования» (The Study of Sociology, 1872); «Описательная социология» в 8 томах. (Descriptive Sociology, 1873–1881); «Основание науки о нравственности» (The data of ethics 1880); «Воспитание».

<sup>2</sup> Саидов М.Х. ва бошқалар. Ижтимоий ҳимоя: атамалар изоҳли луғати. Тошкент, 2007, 133-бет.

<sup>3</sup> У. Гаджиханов таҳрири остида. Юридик энциклопедия. Тошкент, «Шарқ», 2001 656-бет.

батта, масъулият ва виждонийликни талаб қилади. Шунингдек, маҳалла жамоаси ва оила аъзолари томонидан шахс хулқ-атворини ижтимоий назорат қилишнинг норасмий турига оилаларда, қариндошлар, дўстлар ва бошқаларни маъқуллаш ёки қоралаш ижтимоий назорат қилишнинг расмий (институционал) турига – маҳалла аъзолари ва фаоллар ёрдамига асосланган фаолиятни келтириш мумкин.

Маҳалла ва оилаларда шахс хулқ-атворини ижтимоий назорат қилиш усуллари ҳам ўзига хос бўлиб, ижтимоий назоратнинг давлат назорати, жамоатчилик назорати, диний назорат каби назорат институтларидан муайян даражада фарқ қилиши билан бирга, уларнинг функцияларини амалга оширишда боғловчи муҳит вазифасини ҳам бажаради. Унда яккаланиш, изоляция усулларидадан фойдаланиш мутлақ мумкин эмас. Оилада шахс хулқ-атворини ижтимоий назорат қилишда кузатиш, ташхис, реабилитация, ўзини-ўзи назорат қилиш ва коррекциялаш усулларида ўринли ва манзилли фойдаланиш ижобий самара беради. Яхши хулқ: бир қисми ўз нафсимизга, бир қисмини бир-биримизга қарши ишлатмак учун керакли бўлган муҳим шахсий фазилатлардир.<sup>1</sup> Хусусан, шахс хулқ-атворидаги девиантликка мойиллик жиҳатларини коррекциялаш ва оила, жамият муҳитига мослаштиришда, ижтимоий мослаштирув жараёнларида реабилитация усули кўл келади. Бунда шахс одатий ҳаётга қайтиш ва жамиятдаги ижтимоий ролларини тўғри бажаришга тайёргарлик кўриш имконияти юзага келади. Шахс хулқ-атворидаги муайян иллатларга мойилликка қарши ижтимоий назоратнинг ўзини-ўз назорат қилиш ички шаклини татбиқ этиш мақсадга мувофиқ бўлиб, бунда шахс ўз хатти-ҳаракатини мустақил равишда тартибга солади, уни умумий қабул қилинган меъёрларга мослаштиради. Бунда ахлоқий категориялардан бири виждон – назоратнинг кўриниши сифатида намоён бўлади.

Оила соғлом ва баркамол авлодни шакллантирувчи асосий бўғин ҳисобланади. Унда ёш авлоднинг, ота-онаси, оиласи, Ватани, халқига муносиб хизмат қиладиган комил инсон бўлиб улғайиши учун оиладаги назорат жуда муҳимдир. Ўзбек оилаларида шахснинг хулқ атвори ижтимоий назорат остига олинади. Яхши хулқ инсонларни бир-бирига меҳрли, ҳамкор ва муросали бўлишини таъминлайди. Агар ҳар бир оилада фарзанд чиройли хулқ эгаси қилиб тарбияланса, маънавий-ахлоқий муҳит барқарорлашади. Ҳолбуки, жамиятда пайдо бўлган ҳар қандай ижтимоий иллат шахс ахлоқий хулқ-атворида хос меъёрий мезонларнинг бузилишидан, оила тарбияси издан чиқиб кетган ҳосил бўлиши сир эмас.

Халқимиз «Болага етти қўшни ота-она» нақлида бола тарбияси учун барча масъулликни чуқур ифодалаб берган. Яхши хулқ жамият муҳитининг барча босқичлари томонидан рағбатлантирилиб келинади. Бунинг ёрқин кўриниши сифатида халқда «отасига раҳмат» шаклида ифодаланишини келтиришимиз мумкин.

Шунинг учун «Одамлар нима дейди?» қабилидаги савол шахсни кўп ҳолларда ножўя хатти-ҳаракатлар, ёмон хулқ-атвордан сақлайди. «Маҳаллам нима дейди?», «Кўни-қўшни нима дейди?» деган саволларни ўзига бериб, ёмон, нотўғри йўлларга киришдан сақланади. Бизнингча, бу ҳолатни эса ўзбек оиласига мансуб бўлган ижтимоий назорат сифатида баҳолаш мумкин. Шунингдек, оила муҳитида шахс хулқ-атворини шакллантиришда ижтимоий назорат энг катта хатарлардан бири бўлмиш ташқаридан бўладиган салбий таъсирлар масаласига ҳам алоҳида эътиборни талаб қилади. Чунки оиладаги ижтимоий назорат муайян даражада шахс хулқ-атворини блоклашга, унинг «эркинликка» чиқишига йўл қўймайди. Бу эса ёшларда ўз қизиқиш ва рағбатларини қондирадиган сабабларни ташқаридан излаш вазиятини яратибгина қолмай балки уни суистеъмол қилинишига ҳам сабаб бўлади. Шу боисдан тарбия масаласида маҳалла ва оила муҳити айниқса, ота-она ўз фарзандининг ташқи ҳаётига ҳам жиддий эътибор қаратиши талаб этилади. Яъни, улар фарзандининг нафақат оила муҳитидаги, балки маҳалла, таълим, табиат муҳитидаги, бўш вақтидаги фаолияти, машғулоти нима билан шуғулланишини назорат қилиш лозим. Бу назорат унинг шахсиятини, эркинликларини чеклаш, унинг шахсиятига дахл қилиш эмас, балки инсон қалби ва онги учун кетаётган кураш жараёнида ота-она эътиборидан узоқлашиш фарзандларимизни, ёш авлодни ёт гоёлар таъсиридан, деструктив кучлардан ҳимоя қилишдир.

Носоғлом оила муҳитидаги вазият оиланинг кадр-қимматини тушиши, унинг инкирози, биринчи навбатда, ёш авлоднинг оиладаги ўрни, унинг тақдири, келажаги, таълим-тарбияси, носоғлом муҳитни юзага келтирган ички ва ташқи механизмлар юзага келишига сабаб бўлган назоратсизликнинг оқибатидир. Шу боис ҳам маҳалла ва оилаларда ижтимоий назоратнинг сусайиши, ёш

<sup>1</sup> М.Бехбудий ва бошқалар. Одоб-ахлоқ китоби. “Янги аср авлоди”, Тошкент, 2020, 51-бет.

авлодни ихтиёрини тўлиқ ўзига кўйиш оқибатида фарзанд турли бузуқ ишлар, ичиш, чекиш ва баъзи ҳаёсиз амалларга қўл уриши, бу каби девиантликка мойил ёшлар мисолида жамиятда носоғлом муҳит юзага келишига замин яратади. Шу боис ҳам оила муҳитида тарбия масаласига жиддий эътибор қаратилиб, фарзандлар тарбияси мукамал бўлмаса, ташқаридан хавф туғдирадиган атроф-муҳит таъсирига эътибор қаратилмаса, оқибати ёмон бўлади. Ижтимоий назоратнинг ижтимоийлашув ва тарбиявий фаолияти функцияси масаласига глобаллашиб бораётган жараёнлар, ижтимоий ҳаётдаги турли ўзгаришлар ва ўзига хос тенденциялар нуктаи назардан оқилона ёндашув жамият муҳити хавфсизлигини таъминлайди. Оила ва оилавий тарбия ижтимоийлашувни, ривожланишни белгилар экан, боланинг шахсияти, унинг фазилатлари ва мойиллиги, ҳаётий қадриятларнинг табиати ва тузилиши айнан мазкур муҳитда рўй беради. Оила эски анъаналар ва маданий меъёрлардан фойдаланса-да, ижтимоий муҳит таъмирида унда янги ахлоқий муносабатлар ҳам пайдо бўлиши табиий жараён. Унинг тарбия ва ижтимоий назорат функцияси ўзаро боғлиқликда амал қилади.

Демак, оила муҳити барқарорлигида шахс хулқ атворининг ижтимоий назорати шахснинг тарбиясида, унинг хулқ-атворида, одамлар билан бўладиган мулоқоти, муносабатида катта аҳамиятга эгадир. Шу жумладан, у оила аъзоларининг тўғри йўл тутишида, мақсадга мувофиқ хатти-ҳаракатларни амалга оширишида тинч-тотув, аҳил-иноқ яшашида оиланинг мустаҳкам бўлишида ҳам ўз таъсирини кўрсатади.

**Хажиева Максуда Султановна (УрДУ профессори, фалсафа фанлари доктори)**

## **XALQARO MEHNAT TAQSIMOTI VA INSONIYAT EHTIYOJLARINING O'SIB BORISHI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada, Globallashuv tayanayotgan va targ'ib etayotgan ilmiy-texnik kashfiyotlar, texnologik ishlanmalar, yangi-yangi ish usullari va xizmat turlari, yer yuzida mehnat taqsimotini qaytadan tashkil etilishi hamda transmilliy korporatsiyalar, yangi ilmiy-texnik ishlanmalar borasida fikr yuritiladi.*

***Аннотация.** В статье обсуждаются научные и технологические открытия, технологические разработки, новые способы работы и услуги, на которые опирается и продвигает глобализация, реорганизация разделения труда на Земле, а также транснациональные корпорации и новые научные и технологические разработки.*

***Annotation.** This article discusses the scientific and technological discoveries, technological developments, new ways of working and services that globalization relies on and promotes, the reorganization of the division of labor on earth, as well as transnational corporations and new scientific and technological developments.*

***Kalit so'zlar:** globallashuv, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, global iqtisod, global bozor, global mehnat taqsimoti, global hamkorlik, mehnat faoliyatining differensiallashuvi, xalqaro aloqalar, tovar va kapital. sanoat yoki agrar sektorlar, infratuzilmalar.*

***Ключевые слова:** глобализация, социально-экономические факторы, глобальная экономика, глобальный рынок, глобальное разделение труда, глобальное сотрудничество, дифференциация трудовой деятельности, международные отношения, товары и капитал. промышленный или сельскохозяйственный сектор, инфраструктура.*

***Key words:** globalization, socio-economic factors, global economy, global market, global division of labor, global cooperation, differentiation of labor activity, international relations, goods and capital. industrial or agricultural sectors, infrastructure.*

Globallashuv ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq tarzda, xalqaro mehnat taqsimotiga, insoniyat ehtiyojlari dinamikasiga, tabiiy boyliklarni izlab topish, ulardan foydalanish va milliy manfaatlariga ta'sir etmoqda. "Global iqtisod", "global bozor", "global mehnat" taqsimoti, "global hamkorlik" degan tushunchalar keng ishlatilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, global o'zgarish endi milliy davlatlar chegarasidan chiqib transmilliy xususiyat kasb etayotganiga ishonch hosil qilamiz.

Xalqaro mehnat taqsimoti ishlab chiqarish kuchlarining yoyilishiga, bo'linishiga va tarqalishiga yordam beradi. Chunki kasb-korlarning paydo bo'lishi, mehnat faoliyatining differensiallashuvi, jamiyat ehtiyojlariga qarab mehnat bozorining shakllanishi globallashuv davriga xos xususiyatdir. Biroq globallashuv uchun shunchaki kasb-korlarning differensiallashuvi emas, balki kam jismoniy mehnat sarf qilib, ko'proq doramad olish, xalqaro aloqalarni, tovar va kapitallar siljishini manfaatlariga qurish muhimdir.



Shu tariqa, u turli mamlakatlar va o'lkalarda ishchi kuchlarini, sanoat yoki agrar sektorlarni, infratuzilmalarni, mehnatga haq to'lash tizimlari va umuman, mehnatga bo'lgan munosabatlarini shakllantiradi.

XXI asrning dunyoda 30 ming xil kasb-kor, mehnat, faoliyat turlari bo'lgan. Bugun har kuni dunyoda 500 ta yangi kasb-kor paydo bo'lmoqda. Mehnat taqsimoti jamiyatdagi ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga muvofiqdir. Industrial jamiyatlarda industrial, ya'ni mashina-texnikaga asoslangan mehnat, agrar jamiyatlarda qishloq xo'jaligi mehnati, postindustrial jamiyatlarda intellektual mehnat turlari ustuvordir. Tajriba ko'rsatadiki, mehnat taqsimoti yuksak shaklli intellektual mehnat bo'lib, unga qurilgan ishlab chiqarish kam jismoniy kuch va kam vaqt sarflab ko'proq doramad olish imkoniga ega. G'arbiy Yevropa davlatlari ishchi-xizmatchilari endi rivojlanishiga kirgan mamlakatlardagi ishchi-xizmatchilardan 50–100 barobar yuqori ish haqi oladi. Bundan tashqari, mehnat taqsimoti ijtimoiy sohaga ta'sir etadi, xizmat turlarini ko'payishiga olib keladi, kishining bo'sh vaqtini oshiradi. Og'ir qo'l mehnati kishini jismonan toliqtiradi, ko'p vaqtini oladi, mehnati doim ham kerakli samara va doramad beravermaydi. Intellektual izlanishlarga va texnologik ishlanmalarga tayanadigan mehnat kishini ma'naviy-ruhiy yuksalishiga xizmat qiladiki, aynan ushbu omil G'arb sivilizatsiyasini maftunkor qilmoqda.

Globalashuv tayanayotgan va targ'ib etayotgan ilmiy-texnik kashfiyotlar, texnologik ishlanmalar, yangi-yangi ish usullari va xizmat turlari yer yuzida mehnat taqsimotini qaytadan tashkil etishga undamoqda. To'g'ri transmilliy korporatsiyalar o'zidan-o'zi, ixtiyoriga yangi ilmiy-texnik ishlanmalarni milliy o'lkalarga olib kiravermaydi. Ulardan naf, foyda keladiganini, iste'molchi bor va sotib olish imkoni mavjud mintaqalarga, davlatlarga investitsiyalar kiritishadi. Investitsiya ma'lum bir sohaga, faoliyat, mehnat turiga kiritiladi. Tovar ishlab chiqarishni ko'paytirish, mahsulotlarni tez va ko'p sotish, keladigan daromadlarni oshirish transmilliy birlashmalar ko'zlagan maqsad. Bu maqsadni, ming afsuski, milliy institutlar belgilamaydi, shakllantirmaydi. Ayrim transmilliy korporatsiyalarning ba'zi bir davlatlar yalpi ichki mahsulotdan oladigan daromadlaridan yuqori ekani globalashuv moddiy manfaatdorlik bilan ham bog'liqligini tasdiqlaydi. Natijada, Ulrix Bek aytganidek, tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, savdo-sotiqni amalga oshirish, hatto korxonalarini boshqarish uchun bir joyda o'tirish (bo'lish) shart emas. Ish joylarini eksport qilish, ishchilar mehnatini transmilliy, hatto transkontinental miqyosda "kooperativlash" mumkin yoki xizmat turlarini axborot-kommunikatsiya vositalari orqali ko'rsatish mumkin".<sup>1</sup> Bu, aslida, mehnat taqsimotining insoniyat tarixida uchramaydigan ko'rinishidir.

Globalashuv insoniyat ehtiyojlarining tinmay o'sib, oshib borishidan manfaatdor. Bu ehtiyojlarni u sun'iy tarzda oshib borishini qo'llab-quvvatlamaydi ham. Ma'lum bir hisob-kitoblarga ko'ra, insonni normal kun kechirish uchun 170 ta tovar, mahsulot yetarli. XIX asrda kishilar ehtiyoji 40–50 atrofida bo'lgan. Industrial taraqqiyotdan uzoq o'lka xalqlarining ehtiyojlari undan kam bo'lmagan, albatta. Biroq bozorlar, do'konlar kishiga 70 mingdan ziyod tovar, mahsulotlar tavsiya etadi. Ehtiyojlarning rang-barangligi ijobiy hol, ular kishini tinmay ishlash, izlanish va faollikka undaydi. Yangi-yangi mahsulotlar va tovarlar urbanizatsiyaga, hayotning madaniylashuviga, xizmat turlariga bo'lgan qiziqishlarining oshishiga yordam beradi. Biroq bu tovar va iste'mol tovarlari tabiiy resurslarni kommersionizatsiyalashga, ekologik inqirozlarning kelib chiqishiga ham olib keladi. "Rim klubi" a'zolari o'tgan asrning 60–70-yillarda keltirgan misollari va bildirgan bashoratlari qanchalik o'rinli ekaniga insoniyat ko'p o'tmay iqror bo'ldi. Rim klubi prezidenti A.Pechening keltirishicha, 2010-yilga borib dunyodagi ochlar soni uch barobarga oshadi va bu energiya, oziq-ovqat va xomashyoga bo'lgan talabni o'rganib chiqishga undaydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, klub a'zolari ushbu uch manba 30–40-yillar ichida qator muammolarni keltirib chiqaradi, issiqlik energiyasiga, oziq-ovqatga va xomashyoga bo'lgan talab keskin oshadi. Cheksiz o'sishdan, oqilona rivojlanishiga o'sishgina insoniyatni bo'lg'usi fojialardan xolis qilish mumkin.<sup>2</sup> Shuning uchun A.Pechen insoniyat tabiiy qazilmalarni qazib olish, qayta ishlash, takror ishlab chiqishda hamkorlik qilishga da'vat etadi.

Alternativ sivilizatsiya g'oyasi tarafdori I.V.Bestujev-Lada, agar insoniyat ilm-fan yutuqlaridan, yangi texnologik ishlanmalardan samarali foydalanilsa, Yerda 400 milliard kishi yashashi mumkin. Agar okeanlardagi resurslardan foydalanishni o'rgansa, yana 1200 mlrd kishini boqish, oziq-ovqat bilan ta'minlash imkoni paydo bo'ladi.<sup>3</sup> Agar Rim klubi a'zolari insoniyatni, rivojlanishi, o'sishi shu tarzda davom etsa, katta fojialar, ochlik, inqirozlar kutadi, degan fikrni bildirishsa, I.V.Bestujev-Lada yerdagi re-

<sup>1</sup> Ульрих Бек. Что такое глобализация? Москва, "Прогресс-Традиция", 2001, с. 39.

<sup>2</sup> Печен А. Человеческие качества. Москва, "Прогресс", 1980, с. 165 – 170.

<sup>3</sup> Бестужев-Лада И.В. Альтернативная цивилизация. Единственное спасение человечества. Москва, "Альгоритм", 2003, с. 8 – 9.

surslar yuz milliardlab kishilarni boqish imkoniga ega, deb hisoblaydi. Lekin ular mohiyatan aynan fikrni bildirishadi, ya'ni insoniyat yon-atrofga, tabiiy resurslarga oqilona, ehtiyotkorana yondashish kerak. Ilm-fan, texnologik ishlanmalardan foydalangan tarzda, tabiatni, hayotni asrashga o'rganishi lozim. Takror ishlab chiqarishni kengaytirish orqali kishilar ehtiyojlarini qondirish mumkin. Buning uchun yangi yerlarni o'zlashtirish va yangi qazilmalar izlash shart, bugun ishlab iste'mol qilingan mahsulotlarni qayta ishlab chiqishning o'zi tabiatni ekspluatatsiya va kommertsializatsiyalashni cheklashi mumkin.

Iqtisodiy globallashuvda transmilliy korporatsiyalar yetakchi rol o'ynaydi. Shunday yirik kompaniyalarning AQSHda joylashgani mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Manbalarga ko'ra, 1990–2001-yillar ichida AQSH iqtisodiyoti 27%ga o'sgan. AQSHning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2002-yilda 31,4 trln. dollarni tashkil qilgan. Ishsizlik esa 4%ga tushgan. Bu paytda yalpi ichki mahsulot Yaponiyada 3,942 trln, Germaniyada 2,392 trln., Britaniyada 1,771 trln., Fransiyada 1,677 trln., Italiyada 1,422 trln., Xitoyda 1,388 trln., Rossiyada esa 0,392 trln. AQSH dollarini tashkil etgan. Yirik investitsiyalar olib kirgan Merrill Linch, Morgan Stenli Din Uitter, Goldman Saks, Solomon Smit Barni va J.P.Morgan kompaniyalari AQSH iqtisodiyotini "ishchanlar dunyosi giganti"ga aylantirgan. AQSH fuqarosining yillik daromadi 38 ming dollarga yetgan.<sup>1</sup>

Transmilliy kompaniyalar AQSH iqtisodiyotining investorlariga, ilmiy-texnik kashfiyotlarini amaliyotga, ishlab chiqarishga joriy etish subyektlariga aylangan. Masalan, kompyuter texnologiyalarni rivojlantirishga ular yiliga 220 mlrd. dollar kiritishadi. Bu esa AQSHdagi kompyuterlarni Yevropa va Yaponiyadagidan 5 marta tez ishlashini ta'minlaydi. "Intel", IBM va "Motorola", "Microsoft", "Oraci" va "Nescafe" kompaniyalari dunyoga mashhur. AQSHda internetga ulangan 15500 teletarmoqlar ishlab turadi. Internet saytlarining 90%dan ziyodi AQSHga to'g'ri keladi. Mamlakatdagi yirik transmilliy kompaniyalar dunyoning istagan qismiga, davlatga investitsiyalar kiritishi, o'z ofislarini ochishi mumkin. AQSHdagi 500 yirik transmilliy korporatsiya jahon yalpi ichki mahsulotining 61%ni ishlab chiqarmoqda.<sup>2</sup> "Manpower Ink"– 72%, "Gillette"– 66%, "Mobil"– 63%, "Digital Equipment"– 61%, "EXCON"–56%, "Sochi Car"– 51% mablag'larini chet ellar iqtisodiyotiga sarflamoqda. Bular bejiz, xayriya emas, ular kompaniyalarga ulkan foyda keltiradi, milliy iqtisodiyotni modernitsiyalashga, Yevropalashtirishga yetaklaydi. AQSH ana shu transmilliy kompaniyalari orqali jahon davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, global iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatmoqda. Haqiqatan ham, AQSH transmilliy kompaniyalarini Yaponiya, Singapur, Xitoy, Indoneziya, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi davlatlari, MDH respublikalarida uchratish mumkin. Ular olayotgan daromadlarni esa hali hech kim o'rgangan emas, hisob-kitob qilish ham mushkul. M.Sorrel iborasi bilan aytganda "bugun dunyo globallashayotgani yo'q, balki amerikalashmoqda".<sup>3</sup>

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini chetga investitsiyalar orqali amalga oshirish mumkin, deb o'ylash noto'g'ri. Bu o'rinda, asosiy e'tibor milliy omillarga, mahalliy ishlab chiqarish korxonalarini va iqtisodiy imkoniyatlarga qaratilishi lozim. Mutaxassislar fikricha, globallashuv va milliylik o'rtasida maqsadga muvofiqlikni ifodalaydigan ko'rsatgich yoki mezonlar bo'lmog'i lozim. Globallashuv jarayonida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va mamlakat aholisi farovonligining muttasil o'sib borishini ana shunday mezon sifatida tavsiflash mumkin.

Shu bois milliy davlatlar globallashuv yaratadigan barcha ne'matlar va imtiyozlardan to'liq foydalanishi lozim. Milliy iqtisodiyotlar xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvida faol ishtirok etishi, jahon savdo tashkiloti, mintaqaviy iqtisodiy uyushma va alyanslar orqali jahon xo'jaligiga integratsiyalashuv yo'lidan bormog'i darkor. Buning uchun esa globallashuv jarayoni qator shart-sharoit va imkoniyatlar yaratadi".<sup>4</sup>

Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish globallashtirishga zid hodisa emas, ularni uyg'unlashtirish milliy iqtisodiy rivojlanish omiliga aylanishi mumkin. Bugun O'zbekistonda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar va savdo-sotiq hududlari mintaqaviy integratsiyaga qurilgan. Ammo bu globallashuv boshqa faktorlarining qatnashishini inkor qilmaydi. Savol globallashuv talablariga rioya etish kerakmi yoki mahalliyashtirish ustuvor bo'lishi kerakmi, tarzida qo'yilishi mumkin emas. Jahon tajribasi (Singapur, Tayvan, Malayziya va boshqalar) ko'rsatadiki, ishlab chiqarishni global taraqqiyot, ayniqsa, zamonaviy ilmiy-texnik kashfiyotlar bilan uyg'unlashtirish milliy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi. Aynan shu tarzda O'zbekiston manfaatlarini himoya qilish va global hamkorlikda ularni ta'minlash mumkin. professor

<sup>1</sup> Уткин А.И. Американская империя. Москва, ЭКСМО, 2003, с. 58 – 59.

<sup>2</sup> Ўша асар. 62 – 63-бетлар.

<sup>3</sup> Ўша асар. 58-бет.

<sup>4</sup> Тўхлиев Н. Ўзбек модели: тараққиёт моделлари. Тошкент, ЎЗМЭ. Давлат илмий нашри, 2014, 17-бет.

N.To'xliyev yozadi: "Globalashuv ulkan planetar jarayon bo'lib, o'z yo'lidagi har qanday milliy to'siqni vayron etib baraveradi. Ammo globallashuv milliy suverenitetga tahdid solmaydi".<sup>1</sup>

Erkin iqtisodiy zonalarda globallashuvda faol ishtirok qilayotgan xalqaro kompaniyalar muhim vazifalarni bajarayotgani kuzatiladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev BMTning Bosh Assambleyasining 72 sessiyasidagi nutqida qayd etganidek: "O'zbekistonda yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi, ularda investorlarga keng imtiyozlar yaratilib berildi. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlanmoqda, biz Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan sheriklik aloqalarini yangitdan tikladik".<sup>2</sup> O'zbekistonda chet el kompaniyalarini erkin iqtisodiy zonalar ochishga jalb etish davlat siyosati darajasidagi vazifaga aylangan. Samarqand viloyatidagi "Urgut" erkin iqtisodiy zonasida Turkiya sarmoyadorlari va kompaniyadorlari va kompaniyalari, Samarqand shahrida mehmonxona kompleksini barpo etishga "Dal texnik" va "APEAS", to'qimachilik hamda san'atini rivojlantirishda "Yildirm Grupp", "SUR international", "Besler Foods", "Chalik Holding", "Limak", "Kibar", "Kalyon", "Komin" kompaniyalari qatnashmoqda. Bunday hamkorlik dunyodagi 60 ga yaqin davlatlar bilan o'rnatilgan bo'lib, ilg'or ish tajribalariga ega xorijiy kompaniyalarning innovatsion g'oyalari amaliyotga joriy etilmoqda. Xitoy, Singapur, Malayziya, Tayvan, Yaponiya, Turkiya tajribalari ko'rsatadiki, aynan erkin iqtisodiy zonalar, xorijiy investorlarni jalb etish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning milliy manfaatlariga erishishning eng samarali yo'llaridir. Bugun O'zbekistonda tashkil etilgan 7 ta erkin iqtisodiy zona (Navoiy, Angren, Jizzax, Urgut, G'ijdivon, Qo'qon, Hazorasp)lar xalqaro iqtisodiy hamkorligimiz namunasidir.

**Матчанова Барно (Ўзбекистон Миллий университети тадқиқотчиси)  
ЎЗБЕКИСТОНДА ЯНГИ МАФКУРАВІЙ МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ  
ХУСУСИЯТЛАРИ**

***Аннотация.** Мақолада жаҳонда кечаётган мафкуравий муаммолар ва уларнинг ижтимоий оқибатлари, халқлар ҳаётига таъсири, қайта мафкуралашувнинг тараққиётга таъсири ўрганилган. Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида янги мафкуравий муаммолар ва уларнинг ечими, Янги Ўзбекистон гоясини шакллантириши ва унинг одамларни сафарбар қилувчи маънавий кучга айтириши жараёнилари таҳлил қилинган.*

***Аннотация.** В статье исследуются идеологические проблемы в мире и их социальные последствия, их влияние на жизнь людей, влияние идеологии на развитие. На новом этапе развития Узбекистана анализируются новые идеологические проблемы и пути их решения, процессы формирования идеи нового Узбекистана и превращения ее в мобилизующую духовную силу.*

***Annotation.** The article examines ideological problems in the world and their social consequences, their influence on people's lives, the influence of ideology on development. At a new stage in the development of Uzbekistan, new ideological problems and ways of solving them, the processes of forming the idea of a new Uzbekistan and turning it into a mobilizing spiritual force are analyzed.*

***Калим сўзлар:** марказдан узоқлашиш, мафкура, гоя, миллий гоя, шахссизланиш, "субъектнинг ўлими", стратегия.*

***Ключевые слова:** децентрализация, идеология, идея, национальная идея, олицетворение, «смерть субъекта», стратегия.*

***Key words.** decentralization, ideology, idea, national idea, personification, "death of the subject", strategy.*

Инсониятнинг сўнгги юз йиллик тарихидаги воқелик мафкура масаланинг мақоми турлича бўлиб келди. Бу даврнинг бошида инсоният мафкуралашув, кейинроқ, мафкуралашувдан узоқлашув ва яқин тарихимизда қайта мафкуралашув жараёнлари кучайди. Бу борадаги вазиятни турлича тушунтирадиган таҳлилий вариантлари мавжуд. Шундай тенденциялардан бири – фалсафа ва постмодернизмнинг адабий танқидида "субъектнинг ўлими", "марказдан узоқлашиш" ва "шахссизланиш" рукни остида ифодаланди. Бу маънодаги мафкура субъектив муносабатнинг ҳар қандай шакллари бирлаштирувчи ижтимоий, сиёсий, маданий механизмларнинг мавҳум мажмуаси сифатида тушунилади бошлади. Шу боис ижтимоий фанларда мафкура назариясига бағишланган кўп-

<sup>1</sup> Ўша асар. 171-бет.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Тошкент, "Ўзбекистон", 2018, 2-т, 247-бет.

лаб назариялар ишлаб чиқилганига қарамасдан, онг ва мафкура муносабати масаласида ижтимоий онг, ижтимоий-маданий тузилмаларнинг киритилиши каби жиҳатлар таҳлилга муҳтождир.

Постсовет ижтимоий маконидан кейинги Ўзбекистонда қайта мафкуралашув жараёни кузатилди. Бу давр сиёсий арбобларнинг мафкуравий бўшлиқ ҳақидаги мулоҳазалари, одамларни ягона миллий маслакка бирлаштириш ҳақидаги мақсадлари миллий мафкуранинг шаклланишига замин яратди. Бу даврнинг мураккаб ва мушкул вазиятидан келиб чиқиб, давлатнинг ролини кучайтиришга қаратилган “Кучли давлатдан – кучли фуқаролик жамияти сари” ғояси атрофида мамлакат аҳолисини бирлаштиришга қаратилган интилишлар тенденцияси кучайди. Чорак аср мобайнида бу ғоянинг амал қилиш механизмида амалий натижалар, курук ташвиқот ва авторитар шиорбозлик хусусияти кўзга ташланди.

Сиёсий тизимдаги янгиланишлар, демократик тамойилларга амал қилиш, мустақилликка эришгандан кейин, дастлаб, чорак аср давомида миллий тикланиш билан шуғулланишга тўғри келди. Эндиликда миллий тикланишдан миллий юксалишга ўтганимиздан кейин, учинчи Ренессансга эришишни давлат раҳбари стратегик вазифа этиб қўйди.<sup>1</sup> Бу эса жамият ҳаётининг барча соҳалари қаторида мафкуравий қарашларни ҳам қайта кўриб чиқиш, янги миллий мафкурани шакллантиришнинг жамиятни ислохотлар ташаббускорига айлантиришдаги амалий аҳамиятидан келиб чиқди.

Давлатимиз Президенти Ш.Мирзиёев ташаббуси билан Ўзбекистонни 2017–2021 йилларда ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси ишлаб чиқилди. Мазкур дастурда кўзда тутилган ислохотларнинг ғоявий мазмуни аввалги мафкурадан фарқ қилиб, янги шиор ва ғояларни ўртага ташлади. Авваламбор, аввалги даврга бўлган муносабатни шакллантириш, уни баҳолаш ва янги даврни ажратиш олишга қаратилган ғоялар тизими шакллана бошлади. Ўзбекистоннинг янги даврида “Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари” ғояси илгари сурилди. Бу ғоя замирида Ўзбекистоннинг миллий юксалиш даври бошланиши, уни ғоявий жиҳатдан асослашга қаратилган янги ғоялар илгари сурилади. “Биз яратаётган янги Ўзбекистоннинг мафкураси эзгулик, одамийлик, гуманизм ғояси бўлади. Биз мафкура деганда, аввало, фикр тарбиясини, миллий ва умуминсоний қадриятлар тарбиясини тушунамиз. Улар халқимизнинг неча минг йиллик ҳаётини тушунча ва қадриятларига асосланган”.<sup>2</sup>

Мафкуравий ҳодиса мазмунига нисбатан бугунги кунда умумий жиҳатдан икки хил ёндашувни кўрсатиш мумкин. Биринчи нуқтаи назар, кўп жиҳатдан, Фарбдаги ижтимоий тафаккурга хос бўлиб, у мафкурада жамиятнинг дунёқараш тузилмасига киритишни эмас, балки муайян сиёсий вазифаларни назарий асослаш тарзида кўриш хосдир. Иккинчи нуқтаи назар, мамлакатимиздаги жамиятшуносларнинг асарларида тилга олинган бундай ёндашув мафкурага ижтимоий, маданий, маънавий талқин этиш доираларини анча кенгайтиради ҳамда мафкурани жамият дунёқарашини, тафаккури билан боғланади. “Юксак мақсадлар, бунёдкор ғояларга асосланган мафкура ижтимоий-иқтисодий тараққиётга туртки бўлади, маънавиятни юксалтиради, инсонларни улугвор ишларга сафарбар этади. Озодлик, эркинлик, мустақиллик, тинчлик, ҳамкорлик ғоялари асосида шаклланган, эзгу мақсадларга хизмат қиладиган мафкура бунёдкорлик хусусиятига эга бўлади”.<sup>3</sup>

Мафкуранинг муҳим ва ўзига хос хусусиятига ёндашув унинг “ўзаги”ни тушунишдан келиб чиқади. Унинг ўзагида кишилар онги ва тафаккурида – камбағаллик, адолатсизлик, ижтимоий-иқтисодий ва бошқа тенгсизликларни бартараф этишга, халқаро терроризм ва уюшган жиноятчиликка қарши курашга кўмаклашишга қаратилган ижобий муносабатни шакллантириш ётади. Янгиланаётган Ўзбекистонда ҳар бир соҳада тубдан ислохотларни амалга ошириш, ислохотлар ташаббускори давлат эмас, балки жамият бўлиши, реал муаммоларни кун тартибига қўйиш ва уларни оқилона ҳал қилишга қаратилган кенг кўламли чора-тадбир амалга оширила бошланди. Янгиланган миллий мафкураимизнинг хусусиятларидан келиб чиқиб, айтиш мумкинки, у миллатнинг реал муаммоларни ҳал қилишдан бошланиб, у орзу қилган идеал жамият сари йўналтирилган маънавий куч сифатида тасаввур уйғота бошлади. “Бугун дунёда кескин кураш ва рақобат ҳукм сурмоқда, манфатлар тўқнашуви кучаймоқда. Глобаллашув жараёнлари инсоният учун беқиёс янги имкониятлар билан бирга қутилмаган муаммоларни ҳам келтириб чиқармоқда. Миллий ўзлик ва маънавий қад-

<sup>1</sup> Эркаев А. Учинчи Ренессанс – миллий ғоя сифатида//<https://xs.uz/uzkr/post08.09.2020>

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш. Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир. <https://president.uz/uz/lists/view/4089>

<sup>3</sup> Фалсафа қомусий луғати. Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. Тошкент, “Шарқ”, 2004, 225-бет.

риятларга қарши таҳдид ва хатарлар тобора ортмоқда. Фақат ўзини ўйлаш, меҳнатга, оилага енгил қараш, истеъмолчилик кайфияти турли йўллар билан одамлар, айниқса, ёшлар онгига устамонлик билан синдириляпти. Терроризм, экстремизм, трансмиллий ва кибер-жиноятчилик, одам савдоси, наркотрафик каби таҳдидлар хавфи ошиб бормоқда. Баъзи ҳудудларда атайин бекарорлик юзага келтирилиб, норозилик кайфияти авж олдирилмоқда».<sup>1</sup>

Мафқуранинг мазмуний “ўзагида” маънавий алоҳида ўрин тутати. Унинг асосида умуммиллий мақсад, ижтимоий идеал, маънавий қадриятлар, умр мазмуни, келажакка умид ва ишонч, тарихий хотира, ватанпарварлик, ватанпарварлик маданиятини алоҳида ажратиб кўрсатиш мумкин. Бундан – халқнинг ҳаёт даражасини ошириш ва ривожлантириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликлари билан масъулиятлари нисбатини уйғунлаштириш вазифаси келиб чиқади. Ўз навбатида, бирдамлик, бағрикенглик, келишув ва ҳамкорликка йўналганликни талаб қилади.

Мамлакат бирлигини халққа хос ватанпарварлик туйғуси, маданий анъаналар, тарихий хотира мустаҳкамлайди. У жамиятнинг ўзида пишиб етилади ва у хулқ мамлакат келажакни қандай кўришни исташидан келиб чиқади. Қарашлар, фикрлар, ғоялар хилма-хиллиги ўларок, умумий қадриятлар ҳам мавжуд бўлиб, улар халқни бирлаштириш, жипслаштиришга ёрдам беради.

Жамиятимизда маънавий тикланиш, миллий ўзликни англашда янги аксиологик моделнинг шаклланиш жараёни бормоқдаки, анъанавий ва янги қадриятларни умумлаштириш мазкур моделга мос. Мазкур жараён қадриятларни қайта баҳолаш, баҳоловчи қарашлар ва тасаввурларнинг ўзгаришлари билан боғлиқ. Миллий онг, миллий ўзликимизни англашда ҳам жамиятнинг ривожланишига мос келувчи қадриятли мақсадларни танлаб олиш юз бермоқда. Миллий қадриятлар ва стереотипларни назардан қочириш жамиятдаги ислохотлар жараёнига, маънавий ҳаётга зарар етказиши мумкин. Қатор Шарқ мамлакатларининг тарихий тажрибаси, хусусан, бизда ҳам ғарбча қадриятлар ҳамда стереотипларни юзаки ва тез қарор топтириш маъқулланмаётгани, баъзан очикдан-очик қаршиликка дуч келганлигини кўрсатмоқда. Шу боис миллий ўзликни англашга бўлган таҳдидлар масаласига мазкур мезонлар орқали аниқлик киритиш лозим. Миллий ўзликни англашга нисбатан таҳдидларнинг негизини мазкур ҳиссиётларга қарши қаратилган ватанфурушлик, ўз халқи тақдирига бефарқлик, миллат иши, миллий ислохотларга нисбатан лоқайдлик, миллий маданиятдан бегоналашув, она тилини унутиш, миллий ғурур ва ориятнинг саёзлиги қабилардан кидириш керак.<sup>2</sup>

Мафқуранинг генесеологик ва онтологик асосларини фалсафа ўрганади. Жамиятнинг маданий коди ҳукмрон фалсафий парадигмаларига таянади. Маданий коднинг аҳамияти ва меъёрларига таянган ҳолда жамият сиёсий ва ижтимоий ғояларни ҳамда муассасаларни шакллантиради. Улар, ўз навбатида, жамиятнинг меъёрлари ва қадриятларини акс эттиради. Ҳақиқий файласуфлик сиёсат ва мафқура билан чиқишмаслиги борасидаги тасаввурлар илмий қийматга эга эмас. Аксиологик жиҳатдан бетараф бўлишга уриниш шахсий эътиқодлар йўқлигини англамайди.

Бизнингча, айнан файласуфларнинг мафқуравий масалага ёндашуви долзарбдир. Ҳодиса сиёсатидаги мафқуранинг ўзи яхши ҳам эмас, ёмон ҳам эмас, ҳақиқат ҳам, ёлгон ҳам эмасдир. Структуравий “изм”чилик мактабининг вакили Луи Альтюссер мафқура “социал умумийлик”нинг таркибий қисми “тарихий нафас олиш ва ҳаёт учун зарурий муҳит” эканлигини таъкидлайди.<sup>3</sup> Мафқура фанга нисбатан бирмунча бошқача асосларга қурилган, бошқачароқ фаолият кўрсатади ҳамда бошқа вазифани адо этади. Немис социологияси ва сиёсатшунослик фани вакили П.Тепе эса “қадриятлар биан тўлдирилган мафқурасиз ҳеч қандай маданий тарараққийнинг имкони йўқлигини” таъкидлайди.

Мафқура ҳодисасининг мураккаблиги ва кўп функцияга эгаллиги тадқиқотнинг услубий жиҳатига умумлашган ёндашувни тақозо этади. Одатда, мафқуралар миллатлар ва давлатлар, турли ижтимоий-сиёсий кучларнинг ўз ғоявий тизимларини яратиш ва тарғиб қилишдан кўзлаган мақсад-муддаолари ҳамда ўз мафқуралари орқали ҳал қилиши лозим бўлган қатор вазифаларни амалга оширади.<sup>4</sup> Бошқа ижтимоий фанлардан олинган усуллар ва тамойилларни уларни танқидий тал-

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавийдир. <https://president.uz/uz/lists/view/4089>.

<sup>2</sup> Ташанов А. Бузғунчи ғояларнинг миллий ўзликни англашга салбий таъсири. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Тошкент, 2017, 14-бет.

<sup>3</sup> Альтюссер Луи. Перевод Кулиш Нина Ад Маргинем. 2005, с. 175.

<sup>4</sup> Назаров Қ. ва бошқалар. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар (қисқа изоҳли тажрибавий луғат). Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2001, 116-бет.

қин қилган ҳолда қўллаш билан биргаликда амалга оширилиши мафқуранинг намоён бўлиши ва фаолият кўрсатишининг тўла тасвирини беришга имкон яратди.

Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, мафқура ҳақида сўз кетганда, гарчи ушбу тушунчанинг кўп маънолилиги ва мавҳумлиги аниқ бўлса-да, гап, барибир, социал ҳаёт талқини тўғрисида боради. Фақат ҳокимият муносабатлари давлат, сиёсат эмас, балки инсон ва жамиятнинг ижтимоий турмушини ташкил этувчи барча нарсалар – тамойиллар, кишиларнинг ижтимоий хатти-ҳаракат меъёрлари, кадриятли мақсадлари, хом хаёллари ва тафаккур тарзи талқин қилинади. Шунинг учун мафқуравий тадқиқотдаги талқин усули етакчи усуллардан биридир.

Мафқура орқали кишиларнинг нафақат манфаатлари, балки ҳаётий иродаси ҳам амалга оширилади. Мафқуранинг, хусусан, ҳукмрон мафқуранинг қудрати буюқдир. Бироқ бу ҳукмрон синфларнинг қўлида улкан моддий куч ва маданий заҳиралар борлигидан эмас, бундай мафқуравий куч мукаддаслаштириш туфайли вужудга келади. Кишилар, аслида, уларнинг ҳаётий манфаатларига буткул душман бўлиши мумкин бўлган кадриятлар ва амалий сиёсатни қўллашга ва қонуний деб эътироф этишга мажбурдирлар. Тарихий тажриба шундан далолат берадики, “яккаҳоқимликка интилган, мутлақ ҳақиқатни даъво қиладиган мафқуранинг истиқболи йўқ. Чунки у яккаҳукмронлик ўрнатиш баробарида, ўзини бойитиб борадиган манба – фикрлар ранг-баранглиги ва қарашлар хилма-хиллигидан узилиб қолади”.<sup>1</sup>

Мамлакатимизда ҳаётимда бошланган янги даврнинг мавқуравий муаммоларини ўрганиш ва зарур таҳлилий ишланмалар яратиш файласуфлар, социологлар, маданиятшунослар, сиёсатшуносларнинг олдида катта вазифаларни қўяди. Улар ўз тадқиқотларда янги миллий мафқура масаласининг турли жиҳатларини таҳлил қилиш асосида кенг омма учун зарур хулосалар бериши лозим. Бинобарин, жамиятнинг тарихий ўтмиши ҳамда келгусидаги ривожланиш йўллари масалалари бўйича қандайдир рамзий келишувини барпо этиш асосидагина ижтимоий-маданий парчаланишни тўхташиш мумкин. Умумий мафқуравий дискурсни яратиш Янги Ўзбекистон атрофида бирлаштирувчи мафқурани сунъий йўл билан яратишга интилаётган гуруҳлар эмас, балки жамиятимизда вужудга келган давлат ва жамият, ижтимоий гуруҳларнинг ўзига хос мулоқот амалиёти бунга ижтимоий замин бўлиб хизмат қиладди.

**Bobomurodov Erkin Haitovich (TerDU professori, falsafa fanlari doktori),  
Jovliyev Jo'rabek Alisher o'g'li (Nizomiy nomidagi TDPU Termiz filial talabasi)**  
**YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY XOTIRANING O'RNI**

***Annotatsiya.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, o'z hayotining barcha sohalarini sifat jihatdan yangilash, dunyoviy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidan bormoqdaki, bunda mamlakat Konstitutsiyasi huquqiy baza, milliy istiqloq mafkurasi esa yoshlarning ma'naviy barkamolligini tarbiyalovchi asos bo'lib qoldi.*

***Аннотация.** Республика Узбекистан после обретения независимости идет по пути качественного обновления всех сфер своей жизни, построения гражданского общества на основе светского демократического государства и рыночной экономики, при этом Конституция страны стала правовой базой, а идеология национальной независимости–основой воспитания духовного совершенства молодежи.*

***Annotation.** After the Republic of Uzbekistan gained independence, it went on the path of qualitative renewal of all spheres of its life, restoration of civil society based on secular democratic state and market economy, the Constitution of the Republic of Uzbekistan became the legal base and the ideology of national independence became the basis of moral perfection of young people.*

***Kalit so'zlar:** mamlakatimiz ertasi, axborot texnologiyalari, yetuk mutaxassis.*

***Ключевые слова:** экономика нашей страны, информационные технологии, зрелый специалист.*

***Key words:** future of our country, information technology, mature specialist.*

Yoshlar masalasi hamma vaqt omma e'tiborini jalb qilib kelgan. O'zbek xalqining buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy “Menga yoshlarni ko'rsatsangiz, mamlakatimiz ertasi qanday bo'lishini aytib beraman”, deganida ming bor haq edi.

<sup>1</sup> Эркаев А. Учинчи Ренессанс – миллий ғоя сифатида.//<https://xs.uz/uzkr/post08.09.2020>.

Jahonning mashhur yozuvchisi Chingiz Aytmatov “Agar mendan hayotimizdagi eng lazozatli onlar to‘g‘risida so‘rasha, shubhasiz, yoshligimni, inson ruhining yoshligini aytgan bo‘lardim”, degan edi. Darhaqiqat, har bir mamlakat o‘ziga xos tarzda yoshlar siyosatini belgilab oladi.

Yoshlikdagi olingan bilimlar insonning butun umri davomida u bilan hamroh bo‘ladi. Yoshlar hozirgi kunda turli yot g‘oyalarga ergashmasdan, o‘z ustida ishlasa, kelajakda o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishadilar.

Hozirgi globallashtgan zamonda yoshlarga turli zararli kuchlar ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu ta‘sirler axborot texnologiyalari orqali tezlik bilan bizning hayotimizga kirib kelmoqda. Masalan, Yevropada tarqalgan “ommaviy madaniyat” oqim bizning mintaletimizga mos bo‘lmagan qarashlarni tashuvchi yot g‘oya hisoblanadi. Ushbu muhim vazifalarni amalga oshirish uchun jamiyat barcha a‘zolarining, ayniqsa, yoshlarning kuch-g‘ayratini safarbar etish talab etiladi. Madaniyat ma‘naviyatini, rivojlanishning intellektual boyliklarini bo‘lajak jamiyat a‘zolari ongiga joylash aynan yoshlarning vazifasidir. Yoshlar bunday mas‘uliyatli vazifani bajara olishi uchun O‘zbekistonda uning erkin rivojlanishi hamda mehnat faoliyati uchun qulay imkoniyatlar yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasida “Qonun bilan yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashni; yoshlarning hayoti va sog‘ligini saqlashni; yoshlarning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashishni, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta‘limni ta‘minlashni, shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharit yaratish” qayd etib o‘tilgan. Bu qonunning asosiy yo‘nalishlari esa vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishga yordamlashadigan ilmiy metodologiyani ishlab chiqishga asos bo‘ladi.<sup>1</sup>

Bunday yo‘nalish yoshlarning ma‘naviy barkamolligi, ularning ijtimoiy vazifasi to‘g‘risidagi tasavvurlarni tubdan o‘zgartirib yubordi. Jamiyatimizning ma‘naviy yangilanishi inson turmush tarzida ham, ma‘naviy barkamolligida ham chinakam global o‘zgarishlar qildi. Yangicha fikrlashga, yoshlarning ma‘naviy barkamolligini shakllantirishga yo‘l ochildi. Bu hol umumiy taraqqiyotning hamda aholi farovonligini oshirishning juda muhim sharti bo‘lgan yoshlarning umumiy malakasini oshirish masalasinihal qilishda ko‘p jihatdan ko‘maklashadi.

Xullas, mustaqillik yillarida bosib o‘tgan yo‘limiz bizni insoniylik ruhi bilan sug‘orilgan, bozor munosabatlariga asoslangan fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlatni faqat ilg‘or ma‘naviyatning mustahkam poydevori negizida qurish mumkinligi to‘g‘risida xulosa chiqarishimizga asos beradi.

Xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqalarga hech o‘xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o‘zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo‘ladigan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘ramiz. Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma‘no-mazmun bilan boytadigan va to‘ldiradigan tushunshalarni olaylik. Bu tushunchalar kimdir shunchaki o‘ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so‘zlar emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma‘naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ong-u shuurimizdan chuqur joy olgan ezgu qadriyatlarining amaliy ifodasidir.

Masalan, muqaddas odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo‘lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko‘rish mumkin. Bu, avvalo, insonning inson bilan, qo‘shnining qo‘shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg‘un bo‘lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko‘rsatish, sidqidildan beg‘araz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning, jumladan, yoshlarimizning ma‘naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi.

Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepoyon mintaqada qanday hamjihat bo‘lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo‘lsa, bugun ham, ta‘bir joiz bo‘lsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o‘zi bizni – butun O‘rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do‘stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da‘vat etmoqda.

Darhaqiqat, ma‘naviyat millatning, jamiyatning o‘tmishi, buguni, albatta, kelajagiga daxldor soha. U insonni aqliy, ruhiy, axloqiy anglab e‘zozlashga yo‘llaydi. Ma‘naviyatning cheksiz imkoniyatlari tufayli inson akl-zakovati, vujudi, ruhi, salohiyati oliyjanob fazilatlarda barqarorlashadi.

---

<sup>1</sup> Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. “Xalq so‘zi”, 2016, 15-sentabr.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyat ma'naviy sohasidagi o'zgarishlar va islohotlar jarayoni uning boshqa sohalariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Xalqimiz ishonib yashashga, kelajakka umid bilan boqishga odatlangan. Ma'naviy-mafkuraviy munosabatlar ana shu umid va ishonchlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

O'zbekiston ijtimoiy hayotining barcha sohalaridagi o'zgarishlar, ularning natijadorligi kishilar, ayniqsa, yoshlarning vatanparvarlik g'oyasiga ta'sir etmay qolmaydi. Uning o'zgarish mexanizmini vatanparvarlik g'oyasining vujudga kelishi hamda shakllanishi xususiyatlarini aniqlagandagina ochib berish mumkin. Muammoni moziyga qaytib ko'rib chiqish yoshlarning yangi siyosiy tafakkuri vujudga kelishi sarchashmalarini, uning milliy tiklanish jarayonlarini intensivlashtirish, ma'naviy bo'shliqni xalqona an'anaviy mazmun bilan to'ldirish jarayonini tushunish imkonini beradi. Mustaqillik sharofati bilan xalqimiz ma'naviy zug'umlardan ozod bo'ldi, erkin fikrga, milliy tiklanishga yo'l ochildi. Jamiyat ma'naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning yo'nalishlari belgilab olindi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning, jumladan, yoshlarimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu – tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullas, Vatanning tarixini bilishni istaydi.

Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozil-u fuzalolar, olim-u ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'rk-u fayzini, mahobatini yo'qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shahar-sozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan eng qadimgi tosh-yozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin, deb dadil ayta olamiz.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi.

Chunki jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch – ma'rifat. Bunga dalil sifatida asrimiz boshida Turkistonda kechgan voqealarni bir eslashning o'zi kifoya. U o'lkada o'sha yillari ma'rifatchilik harakati har qachongidan ham kuchayib ketdi? Buning boisi chor Rossiyasi asoratiga tushib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o'lkani uyg'otishga, xalqning ko'zini ochishga faqat ma'rifat orqaligina erishish mumkin edi. Ma'rifatparvarlik biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qotmaydi ham. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi.

Tarixni yaxshi bilmasdan turib, yuksak ma'naviyatga erishish mumkin emas! Ma'naviyatini tiklashi, tug'ilib-o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak. Shunday ekan, bugun biz, yoshlar to'g'ri tarbiya olib, Vatanimizning baxtli kelajagi uchun kurashda fidoyilik ko'rsatishimiz zarur.



Бобокалонов Одилшоҳ (БухДУ тадқиқотчиси,  
Табиий йўналишларда Чет тили кафедраси ўқитувчиси)  
**ШИФОБАХШ ЎСИМЛИКЛАР ТЕРМИНОЛОГИЯСИНИНГ  
ЎРГАНИЛИШИ ВА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ**

**Аннотация.** Мазкур мақола шифобахш ўсимликлар терминологиясининг ўрганилиши, тарихий бошқичлари, халқ таъобатида қўлланила бошлагани, жаҳон ва ўзбек олимларининг шифобахш ўсимликлар дунёси хусусидаги назариялари ҳақида фикр юритилади.

**Аннотация.** В данной статье речь идёт об изучении терминологии лекарственных трав, исторических этапах этого процесса с момента начала применения трав в народной медицине, мнения мировых и узбекских ученых об особенностях мира лекарственных трав.

**Annotation.** This article discusses the study of the terminology of medicinal plants, its historical stages, its application in folk medicine, the theories of world and Uzbek scientists on the world of medicinal plants.

**Калим сўзлар:** бейр, жаъмун, жавзи буё, кавал какрий, канейр, кунор, норанж, чампа каби ўсимликлар, наботот ва жониворшунослик, физиологик таъсир, биологик фаол моддалар.

**Ключевые слова:** бейр, жаъмун, жавзи буё, кавал какрий, кунор, норанж, чампа (названия трав), растительный и животный мир, физиологическое воздействие, биологически активные вещества.

**Key words:** plants as beyr, jamun, javzi buyo, kaval kakriy, kaneyr, kunor, noranj, champa, botany and zoology, physiological effects, biologically active substances.

Маълумки, ўсимликлар олами табиат бойликларидан бири саналади. Биз яшаётган жонли табиатни ўсимликлар дунёсисиз тасаввур эта олмаймиз. Шифобахш ўсимликлар ўз таркибида инсон организмига киритилганда физиологик таъсир кўрсатадиган биологик фаол (хаётий зарур) моддалар сақлайди.

Мамлакатимизда сўнгги йилларда доривор ўсимликларни муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, доривор ўсимликлар етиштириладиган плантациялар ташкил этиш ва уларни қайта ишлаш борасида изчил ислохотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, 2020 йил 10 апрелда қабул қилинган “Ёввойи ҳолда ўсувчи доривор ўсимликларни муҳофаза қилиш, маданий ҳолда етиштириш, қайта ишлаш ва мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги<sup>1</sup> ҳамда “Ўзбекистон Республикасида халқ таъобатини ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан қабул қилинган қарори мазкур соҳага бўлган эътиборни яна-да кучайтирди.<sup>2</sup>

Инсоният ўсимликлар олами билан узвий боғланган. Ўсимликлар олами инсонни едириб-ичиради, кийинтиради, ҳавони поклаб беради, гўзал манзаралар яратади. Ўсимликларнинг серхосият томонларини санаб интиҳосига етиш қийин. Ўсимликларнинг энг ажойиб хоссаларидан бири бу уларнинг шифобахшлигидир. Инсоният қадим-қадим замонлардан буён ўсимликларнинг шифобахш хусусиятларидан баҳраманд бўлиб келган. Ибтидоий жамоа даврларида одамлар ўз дардларига даво излаб, аввало ўсимликлар оламига ҳамда ҳайвонот маҳсулотларига интилар эдилар. Дастлаб, инсон учун ўсимлик мевалари, илдиз, илдиз мевалари, шунингдек, ҳайвон маҳсулотлари озиқ-овқат вазифасини ўтаган. Илгари ўсимликларнинг шифобахшлиги тасодифан топилган бўлса, кейинчалик, улар ҳаётий синов ва кузатишлардан ўтгач, халқ таъобатида қўлланила бошлаган.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020 йил 10 апрелдаги ПҚ-4670-сонли “Ёввойи ҳолда ўсувчи доривор ўсимликларни муҳофаза қилиш, маданий ҳолда етиштириш, қайта ишлаш ва мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. “Халқ сўзи”, 2020 йил 11 апрель. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.04.2020, 07/20/4670/0414-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 08.10.2021, 06/21/6320/0940-сон.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020 йил 10 апрелдаги ПҚ-4668-сонли “Ўзбекистон Республикасида халқ таъобатини ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. “Халқ сўзи”, 2020 йил 11 апрель. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.04.2020, 07/20/4668/0412-сон.

Эрамиздан II аср олдин «Тананинг ҳамма бўлимларига таъсир этувчи моддаларни тайёрлаш» деган асар ёзилган, унда қадимги Эберс папирусда ўша давр ўсимликларининг шифобахшлиги тўғрисида маълумот берилган. Қадимги Мисрда ҳар хил ўсимликлардан тайёрланган хушбўй мойлар, бальзамлар, алой, баргизубнинг шифобахш таъсири маълум бўлган. Хитойда женьшень ҳамда буғу шохидан олинадиган пантларга катта аҳамият берилган. Қадимги будда тиббиётининг ажойиб ривоятларида шундай дейилган: «Дармон излаган табиб нигоҳи билан оламга назар солинса, дори-дармонлар оламида ҳаёт кечираётганимизни билиш мумкин». Оламда дори сифатида ишлаб бўлмайдиган биронта модданинг ўзи йўқ, деса бўлади. Машҳур юнон табиби Букрот (эрамиздан олдинги 460–377 йиллар) ўзининг «Корпус Хипократикум» асарида тиб илмига, жумладан, дори-дармонларга оид кўп маълумотлар келтирган, унинг асарларида доривор ўсимликларнинг 236 таси тасвирланиб, уларнинг хусусиятлари баён этилган.

Римнинг энг машҳур табиби ва табиий фанлар билимдони Гален (Жолинух ҳақим, эрамизнинг 130–200 йилларида яшаган) ажойиб фалсафий иборани айтган: «Ўсимлик ва ҳайвонот оламидан олинган ҳар бир модданинг фойдали тарафи бор. Уни ишлатиш лозим ҳамда зарарли тарафи бор. Уни олиб ташлаш лозим». Гален ўз даврида ўсимликлар тўғрисида 2 та китоб ёзган, бу китоб лотин, араб, форс ва қадимги Европа тилларига таржима қилинган.

Қадимги ҳинд табиби Сушрута (IV аср) ўзининг оламшумул «Аюрведа» асарида 700 дан ортиқ шифобахш ўсимликларни келтирган, уларнинг кўпчилиги ҳозирги кунда ҳам ҳинд тиббиётида қўлланиб келинмоқда. Ўз даврининг машҳур табиблари Абу Али ибн Сино, Абу Бакр Муҳаммад ибн Зақария ар-Розий, Арабмуҳаммад ўғли Абдулғозихон, Исмоил ал-Журжоний ва бошқалар беморларни даволашда доривор ўсимликлардан кенг қўламда фойдаланганлар.

Халқимиз энг қадимги даврлардан бошлаб, ўсимликларнинг хосиятини билишга ҳаракат қилишган ва улардан турли касалликларни даволаш учун фойдаланишган. Абу Али ибн Сино, Абу Бакр ар-Розий, Абу Райҳон Беруний каби буюк алломаларимиз беморларнинг дардини шифобахш ўсимликлар билан даволашга ҳаракат қилишган. Ўрта Осиё, Кавказorti, Эрон, Афғонистон, Миср, Кичик Осиё ҳудудларида яшовчи халқлар бундан, тахминан, 5–6 минг йил муқаддам ҳам ўз ҳудудларидаги ўсимликларнинг тарқалиши, ўсиши ва хусусиятлари билан қизиқишган.

Абу Райҳон Беруний (973–1048)нинг “Хронология”, “Ҳиндистон”, “Геодезия”, “Минерология”, “Масъуд қонуни”<sup>1</sup> каби китобларини мутолаа қилар эканмиз, асарларда ўша давр тарихи, маданияти, ҳайвонот ва наботот олами ёритилган. Айниқса, унинг умрининг сўнгги йилларида Маҳмуд Ғазнавийнинг вориси Маъдуд султонлиги даврида 1048 йилда ёзилган, доривор ўсимликлар, ҳайвонлар ва маъданлар тавсифига бағишланган “Китоб ас-Сайдана фи-т тибб”<sup>2</sup> асари диққатга сазовордир. Мазкур “Сайдана” асарида маълум доривор ўсимликларнинг бир неча тилларда қандай номланишини баён қилиш билан бирга, ҳар қайси тилдаги маҳаллий номланишига ҳам катта ўрин беради.

Абу Али ибн Сино (980–1037)нинг “Тиб қонунлари” ва “Китоб уш-шифо”<sup>3</sup> каби асарларида эса Ўрта Осиёда ўсадиган кўплаб доривор ўсимликларни аниқ кўрсатиб, уларнинг шифобахшлик хусусиятларини тасвирлаб берганлигини кузатиш мумкин.

XV – XVI асрларда яшаб ўтган, тарихда ўчмас из қолдирган, ўсимликлар олами ҳақида ҳам унча-мунча ботаник олимлардан қолишмайдиган маълумотларни берган Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳам ўсимлик ва ҳайвонот оламининг ранг-баранглигини назардан четда қочирмаган. “Бобурнома”дек қомусий асар муаллифи ўзининг кенг қамровли билимини шу асар орқали исботлади. Аввало, бу асар ўз даврининг мислсиз насри намунаси ҳисобланади. Сўнгра “Вақоеъ” (“Бобурнома”)ни биз адабиётшунослик, тилшунослик, элшунослик, наботот ва жониворшунослик (зоология), тоғ-қоншунослик, санъатшунослик, ахлоқшунослик, тарихшунослик. асари сифатида мароқ билан тадқиқ этишимиз мумкин.

<sup>1</sup> Ўлмасов С., Очилов Н. Абу Райҳон Беруний – қомусий олим. Монография. Т., «Фан ва технология», 2013, 60-бет; Абу Райҳон Беруний. Танланганлар асарлар. Т., “Фан”, 1973; Хидиров А. Абу Райҳон Берунийнинг тарихий асарлари ва уларнинг Ўзбекистонда ўрганилиши. “ЎЗМУ хабарлари”, 2002, 3-сон.

<sup>2</sup> Маматов Б.Ю. Абу Райҳон ал-Берунийнинг «Китаб ас-Сайдана фи-т-тибб» китобининг замонавий дори-шуносликдаги ўрни ва аҳамияти. Архив исследований, 2020.

<sup>3</sup> Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. 1–5-китоблар. Тошкент, “Фан”, 1979–1983 йилларда нашр қилинган; ибн Сино шифобахш ўсимликлар ҳақида (тузувчи А.С.Мадраҳимов). Тошкент, “Меҳнат”, 1990; Абу Али ибн Сино. Сирли табобат. Тошкент, “Насаф”, 2009.

Бобур наботот – ўсимликшунослик илмида биринчи бўлиб айрим дарахт ва ўсимликларнинг икки жинслилигини қайд этди. Шунингдек, Бобур хурмони (унинг икки жинсли эканидан беҳабар эди) ҳайвонга ўхшатади: “Бири улким, нечукким, ҳайвон бошини кесурлар. Хурмо дарахтига ҳам нор (эркак) хурмони шохини келтуриб, тегирмасалар, яхши бар бермас” деб ёзган. Ҳиндистонда ўсадиган нағзак (манго), банан, бадҳал (нон дарахти), бейр (анжир), жаъмун (қалампирмунчок), жавзи буё (мускат ёнғоғи), кавал какрий (нилуфар), канейр (самбитгул), кунор (чилонжийда), норанж (апельсин), наргил (кокос палмаси), тинду (оқ сафсон меваси) ва чампа (ёсуман) каби ўсимликлар номи ҳам илк бор “Бобурнома”да келтирилган.<sup>1</sup>

Адабиётшунослик илмининг энг қийин соҳаси аруз бўлса, у арузга оид тадқиқоти – “Муфассал” билан барча арабу форс, туркий адабиётшунослардан ўзди. Агар Аҳмад Тарозий “Фунун ал-балого”да юзтача атрофидаги вазни тадқиқ этган бўлса, Бобур ўз рисоласида 536 вазни кўрсатиб берди.

Шунингдек, француз олимлари Раймонд Арвейе (Raymond Arveiller), Жюль Феллер (Jules Feller), Пиер Гарние (Pierre Garnier), Жан Сегий (Jean Séguy) Пиер Авенас (Pierre Avenas), Анриет Валтер (Henriette Walter), Франсуа Куплан (François Couplan), инглиз олимлари Урс Эггли (Urs Eggle), Леонард Э.Ньютон (Leonard E. Newton), Давид Гледхил (David Gladhill), Чичелей Пловден (C. Chicheley Plowden), Анна Паворд (Anna Pavord) италян олимлари Умберто Куотричи (Umberto Quattrocchi), ҳамда рус олимлари Олга Рубцова, И.С.Куликова, О.А.Корнилов, Л.Ф.Пуцилева, Г.Н.Скляревская, В.А.Козирев, В.Д.Черняк, П.Н.Денисов каби тилшунос, терминшунос олимлар икки ва ундан ортик ноқардош турли тизимли тиллар доирасида терминларнинг ўзаро хусусиятларини ўрганган, шунингдек, шифобаш ўсимликлар дунёси хусусида ўз назарияларини беришган.

Бугунги кунда ҳам юртимизда шифобахш ўсимликларга бўлган қизиқиш каттадир. Шифобахш ўсимликлар билан нафақат биолог ва зоологлар, табобат илми соҳиблари, балки тилшунос олимлар ҳам қизиқиб, турли рисолаю дарсликлар ёзишган, луғатлар тузишган. Жумладан, А.Усмонхўжаев, Э.Баситханова, Ў.Пратов, А.Джаббаровларнинг “Ўзбекистонда ўсадиган шифобахш ўсимликларнинг этимологик замонавий энциклопедияси”,<sup>2</sup> Д.Ёрматованинг “Ўсимликшунослик”,<sup>3</sup> Н.Ўлжабоеванинг “Халқ табобати хазинасидан жавоҳирлар”,<sup>4</sup> С.Муҳаммадзонов, Ф.Жонгузаровларнинг “Ўсимликшуносликка оид русча-ўзбекча изоҳли луғат”,<sup>5</sup> С.Саҳобиддиновнинг “Қисқача русча-ўзбекча ботаника терминлари луғати”,<sup>6</sup> Ў.Пратов, М.Набиев “Ўзбекистон юксак ўсимликларининг замонавий тизими”ни мисол келтириш мумкин.<sup>7</sup>

Хулоса қилиб айтганда, жаҳон тилшунослигида тиллараро муносабатлар, уларнинг бир-бирига таъсирини комплекс ҳолда тадқиқ этиш ишлари бир неча асрлардан буён олимлар олдида кун тартибида турган энг долзарб тадқиқотлар сарасига киради. Айниқса, терминларнинг тиллараро чоғиштириб ўрганилиши, уларнинг композицион жиҳатлари каби масалалар юзасидаги тадқиқотлар алоҳида аҳамият касб этади. Тилшуносликнинг лексик қатламини ҳосил қилувчи терминологиянинг лингвистик аспекти тўғрисидаги изланишлар, терминшунослик соҳасидаги янги илмий-назарий қарашларнинг пайдо бўлиши, мазкур соҳадаги жумбоқларнинг ечимини топиш долзарблиги кенглигидан, ўрганилиши эса тил қурилишининг моҳиятини англаш учун ғоят муҳимлигидан далолат беради.

<sup>1</sup> Бобур З.М. Бобурнома. Т., “Юлдузча”, 1989; Норкулов У., Султонов Х., Низомова М., Шодиева З. Доривор ўсимликларнинг турлари ва уларнинг маҳаллий, илмий номлари. Услубий қўлланма, Тошкент, 2013.

<sup>2</sup> Усмонхўжаев А., Баситханова Э., Пратов Ў., Джаббаров А.. Ўзбекистонда ўсадиган шифобахш ўсимликларнинг этимологик-замонавий энциклопедияси. Т., «Янги аср авлоди», 2018, 544-бет.

<sup>3</sup> Ёрматова Д. Ўсимликшунослик. Касб-хунар коллежлари учун дарслик, Т., “Шарқ”, 2002, 151–157-бетлар.

<sup>4</sup> Ўлжабоева Н. Халқ табобати хазинасидан жавоҳирлар. Т., «Янги аср авлоди», 2009, 1135-бет.

<sup>5</sup> Муҳаммадзонов С., Жонгузаров Ф. Ўсимликшуносликка оид русча-ўзбекча изоҳли луғат. Т., “Мехнат”, 1989, 320-бет.

<sup>6</sup> Саҳобиддинов С.С. Қисқача русча-ўзбекча ботаника терминлари луғати. Т., Ўқув пед дав. нашр., 1954, 158-бет.

<sup>7</sup> Пратов Ў.П., Набиев М.М. Ўзбекистон юксак ўсимликларининг замонавий тизими. Т., “Ўқитувчи”, 2007.

**Исломов Дилшод Шомуродвич (БухДУ таянч докторанти)**  
**ФРАНЦУЗ ТИЛИ ФОНЕТИКАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ**

***Аннотация.** Мазкур мақолада энг асосий мулоқот жараёни тил ва дунё тиллари ҳақида сўз боради. Шунингдек, дунёда энг ривожланган тиллардан бири француз тили фонетикасининг ўзига хос хусусиятлари, француз тилидаги унли ва ундош ҳарфлар, унли ва ундош товушлар ҳақида фикр юритилади.*

***Аннотация.** В статье речь идёт о процессе языкового общения и языках мира. Также говорится о фонетических особенностях одного из самых распространённых языков-французского, о гласных и согласных буквах и звуках этого языка.*

***Annotation.** This article discusses the most important communication process of language and world languages. It also deals with the peculiarities of French phonetics, one of the most developed languages in the world, vowels and consonants in French.*

***Калим сўзлар:** ҳарф ва товуш, унли, ундош, соф ва бурун товушлар, дидактик белги, лисоний қобилият, дискриминация, фонетик транскрипция, ассимиляция, артикуляция.*

***Ключевые слова:** буква и звук, гласный, согласный, чистые и носовые звуки, дидактический знак, языковые способности, дискриминация, фонетическая транскрипция, ассимиляция, артикуляция.*

***Key words:** letter and sound, vowel, consonant, pure and nasal sounds, didactic sign, linguistic ability, discrimination, phonetic transcription, assimilation, articulation.*

Тил энг асосий мулоқот жараён бўлганлиги сабабли, оламни билишда биз унга тўғридан-тўғри мурожаат қиламиз. Тил инсонлар учун ўта муҳим омил ҳисобланади. Инсоннинг билиш қобилияти унинг лисоний қобилияти билан ҳамоҳангдир. Тил менталитет, анъана ва одатларни ҳамда ўзига хос оламни тушуниш усулини айнан тил орқали қабул қиладиган инсонни шакллантирувчи куролдир. Қолаверса, “Инсон тили бениҳоя мураккаб бўлиб, унинг барча жиҳатларини яхлитлигича ва бирданига тасаввур қилиш ўта мураккабдир. Шундай бўлса-да, дунё тилшунослиги тарихидаги бир неча асрлик тажрибалар турли оқим намояндалари тилни тадқиқ этиш энг мақбул йўл ҳисоблаб, бу йўлда ўрганиш объектини ва унинг моҳиятини аниқ кўрсатиб бериш учун бутун умрларини сарфлаганларини кўрсатади”.<sup>1</sup>

Маълумки, дунё халқлари турли тилларда сўзлашишади, тиллар эса бир жойда тўхтамайди, чунки инсон онгининг тобора ривожланиб борар экан, унинг дунёқараши, фикри, нуқтаи назари, тафаккур доираси ҳам такомиллашиб боравериши баробарида, тил жуда тез ривожланади.

Дунёда жами беш мингдан ортиқ тил ва шева мавжуд бўлса, ҳозирга қадар шундан беш юзга яқин тил ўрганилган бўлиб, ҳар уч тилдан биттасининг ёзуви мавжуд эмас, фақат оғзаки нутқ шаклига эга, холос.

Француз тили дунёда энг ривожланган тиллардан бири ҳисобланади. Дунёнинг энг романтик тили деб ҳисобланган француз тили Франциянинг давлат ва миллий тили, шунингдек, француз тили фламанд тили билан биргаликда, Бельгиянинг ва италян ҳамда немис тиллари қатори Швейцариянинг ҳам давлат тили саналади. Бундан ташқари, ушбу тилда Канаданинг бир қисми, Африканинг Жазоир, Мавритания, Марокко, Гвинея, Судан, Ливия каби бир неча мамлакатларида тарқалган. Демак, француз тили роман тиллари гуруҳига кириб, Франциядан ташқари, Белгия, Канада, Руанда, Камерун, Конго, Кот-д’Ивуар, Мадагаскар ва Гаити каби мамлакатларда асосий тил сифатида ишлатилиши билан биргаликда, дунёнинг бошқа бир қанча давлатида кенг микёсда фойдаланилади.

Маданиятлараро алоқалар дискурсида дунё тиллари қаторида лингва франка мақомини эгаллаган француз тилининг мамлакатимизда ҳам ўрганишга бўлган қизиқиш тобора ортмоқда. Хорижий давлатлар билан турли соҳалардаги алоқаларни ривожланиши, давлатимизнинг миллий тараққиёт босқичида дунё ҳамжамиятига интеграллашуви, табиийки, тараққий этган давлатлар тилини ўқиб ўрганиш давр тақозосидир.

Юқорида эътироф этган дунёдаги энг нафис, чиройли ва романтик тил ҳисобланган француз тили ҳақида, француз тили фонетикасининг ўзига хос хусусиятлари тўғрисида сўз юритар экан-

---

<sup>1</sup>Жўраева М.М. Француз ва ўзбек тилларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Дисс.филол. фанлари док., Т., 2017, 233-бет.

миз, мазкур роман тиллари гуруҳига кирган ва бу гуруҳга испан, итальян, португал, румин ва молдован тиллари бўлган, хорижий тил саналган француз тилини ўрганиш лозим, қолаверса, француз тили ўзининг морфологик, синтактик, шу маънода лексик-фонетик, лексик-грамматик, лексик-семантик, лексик-фразеологик, структур-семантик, лексик-дериватив, прагмалингвистик, когнитив-дискурсив, коммуникатив-когнитив, универсал ва дифференциал тамойиллари, тавсифий-таснифий белгилари, полисемия, омонимия, вариативлик қонуниятлари гендер, этнопсихологик, социоллингвистик, этномаданий хусусиятлари, лингвомаданий терминосфераси, мантикий-концептуал қиймати билан тилшуносликнинг инновацион тараққиёт истиқболларини белгилаш учун муайян даражада хизмат қилади.

Тилшуносликнинг бўлими фонетика ҳақида фикр юритар эканмиз, фонетика мазмун билан эмас, балки товушли лингвистик ифодага боғлиқ, шунинг учун таҳлил грамматика ва луғатдан келиб чиқади. Тилнинг барча товуш элементлари – тил товушларини, уларнинг бирикмалари ва модификацияларини ўрганадиган фан саналади. Шунинг учун у баъзан мулоқот қилиш учун ишлатилса ҳам, одамлар томонидан ишлаб чиқарилган бошқа товушларни истисно қилади. Барча грамматик тилшунос олимлар ҳам, аввало, тилнинг фонетик жиҳатини ўрганган, тилнинг барча товушлар, уларнинг бирикмалари ва модификациялари, шунингдек, нутнинг шаклланишига ёрдам берадиган турли омиллар каби товуш элементларини ўрганиш муҳимлигини айтади.

Маълумки, фонетика жуда қадимий фан ҳисобланади, унинг фан сифатида вужудга келиши илмий, тарихий ва қиёсий тилшуносликнинг ривожланиши туфайли 19-асрнинг ярмига тўғри келади. Фонетиканинг пайдо бўлиши ҳам махсус техниканинг ривожланиши билан боғлиқ бўлиб, унинг ёрдамида биринчи марта нутқ товушларини илмий ўрганиш мумкин бўлган.

Жан Пьер Руссолот – француз фонетик олими, Société des Parles de France асосчиси, у экспериментал илмий фонетиканинг етакчиси, у ёзиб олиш асбобларини ишлаб чиқади ва нутқнинг фонетик ўзгаришларини экспериментал усулда ўрганишни ҳам таклиф қилади.

А.Мартинетнинг фикрича, тил икки хил даражада намоён бўладиган қўш артикуляция билан тавсифланади: “Фонетика – бу, биринчи навбатда, ифода мазмунини ўрганадиган фан. У нутнинг турли элементларининг акустик таркиби ва физиологик келиб чиқишини кўрсатади”.<sup>1</sup>

17-асрдан 19-асргача француз тилини ўргатишда грамматика ва таржимага аҳамият берилган бўлса, бу даврда фонетика ўқитувчилар фикридан четда олган. “Халаро фонетик алифбонинг ривожланиши ва унинг 1880–1890 йиллардаги баҳс-мунозаралари туфайли фонетика ҳақиқатан ҳам таълимга кириб келди ва шу вақтдан бери у ёки бу ўринни эгаллади”.<sup>2</sup>

Фонетикани ўқитишга қизиқиш ва мулоҳаза, айниқса, 19-асрнинг охиридан бошлаб, француз тилини ўқитишда бевосита методология амалга оширилган пайтдан бошлаб ривожланди. Тўғридан-тўғри методология контекстида талаффузда раволик ёзма коднинг ҳар қандай тақдими учун зарурий шарт деб ҳисобланган. Ўқувчиларга фонетик диктант, эшитиш дискриминацияси ҳамда фонетик транскрипция каби машқлар ўргатилади. Бу методика фонетик кўникмаларни эгаллашнинг биринчи босқичи сифатида кўзда тутилган.

Француз тили ва унинг фонетикаси тўғрисида гапирадиган бўлсак, “француз тилида 26 та ҳарф бўлиб, шундан олтитаси унли ва йигирматаси ундош товушлардир. Товушлар сони ҳарфлар сонига қараганда кўпроқ, 35 тани ташкил қилади”.<sup>3</sup> Шундай экан, мазкур тилда ҳарф билан товушнинг аниқ фарқини англаш, билиш ва тўғри тасаввур қилиш лозим бўлади. Чунки, биламизки, бир ҳарф турли товушни ифода этиши, бир товуш эса ёзувда турли ҳарфлар билан ифодаланиши мумкин. Бу эса, албатта, ҳарфларнинг бошқа ҳарфлар олдида қандай келишига ва қандай белгилар билан ифодаланишига боғлиқ бўлади. Қуйида сиз француз тилидаги унли ва ундош ҳарфлар, ҳарф бирикмалари, унли ва ундош товушларни ҳамда уларга доир мисолларни кўришингиз мумкин:

Француз тилидаги унли ҳарфлар қуйидагилар: *a, e, i, o, u, y*.

Француз тилидаги ундош ҳарфлар қуйидагилар: *b, c, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, z, w*.

Соф унли товушлар: *i, e, ε, a, o, и, y, ø, э, ое, ə*.

<sup>1</sup> P.Leon. (1992). Phonétisme et prononciations du français, Nathan, Coll.

<sup>2</sup> Elisabeth GUIMBRETIERE (1994). Phonétique et enseignement de l’oral. Didier/HATIER.

<sup>3</sup> Алиқулова Д.А., Жўрабоева Д.А. Француз тили дарслиги. Тошкент, 2003.

(унли товушлар – оғиз ва оғиз бўшлиғида ҳеч қандай тўсикка учрамай ҳосил бўладиган, таркиби овоздан иборат (шовқин деярли иштирок этмайдиган) товушлар. Ҳар бир тил ўзига хос унлилар тизимига эга. Унли товушлар сони турли тилларда турличадир.

Товушлардан 16 таси унли товушлар, улардан 4 таси бурун товушлар бўлиб, уларнинг тўғри талаффуз этилиши учун махсус фонетик белги-транскрипция билан ифодаланиб, қавс ичида берилади. Бурун орқали талаффуз қилинишини инобатга олиб, улар бурун товушлари дейилади: [ā], [æ], [Ō], [Ě].

Француз тили унли товушлари доим аниқ ва равон талаффуз қилинади. Фақат, [ə] caduc – кучсиз ўқиладиган “e” ҳарфи бундан мустасно.

Унлилардаги чўзиқлик белгиси транскрипцияда [:] белги билан ифодаланади.

Товуш пайчаларининг иштирокига кўра, ундошлар уч хил бўлади: жарангли, жарангсиз ва сонор ундошлар.

Жарангли: [b, d, g, v, z, ʒ].

Жарангсиз: [p, t, k, s, f, ʃ].

Сонор: [m, n, l, r, j, w, ŋ, ɥ].

Француз ундош товушлари аниқ, талаффуз қилиниб, сўз охиридаги жарангли ундошлар ўзбек тилидан фарқли ўларок, жарангсизланмайди.

Француз тилида бир ва бир нечта ҳарфлар бирикиб, бир товушни беради, турли вазиятларда келишига қараб ўзгаради. Аксинча, сўздаги биргина ҳарф бир неча хил товушни бериши мумкин. Қуйида француз тилидаги ҳарф бирикмаларини кузатишингиз мумкин. Масалан,

**e, es (бир бўгинли сўзларда) ei, ai** – “e” – *la neige, beige, claire, le mai, le français, la monnaie, er, ez* (сўз охирида) – “e” – *parler, commencez, aimer;*

**ch** – “ʃ” – *la chaise, chercher, cacher, chemise, le chat, le chocolat;*

**ou** – “u” – *bonjour, la cour, la journée, l’amour, autour, louer;*

**o, au, eau** – “o” – *une auto, beau, chaud, le chapeau, le drapeau, le mot;*

*e* (очиқ урғусиз бўгинда), **eu, oeu** – “ø” – *de, le coeur, la soeur, deux, que, l’acteur, le lecteur;*

**f, ph** – “f” – *la photo, la phrase, le téléphone, fidèle, la biographie;*

**i+ унли, il, ail, ill** – “y” – *la fille, la famille, le soleil, le travail, le chien;*

қоидадан истисно – **mille, ville, tranquille** + мазкур сўзларнинг оиладош сўзлари;

**gn** – “ŋ” – *la montagne, la campagne, peigner, signe;*

**oi** – “wa” – *voir, le miroir, trois;*

**i, y, î** – “i” – *type, ici, midi;*

**h** – ёзувда бор, талаффузда йўқ, h ҳарфи талаффуз қилинмайди: *l’habit, habiter, l’ectare, les habitants, Victor Hugo, l’hymne, l’hotel, haut, héros!*

Бурун товушларни талаффуз қилиш учун нутк, органлари [ā] товуш талаффузига мослаштирилади. Сўнгра танглай пардаси туширилади ва ҳавонинг бир қисми бурун бўшлиғи орқали ўтиб, ҳосил бўлаётган товушга бурун оҳангини беради, бир қисми эса оғиз бўшлиғидан чиқади.

**en, em, an, am** – [ā] *dans, danser, la chamber, ensemble, emporte, prendre;*

**on, om [Ō]** – *bon, le bonbon, le concombre, le charbon, sombre, prononcer.*

Бу бурун товушни талаффуз қилишда, тил учи орқага тортилади, лаблар доира шаклига келтирилиб, куч билан олдинга чўзилади. Танглай пардаси туширилиб, нафас чиқарилганда, ҳавонинг бир қисми бурун ва бир қисми оғиз бўшлиғидан чиқади.

**un, um [æ]** – *brun, Lebrun, le parfum, lundi, chacun, un.*

Бу товушни талаффуз қилиш учун тил учи пастки тиш милкларига тиралади, ўрта қисми эса қаттиқ, танглай томон кўтарилади. Лаблар бироз олдинга чўзилиб, доира шаклига келтирилади ва танглай пардаси туширилади. Ҳаво оқими бир пайтда ҳам оғиз, ҳам бурун бўшлиғидан ўтади, натижада унли бурун товуши ҳосил бўлади.

**in, im, ein, ain, yn, ym [Ě]** – *un sapin, le matin, simple, le pain, la main, le train, le peintre, le magasin, le syndicat, le symbole, le grain, le cousin, impossible.*

Бу бурун товушни талаффуз қилиш учун нутк, органлари талаффузига мослаштирилади, танглай пардаси туширилади ва нафас бир меъёрда бурун ва оғиз орқали чиқарилади.

Эслатма, агар ундош иккиланса, сўз женский родда бўлса, бурун товуш йўқолади: *monotone, Sorbonne, bonne, colonne, astronome, diplomе, caravane, pleine, cousine, graine, magazine, jaune, l’usine, brune, la plume, Suzanne.*

Француз тилида кўп ҳарф, ҳарф бирикмалар сўз охирида талаффуз қилинмайди (бошқа тилдан кириб келган сўзлардан ташқари): *d, t, s, b, p, x, g, z, e, es, ds, ps, gt, ts ...*

*un renard, des enfants, les fleurs, vingt, les champs, le temps, beaucoup, deux, des salles, les bananes, des animaux, belle, les amis, vous, vers, le chat, les chansons, les étudiants, des canards, doux, la rue, musique, des tableaux, il court.*

- *r, l, f, c* ҳарфлари сўз охирида талаффуз қилинади: *tour, jour, cerf, bref, quel, bol, avec, Luc, journal, manuel, neuf, mineur, toujours.*

Француз тилида *орфографик белгилар, яъни дидактик белгилар* мавжудки, улар товушларни кўрсатадиган бошқа белгиларнинг маъносини ўзгартириш ёки аниқлаштириш учун ишлатиладиган белгилар ҳисобланади:

“ ‘ ” *accent aigu(ёниқ)* – *préparer, étudiant, répéter, réciter, été, célébré, fête;*

“ ` ” *accent grave(очиқ)* – *fidèle, chère, mère, père, à, dès, déjà, élève, après;*

“ ^ ” *accent circonflexe(ярим очиқ ва ярим ёниқ)* – *tête, fête, prêt, tôt, grâce;*

“ .. ” *trema(чўзиқ)* – *Navoi, Zair;*

“ ’ ” *apostrophe* – *l’université, l’enfant, l’ami, l’école, qu’est ce, d’hôtel;*

“ ç ” *édille* – *le français, la leçon, ça va.*

Ужорида таъкидлаганимиздек, француз тилида ҳарфлар ва товушлар сони ўртасидаги тафовут туфайли маълум график тамойиллари қўлланилади. Француз тилида позицион тамойил қўлланилади, яъни ҳарфнинг маъноси унинг кейинги кўшни ҳарфлар билан боғланиши билан аниқланади. Шундай қилиб, турли комбинациялардаги баъзи ҳарфлар алифбо маъносига мос келмайдиган товушларни ҳам билдириши мумкин.

Ҳарфлар комбинациясининг 3 тури мавжуд, уларнинг барчаси француз тилида ифодаланади:

–прогрессив (x+ a): ўқиш кейинги ҳарфга боғлиқ (с, g ҳарфлари);

–регрессив (a + x ): ўқишнинг аввалгисига боғлиқлиги (унли ёки ундошдан олдин келса);

–икки томонлама (a + x+ b): иккита ундош орасида.

Француз тилида унлилар суест ҳолатда ўз тембрини йўқотмайди. Замонавий француз тилида унлиларнинг эволюцион тенденцияларининг амалга ошишида унлилар тембри орасидаги фарқнинг сусайиши ва кўп тебранишлари бўлади. Бу чалғитувчи омиллар очиқ-ёпиқ товушга ҳам тааллуқли бўлади.

Ундошлар унчалик катта ўзгаришларга учрамайди, уларнинг турли позицияларда сакланиши кузатилади, ҳатто сўз охирида ҳам ёки шакланган пайтдан бошлаб ҳам тембрнинг амалга оширилиши ўз кучида қолади, сўз охирида сезиларли даражагача ўзгармаслиги мумкин. Ундошлар сўз охирида ўзининг жарангдор характерини саклаб қолади, улар унчалик ассимиляция қилинмайди. Олдинги унлилар ордидан улар ҳисобига анча талаффузи жиҳатидан қаттиқроқ бўлиб қолади.

Хулоса қилиб айтганда, агар назарий фонетика фонетик тизимнинг муҳим хусусиятларини ўрганиш, ҳар бир шаклнинг бутун фонетик тизимдаги ўрнини кўрсатишга қаратилган, десак, тилнинг тарихи давомида фонемалар тизими ўзгаради. Айрим фонемалар йўқолади, янги фонемалар пайдо бўлади.

Тилшуносликда муҳим ўрин эгаллаган фонетика ҳақида маълумотларга, илмий-назарий қарашларга таянган ҳолда фикр айтадиган бўлсак, фонетика – товушлар ҳақидаги фан бўлиб, у тилшуносликнинг оғзаки нутқ товушларини ўрганадиган бир муҳим бўлими ҳисобланади

Инсон маънавиятининг энг буюк маҳсули ҳисобланган тил эса маълум бир фикрни ифода этувчи восита, қолаверса, тил маданият ташувчиси бўлиб, у аجدодлардан авлодларга миллий маданият хазинасини мерос қилиб қолдиради. Шундай экан, жадал ривожланиб келаётган ҳозирги замон тилшунослигида, турли тизимли тилларнинг ўзга хос қирраларини ўрганиб, очиб бериш, таҳлилга тортиш, тадқиқ этиш масаласи жуда муҳимдир. Қолаверса, “Лисон инсон мавжудлигини, унинг ижтимоий тажриба-фаолиятини таъминловчи ҳодисадир.

Демак, лисон тадқиқи билан шуғулланаётган кимса беихтиёр ўзини билиш билан машғулдир, зеро, лисоний фаолият ҳодисасининг моҳияти, унинг ижрочиси шахс ва ушбу шахснинг ижтимоий, шахслараро муносабатга киришиши билан белгиланади”<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах, «Сангзор», 2006.

**Каримова Дилором Шавкат қизи (Андижон Давлат университети мустақил изланувчиси)  
ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИҚДА “ЎЛИМ” КОНЦЕПТИНИНГ ЛИНГВИСТИК  
ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Аннотация.** Мақолада “ўлим” концептининг этимологияси ва фалсафий танатологияда табиий ҳодиса эканлиги ҳақида фикр юритилади. Шунингдек, “ўлим” концепти билан боғлиқ фразеологик бирликлар, идиомалар ва инсон ҳаётининг тўхташи билан боғлиқ эвфемизмлар кўриб чиқилган.

**Аннотация.** В статье рассматривается этимология концепта «смерть» и как процесс естественного явления в философской теологии. Рассмотрены также фразеологические единицы, идиомы, относящиеся к понятию «смерть», а также эвфемизмы, относящиеся к прекращению жизни человека.

**Annotation.** The article discusses the etymology of the concept of “death” and as a process of a natural phenomenon in philosophical thanatology. Also considered are phraseological units, idioms related to the concept of the “death”, as well as euphemisms related to the termination of human life.

**Калим сўзлар:** “ўлим” концепти, танатология, маъно ва тушунча, фразеологик бирликлар, идиомалар, инсон ҳаёти ва эвфемизмлар.

**Ключевые слова:** концепт «смерть», теология, значение и понятие, фразеологические единицы, идиомы, человеческая жизнь и эвфемизмы.

**Keys words:** the concept of “death”, theology, meaning and concept, phraseological units, idioms, human life and euphemisms.

Тилшуносликда “ўлим” концептининг моҳиятини ўрганишда, аввало, унинг турли фанлар нуқтаи назаридан, ўзига хос концептив маъноларини фарқлаб олиш зарур. Тўплаб ўрганган материаллар шуни кўрсатадики, “ўлим” концепти бевосита фалсафа, тиббиёт, диншунослик, мантик, фольклор, адабиётшунослик, социология, информатика (компьютер ўйинлари), ҳуқуқшунослик, биология (экология, ботаника кабиларда ҳам), этика, психология, маданиятшунослик, этнография, мистика, мифология, тарих, химия каби бир қатор фанларда ҳам ўзига хос концептив маъно ва мазмунга эга. Масалан, фалсафа фанида ўлим билан боғлиқ ҳодисалар тадқиқида танатология йўналиши жорий қилинган.

Танатология “thanatos” – ўлим, “logos” – сўз, таълимот, яъни ўлим ҳақидаги таълимот маъносини англатади. Баъзи адабиётларда танатос сўзи ўрнига фанатос, танат, фанат кабилар ҳам ишлатилади. Фалсафа тарихида танатос сўзи мифологик қарашлар асосида Худонинг ўлими сифатида тасвирланади. Кейинчалик, бу тушунча мифологик адабиётларда, санъат ва психологияда кенг қўлланила бошлади. Танатология ўлим, унинг сабаблари, механизми ва белгиларини, шунингдек, ўлим олди азобларни енгиллаштириш муаммоларини ўрганадиган фалсафий таълимотлардан биридир.<sup>1</sup>

Танатологиянинг асосий турлари умумий, хусусий, суд тиббиёти, назарий, эмпирик ва Ғарб танатологияси мавжуд. Танатологиянинг асосий йўналишлари тиббий танатология, фалсафий танатология, ижтимоий танатологиялардир. Фалсафий танатологияда ўлим ўлим ва ҳаёт бир-бири билан узвий диалектик боғлиқ табиий ҳодиса сифатида баҳоланад.<sup>2</sup> Ж.Ламетри “нарсалар дунёсида ўлим арифметикадаги нолнинг ўзгинасидан бошқа нарса эмас”, дея изоҳлайди.<sup>3</sup>

Танатос, яъни ўлим организм ҳаёт фаолиятининг муқаррар тўхташидир. Шунингдек, ўлим қайд этилгандан сўнг, инсонда ҳаёт функциясини тиклаш мумкин эмас, ҳар қандай қайта тирилиш чоралари ҳам инсонни ҳаётга қайтара олмаслиги ташкил қилади.<sup>4</sup> Танатологияда ўлим жараёнининг 4 босқичи фарқланади.<sup>5</sup> Ижтимоий, психик, ақлий, жисмоний ўлим. Фалсафада ҳаёт ва ўлим

<sup>1</sup> Худойберганов Р.Х. Ўлим ва барҳаётлик тўғрисида илмий ва диний ғояларнинг фалсафий таҳлили. Фалсафа фанлари номзодлик диссертацияси, Т., 2010, 3-бет.

<sup>2</sup> Шу манба. 4-бет.

<sup>3</sup> Ламетри Ж.О. Сочинения. М., “Мысль”, 1983, с. 371.

<sup>4</sup> Худойберганов Р.Х. Ўлим ва барҳаётлик тўғрисида илмий ва диний ғояларнинг фалсафий таҳлили. Фалсафа фанлари номзодлик диссертацияси, Т., 2010, 13-бет.

<sup>5</sup> Ҳамроқулова Х.Қ. XX аср ўзбек насирида ҳаёт ва ўлим муаммосининг бадиий талқини. Ф.ф. доктори диссер., Т., 2018, 79-бет.



дихотомияси мавжуд бўлиб, ушбу тушунчалар ўзаро бир-бирига зидланади. Бунга кўра ҳаёт ўлимсиз, ўлим ҳаётсиз мавжуд эмас.

Инсон ўлимнинг фалсафий тадқиқида<sup>1</sup> икки саволга жавоб изланади: 1) инсон ўлими нима? Инсон ўлими юз беришини қандай аниқлаймиз? Биринчи савол, албатта, онтологик ёки концептив саволдир. Бу саволга жавоб унинг изоҳидир – организм функциясининг тугатилиши. Иккинчи савол эса эпистемологикдир, яъни ўлим юз беришини аниқлаш учун анъанавий тарзда юрак ва мияни махсус клиник тестдан ўтказиш кераклигини назарда тутади. Фалсафада ўлим “мавжудлик” атамасига зидланиб ва “тугатилиш”, “йўқотиш”, туғилиш бу ҳаёт, ўлим бу тарк этиш, бу дунёга келиш ва кетиш маънолари каби масалалар таҳлилга тортилади. Фалсафада ўлим – бу ўлим ҳисобига ҳаётнинг тугатилишидир. Мавжуд бўлмай туриб, тирик бўлиш мумкин эмас.

Тиббиёт соҳасида инсон миясини қайта тирилтириш ҳамда ўлим жараёнларига бағишланган кўпгина илмий рисоалар чоп этилди. Уларда ўлим талвасаси давомида “галлюцинация”, “ҳар хил кўринишлар”, “нариги дунё”га бориб-келишлар каби ғайритабиий ҳодисаларни тавсифлашга ҳаракат қилинган.<sup>2</sup> Диншуносликда ўлим – бу Оллоҳ томонидан инсоннинг жонини олиши жараёни. Фалсафада мавжуд бўлмай туриб, тирик бўлиши мумкин эмас ёки тиббиётда ўлимдан сўнг ҳаёт тўхтади қабилдаги гаплар диншунослик фани учун бироз ғалати туюлиши аниқ. Чунки диний таълимотларда Худо барҳаётлиги, ўлмаслиги, инсонларнинг қиёматда қайта тирилишлари ва нариги дунёдаги ҳаётлари мавжудлиги, яхши ва ёмон ишлар сарҳисоби ҳақида махсус диний таълимотлар мавжуд. Бадий адабиёт нуқтаи назаридан, инглиз материаллари асосида олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатадики, “ўлим” концепти бадий жихатдан мукофот, бахт, ҳаётнинг охири, дам олиш, ширин, ёрқин янги турмушнинг бошланиши<sup>3</sup> каби маъноларда тушунилади.

Кўринадики, ўлим концепти турли фанлар нуқтаи назаридан, турлича хусусиятлари ўрганилади. Тилшунослик соҳасида эса ўлим концепти бир қатор замонавий йўналишларда тадқиқ қилиниб, когнитив тилшуносликда ўлимнинг концептив белгилари, гендер тилшуносликда эса ўлим концептининг гендер (ёши, жинси, ирки каби) хусусиятлари, социолингвистик тадқиқотларда халқнинг миллий қарашлари, лингвомаданиятшуносликда эса ранглар, белгилар, маросимлар, одатлар, вербал ва новербал воситалар кабиларнинг ўзига хос хусусиятлари ўрганилади. Ўлим концептини лингвистик жихатдан ўрганишда, даставвал, изоҳли луғатларга мурожаат қилиш мақсадга мувофиқдир. Ўзбек тили изоҳли луғатларида ўлим сўзи: 1) организм ҳаёт фаолиятининг бутунлай тўхташи, тугаши, ортга қайтмас жараён, ҳужайра ва тўқималарда физиологик жараёнлар тўхтаб, ортга қайтмас ҳолат содир бўлиши; 2) инсон ёки ҳайвон ҳаётининг тўхташи, вафот, қазо; 3) жон таслим қилиш, жон бериш жараёни, вақти, ўлим юз бериши ва у билан боғлиқ ҳолат, шароит, жараён каби маъноларни англатади.

Тўплаб ўрганилган материаллар шуни кўрсатадики, “ўлим” концепти тил тизимида нафақат коинотнинг барча тирик организмлари, балки предметларнинг ўз хусусиятларини, сифатларини йўқотиши натижасида қотиб қолган, яроқсиз ҳолатга келган қурилиш материаллари (ўлик чигит, цемент каби), кимсасиз, ҳаракатсиз жойлар (ўлик қишлоқ каби), таъсирсиз, ҳис-ҳаяжон уйғотмайдиган, зериктирадиган нарса ёки ҳодисалар (ўлик нутқ, асар каби), сақланган, ишлатилмайдиган нарса-буюмлар (ўлик пул каби), ҳайвонот ва ўсимлик оламига мансуб бўлмаган нарсалар, тирик организмлардан бошқа жисмлар мажмуи (ўлик табиат каби), ёзма манбалардан маълум бўлган, лекин ҳозирда ишлатилмайдиган тиллар (ўлик тиллар каби), тирик организмнинг касаллик ёки қариш туфайли ўсиш, ривожланишдан тўхтаган қисми (яранинг ўлиги каби) кабиларни ҳам ифода-лашда ишлатилади. Масалан, ўзбек тили сўзлашув нутқида *ҳис-туйғуси ўлмоқ, ҳаваси ўлмоқ, ишончи ўлмоқ, орзу-умиди ўлмоқ, иштиёқи ўлмоқ, эътиқоди ўлмоқ, меҳр-муҳаббати ўлмоқ, ялаб-юлқаб ўлмоқ, иштаҳаси ўлмоқ, ўлик табиат, қайноғи ўлган чой, ўлик эт, ўлик уйқу, ўлик тил, ўлик цемент, чигит, оҳак, ўлик қишлоқ, ўлик кўз, ўлик нутқ, ўлик асар, ўлик пул, ўлик инсон, ўлимтик нур, ўлмас асар, ўлмас хотира, ўлмас кайфият, ўлмас афсона, ўлмас мол, ўлмас буюм, ўлмас ҳунар* каби сўз бирикмалари кенг миқёсда қўлланилади.

<sup>1</sup> The Definition of Death. First published Fri Oct 26, 2007; substantive revision Mon May 17, 2021.

<sup>2</sup> Худойберганов Р.Х. Ўлим ва барҳаётлик тўғрисида илмий ва диний ғояларнинг фалсафий таҳлили. Фалсафа фанлари номзодлик диссертацияси, Т., 2010, 10-бет.

<sup>3</sup> Нургазина А.Б. Концепты жизнь и смерть в поэтической картине мира. (на материале лирики А.Блока). 2016.

Бундай сўз бирикмаларидан ташқари, ўзбек тили тизимида инсон ҳаётининг тўхташи, яъни ўлими билан боғлиқ эвфемизмлар ҳам мавжуд. Ушбу эвфемизмлар орқали сўзловчилар тингловчи учун кўрқинчли ҳис-туйғуларни чиройли усулда етказиб бериш мақсадида ўлди сўзи ўрнига *вафот этмоқ, ўтиб қолмоқ, бу (фоний) дунени тарк этмоқ, бериб қўймоқ, марҳум бўлмоқ, руҳи осмонга учмоқ* каби ижобий, *куни-суви тугамоқ, ажали етмоқ, қазо қилмоқ, омонатини топширмоқ, абадий уйқуга кетмоқ, жойи жаннатда бўлмоқ, Худонинг марҳаматига эришмоқ, ҳаётни абадий тарк этмоқ тупроққа қўйилмоқ* каби нейтрал, *тинчимоқ, нариги дунёга равона бўлмоқ, куни битмоқ, жаҳаннамга равона бўлмоқ, Азроил жонини олмоқ* каби салбий муносабатларни ифодаловчи эвфемизмлардан фойдаланадилар.

Шунингдек, тил тизимида “ўлим” концепти билан боғлиқ ўзига хос мазмунга эга фразеологик бирликлар ва идиомалар, мақол ва маталлар ҳам мавжуд. Масалан, *Ўлим ҳақ* ибораси инсоннинг бир кун келиб вафот этишини англатади. Масалан, *“Ўлим ҳақ! Беруний султоннинг қаҳри газабидан кўрқмайди. У фақат бир нарсадан-ният қилган ишларининг чала қолишидан, ёза бошлаган асарларининг ниҳоясига етмай қолишидан кўрқади, холос!..”* “Мен учун ўлгансан” гапи кимдандир воз кечилаётганлигини билдиради, *ўлмаган менинг жоним* ибораси сўзловчининг бошидан ўтказган оғир кунларига ишорадир. *Ўликдан садо чиқди* ибораси эса, ниҳоят, кимнингдир тилга кирганлигини билдиради. *Ўлим етим* сўз бирикмаси бу ўлим маросимини, *ўлим фожее эмас* ибораси эса ўлимдан ёки ҳеч нарсадан кўрқмайдиган жасур инсонларнинг шиори ҳисобланади. *Ер ёрилмади, ер тагига кирмадим, ўлар бўлсам, ўлиб бўлдим* ибораси уятда қолмоқ маъносини, *жуда ўлган инсон* ибораси яхшилик қилмайдиган, яхшилик қилишни билмайдиган инсонни, *ўлган қайсар иборасида ўлган сўзи жуда* каби сифатнинг ортгирма даражасидаги маънони, *ўликдай ухламоқ* ибораси қаттиқ, ҳеч нарсани сезмай ухламоқ маъносини, *ўлгудек ишламоқ, чарчамоқ кабилар эса* меъёридан ортиқ ишламоқ, чарчамоқ каби маъноларда, *абадий барҳаёт* ибораси инсон хотираларида, қалблари, юракларида яшамоқ каби маънони, *ё ҳаёт, ё мамот* ибораси белгиланган ишни охиригача қилмоқ маъносини, *бир оёғи гўрда ибораси* қаримоқ маъносини, *туғилмоқ бор, ўлмоқ йўқ* ибораси фаришталар сифатларини ифодалашда, *Ўлмас Кашишей ибораси* узоқ яшаган, ёвуз инсон маъносини, *ўлдинг, ўчдинг* ибораси унутилмоқ маъносини, *ҳамманинг борадиган жойи битта* ибораси куни келиб, ҳамма ўлади маъносида, *элчига ўлим йўқ* ибораси икки киши муносабатлари ўртасига тушган сўзловчининг айбдор эмаслигини, *ўлиш билан иш битмайди* ибораси белгиланган ишни охирига етказиш кераклигини, *қўли чўққисида кетмоқ* ибораси бирор кимсани орзуси армонлигича қолаётганлигини, *гўрида тикка турмоқ* ифодаси марҳум васиятига, сўзларига қарши борилаётганлигини, унинг хафа бўлишини, норози бўлишини англатади. *ўлим эшик қоқмоқда кимнингдир* қариганлигига, куни суви тугаётганлигига ишора, *ўлимдан хабарим бор, бу гапдан хабарим йўқ гапи* эса сўзловчининг ҳеч нарсани билмаслигини, *ўлса, ўлиги ортиқ* ибораси кимнингдир мансаби, келиб чиқиши, билими каби жиҳатларда кимдандир устун эканлигини, *ўлганда одам бўлади, ўлганда ақл киради* ибораси кимнингдир ҳеч қачон ўзгармаслигини, *ўлда-жулда* ибораси нотекис, сочилиб ётган, у ер-бу ерларда юрган кишилар ва нарсаларга нисбатан ишлатилади. *Ўлиб тирилиб* ибораси эса бошқа ишларни кейинги ўринга қўйиб маъносида, *отнинг ўлими – итнинг байрами* ибораси кимларнидур ҳафачилиги кимларгадур хурсандчилик эканлигидан, *ўлим тўй эмас, борнинг пулини сочади, йўқнинг сирини очади* ибораси ўлим маросими ўтказилаётган хонадоннинг молиявий жиҳатларини кўрсатиш маъносида, *ўламан Олло ибораси* айтганини қилмоқ, қайсарлик қилмоқ маъносини, *тиз чўкиб, ялингандан, тик туриб ўлган яхши* ибораси сўзловчининг бош эгмаслигини билдиради. *Хунарли ўлмас, хунарсиз кун кўрмас* хунар эгаллашга ундаш, *бир кунга ҳўкиз ўлмас, икки кунга эгаси бермас* ибораси бирор нарсани кимдандир сўрамаслик жойизлигини, *ажалидан беш кун бурун ўлмоқ* хавфли ишдан огоҳлантириш, *эти ўлмоқ ибораси* уялмасликни, *ўлай агар* ишонтиришни, *ўлганининг кунидан хохламасдан* маъносини, *ўлганнинг устига кўмган* ибораси бирин-кетин ёмон воқеаларни, *ўлим соя солмоқ ибораси* ўлим яқинлашаётганлигини, *ўлиб турмоқ жуда хохламоқ, ўлса ҳам* ибораси ҳеч қачон маъносини, *гафлат уйқуси* безътибор қолмоқ, *туғилдию, шу он бўғилди* ибораси бирор воқеа-ҳодисанинг юз бермай қолганидан дарак беради.

Кўринадики, ўзбек тили тизимида ўлим билан боғлиқ сўз ва иборалар, идиомалар, эвфемизмлар мавжуд. Буларни мукамал ўрганиш, албатта, келгусида ўлим концепти билан боғлиқ алоҳида лингвистик тадқиқотлар олиб боришни талаб қилади.

**Jumaev Elmurod Bekpulatovich (QarDU Adabiyotshunoslik kafedrası mustaqil tadqiqotchisi)  
IJODKOR FALSAFIY KONSEPSIYASI VA ROMAN**

***Annotatsiya.** Maqolada “Ulug‘ saltanat” va “Temuriylar” romanlar turkumiga kiritilgan asarlar-da insonning zohiriy va botiniy olami o‘zaro yaxlitlikda, jamiyat va tabiat bilan chambarchas bog‘liqlikda tadqiq etilgan. Har ikki ijodkor falsafiy konsepsiyasi, Amir Temur obrazidagi ayrim o‘xshashliklar va tafovutlar, adolat falsafiy kategoriyasining talqini, tarixiy haqiqat va davr, sohibqironning turkiy xalqlar hayotidagi roli va markazlashgan davlat tuzish tuzish g‘oyasining amalga oshirilishi bilan bog‘liq tarixiy voqelik to‘g‘risida ayrim mulohazalar bildirilgan.*

***Аннотация.** В статье на примере произведений из серии романов «Великая Империя» и «Тимуриды» исследуется внешний и внутренний мир человека целостным образом, в тесной связи с обществом и природой. Философская концепция обоих творцов, некоторые сходства и различия в образе Амира Темура, трактовка философской категории справедливости, исторической реальности и периода, роль мастера в жизни тюркских народов и реализация идеи централизованной государственности. Приведены некоторые комментарии.*

***Annotation.** In the article, the works included in the series of novels “The Great Empire” and “Timurids” explore the external and internal world of man in a holistic way, in close connection with society and nature. The philosophical conception of both creators, some similarities and differences in the image of Amir Temur, the interpretation of the philosophical category of justice, historical reality and period, the role of the master in the life of the Turkic peoples and the realization of the idea of centralized statehood. Some comments have been made.*

***Kalit so‘zlar:** tetralogiya, falsafiy konsepsiya, adolat kategoriyasi, markazlashgan davlat, insoniy fazilatlar, inson va jamiyat, ilohiy haqiqat, millat, tarix, tamaddun, islohot.*

***Ключевые слова:** тетралогия, философская концепция, категория справедливости, централизованное государство, человеческие качества, человек и общество, божественная истина, нация, история, цивилизация, реформа.*

***Key words:** tetralogy, philosophical concept, category of justice, centralized state, human qualities, man and society, divine truth, nation, history, civilization, reform.*

M. Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasi haqida so‘z borar ekan, muallifning to‘rtinchi kitob so‘ngida keltirilgan fikri diqqatni tortadi. Negaki, hech kim badiiy asarni muallifning o‘zichalik teran idrok etolmaydi, chunki muallif kitobxondan farqli o‘laroq, o‘sha jaryonda yashaydi.

“Tabiatning qonuni sodda: har bir odamning ichida yana bir odam yashaydi. Uning nomi “ko‘ngil”dir. Hech qachon dunyoning ishi bir odamning qo‘liga qarab qolmagan. Uning egasi yolg‘iz Ollohdir. Amir Temur Ko‘ragon ham bir banda edi. Bandasi, ya‘ni inson zoti, yuqorida aytilganidek, o‘t bilan havo, tuproq bilan suvdan, ya‘ni to‘rt unsur dan yaralgan”.<sup>1</sup>

Mana shu to‘rt unsur bir-biridan kuch oladi, biri ikkinchisini mavh etadi. Agar havo bo‘lmasa, olov alanga olmaydi. Havo qizimasa, suv paydo bo‘lmaydi. Hayotning asosi bo‘lgan to‘rt unsur bir-birini taqozo etish barobarida, bir-birini mahv ham etadi. Suv olovni o‘chiradi. Havo suvni bug‘lantiradi.

Suv tiriklik manbayi bo‘lsa, toshqin, qunamilar tiriklikka chek qo‘yuvchi ofat. Olov hayotiy zarurat, ammo ehtiyot bo‘linmasa, hamma narsani kulga aylantiradi. Buni dunyo miqyosida bo‘layotgan o‘rmon yong‘inlari, vulqonlardan tortib, katta-kichik favqulodda hollarda ko‘rish mumkin. Mana shu unsurlarning barchasi tuproqda mujassamlashgan, tuproq shuning uchun qadrlanadi. Ko‘zga to‘tiyo qilinadigan vatan tuprog‘iga xalq ona so‘zini qo‘shib sifatlaydi. Ona-Vatan tuprog‘i birikmasida mehr va sehr, xotira va umid, o‘tmish va kelajak birlashgan. Ilk inson – Odam Ato ham tuproqdan yaratilgan va uning jasadi ham tuproqqa aylanishga mahkum. Bunda inson ko‘p-da, ahamiyat bermaydigan, anglashga ham urinib ko‘rmaydigan hikmat bor.

Inson tabaiti, undagi to‘rt unsur miqdori va holatiga bog‘liq. Ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlikning chegarasi xuddi shunda. Nafsgiga mag‘lub bo‘lgan odamda hayvoniylik, nafsini jilovlay olgan kishida farishtalik xislati ortib boradi. Yashashning ma‘nosi shundan iborat, tanlov esa insonning

<sup>1</sup> Али Мухаммад. Улуғ салтанат (Шохрух Мирзо). 4-китоб, “Наврўз”, Тошкент, 2019, 499-бет.

o'ziga bog'liq. "Ulug' saltanat" va "Temuriylar" romanlar turkumiga kiritilgan asarlarda insonning zohiriy va botiniy olami bir butunlikda, jamiyat va tabiat bilan chambarchas bog'liqlikda tadqiq etilgan.

"Inson vujudini, jismini, a'zoi badanini tushunib yetish mumkin. Bosh, ko'z, quloq, yurak, qorimn, qo'l-oyoq... Lekin insonning bir a'zosi borki, uni anglash mushkul, yuqorida zikr etganimizdek, uni ko'ngil deyдилar, chunki u o'zgaruvchan xilqat. Shu vajdan ko'ngilga ko'ngil qo'yish hamisha xatarli", deb yozadi M.Ali.<sup>1</sup> Haqiqatdan ham, insonni tushunish, uni anglash, ko'nglida qanday hislar borligini bilish murakkab va ilojsiz ish. Agar odamlar bir-birlari haqida qanday fikrda ekanliklarini bilganlarida, juda tez bir-birlaridan uzoqlashgan bo'lardilar. Bu haqiqatning tasdig'i qahramonlarning o'y-xayollarida aniq ko'rinadi. Bu, hatto bosh qahramonning boshqalar bilan bo'lgan muloqotida bo'rtib ko'rinadi.

Inson o'zini-o'zi tushunishi juda murakkab, qiyin kechadigan jarayon, o'zini tushuna olgan kishi komil inson, o'tmishda avliyolik maqomiga ko'tarila olgan xos banda. Ko'ngilni tushunish o'z-o'zini tushunish va nazorat qila olishdir. Nafs (shuhrat, boylik, hasad, kibr, kalondimog'lik, ochko'zlik)ni yengish, yo'qotish ilojsiz, ammo uni jilovlash, aqlni ko'ngilga muakkil, ya'ni vakil, posbon qilish orqaligina to'g'ri yo'l tanlash mumkin.

"Lekin adolat yukini ko'tarish og'irdir, shu sababdan u ko'pda yuzaga chiqmay keladi. Amir Temur o'z kuchini, qudratini lak-lak qo'shinda, tog'lardan oshishda, mardona daryolarni kechib o'tishda, metin qal'alarni qamal qilishda, qo'sh-qo'sh mamlakatlarni zabt etishda ko'rmaydi, balki adolatda, deydi. Shiorga aylangan "Kuch – adolatda" so'zlarini uzugiga, davlat muhriga o'yib yozdiradi".<sup>2</sup> Muallifning falsafiy konsepsiyasi aks etgan mazkur ko'chirmada Amir Temurning shaxsi va faoliyatining mohiyati aks etgan.

Tarixdan ma'lumki, Amir Temur tartib-intizomni xush ko'ruvchi va o'zi ham shunga doim amal qiladigan, odob-axloq qoidalariga munosib ish tutadigan va boshqalardan ham shuni qat'iy talab qiladigan kishi bo'lgan. O'sha davrda va undan keyingi asrlarda ham mag'lubiyatga uchragan xon-u amirlarning harami (xotinlari, kanizaklari, qizlari) g'olib podoshohning mulki sanalgan. G'olib podsho dushmanining xotini yoki qizini o'z nikohiga olish bilan uni ma'naviy-ruhiy jihatdan ham azoblagan va bundan g'urur hissini tuygan. Amir Temur esa bunday yo'l tutmaydi. U o'z qo'liga asir tushgan podshohlarni, odatda, taxtiga qaytaradi, ular bilan quda-andachilikni yo'lga qo'yadi. Ular bilan do'stlik aloqalarini mustahkamlash orqali, o'rtadagni nizolarni bartaraf etishga harakat qiladi. Chingizxonning "Dushmanning xotini o'pib, otini minmoqdan ortiq lazzat yo'q!" degan mashhur so'zlariga mutlaqo teskari ish tutgan Amir Temur aybdor deb topilgan farzand va nabiralari Mironshoh Mirzo, Sulton Husayn mirzo, Pir Muhammad Mirzo, Iskandar Mirzoni boshqalar qatori jazoga tortadi, cho'bi yasoqqa yetkazadi. Otalik mehri yengib, o'z farzandini jazolash uchun insonga kuchli iroda, qat'iyat va mustahkam e'tiqod zarur.

Amir Temur turkiy xalqlar uchun tarixiy zarurat edi va u o'zining bu vazifasini bekam-u ko'st oqladi. Yigima yetti mamlakatni fath etgan, markazlashgan davlat tuzgan, xalqni mo'g'ullar zulmidan xalos qilgan va fan, san'at, madaniyat rivoji yo'lida ulkan hissa qo'shgan, hatto dushmanlariga ham adolat bilan munosabatda bo'lgan Sohibqiron shuning uchun shon-sharaf, ehtiromga munosib zotdir. Bu haqda shoira va olim N.Afoqova o'zining "Haqiqat" she'rida shunday yozadi:

*Orzusi kulbasi devorlarini  
Oshib o'tolmagan har shuhrattalab  
Nechun abadiyat asrorlarini  
Taftish etaverar ming'ir-ming'irlab?  
Kim, axir, suyibdi jang suronini  
O'choqda yonsa o't, dilda muhabbat,  
Tarix yuklamasa kori-borini,  
Buyuk vazifalar bo'lmasa qismat?*

Inson hayotini xayol va xotira, quvonch va azob, orzu va armonsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, tiriklikning ma'no-mazmuni ana shunday hislarda. Yozuvchi Amir Temur hamda Jahongir, Umarshayx, Mironshoh, Shohruh Mirzolar; Saroymulxonim, Mir Sayyid Baraka, Muhammad Sulton, Xalil Sulton, Xonzoda xonim, Gavharshodbegim, Sog'inch bika va boshqa ko'plab obrazlar tasvirida ularning ma'naviy-ruhiy olamiga diqqat qiladi. «Ong oqimi» usulidan foydalanib, qahramonlar tabiatini ochib beradi.

Odatda, "Badiiyatdagi «ong oqimi» deyilganda, biz, ko'pincha, va darhol g'arb modernizmi, xususan, Kafka, Prust, Joys, Folknerlarni yodga olamiz. «Ong oqimi»ning o'ziga xos milliy, adabiyotdagi o'z-

<sup>1</sup> Али Мухаммад. Улуғ салтанат (Шохруҳ Мирзо). 4-китоб, "Наврӯз", Тошкент, 2019, 499-бет.

<sup>2</sup> Shu manba. 500-bet.

bekona ko‘rinishlari bo‘lishi mumkinligiga «Ulug‘ saltanat»ning to‘rttala kitobini o‘qib ishonch hosil qildi. Bu o‘rinda, ayniqsa, Amir Temurning o‘nlab ichki monologlari o‘rnining badiiy ko‘rkamligi, falsafiy teranligi bilan ajralib turishini ta’kidlash kerak».<sup>1</sup>

«Spohruh Mirzo» romanidagi yetakchi badiiy konsepsiya oldingi uch roman bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bevosita ularning uzviy davomi sifatida namoyon bo‘ladi. Epopeyada Amir Temur xos bo‘lgan insoniy fazilatlar: bunyodkorlik, xalqparvarlik, haqgo‘ylik, adolatpeshalik, bag‘rikenglik, tolerantlik, o‘z dini va e‘tiqodida sobitlilik, saxiiylik, vidonga, ahdga, do‘st-yorga sadoqat birlashib, o‘tmish→ bugun→ kelajakning umumlashma timsoli yaratiladi. Sohibqironning tarixiy qudratini ko‘rsatishga qaratilgan asar konsepsiyasida Amir Temurning markazlashgan ulkan va qudratli davlat hamda shu salanatni barpo etishi, ilm-fan, san‘at, hunarmandchilik, dehqonchilikni rivojlantirishga bosh bo‘lishi, milliy qadriyat, an‘analarga hurmat-ehtirom bilan qaraganligi, ona tili taraqqiysi uchun xizmat qilganligi turli rakurslarda zuhur etadi. Sanab o‘tilganlarning barchasi bugungi kunimiz uchun ham nihoyatda dolzarb, barcha davrlarga xos va insoniyatning azaliy orzu, umidi, deyish mumkin. Epopeya shu jihatlari bilan zamonaviylik kasb etadi. Asarning ilk sahifalaridayoq umri jang-u jadallarda kechgan deb bir tomonlama baho beriladigan Amir Temurning «Mamlakatda bir qatra suv ham behuda ketmasligi, bir qarich yer ham behuda yotmasligi kerak», degan so‘zlari har qanday davr, siyosiy tuzum, millat, qonun-qoida chegaralarini buzib o‘ta oladi. M.Ali ilgari surgan konsepsiyaning umumbashariyligi ham ana shunda.

Butun asar davomida, deb yozadi B.Nazarov, badiiy mantiq talabi asosida yuzaga keluvchi yozuvchining yetakchi g‘oya, badiiy konsepsiya va bosh qahramonga mutanosib ravishdagi chuqur va teran falsafiy mushohadalari romanning umumiy ruhiga ruh, kuchiga kuch, mahobatiga mahobat qo‘shadi-yu kitobxonga ta’sir yaxlitligini yanada oshiradi”.

Bugungi yangi zamonaviy adabiyotshunoslimizda quyidagi fikr mavjud: “Badiiy shakl konservativroq hodisa bo‘lganidan uzoq yashovchanlik xususiyatiga ega. Mazmun esa o‘zgaruvchanlikka moyil hodisa bo‘lib, har bir badiiy asar mazmuni o‘zicha originaldir”.<sup>2</sup> Ta’kidlanganidek, janr o‘z asosiy shakliyi belgi-xususiyatlarini deyarli o‘zgartirmasligi va mumtoz adabiyotning qat’iy kanonlashgan g‘azal singari janrlariga nisbatan o‘zini to‘la oqlashi haqidagi fikrlar asosli.

Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasi va Nurali Qobulning “Temuriylar” romanlar silsilasiga kiritilgan asarlarini kuzatsak, o‘zgacharoq holat namoyon bo‘ladi. Ularning barchasida inson va jamiyatning holat-ruhiyati ilohiy haqiqatlar bilan o‘zaro chog‘ishtirish orqali badiiy idrok etilganligini ko‘ramiz. Har ikkala yozuvchi ilohiy ta’limotga, Qur’oni karimga, hadisi sharifga tez-tez, lekin o‘rinli murojat qilishadi. Bu qaysidir masalaga aniqlik kiritish, aytilayotgan fikrni asoslash maqsadida amalga oshiriladi va bosh qahramon yoki din peshvolar, olim-u ulamolar tilidan bayon qilinadi. Bosh qahramonning ichki monologlaridan tortib, voqea-hodisalarga bildiriladigan munosabat va hukmlargacha barchasida islomiy qarashlar ta’siri ko‘rinib turadi.

«Ulug‘ saltanat»da adolat tushunchasi falsafiy kategoriya sifatida badiiy qilingan. Bosh qahramon adolat yuzaga chiqaruchi xaloskor kuch, uning kuch-qudrati ma’rifatda. Qahramonning o‘zi ham buni chuqur anglaydi va har ishda “Kuch – adolatda” degan aqidaga qat’iy amal qiladi. Saltanatni adolat bilan boshqarish uchun to‘rt narsaga: kengash, mashvarat-u maslahat, qat’iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik, ehtiyotkorlikka tayangan Amir Temur “davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim”, deb yozadi.<sup>3</sup>

Amir Husayn, To‘xtamishxon, Yildirim Boyazid, Zindachashim Opardiy va boshqa personajlar taqdirida, Yildirim Boyazid bilan bo‘lgan hal qiluvchi jangda qo‘llangan harbiy hiylada, Samarqandda masjid qurilishi uchun ajratilgan mab-lag‘ni talon-taroj qilgan ikki din peshvosining xiyonati tufayli o‘limga hukm qilinishida bu fikrlarning amaliy isboti badiiy in’ikos etgan.

Amir Temurning fikriga ko‘ra, garchi ishning qanday yakun topishi taqdir pardasi ortida yashirgan bo‘lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengash-u tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozim. Yildirim Boyazidning Amir Temurdan farqli tomonlaridan biri, qaysar hukmdor hech kimning fikrini eshitmaydi, hech kim bilan hisorblashmaydi, o‘z bilganini haqiqat o‘rnida qabul qiladi. U o‘z xatosini tushunganligini asirga tushgach, o‘g‘li va Shayx Ramazon bilan suhbatlashgach, anglab yetadi, tan oladi:

“– Eng katta xatoyimiz, savashga yo‘l qo‘yganimiz, – dedi Shayx Ramazon biroz o‘ylanib turib. – Temur to‘qson to‘qqiz emas, yuz foiz g‘alabasiga ishonmasa, har qanday jangga kirmaydigan sarkarda.

<sup>1</sup> Назаров Б. Барҳаёт асар. Улуғ салтанат васфи. Т., “Машҳур пресс”, 2017, 74 – 75-бетлар.

<sup>2</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шаралиева М. Адабиётшунослик луғати. Т., “Академнашр”, 2010, 59-бет.

<sup>3</sup> Темур тузуклари. Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси. Т., 1991, 15-бет.

Biz ana shuni hisobga olmadik, sultonim. Xoqon hazratlari savash oldidan butun askarlariga yetti yillik maoshi miqdorida ukulka tarqatibdi. Ukulka deb ular jang oldidan ulashiladigan aqchadan iborat maxsus sovg'ani aytadilar. Bu miqdor sarvatga ega bo'lgan jangchi ana shu boylikni himoya etmoq va yurtiga olib ketmoq uchun ham astoydil savashadi. Shu tufayli Turon o'rdusida talofot yo'q hisob bo'lgan.

Sulton Boyazid Yildirim pastki labini tishlaganicha boshini irg'ab, ma'qul ishorasini qildi".<sup>1</sup>

Usmonli tarixida hech bir sulton bu qadar sharmandali holga tushmaganini o'ylar ekan, Yildirim Boyazid o'zining mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'lgan eng katta uning o'zida ekanligini tan olishga majbur bo'ladi. Zero, xatoni tan ola bilish ham aslida mardlik.

Amir Temur usmonli qo'shining holatini puxta o'rgangan, turk sultonning jangda tabiatiga ko'ra shoshma-shosharlikka yo'l qo'yishi, amiru lashkarboshilariga bo'lar-bo'lmasga jahl qilishi, haqoratlashi, savalashi, qiziqqonligi, qo'shinni uyg'un harakat ettirovmasligini aniqlagandi.

Amir Temur elchi bo'lib kelgan Shayx Ramazon bilan suhbat chog'ida, uning: "Buyuklik oddiylik bilan boshlanib oddiylik bilan tugaydi. Insonlar hayot ma'nosini chuqur anglab yetmaganlaridan uni murakkablashtiradilar", degan fikrlariga javoban deydi: "Davlat va boylik bor yerda, qondosh-u jondosh bo'lsa-da taxt savashida hokimiyat hidini olgan kishilarning til topishmog'i g'oyat mushkul tirikchilikdur, Ramazonbek. Odamlar ne qadar johil bo'lsalar, shunchalik muammoli yashaydilar. Qanchalik ilmga intilganlari sari esa shu qadar bir-birlarini inkor etadilar. Hali-beri insoniyatning boshi qo'shilib, kelajak uchun to'g'ri yo'l tanlay bilishlariga aqlim etmaydi, dedi ulug' xoqon vazmin ohangda og'ir tin olib. – avlodlarimiz asrlar davomida bizning to'qnashuvimizni munozara etib, bahslashsalar kerak. Kelajak ularga doxildir. Biz esa bugunning odamlarimiz. Bugunning qarori kelajakning gazi ila o'lchanmaganidek, kechmish tarixni bahslashish va undan saboq olish mumkin. O'tmishni dor ostiga keltirib, hukm chiqarmaydilar. Usmonli turklarimizning davlati, shonli to'g'ri yo'ldan ketayotgan saltanatdur. Anqara to'qnashuvi kuragini yerga bir tekkizsa-da, u yana o'zini tiklab, buyuk davlatga aylanajak".

Amir Temur tomonidan aytilgan shu so'zlarda asar konsepsiyasini ko'rish va adibning g'oyaviy-badiiy maqsadini aniqlash mumkin. Amir Temur Yildirim Boyazid bilan jang qilish qilish emas, o'zaro murosa, sulh, do'stlik tarafdori edi, biroq sultonning uzoqni ko'zlamay qilgan harakati usmonli turk saltanatining tanazzuliga sabab bo'ladi. Jang tugab, hamma narsa iziga tushgach, sohibqiron taxtni yana Boyazidning o'ziga qaytib topshirishga qaror qilishi tarixda kamdan kam uchraydigan voqea.

Boyazidni shuhratparastlik, takabburlik, manmanlik, boshqalarni mensimaslik, shoshma-shosharlik xarob qilsa, bosiqlik, puxtalik, insof, adolat, mardlik va kechirimlilik Amir Temurni yuksaklikka ko'taradi.

Nurali Qobul Amir Temur va Yildirim Boyazid monologlari orqali ularning xarakteriga xos eng kichik detallarni sinchilik bilan o'rganadi. Ular timsoli orqali tarix va kelajakka qaraydi, har ikkala podshoh o'zlariga tarix parametrlariga mos bahoni o'zlari berishadi.

N.Qobul jahon tarixida nodir fenomen bo'lgan Amir Temur – millat faxri, degan xulosaga keladi. Uni nafaqat Turonzaminda ulug' saltanat bunyod qilgan ulug'vor shaxs, balki Yevropa va Rossiya Renessansi boshlovchisi, ularni o'rta asr turg'unligidan xalos etgan davlat arbobi va sarkarda sifatida poetik idrok etadi.

**Давлатова Адиба Рахматовна (Тошкент вилояти**

**Чирчиқ Давлат Педагогика институти доценти, филология фанлари номзоди)**

**ЛИРИК ҚАҲРАМОН ОБРАЗИНИНГ ПОЭТИК ТАКОМИЛИ**

***Аннотация.** Мазкур мақолада Абдулла Ориповнинг турли йилларда яратилган айрим шеърлари таҳлил қилинган бўлиб, лирик қаҳрамон образининг такомиллашуви ўрганилган. Натижада халқпарвар, ватанпарвар, ўйчан, донишманд шоир ва лирик қаҳрамон образининг синтези қиёсланган. Шоир кўтарган ахлоқий, ижтимоий, фалсафий масалаларга баҳо берилган.*

***Аннотация.** В статье анализируются некоторые стихотворения Абдуллы Орипова, созданные в разные годы и исследуется развитие образа лирического героя. В результате сопоставляется синтез образа патриотического, вдумчивого, мудрого поэта и лирического героя. Оценены нравственные, социальные и философские вопросы, поднятые поэтом.*

<sup>1</sup> Қобул Нурали. Жаҳон мулкининг султони ёхуд фотиҳ Темур ва Йилдирим Боязид. Тарихий роман. Т., "Камалак", 2016, 306-бет.

**Annotation.** The article analyzes some of the poems of Abdulla Aripov, created in different years and examines the development of the image of the lyrical hero. As a result, the synthesis of the image of a patriotic, thoughtful, wise poet and a lyrical hero is compared. The moral, social and philosophical issues raised by the poet are assessed.

**Калим сўзлар:** образ, лирик қаҳрамон, шеърят, жанр, бадиий таҳлил, руҳий ҳолат.

**Ключевые слова:** образ, лирический герой, поэзия, жанр, художественный анализ, душевное состояние.

**Key words:** image, lyric hero, poetry, genre, artistic analysis, state of mind.

Abdulla Oripov lirikasi falsafiy she'riyat bo'lib, uning lirik qahramoni – teran sezgi, nozik tuyg'u, mantiqiy fikrlash, favqulodda xulosa chiqarish qobiliyatiga ega shaxs. Shoir ona xalqini sevdi, Vatan taqdiri doimo shaxsiy masalalardan baland turdi. Lekin bu sevgidan ba'zan ranjigan o'rinlar ham bo'lgani rost. *Nimasan? Qandayin sehrli kuchsani? Nechun tomoshaga bunchalar o'chsan?* – deya undan ranjisa, *birda esa "Yulduzlar, bilmaysiz mening xalqimni, Bundayin zahmatkash yer yuzida kam. Yelda tinim bordir, unda yo'q tinim, Shunday ishparastdir u munisginam"*, deb ko'klarga ko'taradi. Abdulla Oripov Tantalangan asarlarining 1-jildining o'zida, aynan "xalqim" so'zi turli she'rlarda 61 marotaba takrorlangan ekan. Shoir she'rlarida lirik qahramon xursand va g'amgin chog'larida ham xalqqa murojaat qilishdan bir zum to'xtamaydi. Yillar davomida shoir xalq dardini kuylagan, undan bir zum uzilmagan bo'lsa-da, ba'zan tasalliga muhtoj pallalarda xalqning madadini qidirib qoladi. Xalqdan chiqqan "kulfat"lardan ozorlanadi:

*Mening xalqim yovni ko'p ko'rgan,  
O'zimizdan chiqqan sen – kulfat.  
Sendaylarni tug'ib, o'stirgan  
Onalarga achingum faqat.*

Bu yerda lirik qahramon va shoir kayfiyati uyg'unlashadi. Birinchidan, shoir, shuncha yil beta'na muhabbat bilan ona xalqni ardoqlagan bo'lsa, ikkinchidan, xalqning o'zidan chiqqan yovlarning onalariga achinadi. 2015-yil 13-mayda yozilgan she'rda, uning o'limi yaqinligidan gap ochgan eldoshlarining niyatidan xabar topgan insonning ahvolini mujassam etgan. She'rdagi og'riqli og'irlik o'quvchi kayfiyatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

*Shogirdlar o'stirdim joylab jonimga,  
Mahramdek sanadim xonadonimga.  
Oqibat o'shalar hatto yonimga  
Kelib o'tirishdan go'yo or qildi.*

She'r biografik asosga ega. She'rlari matbuotda chop etilmay, televideniya va radiolarda chiqishga taqiq qo'yilgan pallada ayrim shogirdlari o'zlarini olib qocha boshlashdi. Hatto qo'ng'iroqlariga javob ololmagan kezlarda shoir yuragida zalvorli og'riq paydo bo'lgani rost, albatta.

*Noshukur emasman umrimdan zinhor,  
Birovdan qolishmas qadim xalqim bor.  
Kimnidir ko'rishdan qilsam iftixor,  
Kim meni ko'rishdan iftixor qildi.*

She'rni o'qir ekansiz, shoir kechinmalarining o'ta chuqurligi va tovlanishidan hayratga tushasiz. Ya'ni, oldingi satrlarda xo'rsiniq aralash nadomatni tuysak, keyingi misralarda faxr tuyg'usi ko'zga tashlanadi. Lirik qahramon ham shoir ham yig'loqi kayfiyatdan tamomila yiroq. Bu yerda oldingi bandda qalamga olingan holat batamom unutiladi. Lekin shoir qulog'iga yetib kelgan haligi gaplar yuragida chuqur iz qoldirganini keyingi she'r orqali bilib olamiz:

*Bir xalqda g'alati odat bor edi:  
O'lganlar aziz-u tirik xor edi.  
Sevgan odamiga tilardi ajal,  
O'tgach, ulug'lashga intizor edi.*

2015-yil 1-iyulda yozilgan ushbu she'r "Odat" deb nomlangan. Garchi shoir bu she'rdagi epik mazmuni "o'zga xalq" hayoti deb taqdim etgan bo'lsa-da, yuqoridagi "Imon" she'rining falsafiy finali deb ham qarash mumkin. Lekin shoir bir marta san'at va komillikdan yiroq kimsalardan xafa bo'lsa, taqdir ko'p martalab do'stlar va muxlislar sevgisi bilan siyladi, ya'ni ijod va ilhomdan zavqlana oladigan kishilarning borligidan quvondi. Ko'z oldimizda iftixor va afsus, shodlik va qayg'u onlari bilan to'lgan insonning hayot yo'li bir-bir o'ta boshlaydi. Bu esa hali 16 yoshidayoq millat taqdirini o'zidan ustun qo'ya ol-

gan shoir hayoti bo'lsa-chi? Shoirlik qismati, balki, shunday lahzalari orqali o'quvchiga maktab vazifasini o'tasa kerak.

Abdulla Oripov she'rlarini o'qiganda nihoyatda musiqiy satrlar, falsafiy xulosalar kitobxonga tamoman boshqacha kayfiyat bag'ishlaydi. Asardagi so'zlar sizga begona emas, lekin o'xshatib yozishning, aslo, imkoni yo'q. Bir qaraganda, jo'n, lekin o'ta murakkab. Sekin-asta Abdulla Oripov lirikasida ham ramziylik o'rin ola boshladi. Masalan, "kema", "vokzal", "Poezd", "Pochta qutisi" kabilar.

*Uchratdim hayotda turfa odamni,  
Nokaslar tinch qo'yar na o'ng, na tushda.  
Ular yuragingga solgan alamni,  
Qabul qilarmikan birorta pochta?!<sup>1</sup>*

Shoir she'rlarida ba'zan hayotdan to'ygan, odamlardan bezgan, uzlatni sog'inib, Oliy diydordan umidvorlik motivlarini uchramiz. Lekin Abdulla Oripov o'lim so'zini ishlatishda ehtiyotkor bo'lgan. Lekin asar mantig'i talab qilgan o'rinlarda, albatta, qo'llagan. Bu bilan shoir hayotsevar, o'limni o'ylamagan, deya olmaymiz. U har bir tushunchaga falsafiy yondashgan. Odamzodga anglanishi mushkul jarayonlarga aralashishni istamas va taqdir izmida qoldirishni ma'qul ko'rar edi.

*Men uni sevardim bulardan ortiq.  
Xuruj aylagandi bedavo firoq.  
Achchiq alam ichra yonsam tutoqib,  
O'limni jonimdan sevaman, biroq  
Men uni sevardim o'limdan ortiq.<sup>2</sup>*

U biror holatdan ko'ngli to'lmagan vaziyatda, suyangan insonlaridan kutilmagan munosabatni ko'rganda, o'tkinchi dunyoga ham, uning fuqarolariga ham qo'l siltab qo'ya qolar, faqatgina bir jumla bilan "ayyy", deya afsus aralash xo'rsinib qo'yar, bu xo'rsiniqda uning xotiralari, iztiroblari, tuyg'ulari, afsus jamlanganib, shoir ohida nadomat motivi, nidoga aylangan iztiroblari jaranglar edi:

*Usmon shoir, umrim o'tdi,  
Endi netay,  
Payti keldi, pushaymonim  
Bayon etay.  
Eng yaxshisi, Boysun tog'dan  
Biror g'or top,  
Chorig'imni sudrab unga  
Kirib ketay.<sup>3</sup>*

Ammo shoir shaxsiy qayg'usini hech kimga aytishni istamagan. Uning dardini, "ich"ini yozganlari oshkor qiladi. Shunga qaramay, shoir doimo shaxsiylikdan baland turdi, lirik qahramonlari birgina "men" emas, butun bir millat qayg'usini, quvonchini, oddiy kunini, kelajagini kuylayveradi.

She'rlarida lirik qahramon tasalli izlaydi, ba'zan katta haqsizlik uni bukib qo'ygandek bo'ladi.

*Komil bo'lolmadik, afsus, ko'p zamon,  
Xatolar, o'kinchlar yurdi safma-saf.  
Bag'rikeng insonlar o'zi bir tomon,  
Badbin kimsalar ham bo'ldi bir taraf.*

Shoirning yuragini qoq ikki iqlim sifatida tasaffur qilish mumkin. Bag'ri keng insonlar qo'l tutgan da turishni, yana ilgari ketishni o'rgangan, bundan rozilik tuygan bo'lsa, safma-saf yurgan badbin kimsalarning ozorlari qayta-qayta o'lib-tirilishiga sabab bo'ldi. She'rning nomidayoq shoir "O'kinch"idan darak beradi. Bu kabi she'rlarida hasrat motivi, toshdek ezib tashlayotgan g'ussalar jaranglaydi.

Ammo, yuqorida aytganimizdek, shoir bunday qalb qayg'usiga qaramay, mayda odamlar va ular dan kelgan ozorlardan ustun tura oldi, millat, xalq, toptalgan g'urur, sustlashgan imon, yangi avlod mavzularida o'lmas asarlar yaratdi.

*Mening hasratlarim,  
Sizlar buncha ko'p,  
Inon-ixtiyorim qo'lga olgansiz.  
Gohi yolg'iz-yolg'iz, gohida to'p-to'p,*

<sup>1</sup>Oripov A. Tanlangan asarlar. 8 jild, Faфur Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, Т., 2016, 37-бет.

<sup>2</sup>Oripov A. Tanlangan asarlar. Тўрт жилдлик, 1-жилд, Т., 2000, 22-бет.

<sup>3</sup>Oripov A. Tanlangan asarlar. 8 jild, Т., 2016, 217-бет.



*Go'yo tug'ishganim bo'lib qolgansiz.*

Hasratning surati turlicha, gohida farzand, ba'zan og'a, do'st, shogird, yurtdosh qiyofasida lirik qahramonning butun ixtiyorini izdan chiqaradi, lekin u barchasiga jimgina bardosh beradi. Lekin bardoshning chegarasi bor, hasratdan to'ygan shoir qadr izlaydi, tasalli axtaradi. Atrof to'la odam, lekin lirik qahramon yolg'iz.

*Tasalli topmassan na do'st, na maydan,*

*Sekin ostonangdan o'tlar cho'zar bo'y.*

*Nomingni o'chirar endi har qaydan*

*To'rta ichiqora yoki hasadgo'y.*

Ostanadan qachon o'tlar bo'y cho'zadi, qachonki, bu hovliga kimdir oyoq bosmasa yoki xonadon egalari ham kirib chiqmasa. Lirik qahramonning qalb og'rig'iga da'vo yo'q. Chunki odamning taftini odam oladi, vaholanki, bu jarayon allaqachon to'xtatilgan. Lirik qahramon hammasini unutib yashashga harakat qiladi, lekin qayta-qayta umidsizlikka tushadi. "Paradoks" she'rida "*Bu taxlit yashashdan to'ydi, bechora*" deya oladi, xolos. Hasadgo'y va ichiqoralarga qarshi kurash uchun kuchi qolmaydi, uyqusizlik va o'limni itoatkor kutish boshlanadi. "Chidaysan bolam" nomli she'ri xuddi vasiyatdek tasavvur uyg'otadi:

*Hay dunyo, o'zingni bir pulga sotding,*

*Kalava topding-u uchin yo'qotding.*

*Men kabi oxiri g'aflatda qotding,*

*Mensiz qolganingda chidaysan, bolam.<sup>1</sup>*

Shunday holatda faqat bir narsa yupanch bo'la oladi. Ona diydorini qo'msash, uning beta'na, samimiy mehri taftida orom olish. Beg'araz muhabbatga topinish xuddi onadek mas'um qo'shiqni, sokin satrlarni yaratadi.

*Hazrati Xizrga yo'liqsam albat,*

*Faqat bir narsani so'rardim faqat:*

*Yomon nazarlardan toliqdi ruhim,*

*Onam nigohini ko'rsating hazrat.<sup>2</sup>*

Garchi yuqoridagi misralar yozilganda shoir onasi yoshidan ancha ulg'aygan, mo'ysafid yoshiga yetgan esa-da, onaga talpinadi. Hayotining ilk lahzasida ona siymosi, nigohi orqali dunyoni ko'rishni o'rgangan ko'zlar, tovush, rang, tasvir, ohangni ilg'agan qalb, idrok, baribir, yana ibtidoga qaytishni istar ekan-da. Shuning uchun ham shoir, "*Onajon, men seni ko'rgim keladi, Yetmishni qoralab qolgan yoshimda*" deb tubsiz sog'inchini bayon etadi.

Lirik qahramon ota-ona garchi bu dunyoda bo'lmasa ham, baribir, farzandlari boshida parvona bo'lishiga ishonadi. "Vatan mehri" she'rida olis yurt shifoxonalarida davolanayotgan shoirning ruhiy holati yaqqol ko'zga tashlanadi:

*Ellik yil ayro tushgan ikki jigarband misol*

*Aka-singil yig'lashdik, yelkalarga qo'yib bosh.*

*Shu lahza onam ruhi charx urardi ehtimol,*

*Balki otam arvohi tilardi bizga bardosh.*

Onayizor ruhi betob farzandi boshida charx urayotganiga, otaning bezovta arvohi bardosh tilab turganiga o'quvchi ham ishonadi, tasavvur qiladi. She'rda shoirning ham lirik qahramonning ham nafasi sasi, shifokorlarning qadam tovushlarida eshiltilgandek tuyuladi. Sog'liq, qadr, mehr bebaho tushunchalar. Uni borida asrash kerak. Lekin qadr va mehr tanqis bo'lgan dunyoda sog'liqni asrab qolish qanchalik mashaqqatli ish.

*Kim bo'libman axir men, mehrga zor-ku bashar,*

*Chulg'ab olmish olamni zo'ravonlik va aqcha.*

*Oddiy bir to'p teparga qiyoslab ko'rsang agar,*

*Gomer va Tolstoyning narxi bo'larkan qancha?!*

"Vatan mehri"ning sakkizinchi-to'qqizinchi qismlarida o'z birin, ya'ni yaqinlarini yerga toptab, huzur topadigan qavmdan nafrat ohangi aks etadi. Lirik qahramon, avvalo, Vatanni sog'ingan, farzandlar, qavm-u qarindosh mehrini qo'msagan, shuning uchun ham mehrning har qanday ko'rinishini qabul qilishga tayyor, intiq. Bamisoli Bobur mirzo Vatanidan keltirilgan qovunni hidlab yig'lagani misoli, shoir yurti

<sup>1</sup> Shu manba. 98-bet.

<sup>2</sup> Shu manba.

shamolini, ona tuprog'i hidini olib kelgan singlisini bag'riga bosib ko'z yosh to'kadi. Qovun va singil epitlari birlashib, Vatan mehri degan tushunchani hosil qiladi. Zo'ravonlik va boylik boshqarayotgan noqis dunyoga boqar ekan, ilm-u irfonning, zakovatning, adabiyotning bahosini oddiy bir to'p'tepar daromadi bilan qiyoslaydi. Jamiyatdagi, hayotdagi tanazzulning manbaini izlashga harakat qiladi.

Abdulla Oripov nafsni qondirish yo'lidagi dahshatli harakatlar oqibatida hayotning tabiiy mezonini allaqachon buzilib ketganini ochiq yozadi. Dunyoda sodir bo'layotgan turli ofatlarga ham inson omilining ta'sirini ro'y-rost yozadi:

*O, inson omili, so'nggi sababkor,  
Tangri qoshidagi yolg'iz dalolat.  
O'zingning dardingga o'zingsan aybdor,  
O'zingga yuklaysan o'zing malomat.*

She'r 2007-yilda yozilgan. Shoir samolyot qulashi, kema cho'kishi, poezdning yo'ldan chiqib ketishi – barcha-barchasiga inson omilini sabab qilib ko'rsatadi. Dunyodagi o'lim tahdidining oshib borayotgani, insoniyat azoblari va intihoga naqadar yaqinlashib qolganimizdan ogohlantiradi. Shunday izdihomda (shoirning she'ridan) hamma narsaga ko'z yumib yashashning iloji bormi? Adolat, mehr, samimiyat, vijdon kamayib ketgan dunyoda yashashdan charchaydi. Shuning uchun shoir she'rlarini o'qiganimizda, uning lirik qahramoni ma'naviy o'limni allaqachon kutib olganini ko'ramiz. Afsuski, ko'p o'tmasdan, jismoniy o'lim sodir bo'ldi. Asarlarda muallifning nadomat tafsilotlarini uchratmaymiz. Qahramon va shoir kechinmasi va tuyg'ulari orqali anglaymiz. "Bu – Abdulla Oripovninggina emas, barcha zamon iste'dodlari chekiga tushgan azob. Lekin iste'dodning kuchi shundan omon chiqishi, taraqqiyot va ezgulikning ichi qora yovlariga qarshi haq so'zni qayrashi, ular yo'lga tashlagan tosh-u tikanlar ichidan tog'day yuk-salib, bosabot tura bilishidadir".<sup>1</sup>

Abdulla Oripov deyarli har she'rida haqiqatni, haq so'zni aytdi. Sevgisini ham, nafratini ham, nadomatini ham ro'y-rost qalamga oldi. "Abdulla Oripov – mutafakkir shoir. Shuning uchun ham u boshqalarning yetti uxlab tushiga kirishi mahol bo'lgan original badiiy umumlashmalarga kela oladi. Jumladan, uningcha, ijodga azm etgan shoir ranglarni zohir ko'zi bilan emas, botin diydasi bilan idrok etmog'i kerak. Chunki inson ko'zi suratlash anjomi bo'lmagani kabi, uning qulog'i ham oddiy some' emas – ular nozik mehroblarga tegishli, ya'ni ijodkorning nazari hech kim ilg'amagan go'zallikni payqashi zarur".<sup>2</sup>

Ijodiy konsepsiyasi, badiiy niyati va shaxsiyati bir bo'lgani uchun ham bu katta she'riyatda millat o'zini topdi. Milliy ohangga yo'g'rilgan bitiklaridan dardiga darmon, ruhiga quvvat, ongiga bilim oldi.

**Mamarajabov Dilshod Doniyorovich (Navoiy davlat  
Pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi)  
BADIY ASAR STRUKTURASIDA MIFLAR VA IJODKORNING FALSAFIY-IJTIMOY  
KONSEPSIYASI**

***Annotatsiya.** Maqolada Ch.Aytmatovning "Oq kema" qissasining sujeti va kompozitsiyasi tarkibidagi ikki asosiy ertak-rivoyatning mazmun-mohiyati va asosiy g'oya bilan aloqadorligi, yozuvchining falsafiy-ijtimoiy konsepsiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, inson, tabiat, jamiyat falsafiy kategoriyalarining o'zaro bog'liqligi, qahramon ichki dunyosi hamda tabiat hodisalarini parallel tasvirlashdan ko'zlangan g'oyaviy maqsad haqida fikr yuritiladi.*

***Аннотация.** В статье раскрыто содержание и суть двух основных сказок в сюжете и композиции рассказа Чингиза Айтматова «Белый корабль» и анализируется отношение к основной идее авторской философско-социальной концепции. Также обсуждается взаимозависимость философских категорий человека, природы, общества, внутреннего мира главного героя и идеологическая цель параллельного изображения природных явлений.*

***Annotation.** In the article, the content and essence of the two main fairy tales in the plot and composition of the story "White Ship" by Chingiz Aitmatov and relation to the main idea, the author's philosophical and social concept is analyzed. It also discusses the interdependence of the philosophical categories of man, nature, society, the inner world of the protagonist, and the ideological purpose of the parallel depiction of natural phenomena.*

<sup>1</sup> Ганиев И., Афокова Н. Абдулла Ориф фалсафаси. Т., "Muharrir", 2021, 58-bet.

<sup>2</sup> Жабборов Н. Замон, мезон, шеърят. Тошкент, Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2015, 29-bet.

**Kalit soʻzlar:** ertak-rivoyat, mifologik motiv, badiiy-estetik uslub, ijtimoiy muhit, mifopoetik talqin, inson va tabiat konsepsiyasi, ekologik emirilish, sinkretik usul.

**Ключевые слова:** сказка, мифологический мотив, художественно-эстетический стиль, социальная среда, мифопоэтическая интерпретация, концепция человека и природы, экологический распад, синкретический метод.

**Key words:** fairy-tale, mythological motif, artistic-aesthetic style, social environment, mythopoetic interpretation, the concept of man and nature, ecological decay, syncretic method.

Chingiz Aytmatovning katta shov-shuvga sabab boʻlgan «Oq kema» qissasi yozuvchining tabiat va inson masalalariga bagʻishlangan asarlari oʻrtasida yetakchi oʻrinni egallaydi. Muhimi shundaki, qissada tabiat, uning goʻzal parchasi boʻlgan oʻrmonni himoyalash inson qalbini muhofaza etish bilan chambar-chas tarzda ochib berilgan. Inson qalbini ulugʻlash, ardoqlash, shuningdek, vijdoniy burch muammolarini yozuvchi oʻz asarida muvaffaqiyatli hal etgan.

Adib yovuz kuchlarga qarshi Bola obrazini qarama-qarshi qoʻyadi. Tabiatan yumshoq Moʻmin bobosining tevarigidagi mard va sofdil kishilarni, togʻ bagʻridagi soʻlim oʻrmon boʻyoqlarini, shu oʻrmonda yashovchi beozor bugʻularni sevib qolgan Bola navqiron yoshlik, goʻzallik va kelajak ramzi sifatida namoyon boʻladi. Asarda Bola, Moʻmin bobo va Oʻrizqul oʻrtasidagi toʻqnashuvlar ezgulik hamda xudbinlik oʻrtasidagi toʻqnashuvlar sifatida talqin qilinadi. Qissa Bolaning oʻlimi bilan yakunlanadi, ammo bu yakundan hayotbaxsh optimizm ruhi yangrab turadi.

Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasi sarlavhasi ostida “Ertakdan soʻng” degan nom ham qoʻyilgan. Bu ikkinchi nom uning mifologik motivlar bilan bevosita bogʻliqligining ifoda-izohidek fikr uygʻotadi. Hatto, bu maʼno uning dastlabki jumlasida ham oʻz ifodasini topgan: “Uning ikki ertagi boʻlardi. Biri oʻziniki boʻlib, uni hech kim bilmasdi. Ikkinchisini esa bobosi soʻzlab bergandi. Keyin birortasi ham qolmadi. Gap shu xususda”.<sup>1</sup>

Asar sujeti va kompozitsiyasi tarkibida ikki asosiy ertak-rivoyat mazmun-mohiyati va ularning zamonaviy voqelikka daxldorligi masalasi atrofida fikr yuritiladi. Bunday mifologik motiv adib tomonidan bola tili va bola nigohi bilan, umumiy yoʻriqda “ertak” deb talqin qilingan. Darvoqe, qissa gʻoyaviy koʻlamida etakchi gʻoyaviy-falsafiy mohiyat tashiydigan Ona bugʻi haqidagi rivoyat va bola tasavvuridagi Oq kema toʻgʻrisidagi ertak maʼno-mazmuni sifatida talqin etilgan.

Qissa voqeligi bola nigohi, bolalarcha samimiyluk va begʻuborlik uslubi asosiga qurilgan. Bolaning nomi aytilmaydi, u, balki, barcha bolalar ramzi sanaladi.

Bola chekka togʻli makonda, oʻrmon yonida butalar ustidan hatlab, sakrab oʻtish qiyin boʻlgan xarsang toshlarni yonlab oʻtib, na oʻsiq oʻtlar, na xarsang toshlar oldida, bulr shunchaki narsalar emasligini bilsa-da, bir daqiqa ham toʻxtamay chopib-oʻynab yuradi. Ular ranjib qolishi, hatto chalib yiqitishi ham mumkin edi. “Mashina-magazin keldi. Men keyin kelaman”, –yoʻl-yoʻlakay u “choʻkib yotgan tuya”ga gap qotadi. U bagʻrini yerga berib yotgan sargʻish bucri toshni shuday deb atardi. Odatda, bola oʻz “tuya”sining yonidan oʻtganda, uning oʻrchagini silamasdan oʻtmasdi. Xuddi bobosi dumi choʻltoq axta otini shapatilab erkalagani kabi, u ham ishning koʻzini biladigan kishilar singari oʻz “tuya”sining yonidan oʻtib borayotib naridan, ber, sen sabr qilib turasan endi, mening ishim chiqib qoldi, deb uni shapatilab qoʻyardi. Uning xarsang toshida “egar” ham tayyor edi. Yarmi oq, yarmi qora bu chavkar toshdagi egarchada xuddi otda oʻtirgandek oʻtirgan boʻlardi. Yana, shu bilan birga, “boʻri” degan tosh ham bor – boʻriga juda oʻxshash qoʻngʻir, oq oralagan, yoldor va choʻng peshonali. Bola uning oldiga pisib emaklab borardi-da, merganlardek moʻljalga olardi. Lekin eng sevimli tosh, bu suv yutib ketgan qirgʻoqdagi kattakon xarsang tosh, yaʼni “tank” edi. Qarab tursang, “tank” qirgʻoqdan xuddi otilib chiqadi-yu, daryoni shovqin-suronga solib, kuchli toʻlqinlantirib, koʻpiklantirib, shiddat bilan yurib ketadigandek tuyulardi. Tanklar kinolarida axir shunday yuradi-ku, qirgʻoqdan suvga otiladi – tamom, ketdi! Bolagina kinolarni kam koʻrgan, chunki bu ovloq makonda buning imkoniyati yoʻq, shuning uchun ham koʻrganlari yodida qattiq oʻrnashib qolgan-da! Shunisi borki, bobosi baʼzn uni kino koʻrsatgani togʻ ortidagi – qoʻshni daradagi sovxoz naschilik fermasiga ham olib borardi. Shu sababli ham qirgʻoqda daryoni har qachon kesib oʻtishga shay turgan “tank” paydo boʻlardi. Yana bolakayning boshqa – “yaxshi” va “yomon” toshlari, hatto “ayyor” va “ovsar”lari ham bor edi. Adib shu tariqa ovloq tabiat bagʻrida yakka-yolgʻiz kun guzaronlik qiladigan bolani ana shunday ertaknamo voqealar, tabiat ashyolari bagʻrida tasvirlaydi. Aslida, ana shu begʻubor,

<sup>1</sup>Айтматов Ч. Танланган асарлар. Икки томлик, 2-том, Адабиёт ва санъат нашриёти, Т., 1978, 192-бет.

bezavol bolakaylar timsoli bo'lgan bolaning ona tabiat ashyolari bilan muomala-munosabatining o'zi ham mifologik motiv tizimining o'ziga xos tarkibiy qismi sanaladi.

Ch.Aytmatov asarlaridagi eng muhim g'oyaviy motivlardan, badiiy-estetik uslublardan biri bola obrazi, bolakayning ma'naviy olami bilan bog'liq talqinlar sifatida namoyon bo'ladi. Adib "O'zim haqida qaydlar" nomli tarjimayi holiga oid maqolasida yozgan edi: "Bolalik nafaqat beg'ubor va sharaflil olam, balki bolalik – insoniy shaxsiyat kelajagining yadrosi, javharidir. Aynan bolalik davrida odamning ona tilisi haqidagi bilim-ko'nikmalari, aynan shu davrda hech bir kishining uni o'rab turgan muhitga, ota tabiatga, milliy madaniyatga munosabat va tushunchalari shakllanadi".<sup>1</sup>

"Oq kema" qissasida yetakchi qahramon bola timsoli orqali olamni idrok etish, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik muvozanatini anglash, bolalarcha tushunish masalasi yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, asardan o'rin olgan rivoyatlar ishtirokchisi ham shu bolakaydir.

Kunduzlari, odatda, tush vaqtida borib bolakay serpoya shiroljinlar g'uj bo'lib o'sgan tomonga jo'nashni yaxshi ko'rardi. Shiroljin baland bo'yli, gulsiz, lekin xushbo'y hidli bo'ladi. Ular yonveriga boshqa o'simlikni yo'latmay to'da-to'da bo'lib, alohida-alohida holda o'sadilar. Shiroljin – bu bolakayning sadoqatli do'stidir. Ayniqsa, biror ko'ngilsizlik yuz berib, pinhona yilaging kelganda shiroljin ostidan yaxshi panoh topish mumkin. Ular o'rmon yoqasidagi qarag'ayzorlar singari yoqimli hid taratib turadilar. Shiroljinlar quchog'i qaynoq va sokin. Eng muhimi, ular bola uchun osmonni to'ib qo'ymaydilar. Chalquncha yotda, osmonni tomosha qilaver, degan maroqli xayol kechinadi bolakay. To'g'ri, avvaliga ko'z yoshlari orasidan hech nimani ajrata olmasan. Keyinchalik esa bulutlar suzib ketadi va sen o'ylayotgan narsalar osmonda, ko'z oldingda aniq namoyon bo'la boshlaydi. Bulutlar yaxshi biladi: ko'ngling ancha noxush, qayoqlargadir jo'nab qolging yoki uchib ketging keladi, toki seni topolmay oh-voh qilishsin: "Eh, bolagina, bedarak ketdiya, endi uni qayerdan topamiz", deb kuyib yurishsin. Bolaning jo'shqin tasavvuricha, bunday bo'lmasligi uchun – sen yo'qolib qolmasliging va jimgina yotib, bulutlardan zavqlanishing uchun sen nimani istasang, bulutlar o'shanga aylanib qoladi. O'sha birgina bulutning o'zidan turli-tuman shakllar yuzaga kela boshlaydi. Faqat bulutlar qanday shaklga kirayotganini ko'rib bilsang, bas, degan shirin xayol-tasavvurlar bilan yashaydi bolakay. Shiroljinlar tagi jimjit, ular osmonni to'smaydi. Shiroljinlar mana shunaqa iliq qarag'ayzor hidini ufurishi beg'ubor va bezavol bolakayning xalyo-tasavvur dunyosining eng shirin jihatlaridir. Ch.Aytmatov qissada bolakayning nomini keltirmaydi. Bu, umuman, bolalik, barcha bolalarning bezavol olami haqidagi ulkan va qayg'uli qo'shiq singari taassurot qoldiradi. Qissadagi Oq kema kabi ezgulikning, poklikning va xaloskorlikning timsoli bo'lgan kema haqidagi rivoyat-ertak bevosita bolakayning nigohi, xayoli va bevosita ishtiroki rakursi orqali talqin qilingan.

Xitoylik adabiyotshunos Pen Meyning talqinicha, "Oq kema" qissasida uch alohida, ayni vaqtda, bir-biri bilan uzviy bog'liq olam masalasi qalamga olingan – bu bolalarcha eratknamo pokiza Olam, mifologik va milliy-an'naviy Olam va eng shafqatsiz va yovuzlik hukmron real hayotiy Olam, natijada shafqatsiz dunyo o'z yovuzligi bilan bolalik samimiyatiga asoslangan beg'ubor dunyoniyam, mifologik-ertak dunyosiniyam, shafqatsiz real dunyo yovuzligi mahv etadi, eng beozor shaxs Mo'min bobo o'zi ixlos va e'tiqod qo'ygan Ona bug'ini o'ldiradi, jon-dilidan sevgan oq kema va unga yetish ilinjidagi bolani esa suv ummoni o'zini o'lim domiga tortadi; yozuvchi bu bilan eng shafqatsiz yakkahokimlikka asoslangan ijtimoiy muhit siyosatini fosh etayotgani ma'lum.<sup>2</sup>

Bolakayning xayol-tasavvur olami benihoya keng va fayzli manzaralarga boy: "Kema sekin uzoqlashib borardi. Trubasidan tutun burqsitib. Ko'lining ko'm-ko'k silliq sthida suzib borayotgan bu oppoq va uzun kema, baliqqa aylangan bolaning o'zi tomon suzib kelayoganini bilmasdi.

U shunday baliqqa aylanib qolishni orzu qilardiki, baliqning hamma joyi – tanasi, dumi, suzgich qanotlari, tangachalari unga o'tsa-yu, faqat ingichka bo'yinli, shalpanq quloqli, tiralgan burunli boshi o'zida qolsa, bas. Ko'zlari ham o'zicha qolsin. Lekin xuddi hozirgiday emas, chin baliqlarday ko'radigan bo'lishsin".<sup>3</sup>

Asarda mifologik talqin obyektlari o'zaro bir-biri bilan aralash, sinkretik usulda namoyon bo'ladi. Bola "Oq kema" xayoli bilan birga, olis tarixdagi qirg'izlar hayoti bilan bog'liq tarixiy-mifologik voqeelikni ham aralash holda tasavvur qiladi. Ch.Aytmatov shu tariqa, mifopoetik talqinlar asnosi asrlar osha inson va tabiat munosabatlari konsepsiyasi tizimidagi ekologik emirilishlar, insonning qora nafsi taqozosi bilan hayvonot va nabotot olamini qora nafs qurboniga aylantirish masalasidagi dardli qarashlarini olg'a

<sup>1</sup> Айтматов Ч. Эхо мира. Повести, рассказы, публицистика. Москва, издательство "Правда", 1985, с. 246.

<sup>2</sup> Пэн Мэй. Изучение творчества Чингиза Айтматова в Китае. Автореферат на СТА, с. 14.

<sup>3</sup> Айтматов Ч. Танланган асарлар. Икки томлик, 2-том, Адабиёт ва санъат нашриёти, Т., 1978, 218-бет.

suradi. Ch.Aytmatov “Oq kema” qissasining yetakchi qahramonlaridan Mo‘min bobo timsolida mushfiq, mutelik, bo‘ysunuvchanlik, ko‘nuvchanlik, beozorlik xususiyatlarini mujassamlashtirgan.

**Норов Отажон (ҚарДУ, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD))  
ИСЛОМИЙ ШЕЪРИЯТДА МАКОН ВА ЗАМОН ТАЛҚИНИ**

***Аннотация.** Мазкур мақолада исломий шеърятнинг макон ва замон, гоъвий-бадий хусусиятлари ҳақида сўз юритилади. Жумладан, XX аср интиҳоси ва янги аср остонасида юзага келган бадий тафаккурдаги мисли кўрилмаган ўзгаришлар фалсафий қамров даражасини тубдан ислоҳ қилиш имконини берди. Натижада шеър ва шоирлик улкан масала, масъулият эканлиги борасида атрофлича мушоҳада юритилди.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются формально-методологические, идейно-художественные особенности исламской поэзии. В частности, беспрецедентные изменения в художественном мышлении, произошедшие в конце XX века и накануне нового века, позволили коренным образом реформировать уровень философского освещения. В результате было подробно отмечено, что поэзия и быть поэтом – это огромная проблема, ответственность.*

***Annotation.** This article deals with the formal-methodological, ideological-literary features of Islamic poetry. In particular, the unprecedented changes in artistic thinking that took place at the end of the twentieth century and on the eve of the new century made it possible to radically reform the level of philosophical coverage. As a result, it was observed in detail that poetry and being a poet is a huge issue and a responsibility.*

***Калим сўзлар:** сўз, руҳ, поэтика, моддият, фалсафа, структура, ахлоқ, композиция, кечинма.*

***Ключевые слова:** слово, дух, поэтика, материальность, философия, структура, этика, композиция, опыт.*

***Key words:** word, spirit, poetry, materialism, philosophy, structure, ethics, composition, experience.*

Маълумки, ҳар қандай бадий шакл моҳиятан яхлит тизим қонуниятларига бўйсунди. Жумладан, лирикада бу ҳодиса ритм, бўғин, туроқ, қофия, композицион унсурлар негизида систем бутунлик ҳосил қилади. Айниқса, замонавий ўзбек шеърятини йиллар мобайнида шаклланган анъаналарнинг ҳақли равишда ворисидир. Булар нималарда кўринади? Сўзга муносабатда, ифодада қатъий қонуниятга амал қилишда, жаҳоний жанрларнинг барқарор шаклга эврилишида, фалсафий-рамзий оҳангларнинг ўзига хослигида, ғоя ва мазмун мутаносиблигининг меъёр чегарасида қўлланилишида десак, ҳақ гапни айтган бўламиз. Яъни, шоир қалби мудоми изланишда экан, даврлар ўтиши билан поэтик ахборот маълум маънода синтетик кўринишга айланади. Чунки вақт ва унинг оний лаҳзадаги қиёфаси шеърга кўчган шахсиятда сезилиши, табиий. Систем бутунлик масаласи ҳар қандай шеърнинг нисбий қонуниятини бўлиши мумкин, аммо у ҳар қандай изимни чеклаб ўтадиган ҳодиса эмас. Жаҳоний контекстда авангард фикр айтувчилар ҳам ўз даврининг пешқадамлари бўлиши билан даврлар силсиласида жамият умумий шовқинларига кўшилиб, туйғуларнинг шаффоф ифодаси, турланувчан моҳият касб этгани синалган жиҳатдир. Бизни энг кўп мурожаат қилган мавзумиз жорий шеършуносликда – исломий шеърларда макон ва замон унинг яхлитлиги масаласида эканлигида ойдинлашади.

*Сен қодирим, баҳодирим,*

*Аё руҳим, аё руҳ.*

*Сен пинҳоним, сен зоҳирим,*

*Аё руҳим, аё руҳ.*

*Сен ҳеч недан кўрқмажасан,*

*Ярим уйғоқ ухлажасан.*

*Сен раҳбарим, сен сарварим,*

*Баланд парвоз кабутарим.<sup>1</sup>*

Аллоҳ яратган яратикларидан энг олийси руҳдир. Ҳам қодир, ҳам пинҳон. ҳам зоҳир, ҳам уйғоқ, ҳам огоҳ. Кескин драматик зиддиятлар негизида талқин қилинган асарларда икки жиҳат эъти-

<sup>1</sup> Абдували Қутбиддин бор. Т., Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 2011, 125-бет.

борни тортиши тайин: жамият ва одамзод маиший турмушини акс эттириш орқали, ўзилигини англаш принципларининг бўшлигида бўлса, иккинчиси ўз даврининг мақсад муддаосини тўлақонли ҳис қилиб улгурмаганлигида қабариб кўринади. Бир томондан, лирик дoston, лирик шеър, лирик кечинма табиатида мавжуд тузум ва ақидаларнинг акс этиши, иккинчи қирраси муайян бирликлар вазний ўлчовининг ўз маромида ифодаланмаганлигидадир. Замон ва унинг кайфияти талатўп турмуш замзамаларида қайта тобланади. У муаммони ҳис қилади ва теран англашга қодир. А.Кутбиддин ижодиётида мукаммаллашув жараёнини билиш қийин эмас. Улар ўз туйғуларида маҳоратни аллақачон ўзлаштирган, замонавий мавзуларда жамият ҳаётини таҳлил қилишга эришган ижодкордир.

Дарҳақиқат, мазкур қараш бир томондан ўзини тўлақонли оқлагандек. Масалан, А.Кутбиддин ижодидаги айрим шеърларни тўлақонли яхлит, тугал бир кайфият, манзарани акс эттирган деган даъводан йироқмиз. Негаки, сўз ва унинг зиммасига юклатилган маъно ҳар доим ўзига хос бир кайфиятни акс эттириши мумкин эмас. Шу маънода, фалсафий-эстетик категория ҳамма вақт стротип бўла олмайди. Буни адабиётшунослар ҳам эътироф этишган. Жумладан, кўп ҳолларда, шоир наздида дунё тўла-тўқис метафорага бурганган. У ўзига хос услубий манера бўлиши мумкин, аммо ундаги маъно жилвалари поэтик яхлитлик касб этолмаса, уни фалсафа ва эстетик шеърини манзума деб айта олмаймиз.

Таниқли адабиётшунос Н.Жабборов таълкинича: “Инсон замон ва маконда кечаётга ҳодисаларда истаб-истамай иштирок этади. Шоир талқинича, бу ҳодисалар кўнгил ботинига мутаасил равишда доғ солади”.<sup>1</sup> Айтиш жоиз, А.Кутбиддин ҳар бир дostonу шеърларида ихчамликка қараб интилади. У сўзга ортиқча вазн юкламайди. Икки қатор сўздан ибрат шеърини мисраларни ёзиш машинининг ҳам уддасидан чиқа олган. “*Марварид териб бераман, Фақат кўрсат менга кўнглингни*” Мусо пайғамбар Аллоҳга жамолингни кўрсат дейди. Аллоҳ мани курмоқчи бўлсанг, тоққа қара, дейди. Тоғ эса Аллоҳни нигоҳига чидай олмай, чилпарчин бўлади. Мусо пайғамбар эса ҳушидан кетади. Шоир эса исломий қарашларини замонавий йўл билан айтишга ҳаракат қилади. Шеърни таснифий характерда баҳолайдиган бўлсак, бадиий хронотоп шакллари олам ва одам муаммосига сингиб, умумий дард пафосини юзага чиқишида калит вазифасини ўтайди.

*Менга азоб бермажаксан,  
Асло, хароб кўрмажаксан.  
Нур ёғарсан, нур ёғарсан,  
Завқ айшига тўлдирарсан.  
Хизматингни қилай тун-кун,  
Сен оқавер уриб тўлқин,  
Саховатли қадоғимсан,  
Муруватли садоқчимсан.<sup>2</sup>*

Аллоҳ бандаларини огоҳ яшаши саодатини берганини бешмаҳал қилинган ибодат билан амалга ошишини айтади. Натижада одамзод феъл-атворида сингиб кетган шайтоний нафс билан ҳайвоний истак замзамаларида пишиб етилган инкирозли туғёнлардан ҳамиша огоҳ бўлишга чақиради. Бу даъват ҳар бир кўнгилни тозариш сари олиб борса, не тонг!

Ҳар қандай бадиий асар (наsr ва назм)да бадиий макон ва замон муаммоси адабиётшунослик илмининг ҳамиша долзарб муаммоларидан бири бўлиб келган. Айниқса, бу жараён назмий асарларда ўзига хос тарзда намоён бўлишини олимларимиз эътироф этишган. “Туйғу, маълумки, жисм ва жонда, кўнгилда кечмиш руҳий-жисмоний кечинмалар, руҳий ҳис туйғулар мажмуидир. Шеър туйғунинг сўздаги намоёни, ифодаси экан, ҳеч курса шу жиҳати билан у мусиқага қондош соҳага айланади”.<sup>3</sup> Дарҳақиқат, лирик ифода табиатида шоир қалбининг интим кечинмалари зухур қилинар экан, унда бани башарият олдида турган энг катта муаммодан, инсон хотирасини абадий тўлғонишларга маҳкум қилиб келаётган энг кичик заррагачага чулғаб олиши табиий бир ҳолдир. Айни бир дамда, муаммога янгича тамойиллар негизда ёндашиш масалани аниқ ечими томон силжишида муҳим аҳамият касб этади.

“Бадиий адабиёт нақадар қамровдор ва эркин ижод тури ҳисобланмасин, бу ҳодисага хос янги қонуниятларни кашф этиш осон эмас. Шунинг учун жаҳон адабиётшунослиги Аристотелдан

<sup>1</sup> Жабборов Н. Замон, мезон, шеъринг. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 2015, 192-бет.

<sup>2</sup> Абдували Кутбиддин бор. Т., Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 2011, 125-бет.

<sup>3</sup> Глобаллашув: бадиий талқин, замон ва қаҳрамон. “Фан”, 2018, 230-бет.

бугунгача қўлга киритган ҳар бир янгилик қиймати Эйнштейн, Нютон, Менделеев кашфиётларидан қолишмайди”. Шундай экан, лирикада бу ҳолат ҳам шакл, ғоя, услуб жиҳатидан жиддий тафовутланади. Хўш, инсон қисматини жажжи ва ихчам тарзда кашф қилиш назмнинг умумэстетик вазифадорлигини эътиборга олсак, уни қай тарих баҳолаш мумкин? Ундай бўлса, унинг мезонлари Арасту давридан буён ўрганилиб келаётган эса-да, нега муаммони тўла-тўқис ҳал қилишнинг имкони бўлмапти, қабилдаги савол туғилиши, табиий. Афлотун “Давлат” номли асаридан “Ровийлар ва шоирлар нималар ҳақида гапирмасинлар, ҳаммаси ўтган, ҳозирги ва келаси (замон) ҳақидаги қиссадир”.<sup>1</sup> Жавоб шундайки, давр билан қўл ушлашиб кетаётган замондош инсон билан шоир мақсад-муддаосини бирлаштириб турадиган хусусийдан умумий маъно мужассамлиги ойдинлашади.

*Сен қодирим боҳодирим,  
Ҳам ботирим, ҳам нодирим.  
Сен паноҳим. Сен зоҳирим,  
Ҳам ибтидо, ҳам охири.  
Аё руҳим, Аё руҳ,  
Суфла, суфла, суф-суф.  
Аё руҳим, аё руҳ,  
Суфла, суфла, суф-суф...<sup>2</sup>*

Сен кодирим, дейди шоир, ҳа, руҳ танани тарк этиши руҳнинг озодлигидир. Руҳ ибодат билан баландлашишига ишора бор. “Бадий вақт ва бадий макон образнинг муҳим тавсифи бўлиб, бадий воқеликни қабул қилишни таъминлайди ва асар композициясини ташкил этади. Сўз санъати маконли, пластик санъат турларидан ўларок, ўсиб боровчи. Вақтли санъат гуруҳига мансубдир. Бироқ адабий-бадий образ матндаги воқеаларнинг кетма-кетлигига қараб, шаклан вақт бўлиб тармоқланиб боради. Ўзининг мазмунига кўра, оламнинг маконий-вақтли картинасини, унинг рамзий-мафкуравий, қадрият аспектида ифодалайди”.<sup>7</sup> Ўз-ўзидан аёнки, бадий вақт ва замон масаласи даврлар ўтиши билан ҳар бир ижодкор поэтик иқлимида ўзига хос кредо вазифасини ўташи аниқ бўлиши таъкидланмоқда.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, А.Қутбиддин ҳар бир исломий шеърда, достонида бадий макон ва замонда кечаётган умуминсоний муаммоларни қаламга олади. Айниқса, ўзи яшаб турган коинот сирларини билгиси, унга исм бергиси, уни асраб ардоқлагиси, бошқаларни ҳам шунга давват қилгиси келади. Натижада ўзининг изтиробларини шеърини банд, достоний эпик кўлам бағрида жилвалантиришга ҳаракат қилади. Бу эса, ўз навбатида, шоир “мен”ини аниқ мақсад сари ёритишга ҳаракат қилганлигида қабариб кўринади.

#### **Ro‘zиеva Dilfuza Salimboevna (BuxDU Tabiiy yo‘nalishlarda chet tili kafedrasі o‘qituvchisi) INGLIZ VA O‘ZBEK ROMANCHILIGIDA XRONOTOP MUSHTARAKLIGI**

**Аннотация.** *Mazkur maqolada Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” va Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanlarida badiiy xronotop muammosi tadqiq etilgan bo‘lib, unda har ikkala yozuvchi ijodiga xos o‘xshashlik va tafovutlar o‘zaro chog‘ishtirilgan. Shuningdek, qahramonlarning voqelikka, o‘tmishga va davrga bo‘lgan munosabatlari masalasi haqida fikr yuritilgan.*

**Аннотация.** *В статье исследуется проблема художественного хронотопа в «Портрете Дориана Грея» Оскара Уайльда и «Вечного странника» Исаджона Султана, дается сравнительный анализ, выявляются сходства и различия между произведениями обоих писателей. Также обсуждается отношение главных героев к реальности, прошлому.*

**Annotation.** *This article examines the problem of artistic chronotope in Oscar Wilde’s Portrait of Dorian Gray and Isajon Sultan’s The Eternal Wanderer, comparing the similarities and differences between the works of both writers. It also discusses the heroes’ relationship to reality, the past, and the period.*

<sup>1</sup> Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Т., 2015, 73-бет.

<sup>2</sup> Абдували Қутбиддин бор. Т., Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 2011, 125-бет.

<sup>7</sup> Литературная энциклопедия терминов и понятий. Под ред. А.Н.Николюкина. М., НПК, “Интелвак”, 2001, с. 1600.

**Kalit soʻzlar:** xronotop, intellektuallik, makon-u zamon, arxitektonika, gʻoyaviy-badiiy yetuklik, falsafiy gʻoya, badiiy talqin, poetik model, tarixiy-afsonaviy shaxslar, maʼnaviy-ruhiy evrilish.

**Ключевые слова:** хронотон, интеллектуальность, пространство-время, архитектура, идейно-художественная зрелость, философская идея, художественная интерпретация, поэтическая модель, исторические, легендарные личности, духовно-духовная эволюция.

**Key words:** chronotope, intellectuality, space-time, architecture, ideological-artistic maturity, philosophical idea, artistic interpretation, poetic model, historical, legendary figures, spiritual evolution.

Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” va Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanlarida badiiy xronotop muammosi. Maʼlumki, xronotop muammosi fanlar shohi falsafaning, unga yondash sotsiologiya, teologiya, siyosatshunoslik, etika va estetika fanlarining munozarali masalalaridan sanaladi. “Xronotop” mazmunan makon va zamon mohiyatini anglatib, olis-yaqin makonlarning (tarixiy darlarining, bugunning) masalalari va ularning zamon bilan (aynan bugungi, biz yashab turgan davr bilan) aloqadorligini, hatto kelgusi istiqbol zamoni bilan bogʻliqligini, hamnafasligini, daxldorligini anglaguvchi, mohiyatan murakkab ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-maʼrifiy masala kabi tushuniladi. Ayni vaqtda bu adabiyot, sanʼat asarlariga ham bevosita daxldor ekanligi bilan muhimdir. Mantiqan bilish mumkinki, adabiyot sanʼatning tasvirlash obyekti ham ayni shu tarix, mamlakat, el yurt (yaʼni makon) va uning olisyaqin, bugungi davr (zamon) bilan bogʻliq asosi hisoblanadi. Adabiyotshunoslik va estetika fanida badiiy makon – badiiy zamon (badiiy xronotop) masalasini oʻrganish, umumlashtirish ancha murakkab muammolar sirasiga mansubdir. Masalan, “Navoiy” romanida (Oybek) XV asr Turkiston, Xuroson muzofotlari (tarixiy davri) hayoti, mashhur siymolari (Navoiy, Boyqaro, Xondamir kabi) faoliyati qalamga olinar ekan, bularning bugungi zamon bilan aloqadorligi, ahamiyati, ibratini, fojiasi kabi gʻoyaviy maqsadlar asar mantiqida namoyon boʻlishi lozim va oʻquvchining “qalbini gʻubordan poklab, atrofimizni oʻragan olamni chuqurroq anglashga koʻmak beribgina qolmay, eng buyuk sanʼatkor tomonidan olam hodisalarining mukammal darajada uygʻun va barkamol yaratilganini boshqarilib turilishiga tasannolar oʻqimoqqa ragʻbat uygʻotishi” kerak.<sup>1</sup>

O.Uayld oʻz asarlarida xronotop talabiga amal qilgan, makonu zamonlarni oʻzaro bogʻliqlikda aks ettirgan faylasuf yozuvchi edi. Uning ertaklari va dramatik asarlarida buning oʻziga xos jihatlari koʻzga tashlanadi.

“Dorian Greyning portreti” romani makoni Yevropa markazi, uning Angliya, Fransiya kabi davlatlari bilan aloqador. Asar voqealari, qahramonlar faoliyati, asosan, oʻsha davr bilan bogʻliq boʻlib, adib oʻzi yashab turgan vaqtdagi, aynan koʻrib bilib yurgan voqea-hodisalarni qalamga olgan. Oradan bir asrdan ziyod vaqt oʻtib, bugungi kunda esa bu voqealar, insoniy taqdirlar zamonaviy ahamiyatga ega boʻldi. Xronotop adabiy-badiiy modelidan koʻzlangan asosiy muddao ham shundan iborat: har bir asarda tasvir asosi boʻlgan voqealar, gʻoyalar, taqdirlar undan keyingi zamonlar uchun ham qadrlil va ibratli boʻlishi lozim.

“Dorian Greyning portreti” asariga uning yaratilgan vaqtdan soʻnggi davr va kitobxonlar uchun ahamiyati, maʼnaviy ibratini, tanqidiy fikr va tanbehi nuqtai nazaridan qarash, tahlil qilish va baho berish lozim boʻladi.

Yozuvchi kundalik hayotini, asosan, boyonlar muhitidagi maishat va fahshga, gʻiybat va hasadga, xiyonat va qotillikka asoslangan hodisalar silsilasidan foydalangan holda talqin etgan. Bundan muddao shuki, oʻziyam burjuaziyaning adolatsiz qonunlaridan jabr koʻrgan maʼnan yetuk shaxs sifatida O.Uayld bu hayot kirdikorlarini koʻrsatish va ayni vaqtda fosh qilish maqsadini koʻzlagan.<sup>2</sup>

Toʻgʻri, roman sahifalarida boyonlarga xos toʻkin hayot, serfayz davralar, madaniy qiyofali kishilar faoliyati oʻta maroqli badiiy joziba bilan tasvirlangan bu bashang va serhasham hayot ortidagi yovuzona qilgʻiliklar toʻqlikka shoʻxliklar, fahshga botgan ayollar-u yengiltak erkaklar hayoti parda bilan qoplangan boʻlib, ularni ziyrak kitobxon ilgʻab oladi. Asar arxitektonikasi markazida turgan Dorian Grey hayoti, uning madaniy qiyofasi, ammo, asta-sekin maʼnaviyatsizlik, olchoqlik, qotillik sari yuz tutishi, durustgina madaniy darajasini tanazzul sari boshlashi sokin lirik chuqur psixologik tahlillar orqali asoslab berilgan.

Bu yetakchi timsollarning faoliyati roman xronotopiga oid yondash makon va zamon maydonida kechadi. Burjuaziya bagʻridagi bu toifa insonlar oʻz isteʼdodi, madaniy olami bilan boshqa toifalardan ajralib turadi. Ammo aynan shu kishilar maʼnaviy tanazzulga giriftor boʻladi. Yozuvchi atayin hayotda

<sup>1</sup> Gʻaniyev I., Ibragimov R. Chingiz Aytmatov va XXI asr. “Akademnashr”, Toshkent, 2016, 11-bet.

<sup>2</sup> Uayld Oskar. Dorian Greyning portreti. Roman. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2000, 1,2,3-sonlari.



o'ziga yaqin soha vakillarini obraz sifatida tanlab, ayni shu jamiyatnig ilg'or vakillari fojiasini ko'rsatish orqali burjuaziyaning, kapitalistik tuzumning kirdikorlari va chirib borishi bilan bog'liq fojialar ko'lamini ta'kidlashni niyat qilgan.

Asarning umumiy makon-zamon tizimi nuqtayi nazaridan qaraganda, u Dorian Greyning xushbichim, yoqimli bolalik chog'laridan bosib o'tgan maishat komidagi bulg'anch hayoti manzaralarining rassom Xolluordni o'ldirgan, o'ziyam fojiali o'lim topgan damlarigacha taxminan o'n-o'n besh yillik hayoti timsolida mujassam bo'lgan. Bu makon-zamon tizimida tanazzulga qarab borgan hayot yo'llari burjuaziyaning ichdan chirishi kabi katta ijtimoiy illatning poetik modeli sanaladi.

Isajon Sulton "Boqiy darbadar" romanida xronotop masalasi yillar, asrlar silsilasi jarayoni bilan bog'liq shakllarda o'ziga xos murakkab poetik modelda tarkib topgan. Necha zamonlar, necha makonlar aro tug'ilgan, o'sgan-ulg'aygan, shakllangan turli kishilar timsoli garchand bilvosita bir-biri bilan aloqadorlikda bo'lmas-da, mohiyatan mushtarak g'oya boqiylik umidida o'zlaricha har qaysisi go'yo alohida makon, alohida zamon ichra harakat faoliyatda namoyon bo'ladilar.<sup>1</sup> Ammo, romanning umumiy g'oyaviy konsepsiyasiga binoan, ularni yagona makon (ona yer) yagona zamon (bugungi globallashayotgan dunyo) o'z bag'rida yakdil qilib turadi.

Filologiya fanlari doktori Dilmurod Quronov yozadi: "...romanda yaralmish inson "Tangrining irodasiga isyon o'laroq", yaratgan eng oliy mavjudot – klon ham olamning nechog'li mukammal yaratilganini idrok etgach, mazkur silsilaaro o'z o'rnini topishga harakat qiladi". Ammo hayhot... topmaydi, topolmaydi.

Shu bois ham dunyolarga sig'maydi, olamni bunchalar mukammal yaratgan Zotni "izlab topish, bu butun olam Yaratishining sabablarini O'zidan so'rash uchun" bosh olib chiqib ketadi. U ko'zlagan manzil belgisi: izlagani "Uning irodasiga va mening yaratilishimdan maqsadiga mos... keladigan makon va zamon". Biroq, hayhot... u tushgan yo'l qayon eltadi, ko'zlagan manziliga yetadimi va yo o'sha manzil darbadarga qismatdosh bo'lib qoladimi?.. Kim biladi, "butun olam ilgari lab borayotgan turli-tuman yo'l-larning qay biri haq yo'l? Sobit ishonch bilan "qismatimiz shu sahroda yashab Parvardigorga ibodat qilish va anglashimiz yetganida jonmizi O'ziga topshirishdir", deya kundalik yumushlariga mashg'ul badaviylarmi? Va yo yorug' olamga etak silkib, butun borlig'i qalbiyu aqli bilan Yaratganga yuzlangan avliyoning yo'limi?.."<sup>2</sup>

Adabiyotshunos mazkur romanning muhim g'oyaviy pafosini teran sharhlash barbarida, ayni vaqtda, uning murakkab xronotopi masalasini ham ta'kidlagan.

"Boqiy darbadar" romani yaxlit olganda notakror makon-zamon kesimini xarakterlaydigan asar bo'lgani holda, har bir obrazning o'z taqdiriga oid makon-zamon yo'nalishi ham bor. Masalan, etikdo'z timsoli asarda boshdan oxir ishtirok etadigan obraz bo'lib, boqiy darbadar mohiyatini xarakterlaydi.

U ilohiy kuchga ega Muborak kishi qatl uchun olib kelinayotganda, ongsiz olomon qatori bu begunoh bandani mazax qilgan, u horg'inlikdan kulbasining devoriga suyanganda, jahl bilan itarib yuborgan. Ana shu Oллоh panohidagi bandaga qilgan nohaqligi tufayli Xudoning beaded jazosiga, abadiy sarson-sargardonlik qismatiga mahkum bo'lgan.

"Boqiy darbadar" romanida tarixiy, afsonaviy shaxslar obrazi bilan birga, yana turli tabiat ashyolarining, tarixiy shahar yoki yodgorliklarning tabiat jonivorlari va parrandalarining timsollari ham jonli ravishda yaratilganligini, ularga ham ma'lum g'oyaviy vazifa yuklanganligini sezamiz. Masalan, bepoyon cho'l-sahrolar, bahaybat tog'lar, toshbaqa, yovuz niyatli qora chumchuqlar, qadimiy shaharu qal'alar, oq bulutlar, burgut, to'rg'ay... Mana shu timsollarning makonu zamon ichra nazardan kechirilishi tasvirlanishi davrlarni, siyosiy-ijtimoiy mafkuralarni, taraqqiyot darajasini, ma'naviy-ruhiy evrilishlarni tasavvur qilish imkonini bergan. Ayrim misollarni ko'rib o'tsak bo'ladi.

Sahrolar olis makonlar bag'rida qum ko'chib, huvillab yotgan vahimali ma'vo bo'lsa, bugungi zamon paxta, g'alla dalalari, bog'-rog'lar, uylar, ma'muriy binolar kabi insoniy jamiyat tusini olgan.

Toshbaqa "...Uzorida Alloh kalimasi bo'lgan toshbaqaning paydo bo'lishi xabari bir mo'jiza yangilig' yashin tezligida tarqaldi. Odatda, mo'jizalar va g'ayrioddiy narsalar qandaydir ulkan bir hodisaning boshlanishidan darak berib namoyon bo'ladi. Toshbaqa ham nimanidir darakchisi ekani ayon".<sup>3</sup>

Sehrli ilohiy mohiyati bilan bu Bobo toshbaqa ko'plarning, Somon amirining ham diqqatini tortadi. Uzoq vaqt qidirishlar natijasida podsho askarlari uni qal'a devori ostidan topib keladilar. Shoh toshbaqa

<sup>1</sup> Isajon Sulton. Boqiy darbadar. "Sharq yulduzi" jurnali, 2010, 6-son, 2-bet.

<sup>2</sup> Quronov D. O'ylashga undovchi asar. "Sharq yulduzi", 2010, 6-son, 53-bet.

<sup>3</sup> Isajon Sulton. Boqiy darbadar. "Sharq yulduzi", 2010, 6-son, 2-bet.

uchun maxsus xona qurdiradi. Shohona yashayotgan Toshbaqa kasallanib o'ladi. Bu o'z erki bilan tabiat bag'rida yayrab yurgan tabiat jonivori uchun zindondek gap edi. Yelkasida Alloh kalimasini ko'tarib yurgan toshbaqani ilohiy jonivor bilib, tepalik ustiga dafn qilib, qabr ustiga tug' qadaydilar. Asta-sekin bu joy muqaddas makon sifatida ziyoratgohga, kasallariga shifo tilaydigan joyga aylanadi.

"Ishonuvchan kimdir esa toshlarni qalashtirib, bir daxma qurdi, o'zi esa u erning shayxi bo'lib oldi. Keyingi yillarda u yer Bobo Toshbaqa maqbarasi deb ataladigan bo'ldi, toshbaqaparastlar ko'paydi".

Makonu zamon tizimida oddiy toshbaqa qabri buncha e'zoz va ilohiy ruhiy davo maskaniga aylanib qolganligini Toshbaqa uzoridan Alloh kalimasining mavjudligi, demak, unda Xudoning ilohiy davo mujdasi tarkib topganligi bilan aloqador. Bu yozuvchining qaydiga, qadimiy Marv (Mari) shahri yaqinida bo'lgan Bobo Toshbaqa maqbarasi bugungachayam najotbaxsh maskan bo'lib kelayotganligi ehtimoldan xoli emaski, uning zamon kategoriyasidagi ilohiy mohiyati shu bilan o'lchanadi.

"Boqiy darbadar" romanida necha ofatlar: bo'ronlar, bosqinlar, qiruvchi harbiy uchoqlar hujumi ro'y berishidan oldin shu qora chumchuqlar namoyon bo'lganligini kuzatamiz. Necha asrlar yurtimiz va xalqimizga qutqu solib kelgan yovuz qora chumchuqlar harakatiga, nihoyat, XXI asrda nuqta qo'yiladi: "... butunjahon ovchilar jamiyati barcha ovchilarni Xitoydan kelgan qora chumchuqlarni qirib tashlashga chaqiradi. Epidemiologiya xizmati vakilining ta'kidlashicha, ular qush o'latini tarqatishlari mumkin".

Turonzaminga ko'z olaytirgan biron-bir bosqinchi jazosiz qolmagan.

Intellektual roman janrining yangicha yondashilgan namunasi sanaladigan "Boqiy darbadar"da olimlar, ilmiy kashfiyotlar, ayniqsa, sun'iy odam yaratish tajribalari bilan bog'liq talqinlar e'tiborni tortadi. Taniqli olim Ziyoning o'g'li navqiron olim, yangilik va taraqqiyot uchun chog'langan iste'dodli tadqiqotchi yigit faoliyati bilan olis moziydagi jahonshumul mutafakkir olimlarimiz o'rtasidagi aloqadorlikda ham roman xronotopining yorqin namunasini kuzatish mumkin. Navqiron olimning nomi aytilmagan. Bu o'zini ilm-fan rivoji uchun bag'ishlagan, bu yo'lda barcha mashaqqatlarga tayyor turgan yosh va navqiron zakovat egasining tipik va umumlashgan timsoli sanaladi.

Ota o'g'il munosabatlaridagi mumtoz e'tiroflar sharqona tarbiyaning hosilasi, ulug' bobokalonlar o'gitlarining mevasi kabi yorug' taassurot qoldiradi. Otani adolat va iymon ramzi deb bilgan farzand hech nimadan kam bo'lmaydi. Demak, bu masalada ham komil avlodlar o'gitini bugungi globallashgan zamonada ado etayotgan, o'sha ulug' ma'naviyatni qabul qilib olgan farzand yosh olim bilan ajdodlar o'rtasidagi aloqadorlik roman xronotopi tizimining ibrat hosil qilgan jihati sifatida xarakterlidir.

Xronotop masalasi nuqtai nazaridan qaraganda, "Dorian Greyning portreti" va "Boqiy darbadar" romanlarida turlicha, anig'i, o'ziga xos yo'l tutilgan. "Dorian Greyning portreti"da voqealar olis-yaqin makonu zamonda emas, bir xil davr XIX asr Yevropa muhiti bag'rida kechadi. "Boqiy darbadar" esa minglab yillar xronotopini o'zida aks etirishi bilan tarixiy, zamonaviy, hatto kelajak asari xarakteriga ega bo'lgan.

Yozuvchilar iste'dodi tufayli asarda ko'zlangan g'oyalar ko'lami tabiiy, maqsadga xizmat qiladigan yo'riqda talqin qilingan. Bunda badiiy xronotop modeli ham yaqindan yordam bergan.

**Mansurova Nodira Bobojonovna (Navoiy davlat**

**Pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi)**

### **MAGIK REALIZMNING YONDASH ADABIY HODISALARGA MUNOSABATI**

**Annotatsiya.** Maqolada mazkur ko'lamdor yo'nalishning o'ziga o'xshash va yondash janrlar, adabiy oqim va hodisalar bilan bog'liqligi, o'zaro munosabatlarini o'rganish asnosida ham sohir realizmning qator muhim xususiyatlari haqida fikr yuritiladi, magik realizmning yondash adabiy hodisalariga munosabati tekshiriladi. Magik (sohir) realizm, Renessans (Uyg'onish davri) realizmi, ma'rifatparvarlik realizmi, naturalizm, verizm, neorealizmning bir-birdan farqli jihatlari va ularga xos xususiyatlar dunyo adabiyoti misolida tahlil qilish orqali xulosalar chiqariladi.

**Аннотация.** В статье рассматривается связь магического реализма, этого масштабного направления со схожими и родственными жанрами, литературными течениями и событиями, а также ряд важных особенностей магического реализма, исследуется отношение к литературным событиям. Выводы делаются путем анализа различных аспектов магического реализма, реализма эпохи Возрождения, реализма эпохи Просвещения, натурализма, веризма, неореализма и их характеристик на примере мировой литературы.

**Annotation.** The article discusses the connection of this large-scale direction with similar and related genres, literary currents and events, as well as a number of important features of magical realism.

the relation to literary events is examined. Conclusions are drawn by analyzing the different aspects of Magic realism, Renaissance realism, Enlightenment realism, naturalism, verism, neorealism, and their characteristics on the example of world literature.

**Kalit soʻzlar:** realizm, magik (sohir) realizm, Renessans (Uygʻonish davri) realizmi, maʼrifatparvarlik realizmi, naturalizm, verizm, neorealizm, xalqchilik, tarixiylik, yuksak badiiylik.

**Ключевые слова:** реализм, магический реализм, реализм эпохи Возрождения, реализм эпохи Просвещения, натурализм, веризм, неореализм, народничество, история, высокое искусство.

**Key words:** realism, magical realism, renaissance realism, enlightenment realism, naturalism, verism, neorealism, populism, history, high art.

Realizm badiiy adabiyot va sanʼatning ifoda vositalari orqali voqelikni, mavjud borliqni oʻziga oʻxshash shakllarda haqqoniy aks ettirishi adabiyotshunoslik va sanʼatshunoslik boʻyicha koʻplab manbalarda taʼkidlangan. U adabiyotda hayotni voqelikdagi hodisalarga muvofiq ravishda obrazlar orqali tasvirlash metodi sanaladi. Ushbu yirik yoʻnalish tashqi olamni bilish vositasi sifatida voqelikni barcha ziddiyatlari bilan qamrab olishga intiladi, yozuvchiga hayotning barcha tomonlarini cheklanmagan holda aks ettirish imkonini beradi. Unga asoslangan adabiyotda hayot haqiqatini tasvirlash tamoyili ustuvor.<sup>1</sup> Bino-barin, realizm jahon adabiyoti taraqqiyotidagi eng yuksak bosqichdir.

XIX asrda u oʻz taraqqiyotining yangi bosqichiga koʻtarildi. Taʼkidlash kerakki, realizm metod sifatida shakllangan davr masalasida turlicha qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar hayotni realistik tasvirlash usullari qadim zamonlardan beri davom etayotganini nazarda tutib, antik davr realizmi, Uygʻonish davri realizmi, maʼrifatparvarlik realizmi (Boshqacha aytganda, XVIII–XIX asrlar realizmi. XIX asrning oʻrtalari realizm gullab-yashnagan palladir), shuningdek, neorealizm (XX asr realizmi), sotsialistik realizm, magik (sohir) realizm singari tushunchalarni ilgari surishgan. Yana kimlardir uning XVIII asrda oilaviy-maishiy va ijtimoiy-maishiy romanlar yaratilishi asnosida paydo boʻlganini taʼkidlashgan. Ammo aksar adabiyotshunoslar realizm XIX asrning oʻttizinchi yillarida Yevropa adabiyotida shakllanganligi haqidagi qarashni qabul qilishgan.

Yuqoridagi maʼlumotlardan kelib chiqib, juda qadim zamonlardan beri mavjud bu yoʻnalishning turli davrlardagi bosqichlari va areali (tarqalgan hududlari) asosida realizmning asosiy turlarini quyidagi jadvalda koʻrsatib oʻtamiz.

Realizm turi	Davri	Tarqalgan hududi
Antik realizm	Miloddan avval va milodning boshlari	Qadimgi Yunoniston va Rim
Renessans (Uygʻonish davri) realizmi	XIV–XVI asrlar	Italiya, Fransiya, Angliya, Ispaniya
Maʼrifatparvarlik realizmi	XVIII–XIX asrlar	Asosan, Fransiya
Naturalizm	XIX asr oxiri – XX asr boshlari	Fransiya, AQSH
Verizm	XIX asr oxiri – XX asr boshlari	Italiya
Neorealizm	XX asrning 40–50-yillari	Asosan, Italiya, qisman Fransiya
Sohir (magik) realizm	XX asrning 20-yillari (ayrim qarashlarga koʻra, XX asrning birinchi yarmi)dan hozirgacha	Asosan, Lotin Amerikasi, qisman Yevropa, Osiyodagi ayrim mamlakatlar

Shu oʻrinda yana bir tanqidiy realizm va sotsialistik realizm atamaları ham borligini, bu ikkalasi, aslida, sobiq Ittifoq va hozirgi zamon Rossiya adabiyotshunosligi va sanʼatshunosligiga xos ekanini eslatib oʻtmoqchimiz. Realizmning bu ikki koʻrinishi aslida jahon fanida yakdillik bilan qabul qilinmagan, siyosiy lashtirilgan marksistik mafkura nuqtayi nazarini ifodalaydigan psevdoilmiy (soxta ilmiy) tushunchalardir.

Realizmning shakllanishi, odatda, Uygʻonish davri bilan bogʻliq holda talqin etiladi. Ushbu zamon realizmi, timsollar koʻlami (Don Kixot, Gamlet) va inson shaxsiyatini shoirona tasvirlash, insonni tabiat hukmdori, ijod toji sifatida idrok etish bilan tavsiflanadi. Keyingi bosqich maʼrifatparvarlik realizmidir. Maʼrifatparvarlik adabiyotida “past tabaqa”dan chiqqan inson (masalan, Bomarshening “Sevilya sartaro-

<sup>1</sup> Николаев П.А. Реализм как творческий метод. М., 1975, с. 244.

shi” va “Figaroning uylanishi” pyesalaridagi Figaro obrazi) demokratik realistik qahramon sifatida paydo bo‘ladi. XIX asrda romantizmning yangi ko‘rinishlari paydo bo‘ldi: “fantastik” (Gogol, Dostoevskiy), “grotesk uslubidagi” (Gogol, Saltikov-Shchedrin) va “naturalistik maktab” faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan “tanqidiy” realizm.

Realizmning asosiy talablari: xalqchilik, tarixiylik, yuksak badiiylik, psixologizm tamoyillariga riya qilish, uning rivojidadagi hayotni tasvirlash. Realist yozuvchilar qahramonlarning ijtimoiy, axloqiy va diniy qarashlari ijtimoiy sharoitlarga bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatdilar, ularning ijtimoiy va maishiy jihatlariga katta e‘tibor berdilar. Realizmning markaziy muammosi – ishonchlilik va badiiy haqiqat o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Ishonchlilik, hayotning ishonchli namoyishi realistlar uchun juda muhimdir, ammo badiiy haqiqat ishonuvchanlik bilan emas, balki hayot mohiyati va rassom tomonidan bildirilgan g‘oyalarning ahamiyatini anglash va yetkazishda sodiqlik bilan belgilanadi.

Realizmning eng muhim xususiyatlaridan yana biri xarakterlarni tiplarga ajratishdir (tipik va individual, o‘ziga xos shaxsiy xarakterlarning birlashmasi). Realistik xarakterning ishonitirish qobiliyati, bevosita yozuvchi erishgan individuallashtirish darajasiga bog‘liq.

Endi aynan realistik tamoyillar asosida shakllangan, yadrosida, o‘q ildizida aynan realizm yotgan sohir realizmning o‘ziga yondash yo‘nalishlar bilan qiyoslasak va ularning muhim xususiyatlariga diqqatni qaratsak.

Biror narsaning nima ekanligini aniqlashda nima yomonligini aniqlash, ko‘pincha, foydalidir. Ko‘pgina adabiyotshunoslar romanlarni va o‘zga xil adabiy asarlarni faqat bitta janrda, masalan, “romantik” yoki “naturalistik” deya tasniflashga harakat qilishadi. Vaholanki, ular ko‘plab asarlar bir necha toifaga bo‘linishini hisobga olmaydilar. Ularning aksariyati Meggi Enn Bauersning “Sohir realizm” kitobida tilga olingan bo‘lib, bu tadqiqotchi “sehrli realizm” atamalarini va “sehrli realizm”ni realizm, syurrealizm, fantastik adabiyot, ilmiy fantastika va uning afrikacha versiyasi kabi boshqa janrlar bilan munosabatlarini o‘rganish asnosida farqlashga harakat qiladi.

Realizm haqiqiy hayotni tasvirlashga bo‘lgan urinishdir; roman nafaqat u nimani ifodalayotganiga, balki u qanday ifodalayotganiga ham tayanadi. Shu tarzda realist bayon kitobxon hayotning xomashyosidan foydalangan holda dunyoni qurayotganida asos bo‘lib xizmat qiladi. Realizmni ham, sehrli realizmni aynan bayonchilik jabhasi doirasida tushunish ikkala atamani tushunishda ochqich vazifasini o‘taydi. Sehrli realizm “haqiqiy, xayoliy yoki sehrli unsurlarni, xuddi ular rostdan ham mavjud bo‘lgan real holatlardek taqdim etishga tayanadi. U realizmga tayanadi. Lekin shunda ham faqat o‘z chegaralari doirasidagina reallik sifatida maqbul sanalgan jihatlargagina suyanadi”.

Adabiyot nazariyotchisi Kornelie Kvasning yozishicha, “sehrli realizm asarlarida yaratilgan narsa, boshqa narsalar qatori, jamiyatning ziddiyatlari va kamchiliklarini ochib berishga qaratilgan g‘ayrioddiy va fantastik omillarning kuchli ishtiroki bilan ajralib turadigan, haqiqatga yaqin bo‘lgan xayoliy, to‘qima dunyo” hisoblanadi. Fantastik unsurlarning mavjudligi an’anaviy realistik adabiyotga xos asarning aniqlanishini aloqadorligiga daxl qilmaydi. Fantastik (sehrli) elementlar kundalik voqelikning bir qismi sifatida namoyon bo‘lib, tajovuzga, konformizm, yovuzlik va totalitarizmga qarshi insonning xaloskori sifatida maydonga chiqadi. Bundan tashqari, sohir realizm asarlarida biz XIX asrning an’anaviy realizmiga xos obyektiv bayonchilik yo‘sinini ko‘rishimiz mumkin”.

An’anaviy mumtoz realizm bilan sohir realizm o‘rtasidagi tafovut shundan iboratki, to‘lig‘icha real voqealar va to‘lig‘icha real odamlar tasvirlangan bayon mazmuniga real bo‘lmagan personajlar kiritiladi. Masalan, vampirlar, sehr yordamida turli narsalarning qiyofasiga kira oladigan odamlar, jodugarlar, shar-palar, jinlar, suv parilari, qon so‘ruvchi murdalar, parilar, gnomlar, orklar va hokazo. Shuningdek, real hayotda bo‘lmaydigan hodisalar, chunonchi, parvoz etish vositalarisiz havoda uchish, makon va vaqtaro ko‘chish, odam va narsalarning sirli tarzda g‘oyib bo‘lishi, ko‘z qarashi bilan yot qo‘yish, sukkub (ayol kishi qiyofasidagi iblis) va inkub (yovuz ruh)lar bilan jinsiy aloqalar yuz beradi. Rus san’atshunosi Konstantin Koshkinning fikricha, shu jihatlariga ko‘ra sohir realizmning rus adabiyotidagi mumtoz namunasi Valeriy Bryusovning “Olov farishta” romani sanaladi.

Odatdagi realizm va magik realizmni taqqoslash uchun ikki buyuk romanni – Mixail Sholoxovning mumtoz realizm an‘analari asosida bitilgan “Tinch Don”i va Mixail Bulgakovning “Usta va Margari-ta”siga nazar tashlash kifoya.

**Юсупова Камола (Ўзбекистон Журналистика ва  
оммавий коммуникациялар университети мустақил изланувчиси)  
РЕКЛАМАНИНГ БОШ МАҚСАДИ БЎЛГАН ИШОНТИРИШ ВА УНДАШНИНГ  
ТАЪСИРЛИ БЎЛИШИДА ИШОНТИРИШ ВА БАДИЙ ВОСИТАЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**

***Аннотация.** Матнларга ва натижада маҳсулотларга диққат қаратиши учун реклама берувчилар тез-тез стилистик-услубий ифода воситаларига мурожаат қиладилар. Ушбу мақолада бадиий усуллар матннинг жозибадорлик кучини ниҳоятда ошириши, ўринсиз ишлатилган бадиий воситалар истеъмолчи томонидан унинг қабул қилиниши ва хотирада қолишига салбий таъсир кўрсатиши қизиқарли мисоллар орқали ўз исботини топган.*

***Аннотация.** Для привлечения внимания к тексту, в конечном итоге к производимой продукции, рекламодатели часто обращаются к стилистическим средствам выразительности. В данной статье на материале соответствующих примеров изучается проблема повышения привлекательности текста посредством художественных средств, оказания негативного воздействия неуместно использованных средств выразительности на восприятие и запоминание содержания текста читателем.*

***Annotation.** To focus on texts and consequently products, advertisers often address to stylistic means of expression. In this article, it has been proved through interesting examples that stylistic methods greatly increase the attractiveness of a text, and inappropriately used stylistic means have a negative effect on its perception and memory of the consumer.*

***Калим сўзлар:** матн, услубий ифода, реклама, ишонтириш, ижтимоий коммуникация, мулоқот.*

***Ключевые слова:** текст, стилистическое выражение, реклама, убеждение, социальная коммуникация, общение.*

***Key words:** text, stylistic expression, advertising, persuasion, social communication, communication.*

Рекламанинг бош мақсади бўлган ишонтириш ва ундашнинг таъсирли бўлишида бадииятнинг аҳамияти ҳақида, айтиш мумкинки, кўп ҳолларда, рекламанинг таъсирчанлиги, самарадорлиги реклама матни тилига боғлиқ бўлади. Ўз ўрнида топилган, чиройли бир шиор, яхши ифода реклама берувчи имижини, аниқроқ қилиб айтганда, қиёфасини, бутун борлигини акс эттира олади. Муносиб реклама матнлари замонавий тамаддуннинг бир қисмига айланган ва рекламалар тил мухитига, тил мухити эса рекламада акс этиш даражасига қадар кўтарилди.

Матнларга ва натижада маҳсулотларга диққат қаратиш учун реклама берувчилар тез-тез стилистик-услубий ифода воситаларига мурожаат қиладилар. Бадиий усуллар матннинг жозибадорлик кучини ниҳоятда оширади. Ўринсиз ишлатилган бадиий воситалар истеъмолчи томонидан унинг қабул қилиниши ва хотирада қолишига салбий таъсир кўрсатади. Албатта, бу жараён, масалан, қайси мусиқа фонида намойиш қилиниши, титрдаги ёзувлар ранги (бу ерда ҳарф эмас, унинг ранги ҳақидагина гап бормоқда) каби паралингвистик воситаларга ҳам боғлиқдир.

Тан олиш керакки, рекламанинг энг асосий компоненти матн бўлиб қолмоқда. Бу ўринда “асосий”ликни белгиловчи омил, албатта, рекламанинг истеъмолчи ёдида қолиш даражасидир. Тажриба ва тадқиқотлардан реклама матни ундаги ахборот ва таъсир мақсад қилинган ранг, фон, машхур шахслар, мусиқа каби бошқа нолисоний воситалар ичида энг ёдда қолувчи восита экани аён бўлмоқда. Шунинг учун реклама берувчилар экспрессивликни ошириш учун фонографик, лексик ва синтактик воситалардан фойдаланишга ҳаракат қилишмоқда.

1. Фонографик воситалар.

1.1. Тиниш белгилари: *Чрйслер. Сірүйсийу003д Севги. Якуар. Лйтф ... ер ... темп.* Бошқа график воситалар каби алоҳида таъсирчанликни юзага келтиради. Бу восита матннинг истеъмолчилар ёдида қолишини таъминлашда алоҳида ўрин тутаяди.

1.2. Аллетрация (товушдошлик, тавзеъ). Тилда юз минглаб, ҳатто миллионлаб сўз бўлса ҳам, буларнинг моддий асосини бир неча ўнлаб товуш ташкил қиладди. Тилнинг мана шу хоссаси ундаги сўзларда товуш жиҳатдан умумийликни вужудга келтирган. Бир ёки бир неча товуш кўплаб сўзларнинг таркибида учрайди. Ҳатто баъзи сўзлар товуш жиҳатдан бир хил бўлиши ҳам мум-

кин... Сўзларда мавжуд бўлган ...товушдошлик тилдаги гўзаллик ҳосил қилувчи нисбатнинг бир туридир. Аммо бунинг ўзи бир неча кўринишларга эга бўлиб, булар нутқда турли миқдор ва даражада хусн бағишлайди. Буларнинг энг хусндори ва энг кўп фойдаланиладигани сўз охиридаги товушдошлик бўлиб, бундан сўз усталари назмда қофия ва насрда сажъ ясайдилар.<sup>1</sup> *Танаффус қил? Тивикс тановул қил!*

Нутқни гўзал қилувчи восита санъат деб аталади. Санъатлар орасида *тавзий* деб аталгани бор. Бу мисра ёки байтда товушдош сўзлардан фойдаланишдир...<sup>2</sup>

1.3. Ритм аслида на фақат шомонлар ва соҳир (гипнотизёрлар),<sup>3</sup> умуман, инсон фаолияти, ру-ҳияти, тафаккурининг ажралмас бир қисмидир. Бу борада адабиётларда эътиборга молик фикрлар бан қилинган.<sup>4</sup> Рус тилшунослигида реклама хабарларининг, муҳими, инглиззабон журналларда эълон қилинган реклама матнларининг ритмик ўзига хосликлари махсус тадқиқ қилинган.<sup>5</sup> Олима мавзуни реклама матнида хабар ритмини график, график-фонетик, лексическ, морфологик ва син-такситик жиҳатдан ўрганиб чиқишга ҳаракат қилган.

1.4. Қофия ва сажъ. Сажъ хусусида Шарқ мумтоз поэтикасига оид манбаларда бир-бирини тўлдирувчи, айти пайтда, айрим ўринларда ихтилоfli фикрлар баён қилинган.<sup>6</sup> Уларда баён қилинган фикрлар, назарий қарашларни асослаш учун келтирилган мисоллар ўзбек ва форс-тожик адабиётшунослари томонидан бир қадар умумлаштирилган.<sup>7</sup> Сажъ ўзбек насрида қадимдан қўлланилиб келаётган санъатлардан биридир. Халқ оғзаки ижодининг энг қадимий жанридан бўлган мақол, топишмоқ, маталлардан ташқари ёзма обидаларга мурожаат қилсак, Ўрхун-Энасой ёдномаларида, хусусан, Култегин битиктошида унинг намуналарини учратамиз. Бу ҳақда Н.Раҳмонов тўғри таъкидлаганидек, “Ёдномлада сажъ ва лексик такрорлар воситасида вазнли насрнинг юзага келиш хусусиятлари билан кейинги даврдаги – XV асрдаги прозага хос умумий хусусиятларга эга эканлиги кўринади”.<sup>8</sup>

Ўзбек реклама матнларида ҳам сажъдан унумли фойдаланиш кўп кузатилмоқда: *Расулов эшиклари бор – уй тайёр!*

1.5. Ономатопея. Ўзбек тилшунослигида эътибордан четда қолиб келаётган ономатопея, хусусан, унинг реклама матнларидаги ўрни масаласи ўрганилган ишларни рус, айрим қардош тиллар лингвистикасида учратамиз.<sup>9</sup> Мавзуга дахлдор эътиборли ишларнинг бири Т.Г.Добросклонская қа-ламига мансуб ишларда *медиамаатн* ва *медиаанутқ* тушунчалари ҳақида гап борадики, ономатопея реклама матни доирасидан ҳам ташқарида муҳим воситалардан эканини кўрсатади.<sup>10</sup> С.В.Мошчева ономаатопедияни реклама матнида эксперссивликни таъминловчи лисоний ва ғайрилисоний ифода воситалар каторида ўрганади.<sup>11</sup> Рус тилшунослигида масалани қариндош

<sup>1</sup> Сўз хусусида сўз. Тошкент, 1987, 13 – 14-бетлар.

<sup>2</sup> Шу манба. 20 – 21-бетлар.

<sup>3</sup> Ритм в рекламном тексте – секреты шаманов и гипнотизеров//<https://kaplunoff.com/blog/reklamnye-tekhniki/228-ad-rhythm>

<sup>4</sup> Бергер Н.А. Рожденный движением (о ритме в жизни и в искусстве). Белгород, Prescorus. Журнал Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И.Герцена, №87, 2009, с. 178–179.

<sup>5</sup> Морилова Е.С. Ритмические особенности рекламных сообщений (на материале современных англоязычных журналов). Санкт-Петербург. Автореф. дисс. канд. филол. наук, 2005 <http://cheloveknauka.com/ritmicheskie-osobennosti-reklamnyh-soobscheniy#ixzz7A8I4nbu6>

<sup>6</sup> Рашидиддин Ватвот. Хадойик ус-сехр... М., 1983; Ваҳид Табризий. Джамъ-и Мухтасар. Критический текст, перевод и примечания А.К.Бертельса. М., издательство “Восточной литературы”, 1959, с. 59; Атоуллох Хусайний. Бадойий ус-санойий. Форс тилидан Алибек Рустамов таржимаси. Тошкент, Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981, 62 – 66-бетлар.

<sup>7</sup> Саримсоқов Б. Сажъ. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Тошкент, “Zarqalam”, 2006, 50–56-бетлар; Раҳмонов В. Бадиий санъатлар. 1976; Ҳодизода Р., Шукуров М., Жабборов Т. Луғати истилоҳоти адабиётшуноси. Душанбе, 1964, с. 95; Зеҳни Т. Санъати сухан. Душанбе, 1967, с. 156; Мусулмонкулов Р. Сажъ ва сайри тарихии он насри тожик. Душанбе, 1970.

<sup>8</sup> Раҳмонов Н. Култегин ёдномасининг поэтикаси. Қадимият обидалари. Тошкент, “Фан”, 1989, 213-бет.

<sup>9</sup> Хабибуллина О.А., Николаева А. В. Ономатопея как выразительное средство рекламного текста (на материале английского и немецкого языков). Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2017, 3 (180), с. 68 – 74.

<sup>10</sup> Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиатекстов: опыт исследования современной английской медиаречи. М., “МАКС Пресс”, 2000, с. 288.

<sup>11</sup> Мошчева С.В. Способы достижения экспрессивности в рекламном тексте: языковые и неязыковые выразительные средства. Учеб. пособие, Иваново, Иван.гос.хим.-технол.ун-т, 2008, с. 108.

бўлмаган, жумладан, туркий<sup>1</sup> ҳамда Европа тиллари билан қиёси<sup>2</sup> амалга оширилган қатор ишлар мавжуд. Ушбу тушунча замонавий луғатлардан ҳам аллақачон ўрин олган.<sup>3</sup>

Юқоридаги мисоллар кўринадики, айрим матнлар, одатда, истемолчилар мажбуран ёдида қолишига мўлжалланади ва кўп ҳолларда яхши натижа беради.

1.6. Морфологик такрорлар. Бу усул ҳам матн оҳангдорлигини таъминлашга хизмат қилади. Морфологик такрорлар усулидан фойдаланиш ҳам матнни истемолчи ёдида қолишини нисбатан осонлаштиради.

Лексик ифода воситалари. Реклама матнида энг эътиборли ва марокли жиҳатларидан бири турли лексик воситалардан фойдаланишдир. Ушбу лексик воситаларининг бир неча бир турлари мавжуд.

Метафора. Таҳлиллар реклама матнларида энг кенг қўлланивчи лексик воситалар бири метафора эканини кўрсатади. Бугун метафоранинг лисоний мақоми, тилдаги ўрни масаласига ёндашув ўзгарган. Шу муносабат билан, бу борала Н.Маҳмудовнинг “Ташқи оламдаги сифат хусусият, ҳаракат ҳолатларни инсон “ўз танасидан ўтказиб”, ўзига хос нигоҳ тарзидан келиб чиқиб, гўё ўзига нисбатлаб баҳолайди ва номлайди, мазкур метафораларнинг асосида инсон турганлиги жиҳатидан уларнинг маъзу моҳиятини инсондан тамоман ажратиб изоҳлаш ғоятда мушкул эканлигини таъкидлаш жоиз” – сўзларини эслаш лозим. Метафора тилимизда окказионал терминларнинг юзга келишига ҳам асос бўлади.

М.Алиева ёзишича, окказионал терминлар вақтинчалик терминлар бўлиб, муайян давр билан боғлиқ равишда ҳосил қилинади. Масалан, газлама номларида *шералининг қулоғи* (нақши қулоққа ўхшаш ялтироқ материал), *ҳожибойнинг мўйлови* (нақши икки томонга шохлаган), *миллионерка* (ялтироқ тангалар билан қопланган газлама), *жиммининг кўз ёшлари* (нақши томчига ўхшаган) каби. Бу ҳолатни миллий кийимлар номларида ҳам кўриш мумкин: *кремль атлас* (нақши Кремль минорасига ўхшаган, устида юлдузи бор), *қиролича адраси* (қора ранги устун бўлган адрас), *пальма атласи* (нақши пальма дарахтигаўхшаш), *ниҳон атласи* (эски номи сариқ атлас) каби. Бундай номлар кўйилиши *реклама* учун хизмат қилади ва қисқа вақтда фаоллигини йўқотади. Шу сабабдан буларни тил ходисасига киритиб бўлмайди. Жумладан, *ниҳон атласининг* асл номи *сариқ атлас* бўлиб, унинг янгича номланишига “Севги изтироби” деб номланган турк сериалининг бош қаҳрамони Ниҳон сабаб бўлган. Аммо *сариқ атлас* номи *хонатлас*, *қарғашойи* атласи каби қадимий миллий газлама номи сифатида доимий бўлиб қолади.<sup>4</sup>

2.2. Ташхис (инсондан бошқа нарсаларга инсон хусусиятларини бериш). Реклама матнларида ташхисдан айнан императивлик имкониятини кенгайтириш учун фойдаланилди. Масалан, болаларга ўйинчоқлар тилидан “Мен билан бахтиёр бўл!” каби жумлалар билан мурожаати реклама тилида ўзига хос бадий восита саналади. Шу каби бетимсол бинолар фонидида “Мен сени бахт қасрига элтаман!” гапи шаклан дарак мазмунида бўлса ҳам, ботиний императивлик мавжуд. Унинг мухотаби – адресанти болалар бўлгани боис жумлада императивлик мазмуни яна-да ёркинлашади. Рекламада ташхис тилимиз имкониятлари сифатида бирданга пайдо бўлган эмас. Мумтоз адибларимиз тилида ҳол тили термини билан аталган бу усул рекламалардан олдин халқ оғзаки ижодида ҳам, бадий ижодда ҳам кенг қўлланилган. А.Рустамов ёзишича, “Ҳол тили билан сўзламак” деганда, асосан, тилсиз мавжудотнинг, сўзсиз, бир нарсани билдирмаги тушунилади. Зийрак кишилар ҳар бир нарсани кўрганда, унинг кўринишини ўзлаштириш билан чекланмай, ҳар жиҳатдан мулоҳаза юритиб, унинг моҳияти ҳақида фикр юритадилар, сабаб ва натижасини кўз олдида келтирадилар, фойда ва зарарини аниқлайдилар, шу нарса билан боғлиқ ўзга нарса ва воқеаларни хаёл-

<sup>1</sup>Хабибуллина О.А. Звукоподражательные слова в системе неродственных языков: сопоставительный аспект. Стерлитамак, Стерлитамак.гос.пед.акад.им.Зайнаб Бишевой, 2008, с. 137.

<sup>2</sup>Скаличка В. Исследование венгерских звукоподражательных выражений. Пражский лингвистический кружок: сб.статей. Под ред. Н.Кондрашова, М., “Прогресс”, 1967, с. 559; Иванова С.В., Николаева А.В. Роль «пустых» слов в тексте рекламы (на материале англоязычных рекламных текстов). Политическая лингвистика, 2011, вып. 4 (38), с. 202–209; Бабаева Р.И. Незнаменательная лексика в немецком обиходном дискурсе (прагматический аспект). Дис... д-ра филол.наук, М., 2008, с. 258; Шестакова О.В. Функции ономотопии в немецкой рекламе. Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2013, № 5, ч. 2, с. 208–213.

<sup>3</sup>Cosmopolitan. 2010, № 5 (248); Oxford Dictionary of English. Oxford: Oxford University Press, 2005 (кверсии АBBYY Lingvo x3).

<sup>4</sup>Алиева М. Лингвистик термин майдонининг семантик хусусиятлари. “Nutq madaniyati va o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2020, 4-may), 110-bet.

ларига келтириб, ўзлари учун тегишли хулоса чиқариб оладилар. Натижада ўша нарса бундай кишига сўз воситаси билан эмас, ўз ҳоли орқали ўша воқеаларни сўзлагандай бўлади. Шуни “ҳол тили билан сўзламак” ёки “забон-и ҳол билан демак”, дейдилар.<sup>1</sup> Халқ оғзаки ижодида бу воситадан таъсирчанлик кучини ошириш мақсадида фойдаланилган. Масалан, банг тилидан “мен ҳамма нарсага давоман, лекин менинг ўзимга даво йўқ”, деган жумла машҳур бўлиб, неча асрлар давомида гиёҳвандликка қарши тарбияга хизмат қилиб келмоқда. Халқ оғзаки ижодида асал, ...тилидан айтилган сўзлар, мумтоз адабиётимизда қалам тилидан битилган сатрлар, аслида, рекламада ташхиснинг тарихий илдизларидир.

Рекламада ташхис, аслида, икки кўринишда: интоқ ва ташхис бўлади. Интоқ, юқоридагидек, инсон бошқа бир нарсага нутқ қобилиятини нисбат беришдир. Нутқ қобилияти фақат инсонга хос бўлгани учун ундан ташқари, ҳар қандай жонли ва жонсиз нарса тилидан бирор матн (ҳажмидан қатъи назар, у бир сўз бўлган тақдирда ҳам), табиийки, ташхис юзага келади. Реклама манти, хусусан, реклама императивлик ифодасида ҳам умумий қоида амал қилади: ҳар қандай интоқ ташхисни юзага келтиради, лекин ҳар қандай ташхис интоқ эмас. Реклама матнида, хусусан, унда императивликни ноимператив воситалар билан ифодалашда ташхиснинг ўрни катта. Мисол тариқасида тана бирор дори воситаси кириб келиши билан уни “забт этган” вируслар “жуфтакни ростлаб қолиши” рекламада ташхис, шу билан бирга, императивликнинг ноимператив воситалар билан ифодаланишига ёрқин мисолдир.

Эпитетлар (мажозий таърифлар). Масалан, *Сиз учун мукамалдир* (Велла рекламаси). Бу каби эпитетлар матнларга алоҳида тус, ҳиссий колорит беради. Эпитет бирор сўзнинг (аслида, тунчанинг – маҳсулотнинг) хусусиятлари, ўзига хосликлари, афзалликларини англаувчи ифодадир. Таққикотлар нарсаларни сифати билан айтиш ёки сифатланган нарсаларга алоҳида эътибор қаратишда аёллар эркакларга нисбатан устунликка эга экан. Шунинг учун аёллар косметик маҳсулотлари рекламасида аёллар тафаккури психологик хусусиятларини эътиборга олган ҳолда эпитетлар ишлатилади.

*Гипербола.* Ҳар бир реклама беруви шахс маҳсулотларини ўз реал хусусиятларидан кўра устунроқ сифатлар васф қилади. Абдулла Орипов бир шеърида

*Бозорга ўхшайди асли бу дунё,*

*Бозорга ўхшайди унда ҳам маъни.*

*Иккиси ичра ҳам кўрмадим асло*

*Молим ёмон деган бирор кимсани –*

деганда, айти шу ҳаётини қонуниятларни назарда тутгани, шубҳасиз. Гипербола бирор нарса хусусиятлари қасддан ошириш экан, реклама матнларида бу ҳолат бот-бот кўзга ташланиши нафақат тил хусусиятлари, инсон табиати, ментал ўзига хосликлар, бозор қонуниятлари каби кўплаб ижтимоий-сиёсий, фалсафий, иқтисодий омиллар билан боғлиқ.

Қайд этилганлардан кўришимиз мумкинки, рекламаларнинг таъсирини оширишда бадиий воситаларнинг ўрни ғоятда аҳамиятлидир.

---

<sup>1</sup> Рустамов А. Сўз хусусида сўз. Тошкент, “Ёш гвардия”, 1987, 95-бет.



**Ильясова Зухра Кенесбаевна (Нукус Давлат Педагогика институти  
катта ўқитувчиси, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD); [zuxra2206@mail.ru](mailto:zuxra2206@mail.ru))  
КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИ АСОСИДА ИНФОРМАТИКАНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ  
ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ**

***Аннотация.** Мақолада педагогик олий таълим тизимида Информатиканинг назарий асослари фанини кредит-модуль тизимида ўқитишнинг методикаси ёритилган. Шунингдек, фанни ўзлаштиришда талабалар эгаллашлари зарур бўлган билим, кўникма, малакага талаблар ва вазифалар аниқлаштирилган.*

***Аннотация.** В статье описана методика преподавания предмета теоретических основ информатики в кредитно-модульной системе в системе педагогического высшего образования. Также статья определяет требования и задачи в отношении знаний, навыков и компетенций, которые студенты должны приобрести при овладении предметом.*

***Annotation.** The article describes the methodology of teaching the subject of the theoretical foundations of computer science in the credit-modular system in the system of pedagogical higher education. It also defines the requirements and objectives in relation to knowledge, skills and competencies that students must acquire in mastering the subject.*

***Калим сўзлар:** кредит-модуль тизими, силлабус, ўқув мақсад ва вазифалари, билим, кўникма ва малака, таълим жараёни, модуль материаллари.*

***Ключевые слова:** кредитно-модульная система, учебная программа, цели и задачи обучения, знания, навыки и компетенции, учебный процесс, модульные материалы.*

***Key words:** credit-modular system, curriculum, goals and objectives of training, knowledge, skills and competencies, educational process, modular materials,*

Ўзбекистон Республикасининг ўзига хос ва ўзига мос иқтисодий ривожланиш йўлини танлаши таълим тизимида туб ислохотларни амалга ошириш, кадрлар тайёрлаш тузилмаси ва мазмунини қайта кўриб чиқиш заруратини туғдирди. Айниқса, педагогика олий таълим муассасаларида информатика фанини касбий соҳага йўналтириб ўқитишнинг интеграллашган технологияларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади. Шу билан бирга, Информатиканинг назарий асослари фанини ўқитиш мазмуни кредит-модуль тизими талаблари асосида структуралаштириш тамойиллари ва мезонларини аниқлаштириш, информатикага доир билимларни тўлиқ ўзлаштиришнинг амалий фаолиятга йўналтирилган инновацион-методик тизимини такомиллаштириш муҳим долзарблик касб этади.

Ҳозирги кунда олий таълим тизимида кредит-модуль тизими кириб келмоқда. Бу эса, ўз навбатида, ахборот-коммуникация – таълим муҳити шароитида бўлажак педагогларни мустақил фаолият, яъни фикрлаш, ишлаш, ўз фикрини баён қилиш, ўз-ўзини баҳолаш ва ҳ.к. кўрсата олишга ўргатишдан иборат.

Кредит (credit) – талабанинг алоҳида таълим йўналиши ёки дастури (курс) бўйича фанларни ўқиб ўрганиши ва ўзлаштириши учун сарфланган ўқув юкчаси (вақт)нинг ўлчов бирлиги ҳисобланади. Кредит – талабанинг меъерий ҳужжат билан белгиланган, одатда, бир ҳафта давомида аудиторияда ва мустақил равишда таълим олиши учун ажратилган минимал вақт ўлчови. Талабага кредит маълум бир фандан белгиланган топшириқларни бажариб, якуний имтиҳондан муваффақиятли ўтгандан сўнг берилади.

Мазкур тизимнинг олий таълимга жорий қилиниши ўқитиш сифатини ошириш, шаффофликни таъминлаш, коррупцияга барҳам бериш, таълим олувчининг ҳақиқий билимини юзага чиқариш ҳамда талабанинг мустақил ўқиб-ўрганиб, ўз устида ишлашига замин яратади.

Кредит-модуль тизимининг жорий этилиши ўқитувчи ва талабанинг ҳамкорликда ишлашида муҳим омил ҳисобланади. Модулли таълимда педагог талабанинг ўзлаштириш жараёнини ташкил этади, бошқаради, маслаҳат беради, текширади. Талаба эса йўналтирилган объект томон мустақил ҳаракат қилади. Энг катта урғу ҳам талабаларнинг мустақил таълим олишига қаратилади.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> <https://2020/07/22/oliy-talimda-kredit-modul>

Кредит-модуль тизими, авваламбор, мамлакатимиз олий таълим тизимига таълимнинг амалдагидан кўра анча мукамал, замонавий, лекин ҳамма учун тушунарли бўлган ўлчов бирлигини олиб киради. Унга кўра, ОТМ ўқув дастурлари муайян ўқиш натижаларини кўзловчи турли фан ва модулларга бўлинади. Ҳар бир фан ёки модуль эса ундаги ўқиш юкламаси миқдорига қараб муайян миқдордаги кредитларда акс этади. Масалан, ҳар бир фан ўртача 5, 6 ёки 7.5 кредитларда акс этиши мумкин. Талаба эса ҳар семестр, ўқув йилида муайян миқдорда кредитлар тўплаб бориши ва тегишли миқдордаги кредитларни тўплагандан сўнг, унга бакалавр ёки магистратура даражаси берилиши белгиланади.

Кўйида педагогик олий таълим муассасасидаги 60110600-Математика ва информатика бакалаврият таълим йўналиши “Информатиканинг назарий асослари” ўқув фанини кредит-модуль тизими асосида ўқитишнинг лозим бўлган талаблар хусусида тўхталамиз.

Информатиканинг назарий асослари фани 60110600–Математика ва информатика бакалаврият таълим йўналиши ўқув дастури, модуль ўзининг ўқиш натижалари олдиндан аниқ белгилаб олинади ва ушбу ўқиш натижалари рўйхати талабаларга олдиндан тақдим этилади. Шунда талабалар муайян ўқув дастури ёки ундаги муайян фанни ўрганиш унга мутахассис сифатида нималар бера олиши ҳақида олдиндан тушунчага эга бўлган ҳолда ўқишни бошлайди. Ўқиш натижалари ҳақида олдиндан маълумотга эга бўлган талаба ҳам, ўқитувчи ҳам дастур ёки семестр давомида барча имкониятларини шу натижаларга эришишга қаратади.

Информатиканинг назарий асослари фани буйича талабаларнинг бир семестрда 30 кредит миқдори тўплаши лозим бўлади.

Кредит-модуль тизимида дастур ёки фан ўқиш натижалари кўйидаги асосий саволга жавоб бера олиши керак: талаба дастурни ёки ундаги муайян фанни тамомлагандан сўнг, унда ўрганган билимлари асосида нималар қила олади ёки қила олиши керак? Ушбу саволдан кузатганингиздек, ўқиш натижалари бу талаба дастур ёки ундаги муайян фан давомида қўлга киритган билимлар рўйхатидан иборат эмас, аксинча, унда талаба уша билимлар асосида нималар қила олиши кўрсатилиши зарур. Кредит-модуль тизимидаги бу талаб информатиканинг назарий асослари ўқув фанига амалий, прагматик ёндашувни шакллантиради.

Кўйида Ажиниёз номидаги Нукус Давлат Педагогика институтининг 60110600-Математика ва информатика бакалаврият таълим йўналишида ўқитиладиган Информатиканинг назарий асослари ўқув фанининг модуль тизими асосида унинг мазмуни, мақсади ва талабалар ўзлаштирилиши лозим бўлган билимлар хусусида тўхталамиз.

Информатиканинг назарий асослари фани модулга асосланган ўқув дастури махсус схема асосида ишлаб чиқилди ва кўйидагиларни ўз ичига қамраб олади:

– ўқув мақсади ҳамда вазифаларнинг тўлиқ очиб берилиши. Фаннинг мақсад ва вазифаларини олдиндан аниқ белгилаб олинади, у семестр давомида барча таълим ҳаракатларини мана шу мақсадларга эришишга қаратади. Имтиҳонлар ҳам талабаларнинг шу кўзланган мақсадларга эришган-эришмаганини текширишга қаратилади;

– талабанинг фанни бошлаши ва тугатишидан кейинги орттириши лозим бўладиган малака-сига қўйиладиган талаблар;

– модуль таркибига кирган ҳар бир фаннинг қисқача мазмуни (силлабус), яъни маърузалар мавзулари, лаборатория ва амалий машғулотларнинг режаси, мустақил таълимни баҳолаш учун мўлжалланган топшириқлар;

–ўқитишнинг қисқача баёни: таълим бериш усул ҳамда воситалари; билимларни баҳолашнинг усул ва шаклларидан иборат.

Семестр бошида талабаларга информатиканинг назарий асослари фани буйича ёзма дастур силлабус (фаннинг идентификацияси, профессор-ўқитувчи ҳақида маълумот, дарс тавсифи, фаннинг талабанинг мутахассис бўлиб шаклланишидаги роли, фаннинг мақсад ва вазифаси, унинг ўқув дастурида тутган ўрни, талабанинг келажакдаги касбий фаолияти учун аҳамияти, фан орқали қандай билим, кўникма ва малакаларга эга бўлиши, ўрганиш натижалари, ўқитиш методикаси, семестр давомида ўрганиладиган мавзулар рўйхати ва режаси, талабалар фойдаланадиган адабиётлар рўйхати, баҳолаш мезонлари) тақдим этилиб, фан ҳақида батафсил тушунтирилади.

Кўйида информатиканинг назарий асослари ўқув фанининг модуль тизими асосида ўқитишнинг мақсад ва вазифаларини келтириб ўтамиз:

♦мақсад – ахборот назарияси, информатиканинг математик асослари, ахборот ва билим назариясининг асослари ва талабаларда ахборотлашган жамият ҳақида билимларни шакллантириш, ах-

борот махсулотлари ва ахборот хизмати бозори тузилишини кўрсата билиш, оммавий, бошқарув ва иктисодий характердаги масалаларни ечишда информатиканинг ўрни, ролини тушунтириш бўйича билим ва кўникмаларини шакллантиришдан иборат;

◆вазифаси – ахборот ва унинг турлари, тасвирлаш усуллари, ахборотли жараёнлар, хоссалари, ахборот ўлчови бирликлари ҳақидаги тасаввурларини бойитиш, ахборотли моделлаштириш ва формаллаштириш ҳақида тушунча, компьютернинг дискретлилик характери, тўр ва графларда оптималлаш алгоритми ва унинг татбиқлари, информатиканинг математик асослари ҳақидаги тасаввурларини кенгайтиришдан иборат.

Шунингдек, замонавий ахборот технологиялари ҳақида умумий тушунчалар бериш ва улардан амалиётда фойдаланишни ўргатиш, ахборотлашган жамият, жамиятни ахборотлаштиришнинг муҳим хусусиятлари ва имкониятларини очиб бериш, кадрлар тайёрлашда ахборий маданият шакллари ўстириш масалаларини ўргатишдан иборат.<sup>1</sup>

Олий таълим муассасасининг информатиканинг назарий асослари фани 60110600-Математика ва информатика бакалавриат таълим йўналишининг биричи модули Ахборот назариясининг асослари деб номланади. Модулнинг мазмуни, мақсад ва талабалар ўзлаштириши лозим билимларга бўлган талаблар қуйидагилардан иборат: ахборот, унинг турлари ва кўринишлари, узлуксиз ва дискрет ахборотлар, ахборотнинг хоссалари, ахборотни тасвирлаш усуллари, ахборотларни кодлаш, тўғри, қарама-қарши ва қўшимча сонлар коди, модификацион кодлар ва улар устида арифметик амаллар бажариш, ахборотли жараёнлар, ахборотнинг синтактик, семантик ва прагматик ўлчовлари, ахборот ўлчов бирликлари, билимларни олиш усуллари билимнинг асосий хоссалари, билимлар омбори ва эксперт системалари билан танишув.

Фаннинг иккинчи модули ахборотлашган жамият деб номланиб, модулнинг мазмуни, мақсад ва талабалар ўзлаштириши лозим билимларга бўлган талаблар ахборотнинг жамият ривожига роли, таълимни ахборотлаштириш, жамиятни ва таълимни ахборотлаштиришнинг ҳуқуқий-меъёрий асослари, жамиятнинг ахборот ресурслари, ахборот бозори, жамиятнинг ахборот потенциали, ахборотлашган жамиятда инсон, ахборий маданият ва уни шакллантиришдан иборат.

Талабалар фаннинг учинчи модулида информатиканинг математик асослари билан танишади. Модулнинг мазмуни, мақсад ва ўзлаштириши лозим билимлар асосида талабалар шахсий компьютер тузилиши, уларнинг ахборий-манتيкий асослари, функционал-тузилмавий ташкил этилиши, компьютерларнинг ривожланиш йўналишлари ҳақида тасаввурга эга бўлишлари, компьютерда ахборотни қайта ишлашнинг арифметик асослари, ахборотларни кодлаш ва декодлаш, компьютернинг ишлашининг мантикий ва физик асослари моҳиятини билишлари лозим. Позицион ва нопозицион санок системалари устида ҳар хил амалларни бажара олишлари, элементар Бул функцияларини, мантикий амаллар бажара олиши, мантикий элементлар схемалар ва ростлик жадвалларини туза олишлари лозим бўлади.<sup>2</sup>

Ушбу модуллардаги мавзулар ва уларнинг мазмуни таълим мақсадлари ва давлат таълим стандартларига асосланган ҳолда ёритилган бўлиб, таълимнинг илмийлик, тарихийлик мунтазамлиги таъминланишига алоҳида эътибор қаратилган.

Модулларни ўқитиш тузилишини қуйидагича кўрсатиш мумкин. Модулнинг мақсади, унинг долзарблиги, маълумотларни йиғиш (қидириш алгоритмини тузиш ва керакли маълумот манбаларини кидириш, маълумотлар базалари билан ишлаш, электрон ресурслар, интервьюлар, сўровномалар, шу жумладан, хорижий адабиётлар, маълумотларнинг мавжудлигини таъминлаш чоралари, ва ҳоказо), маълумотларни қайта ишлаш (матнни тузатиш, тўпланган материалларни тизимлаштириш, маълумот сифатини баҳолаш), фактларни талқин қилиш, таҳлил қилиш ва умумлаштириш (маълум фактлар билан таққослаш, гипотеза, асосли хулосалар), натижа (мақола, реферат, ҳисобот, видео ва бошқалар), тақдимот (ҳисобот сифати, мунозара, мулоҳаза ва бошқалар).

Таълим жараёнида талабалардан қуйидагилар талаб қилинади:

– ўқув жараёнида асосий усуллари билиш ва ўзлаштириш (адабиётларни таҳлил қилиш, ахборот манбаларини излаш, маълумотларни йиғиш ва қайта ишлаш, олинган натижаларни илмий тушунтириш, янги муаммоларни кўриш, илгари суриш, фаразлар, уларни ҳал қилиш усуллари);

<sup>1</sup> Пыасова Z.K. Pedagogik oliy ta'lim muassalarida informatikani o'qitish sifatini ta'minlash muammolari. "Физика-математика, информатика", Тошкент, 2018, 5-сон, 52–59-бетлар.

<sup>2</sup> Шу манба.

– компьютер саводхонлигига эга бўлиш: маълумотларни киритиш (матнли, графикли), компьютер телекоммуникация технологияларидан фойдаланиш, электрон жадваллар ёрдамида олинган микдорий маълумотларни қайта ишлаш, маълумотлар базаларидан фойдаланиш, маълумотларни принтерда чоп етиш;

– ахборот лойиҳасида мавжуд бўлган билим вазифаларини ҳал қилиш учун илгари олинган билимларни турли ўқув фанлари бўйича мустақил равишда бирлаштириш қобилияти.

Информатиканинг назарий асослари курсида якуний назорат шаклида талабалардан компьютер технологияларидан фаол фойдаланишни талаб қилади. Бу ўқув жараёнида компьютер технологияларидан фойдаланиш бўйича маълум билим, кўникма ва малакаларни шакллантиради, бу эса, ўз навбатида, талабанинг назарий ва амалий ахборот билимлари тўғрисида тўлиқ тасаввурга эга бўлиш, шунингдек, унинг ахборот кўникма ва малакаларини ривожлантириш имконини беради.<sup>1</sup>

Шунингдек, кредит-модуль тизимида Информатиканинг назарий асослари фани ўқув жараёнида мустақил таълим олишнинг аҳамияти ортади ва бу келажакда мутахассисларнинг мустақиллиги, ижодий ташаббускорлиги ҳамда фаоллигини оширишга олиб келади. Талабалар ҳар доим ўқитувчи ва курсдошларидан ёрдам ҳамда маслаҳат олиш имкониятига эга бўлади. Бу эса ўзаро ҳамжиҳатликни мустаҳкамлайди ва жамоада ишлаш кўникмаларини шакллантиришга хизмат қилади.

Ўқув модуль материаллари талабалар ўзлаштиришлари лозим бўлган билимларни ўзида муассамлаштиради ва улар қуйидагиларда ифодаланади:

- ◆ билимларни ўзлаштиришнинг педагогик ва психологик қонуниятларини инобатга олиш;
- ◆ талаба мушоҳадасини турли усуллар билан ривожлантириш;
- ◆ тавсия этилаётган материалларни узвий боғлиқлиги, қизиқарлилиги ва тушунарлигини ҳисобга олиш;
- ◆ материалларнинг илмийлиги, ҳаётийлиги ва талабаларни онгли равишда ўзлаштириш меъёрини давлат таълим стандартлари асосида белгилаш ва ҳоказо.

Мазкур педагогик олий таълим муассасида бўлажак мутахассисларни тайёрлашда педагогик принципларга асосланган Информатиканинг назарий асослари фанини кредит-модуль тизимида ўқитишнинг ўқув методикаси ишлаб чиқилди.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ушбу тизимда таълим олаётган талабалар берилган вазифани яна-да чуқурроқ англаб, ахборотлар оламидан баҳраманд бўлишнинг тезлашиши, халқаро илмий-техник маълумотлар базаларидан фойдаланиш имкониятларининг кенгайиши, глобаллашув жараёнилари жадаллашгани боис талабаларнинг мустақил таълимини ривожланиши таъминланади.

Шунингдек, таълимда ўқиш жараёнининг шаффофлашишига, ўқув дастурлари иктисодиёт, меҳнат бозори ва талабалар эҳтиёжлари асосида шаклланишига, дарсларнинг сифати яхшиланишига, ниҳоят, ҳар бир талаба маълум маънода ўзининг мустақил ўқув дастурига эга бўлишига ҳамда етук педагог кадрларни тайёрлаш рақобатбардошлигини яратиш учун асос яратади.

**Умарова Умида Умаровна (Бухоро Давлат университети)**

**Математик анализ кафедраси катта ўқитувчиси; e-mail: [umida.umarova.2019@mail.ru](mailto:umida.umarova.2019@mail.ru)**

## **MOODLE МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА “МАЪРУЗА” ЭЛЕМЕНТИНИ ЯРАТИШ**

**Аннотация.** Ушбу мақола “Дискрет математика ва математик логика” фани мисолида Moodle масофавий таълимда маъруза контентини тўғри киритиш усуллари ёритиб берилди.

**Аннотация.** В статье проиллюстрирована методика правильного ввода лекционного содержания в дистанционном обучении Moodle на примере предмета «Дискретная математика и математическая логика».

**Annotation.** The article illustrates the methodology for the correct input of lecture content in distance learning Moodle using the example of the subject “Discrete Mathematics and Mathematical Logic”.

**Калим сўзлар:** кредит-модуль, moodle, масофавий таълим тизими, контент, дискрет математика ва математик логика, маъруза, талаба.

<sup>1</sup> Мирзоев Р.Р. Педагогические аспекты подготовки преподавателей к работе в условиях кредитной системы образования. Курган Тюбе, 2010,


**Ключевые слова:** кредит-модуль, moodle, система дистанционного обучения, контент, дискретная математика и математическая логика, лекция, студент.

**Key words:** credit module, moodle, distance learning system, content, discrete mathematics and mathematical logic, lecture, student.

Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 2019 йил 8 октябрдаги фармони билан тасдиқланган «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси»га кўра, мамлакатдаги ОТМларнинг 85 фоизи 2030 йилгача босқичма-босқич кредит-модуль тизимига ўтиши режалаштирилган. Масалан, 2020–2021 ўқув йилининг ўзида мамлакатимиздаги 33 дан ортиқ йирик ОТМлар кредит-модуль тизимига ўтди. Мазкур ОТМларда асосан ECTS кредит-модуль тизими жорий этилиши кўзда тутилган.

Аввало модуль тушунчаси ҳақида. Модуль – бу алоҳида индивидуал ўқув фани. Ўзида билимга эгаллик қилиш ва касбий жиҳатларини қамраб олган бўлиб, таълим олувчиларнинг ўқув дастурини ўзлаштириш натижасида шаклланган билим, кўникма ва компетенцияларни назорат қилишнинг тегишли тури билан якунланишни назарда тутади.

Кредит-модуль ўқитиш тизими эса ҳар бир ўқув модули таркибини тузишга асосланган модульнинг ўқув натижалари ва якуний назоратни кузатиб бориш



орқали таълим олувчиларнинг билим, кўникма ва компетенцияларини мунтазам равишда баҳолаб боровчи ўқув дастурини ўзлаштириш жараёнини ташкил этиш тизими ҳисобланади.<sup>1</sup>


Ҳозирги замонда жадал ривожланиб келаётган интернет ва компьютер технологиялари даврида янги таълим методлари ҳам ривожланмоқда. Ушбу технологиялардан бири масофавий ўқитиш бўлиб, интернет технологияларидан кенг фойдаланган ҳолда энг оммабоп таълим сифатида ривожланиб келмоқда. Интернет ва замонавий таълимда маълумотлар алмашинувининг кенг имкониятларини инобатга олган ҳолда янги инновацион таълим технологияларида электрон маърузалар, энциклопедиялар, тест, глоссарий, анкеталар, виртуал лаборатория ва бошқаларни ўқитишнинг турли усулларини яратиш ва қўллаш имконияти мавжуд. Бундай таълим технологияларидан бири бу ўқитувчиларга юқори сифатли онлайн курсларни яратиш учун махсус ишлаб чиқилган Moodle пакети бўлиб, сайт таркибини бошқариш хусусиятига эга бўлган таълим технологияси ҳисобланади.

Эътибор берган бўлсангиз, интернет сайтлари ёрдамида изланган маъруза маълумотларининг аксарият қисмида расм ёки формула деган ёзувлар учрайди-ю, аммо расм элементи ёки формуланинг ўзи туширилиб қолган ҳолатларга дуч келамиз. Худди шундай ҳолатни Moodle масофавий таълимнинг маъруза ва тест контентини нотўғри яратилганда ҳам учратиш мумкин. Бундай камчиликларни йўл қўймаслик учун Moodle масофавий таълимнинг контентларини тўғри киритиш муҳим аҳамиятга эга.

Ушбу мақола “Дискрет математика ва математик мантик” фани мисолида Moodle масофавий таълимда “маъруза”контентини тўғри киритиш усуллари ёритиб берилди.


Moodle масофавий таълимда «Маъруза» элементини яратишдан олдин тайёрлаб қўйилган маъруза файлидаги барча формула, жадвал ва чизмаларни Moodle системасида кўриниши учун **Paint** дастури ёрдамида расм шакли билан алмаштириш зарур. “Маъруза” элементини қўшиш учун қуйидагиларни бажариш керак: 1. “Элемент ёки ресурс қўшиш” ҳаволасини босинг. 2. Очилган рўйхатда “Маъруза” бандини танланг. 3. Очилган “Маъруза қўшиш” саҳифасида маъруза номини кўрсатинг ва агар керак бўлса, стандарт созуламаларни ўзгартиринг (1-расм), саклаш ва курсга қайтиш тугмасини босинг.

<sup>1</sup> <http://xs.uz/uzkr/post/kredit-modul-tizimiga-otish-nima-uchun-kerak-maqсад-mohiyat-va-afzallik>




Бизда маъруза элементи ҳосил бўлади.


Ушбу маъруза элементини тўлдиришни “маълумот саҳифасини кўшиш” қисмидан бошлаймиз. 2-рasm. Саҳифа сарлавҳаси киритилгандан сўнг олдиндан тайёрлаб кўйилган матнни саҳифа таркиби қисмига жойлаштирилади ва давом эттириш тугмаси ҳосил қилиниб, кейинги саҳифага ўтиш танланади. 3-рasmда маърузанинг биринчи режасини киритиш кадамлари кўрсатилган.




Назарий материалларни “Маъруза” элементи ёрдамида амалга ошириш, назарий материалларни тақдим этишдан ташқари, ҳар бир режадан сўнг саволларни киритиш орқали талабаларда материалнинг илмий жиҳатдан ўзлаштирилганлигини таҳлил қилиш имконияти мавжуд. 4-рasm.



“Маъруза” элементини талабалар ўзлаштиришини назорат қилиш учун ўқитувчи турли хил тест саволларидан фойдаланиши мумкин, масалан, “бир нечта танлов”, “тўғри-нотўғри” ёки “қиска жавоб”.<sup>1</sup>



5-расмда “маъруза” элементи яратилган бўлиб, уни яқунлаш учун мавзу тўлиқ ўзлаштирилиши ва саволларга тўғри жавоб бера олиши кўзда тутилган.



Барча фанларда учрагани каби дискрет математика ва математик мантиқ фанида ҳам мавзуларни оддий, ўртача ва мураккаб типларга ажратиш мумкин. Мураккаб мавзуларни ўқитишда видеодарслардан фойдаланиш яхши самара беради. Олдиндан **youtube** каналида юклатилган маърузалардан фойдаланиш ва “маъруза” элементига киритиш мумкин. Бунинг учун “маълумот саҳифасини қўшиш” қисмига youtube каналида юклатилган видеодарсларнинг куйи қисмида “поделиться” тугмасини, сўнг “встроить” тугмасини босамиз ва шунда каналдаги видеонинг HTML кодига эга бўламиз. Кодни 6-расмда кўрсатилган қисмга жойлаштирамиз.


Шундай қилиб, маърузанинг 3-қисмида видеодарс жойлаштирилади (7-расм).

Бугунги кунда талабаларга сифатли таълим беришни ташкил қилишда илмий-техника тараққиёти маҳсули бўлган замонавий ахборот технологиялари ва унинг моддий асоси компьютерлар

<sup>1</sup>Гильмутдинов А.Х. Электронное образование на платформе MOODLE. Казань, КГУ, 2008, с. 5.



хизматидан кенг фойдаланиб, электрон дарслик ва қўлланмалар ташкил этиш ва интернет манбаларидан ҳамда масофадан ўқитишнинг дастурий воситаларидан фойдаланиш давр талаби бўлиб қолмода. Айнан шу мақсадда ахборот технологияларидан фойдаланиш, мутахассисларнинг умумий маълумоти ва касбий тайёргарлигининг сифатини ошириш учун жаҳон андозаларига жавоб берувчи ахборот технологияларини таълим жараёнига татбиқ этиш ҳам муҳим аҳамият касб этади.



**Очилова Вазираҳон Рустамовна (ЎзДЖТУ таянч докторанти)  
МЕТАКОГНИТИВ СТРАТЕГИЯНИНГ ЎҚУВ СТРАТЕГИЯДАГИ ЎРНИ**

**Аннотация.** Мақолада метакогнитив стратегиянинг таълим жараёнига таъсири, когнитив, ижтимоий ва таъсирчан стратегиялардан фарқли ва ўхшаш томонлари, метакогнитив стратегиялар таълимни “режалаштириш”, “ташқил қилиш” ва “баҳолаш” учун жавобгардир; когнитив стратегия – сўзларни ўрганиш ва янги сўзларни ажратиб кўрсатиш, янги сўзлар рўйхатини тузиш, дафтарда сўзларни қайта-қайта ёзиб олиш каби лексик бирликларни ўрганишнинг механик жиҳатлари.

**Аннотация.** В статье исследуется влияние мета когнитивной стратегии на процесс обучения, различия и сходства когнитивных, социальных и эмоциональных стратегий, мета когнитивные стратегии отвечают за «планирование», «организацию» и «оценку» образования; когнитивная стратегия – механические аспекты изучения лексических единиц, такие как изучение слов и выделение новых слов, составление списка новых слов, переписывание слов в блокноте;

**Annotation.** The article examines the influence of metacognitive strategy on the learning process, differences and similarities in cognitive, social and emotional strategies, metacognitive strategies are responsible for “planning”, “organizing” and “evaluating” education, cognitive strategy – the mechanical aspects of learning lexical units, such as learning words and highlighting new words, making a list of new words, rewriting words in a notebook.

**Калим сўзлар:** декларатив билим, процессуал билим, шартли билим, стратегия, когнитив.

**Ключевые слова:** декларативное знание, процедурное знание, условное знание, стратегия, когнитивное.

**Key words:** declarative knowledge, procedural knowledge, conditional knowledge, strategy, cognitive.

Жаҳон тажрибасида тилларни ўрганишда турлича стратегиялардан фойдаланиб келинган ва улар мунтазам равишда такомиллаштирилиб борилган. Чамотнинг фикрига кўра, 1975 йилдаги дастлабки тадқиқотлар талабалар тил ўрганишда фойдаланиши мумкин бўлган стратегиялар тур-




ларини аниқлаш учун “кузатиш”га боғлиқ эди.<sup>1</sup> Шу билан бирга, ЎМаллей ва Чамот (1990) биринчи тил тадқиқотлари асосида хорижий тилни ўрганиш стратегиясини тавсифладилар.

**ЎМаллей ва Чамот таклиф этган ўқув стратегияси таснифи**



Улар ўқув стратегияларини тўрт турга ажратдилар: когнитив стратегиялар, метакогнитив стратегиялар, ижтимоий стратегиялар ва таъсирчан стратегиялар. Улар когнитив стратегияларни “онг ости” деб таърифладилар. Когнитив стратегия – бу сўзларни ўрганиш ва янги сўзларни ажратиш кўрсатиш, янги сўзлар рўйхатини тузиш, янги сўзларни ёзиш учун флеш-карталардан фойдаланиш, ўрганаётган сўзларга инглиз тилида ёрликлар қўйиш, дафтарда сўзларни қайта-қайта ёзиб олиш каби лексик бирликларни ўрганишнинг механик жihatларидир. Ўз навбатида, метакогнитив стратегиялар кузатишни, қарор қабул қилишни ва муваффақиятингизни баҳолашни ўз ичига олади”.<sup>2</sup> Уларнинг таъкидлашича, ижтимоий стратегиялар ва таъсирчан стратегиялар кўпинча “кенг гуруҳлаш” бўлиб, у талабаларнинг бошқалар билан ўзаро алоқасини ва уларнинг тил ўрганишга бўлган ҳис-туйғуларини “назорат қилишини” ўз ичига олади. Ушбу стратегияларга мисол сифатида тил масаласида курсдошлари билан ҳамкорлик қилиш, ўқитувчидан ёрдам сўраш, бошқалар билан ҳиссиётларини муҳокама қилиш ва маълум бир тил вазифасини бажара олишига ишонч ҳосил қилиш киради.<sup>3</sup> Стратегияларни таснифлашнинг яна бир усули Ребекка Оксфорд томонидан таклиф қилинган (1990).

**Ребекка Оксфорд таклиф этган ўқув стратегияси таснифи**



<sup>1</sup> Chamot A.U. (2004). Issues in language learning strategy research and teaching. Electronic Journal of Foreign Language Teaching, 1, 14–26. Retrieved March 20, 2011, from <http://e-flt.nus.edu.sg/v1n12004/chamot.htm>

<sup>2</sup> O’Malley J.M.&Chamot A.U. (1990). Learning strategies in second language acquisition. Cambridge: Cambridge University Press.

<sup>3</sup> Шу манба.

У талабалар янги тил билан ишлашда “бевосита” фойдаланадиган “тўғридан-тўғри стратегиялар” ва таълимни умумий бошқариш учун ишлатиладиган “билвосита стратегиялар”ни ажратиб кўрсатди. Тўғридан-тўғри стратегиялар “тўғридан-тўғри ўрганаётган тилни ўз ичига олади” ва уларнинг тилини “ақлий қайта ишлашни” талаб қилади, билвосита стратегиялар эса “тўғридан-тўғри мавзу мазмунини ўз ичига олмайди, аммо шунга қарамай тилни ўрганиш учун жуда муҳимдир”.<sup>1</sup> Ушбу иккита кенг турдаги стратегияларнинг ҳар бири яна учта гуруҳга бўлинади. Тўғридан-тўғри стратегияларга хотира стратегиялари, когнитив стратегиялар ва компенсация стратегиялари киради.

Хотира стратегияси – бу талабаларга маълум маълумотларни “сақлашда” ва кейин керак бўлганда уларни “олишга” ёрдам берадиган усуллар.<sup>2</sup>


Когнитив стратегиялар – бу такрорланадиган, ибораларни таҳлил қилган ёки хулоса қилган ҳолда ўрганаётган тилини бошқариш ёки ўзгартириш қобилиятлари.<sup>3</sup> Оксфорд когнитив стратегия ўз ичига олган бир қанча вазифаларни баён қилди: машқ қилиш, хабарларни қабул қилиш ва юбориш, таҳлил қилиш ва мулоҳаза юритиш ва кириш ва чиқиш учун тузилмани яратиш.<sup>4</sup> Бирок компенсация стратегиялари – бу “тилни билишда юзага келадиган бўшлиқларни бартараф этиш учун зарур”.<sup>5</sup> Улар грамматикада ёки сўз бойлигидаги ҳар қандай камчиликни “қоплаш учун” ишлатилади. Оксфорд иккита тўпламга кирадиган ўнта компенсация стратегиясини аниқлади: тинглаш ва ўқиш пайтида ақл билан тахмин қилиш ва гапириш ва ёзишдаги чекловларни бартараф этиш. Баъзида “хулоса қилиш” стратегияси деб таърифланадиган тахмин қилиш стратегиялари янги сўзлар ва ибораларнинг маъносини тахмин қилиш учун лингвистик ва лингвистик бўлмаган маслаҳатлардан фойдаланишни ўз ичига олади. Компенсация стратегиялари эса талабаларга она тилига ўтиш, ёрдам олиш, мим ёки имо-ишоралардан фойдаланиш, суҳбатдан қисман ёки умуман қочиш, мавзунини танлаш, хабарларни сошлаш ёки яқинлаштириш, сўзларни бириктириш ва сўзлаш орқали ёзиш ва ёзишдаги чекловларни энгишга ёрдам беради.<sup>6</sup>

Метакогнитив стратегиялар ўқувчиларга “марказлаштириш”, “тартибга солиш”, “режалаштириш” ва “баҳолаш” орқали ўзларининг “идрокларини” бошқариш ва “мувофиқлаштириш” га ёрдам беради. Улар учта стратегик гуруҳни ўз ичига олади: таълимнингизни марказлаштириш; таълимнингизни тартибга солиш ва режалаштириш, ўрганишингизни баҳолаш.<sup>7</sup>

Метакогниция ҳақида гапирар эканмиз, авваламбор, метакогнициянинг усуллари ва тамоийилларини ўрганишимиз муҳимдир. Метакогниция асосчиси Жон Флавелл таъкидлашича метакогниция икки қисмдан ташкил топган.

- 1) метакогнитив билим;
- 2) метакогнитив тажриба.

#### Жон Флавелл таклиф этган метакогниция таснифи



<sup>1</sup> Oxford R. (1990). Language learning strategies: What every teacher should know. Boston, Heinle & Heinle.

<sup>2</sup> Шу манба.

<sup>3</sup> Шу манба.

<sup>4</sup> Шу манба.

<sup>5</sup> Шу манба.

<sup>6</sup> Шу манба.

<sup>7</sup> Шу манба.

Метакогницияни Жон Флавелдан кейин бир нечта олимлар ўз таснифларини бериб боришган. Шундай олимлардан яна бирлари Счрав ва Сперлинг-Деннисонлардир. Улар 1994 йили ўз тадқиқотларида метакогницияни иккита асосий таркибий қисмга ажратиб кўрсатганлар.

1. Идрок.
2. Идрокни тартибга солиш.

*Идрок* – бу метакогнициянинг асосий қисми бўлиб, уни яхшироқ тушиниш учун яна 3 қисмга бўладилар. Булар:

1. Декларатив билимлар.
2. Процессуал билимлар.
3. Шартли билимлар.

Процессуал билимлар ишларни билишни англатади. Ушбу билимларнинг кўпи эвристик ва стратегиялар шаклида келтирилади. Юқори даражадаги процессуал билимларга эга бўлган шахслар вазибаларни автоматик равишда бажарадилар, кўпроқ стратегияларга эга бўладилар, стратегияларни самарали ташкил қиладилар дея таъкидлашади 1987 йилда Пресслей, Борковски ва Шнайдер<sup>1</sup> ва Гласер & Чи муаммоларни ҳал қилиш учун сифат жиҳатидан ҳар хил стратегиялардан фойдаланишини маълум қилишган.<sup>2</sup>

1990 йилда Гарнернинг таъкидлашича, шартли билим ёки маълумотни ўрганиш ва ушбу стратегияларни янги ҳолатларга мослаштириш учун стратегиялардан фойдаланиш қобилиятидир. Бу инсоннинг ёши ёки ривожланиш босқичига боғлиқ. Шартли билимлар декларатив ва процессуал билимларни қачон ва нима учун ишлатишни билишни англатади.<sup>3</sup> Рейнолдснинг сўзларига кўра шартли билимлар талабаларга жуда муҳимдир, чунки у талабаларга ўз ресурсларини танлаб ажратиш ва стратегиялардан самаралироқ фойдаланишда ёрдам беради.<sup>4</sup> Шартли билимлар талабаларга ҳар бир ўқув топшириғидаги ўзгарувчан вазиятга мослашишга имконни беради.

**Авазов Жўрабек Донаевич (Тошкент Давлат Техника университети  
Термиз филиали катта ўқитувчиси; jurabek-avazov@mail.ru)  
БЎЛАЖАК МУҲАНДИСЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ  
ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ТАСНИФИЙ ШАКЛЛАРИ**

**Аннотация.** Мақолада олий таълим муассасаларида бўлажак муҳандисларни касбий компетентлигини такомиллаштиришда умумқасбий фанлари алоқа мазмунининг таснифий шакллари транспорт воситалари муҳандислиги мутахассислиги мисолида ёритиб берилган.

**Аннотация.** В статье описаны классификационные формы содержания междисциплинарного общения в повышении профессиональной компетентности будущих инженеров в высших учебных заведениях на примере специальности «автомобилестроение».

**Annotation.** The article describes the classification forms of the content of interdisciplinary communication in improving the professional competence of future engineers in higher education institutions on the example of the specialty of vehicle engineering.

**Калим сўзлар:** талаба, олий, таълим, тарбия, бўлажак, муҳандис, компетентлик, такомиллаштириш, компьютер графикаси, фанлараро, восита, алоқа, тасниф, мутахассислик, умумқасбий, сифат, самарадорлик.

**Ключевые слова:** студент, высшее, образование, воспитание, будущее, инженер, компетентность, совершенствование, компьютерная графика, междисциплинарный, медиа, коммуникация, классификация, специализация, общее, качество, эффективность.

**Key words:** student, higher, education, upbringing, future, engineer, competence, improvement, computer graphics, interdisciplinary, media, communication, classification, specialization, general, quality, efficiency.

<sup>1</sup> Pressley M., Borkowski J.G. and Schneider W. (1987). Cognitive strategies: Good strategy users coordinate metacognition and knowledge. In Vasta R., and Whitehurst G. (Eds.), *Annals of Child Development*, 5, 89–129. Greenwich, CT: JAI Press.

<sup>2</sup> Glaser R. Education and thinking: the role of knowledge. *American Psychologist*. 1984, Vol. 39, p. 93 – 104.

<sup>3</sup> Garner R. (1987). *Metacognition and Reading Comprehension*. Norwood, New Jersey: Ablex Publishing Corporation

<sup>4</sup> Reynolds R.E. (1992). Selective attention and prose learning. *Theoretical and empirical research. Educational Psychology*, 4, p. 345–391.

Ёшларни ўқитиш, уларга таълим-тарбия бериш, келажак учун муносиб кадрлар қилиб тарбиялаш ҳамма вақт ҳам ҳар бир давлатнинг энг биринчи навбатдаги ишларидан бири бўлиб келган. Бизнинг мамлакатимизда ҳам бундай ишлар давлатимиз раҳбарларининг доимий равишда диққат марказида турибди, десак, айтиш мумкин бўлади.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг бевосита ташаббуси ва раҳбарлигида қабул қилинган ҳамда изчил равишда амалга оширилаётган Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиш бўйича Ҳаракатлар стратегияси республикада ривожланиш тараққиётининг янги босқичини бошлаб берди. Бу жараённинг амалий натижалари бугунги кунда ҳаётимизнинг барча соҳаларида, энг муҳими, халқимизнинг онгу тафаккури, интилиши ва ҳаракатларида яққол намоён бўлмоқда. Ҳаракатлар стратегиясининг тўртинчи – Ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан бири бўлган таълим тизимини такомиллаштириш масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратилган.<sup>1</sup>

Шу мақсадни кўзлаб олиб борган тадқиқот ишимизнинг тажриба-синов объекти сифатида Тошкент Давлат Техника университети Термиз филиали 5310600-Транспорт воситалари муҳандислиги (автомобиль воситаларига хизмат кўрсатиш) таълим йўналиш ўқув режасида кўзда тутилган ихтисослашув (автомобиль воситаларига хизмат кўрсатиш)да бўлажак муҳандисларни тайёрлаш жараёнини олдик.

Электрэнергетика ва транспорт тизимлари факультетида ўқиш жараёнида фанлар ўртасидаги алоқалар бир фанни ўрганишда олинган билим, кўникмаларни бошқасига узатиш ходисаси сифатида кўриб чиқилди. Билим бериш деганда нафақат расмий узатиш омиллар йиғиндиси, балки ўзлаштирилган маълумотни ижодий қайта ишлаш, тасвирлаш, билимларнинг ишончлилигини исботлаш учун омилларни танлаш, рационал график қурилмаларини усулларини танлаш назарда тутилади.

Умумийқасбий фан сифатида ўқитиладиган “Муҳандислик ва компьютер графикаси” курси мураккаб тузилишга эга бўлган геометрик шаклларнинг проекциялари, текисликларнинг ўзаро кесишиши, сиртларнинг кесишиш чизиқлари, машинасозлик чизмаси, кинематик схемаларнинг тасвирларини қуриш усуллари бўлимларидан иборат. Ҳар бир бўлимда уларнинг амалий асосларини ўрганишда қўлланиладиган бошқа фанлар мазмуни билан боғлиқ материаллар мавжуд.

5310600-Транспорт воситалари муҳандислиги (автомобиль воситаларига хизмат кўрсатиш) таълим йўналиши бўйича механик-муҳандислар тайёрлаш таркибини ўрганаётганда биринчи марта ижтимоий, табиий-илмий, умумтехник ва техникавий фанларга мувофиқ ўқув режасининг фанлар таснифини амалга оширдик.

“Муҳандислик ва компьютер графикаси” фанининг ушбу цикларнинг алоҳида фанлари билан бевосита ва билвосита алоқалари аниқланди (1- ва 2-расмлар).

Шундай қилиб, “Муҳандислик ва компьютер графикаси” (1–3-семестр) қуйидаги фанларни ўқишда устунлик қилади:

- механика (НМ,МҚ, ММН, МД) (2,3,4,5-семестр, курс лойиҳаси тайёрлаш);
- автотранспорт воситаларининг тузилиши (3-семестр, курс лойиҳаси тайёрлаш)
- машина қисмлари ва юк кўтариш транспорт тизимлари (5, 6-семестр, курс лойиҳаси);
- автотранспорт воситалари деталларини қайта тиклаш методлари (6-семестр, курс лойиҳаси);
- автомобиль двигателлари (7-семестр, курс иши);
- техник хизмат кўрсатиш технологияси (7 – 8-семестр, курс лойиҳаси).

Юқоридаги таснифдан кўриниб турибдики, 5310600-Транспорт воситалари муҳандислиги (автомобиль воситаларига хизмат кўрсатиш) мутахассислик ўқув режасини тузишда фанлараро алоқаларни кетма-кетлигига эътибор берилган, яъни турдош бўлган фанларни талабалар томонидан ўрганилгандан кейин бошқа фан ўрганилади. Масалан, муҳандислик ва компьютер графикаси (1–3-семестр) фанларини ўрганиш жараёнида олинган билимлар, кейинчалик, механика (НМ, МҚ, ММН, МД) (4–5-семестр), автотранспорт воситаларининг тузилиши (3-семестр) хизмат кўрсатиш техникаси ва жиҳозлари (5–6-семестр) автомобиль двигателлари (6–7-семестр) ва бошқалар каби ўхшаш фанларни ўрганишда қўлланилади.

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Тошкент шаҳри, 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947.

Фанларнинг ўқув дастурлари кетма-кет ўрганиш ўқув материалнинг такрорланишини бутунлай истисно қилишга имкон бермайди. Ўқув дастурларининг бошқа фанлари билан алоқа орқали чизма геометрия, муҳандислик графикаси ва компьютер графикасини ўқитишни оптималлаштириш мақсадида бир неча йил давомида талабалар ишини (курс ишлар ва лойиҳалар, диплом лойиҳалари) боғлиқ фанларнинг иш дастурларини, ТДТУ Термиз филиали умумқасбий ва битирувчиларни чиқарувчи кафедралари ўқитувчиларининг эксперт сўровларини таҳлил қилиш амалга оширилди. Ушбу ишларнинг мақсади, муҳандислик ва компьютер графикасини ўрганиш пайтида талабалар нафақат анъанавий таркибдаги асосий ўқув вазифаларини, балки техник тушунчаларини кенгайтириш, техник атамаларни ўзлаштириш ва танланган мутахассисликка тегишли кўникмаларни шакллантириш учун зарур бўлган махсус вазифаларни бажаришдир.

Ўқув режаларини, иш дастурларини ўрганиб чиқиб, фанлар ўртасидаги алоқа шакллари ўқув-услубий адабиётда қандай акс эттирилганлигини аниқлашга ҳаракат қилдик. Анъанавий ўқув вазифаларига мувофиқ буларнинг барчасини уч гуруҳга бўлиш мумкин: дарсликлар, вазифалар тўплами-маълумотномалар. Қўлланмалар ва ўқув дастурлари ўртасида доимо узвий боғлиқлик мавжуд.

Дарслик фанни ўзлаштиришда зарур бўлган билим миқдорини, тушунчаларни очиб беради ва шакллантиради. Дарсликда тақдим қилинган материалларни кетма-кетлиги фанга қизиқишни ривожлантиришга, мустақил равишда билим олиш қобилиятини шакллантиришга катта таъсир кўрсатиши керак. Техника олий ўқув юрти талабаларига ўқитувчилар томонидан муҳандислик ва компьютер графикасини ўрганишда тавсия этилган дарсликларни янги билимларни ўзлаштиришда, график вазифаларни ечимини исботлашда, чизмани тахт қилишда ва ҳоказоларда зарур бўлган маълумот манбаи сифатида кўриб чиқамиз. Техника олий ўқув юрти талабалари учун уларнинг умумлаштирилиши замонавий ноанъанавий ўқитиш мазмунига, ўрганилаётган фаннинг муайян танланган мутахассислик йўналишига мос келмайди. Турли хил техник мутахассисликлар бўйича ўқиётган талабалар учун машинасозлик технологияси, транспорт воситалари муҳандислиги, технологик машиналар ва жиҳозлар, енгил саноат буюмлари конструкциясини ишлаш технологияси, йўл муҳандислиги ва бошқаларга машинасозлик чизмачилиги бўйича битта дарслик таклиф этилади. Таклиф қилинаётган дарсликларнинг ҳеч бирида ушбу мутахассисликлар бўйича махсус техник маълумотлар берилмаган, муҳандислик ва компьютер графикаси курсини аниқ келажакдаги мутахассислик билан боғламайди. Ушбу дарсликларда фанлараро алоқалар етарли даражада таъминланмаган, баъзиларида эса умуман йўқ. Уларда мутахассисликнинг ўзига хос хусусиятлари акс эттирилмаганлиги сабабли, улар билан ишлаш жуда қийин.

Улардаги вазифаларнинг ечими кўпинча мавҳум мисоллар ёрдамида келтирилган, аниқ техник деталларнинг шаклини таҳлил қилишга мисоллар йўқ. Назарий ҳолатларни ҳаётда амалий қўлланилиши ўртасидаги боғлиқлик жуда кам акс эттирилган. Натижада талабалар муҳандислик ва компьютер графикасини ўрганишни тугатгандан сўнг, ўзларининг билимларини курс лойиҳалари ва ишларида махсус график муаммоларни ечишда қўллай олмайди. Танланган касбнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олмаган ҳолда, уларнинг ҳаракатларида чизмаларни қуриш усулларида муаммолар мавжудлиги кузатилмоқда, бу “Муҳандислик ва компьютер графикаси” фанини ўрганишда танланган мутахассислик ва келажакдаги муҳандислик фаолияти билан боғланишнинг йўқлигини ифодалайди (2-расм). Шунинг учун улар тасвирланган қисмнинг мақсадини, ишлаб чиқариш технологиясини ва шартли эксплуатациясини тушунтира олмайди. Муҳандислик ва компьютер графикасининг юқори курсларда ўқитиладиган техник фанлар билан тизимли алоқасининг йўқлиги талабаларнинг ҳеч қаерда керак бўлмаган ёки деярли ишлатилмайдиган фанга нисбатан нотўғри муносабатда бўлишига олиб келади.

Машинасозлик чизмачилигининг турли дарсликларида чизмачилик бўйича бошқа фанлар билан алоқасини, 5310600-Транспорт воситалари муҳандислиги ихтисослиги чизмаларининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, дастурий материалларни умумлаштиришга уринишлар мавжуд, ammo техник фанларни ўрганишда чизмачилик кўникмаларидан фойдаланиш бўйича тавсияларсиз муҳандислик чизмаларини амалий қўллаш бўйича мисоллари келтирилган. Турли қўлланмалар боблари охирида берилган назорат саволлари, асосан, талабани танланган мутахассислик билан боғлиқ бўлмаган жавобларга қаратади.

## ЎҚУВ РЕЖАДАГИ ФАНЛАР

### Табийий-илмий ва гуманитар фанлар

- 1.01. Олий математика. 1–3-семестр.
- 1.02. Физика. 1–2-семестрлар.
- 1.03. Техник тизимларда ахборот технологиялари. 1-семестр.
- 1.04. Кимё. 2-семестр.
- 1.05. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи. 1-семестр.
- 1.06. Фалсафа. 5-семестр.
- 1.07. Ўзбек (рус) тили. 1–2-семестрлар.
- 1.08. Хорижий тил. 1–4-семестр.
- 1.09. Ўзбек тилини соҳада қўлланилиши. 2-семестр.
- 1.10. Жисмоний тарбия ва спорт. 1-семестр.

### Умумқасбий фанлар

- 2.01. Муҳандислик ва компьютер графикаси. 1-семестр.
- 2.02. Соҳа иктисодиёти ва менежменти. 6-семестр.
- 2.03. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги. 7-семестр.
- 2.04. Метрология, стандартлаштириш ва ўзаро алмашувчанлик. 6-семестр.
- 2.05. Қасбий психология. 5-семестр.
- 2.06. Экология. 5-семестр.
- 2.07. Материалшунослик ва конструкцион материаллар технологияси. 3–4-семестрлар
- 2.08. Механика (НМ,МК, ММН, МД). 2–5-семестрлар.
- 2.09. Электротехника ва электроника 3-семестр.
- 2.10. Термодинамика ва иссиқлик техникаси. 4-семестр.
- 2.11. Гидравлика ва гидропневмоуритмалар. 4-семестр.
- 2.12. Автотранспорт воситалари деталларини қайта тиклаш методлари. 6-семестр.
- 2.13. Автотранспорт воситаларининг тузилиши. 3-семестр.
- 2.14. Машиналар пухталиги асослари. 7-семестр.
- 2.15. Танлов фанлари. 2-3-4-6-7-8-семестрлар.

### Ихтисослик фанлар

- 3.01. Автотранспорт воситаларининг диагностикаси. 4–5-семестрлар.
- 3.02. Хизмат кўрсатиш техникаси ва жиҳозлари. 5–6-семестрлар.
- 3.03. Хизмат кўрсатишни ташкил қилиш. 7–8-семестрлар.
- 3.04. Техник хизмат кўрсатиш технологияси. 7–8-семестрлар.
- 3.05. Танлов фанлари. 7–8-семестрлар.


1-расм. 5310600-Транспорт воситалар муҳандислиги таълим йўналиши мисолида фаннинг ўқув режасини таснифлаш.

Ҳозирги кунда муҳандислик графикаси, муҳандислик ва компьютер графикаси фанининг асосий бўлимлари бўйича олинган анъанавий маълумотларни мустаҳкамлаш ва тўлдириш учун зарур материални ўз ичига олган 5310600-Транспорт воситалари муҳандислиги таълим йўналиши талабаларига зарур бўлган танланган ихтисосликка қаратилган вазифалар тўпламлари мавжуд эмас.

“Муҳандислик ва компьютер графикаси” фани билан боғлиқ график қисмини ўз ичига олган фанлар ўқув дастурлари, курс ва диплом лойиҳаларини таҳлил қилиш орқали аниқланган (2-расм).

Турли ўқитувчиларнинг тажрибаси, умуман, механика йўналиши талабалар учун мўлжалланган дидактик топшириқларни маълум бир мутахассислик учун берилган топшириқларга қайта ишлаш талаб қилинишини кўрсатди. Бу иш фаолиятида ва келажакда юқори курс талабаларини ўқитишда назария билан амалиётнинг боғланишини таъминлаш учун жуда зарурдир.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, маълум бир мутахассислик учун нафақат муҳандислик ва компьютер графикаси бўйича анъанавий маълумотни ўз ичига олган, балки танланган мутахассисликка талабаларни тайёрлашнинг ўзига хос хусусиятларини ақс эттирадиган ўз дарсликлари ва ўқув қўлланмалари, махсус топшириқлар тўпламлари, маълумотномаларни яратиш керак.



**2-расм. 5310600-Транспорт воситалар муҳандислиги таълим йўналиши мисолида муҳандислик ва компьютер графикасининг фанлар билан боғлиқлик схемаси.**

5310600-Транспорт воситалар муҳандислиги таълим йўналиши мисолида муҳандислик ва компьютер графикаси бошқа фан дастурлари билан боғлиқ ҳолатининг таҳлили қуйидагиларни кўрсатди:

1. Замонавий илм-фан ва технологияларни ривожланиш даражаси билан таълимни боғлиқликлигини кучайтириш мақсадида “Муҳандислик ва компьютер графикаси” курсининг мазмуни ва номи техника олий ўқув юртларида бир неча бор ўзгартирилди.

2. Муҳандислик ва компьютер графикасини техник цикл фанлари билан боғлиқ муаммосини ечимини излаш фан ўқитувчиларини тегишли фаннинг ўқув методологиясини ишлаб чиқиш зарурлиги ҳақидаги хулоса чиқаришига олиб келади.

3. Турли мутахассисликлар бўйича фанларнинг ўқув дастурлари ва иш дастурларида фанлар ўртасидаги боғлиқликни кенг амалга ошириш кўзда тутилмаган. Махсус фанларни ўрганишни режалаштириш таълимдаги алоқаларни назоратсиз амалга оширилишига кўмаклашади, бу баъзан ўрганилаётган материалнинг такрорланишига олиб келади. Фақат кетма-кет алоқаларнинг мавжуд-

лиги талабаларнинг муҳандислик ва компьютер графикаси бўйича билимларини оширишга ёрдам бермайди.

4. Муҳандислик ва компьютер графикаси бўйича ўқув дастурлари ўрганилаётган материални бошқа фанларда қўллашни етарли даражада ҳисобга олмаган ва талабани мураккаб махсус вазифаларни шакллантириш ва ечиш қобилиятига йўналтирмайди.

5. Ўхшаш фанларга тегишли бўлган ўқув материаллари “билим ва кўникмалар” тушунчасига мувофиқ таснифланмаган.

6. Муҳандислик иши ва ишлаб чиқариш технологиялари таълим соҳаларида ўқитилаётган муҳандислик ва компьютер графикаси фанини ўқитиш методикаси фанлараро алоқаларнинг кўп томонлама тамойилини ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқилиши керак.

7. Техника олий ўқув юртларининг талабалари учун чиқарилган дарсликлар, вазифалар тўпламлари ва маълумотномалар ўқув дастурининг бошқа фанлари билан алоқаларини етарли даражада акс эттирмаган ва аниқ бир мутахассисликнинг ўзига хос хусусиятлари ҳисобга олиш мақсадга мувофиқ.

**Zaynobiddinov Dilshodbek Qobilovich**

**(Andijon Mashinasozlik instituti Gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti)**

## **TALABALAR MULOQOTINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik jarayon va unda kommunikator pedagogning ishiga aloqador tamoyillarni farqlash, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish uchun har bir auditoriyada sog'lom muhitni yaratishda pedagogning muloqotiga qo'yilgan muhim shartlar, o'qituvchida o'zining o'quvchi, talabalariga ta'sir ko'rsatishning asosiy mexanizmlarini bilish va ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llay olish malakalari bo'yicha fikr yuritiladi.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается современный педагогический процесс и принципы, связанные с работой педагога-коммуникатора, важные условия, заложенные в диалоге педагога при создании здоровой среды в каждой аудитории для эффективной организации педагогической деятельности, знание учителем основополагающих механизмов воздействия на своих учеников и студентов и навыков их применения в учебно-воспитательном процессе.*

***Annotation.** In this article, the modern pedagogical process and the principle associated with the work of the communicator educator differ, in order to effectively organize pedagogical activity, the important conditions put in the dialogue of the educator in creating a healthy environment in each auditorium, the teacher should know the basic principles of influencing his/her pupils, students, and the skills of applying them in.*

***Kalit so'zlar:** muloqot, etika, g'oya, ekstralingvistik va paralingvistik, kommunikator, mexanizm, dunyoqarash, ta'sirchanlik, ishontirish, e'tiqod.*

***Ключевые слова:** коммуникация, этика, идея, экстралингвистика и паралингвистика, коммуникатор, механизм, мировоззрение, аффективность, убеждение, вера.*

***Key words:** communication, ethics, idea, communicator, worldview, impressiveness, persuasion, religion.*

**Kirish.** Bugun yurtimizda yashayotgan har bir fuqaro, ongli inson mamlakatimiz taraqqiyotining oldinga bosishi, taraqqiyot topgan davlatlar bilan hamkorlikda rivojlanishi uchun zarur shartlarni bilish bilan birga, shu ezgu maqsadni amalga oshirishga munosib hissa qo'shuvchi yosh avlodni har tomonlama yetuk barkamol shaxslar qilib voyaga yetkazishda ta'lim-tarbiya tizimini modernizatsiya qilish zarurligini anglab yetmoqda.

Bugungi shiddatkor hayot odamlar bilan bemalol muloqot qila oladigan, yaxshini yomondan ajrata oladigan, xayotning past-u baland ko'chalarida aql-zakovat bilan to'g'ri yo'lni topishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qilmoqda.

Muloqot – odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi.

Pedagogika etika yoki muomala nuqtayi nazaridan, har bir pedagog-o'qituvchi sog'lom va ilg'or g'oyalarni targ'ib etuvchi ma'lumotni auditoriyaga yetkazayotganda, birinchi navbatda, uning ko'zlarini loqayd bo'lmasligi, bu teran va faol qarash shogirdlarda ham shunga mos qarashni uyg'otishga erishmo-



g'i lozim. Buning uchun u har bir ibora va jumlaning ichki e'tiqod va ishonch bilan ayta olishi, talaba yoki o'quvchi javob berganda uni juda diqqat bilan tinglab olishi kerak. Muloqotda nutq orqali ta'sir qilish bilan birgalikda ta'sirning noverbal vositalari borligini inobatga olib ko'z qarashlar ovoz va tovush imkoniyatlaridan ekstralingvistik va paralingvistik usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Har bir muloqot aktlarida pedagog o'z o'quvchilari timsolida navbatdagi oddiy o'quvchi emas, balki ma'lum ma'noda dunyoqarashi shakllanib bo'lgan inson, shaxsni ko'ra bilish darkor.<sup>1</sup>

**Materiallar va izlanishlar.** Zamonaviy pedagogik jarayon va unda kommunikator pedagogning ishiga aloqador quyidagi tamoyillarni farqlash mumkin:

1. Zamonaviy pedagogik jarayon ta'limni isloh qilishni talab qilganini inobatga olib o'qituvchi pedagog nafaqat bilim va ko'nikmalarni o'zgalarga "yetkazuvchi", balki asosan yoshlarni yangi va kerakli bilimlarni egallashga o'rgatish, ular bilish faoliyatini tashkil etib, boshqarishdan mustaqil fikrlashga o'rgatish yotadi. Buning uchun:

– talaba yoki o'quvchini mustaqil tarzda u yoki bu ma'lumotlarni izlab topishga, kutubxonada samarali ishlash yo'llariga va tez o'qishga o'rgatish;

– o'qigan materialni tushunish, asosiy fikrlarni ajratib olib foydali konspektlar tuzishga o'rgatish;

– ajratib olingan ma'lumotlar bilan ishlashga o'rgatish kerak.

2. O'z shaxsiy tashabbusi bilan pedagog o'quvchilarini ham hamkorlikda ishlashga o'rgatish, buning uchun esa jamoa faoliyatida ham bajaruvchi, ham tashkilotchi ham tashabbuskor bo'lishga erishish lozim.

3. Har bir o'quvchini ma'naviy tomondan boy bo'lishga alohida e'tibor berib, kelajagini faqat halol va malakali mehnat tufayli baxtli bo'lishini tasavvur qilishga unday olish.<sup>2</sup>

Ijtimoiy psixologik nuqtayi nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, o'qituvchida o'zining o'quvchi, talabalariga ta'sir ko'rsatishning 3 ta asosiy mexanizmi mavjud, bu:<sup>3</sup>

1) ta'sirchanlik;

2) ishontirish;

3) e'tiqod hosil qilish.

Birinchisi shunisi bilan xarakterliki, o'qituvchi o'z faniga layoqati, sadoqati, mehri bilan shunday ta'sir qiladiki, yoshlar bundan ta'sirlanib, o'sha fanga va berilayotgan ma'lumotlarga "rom" bo'lib qoladilar, bu narsa ularning hissiyotlariga, emotsiyalariga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bolalar nima uchun aynan o'qituvchining fanini yaxshi ko'rib qolganliklarini sezmay qoladilar. Ishontirishning ta'sirlanishdan farqi shuki, bunda ta'sirlanuvchi faqat hissiyotlari tufayli emas, balki aqli-hushi farosati bilan o'qituvchining ta'siriga beriladi. Masalan, o'qituvchining ishonchi bilan bir sharoitda ba'zan muvaffaqiyatni kafolatlaydi.

Uchinchi mexanizm ham ikkinchisiga o'xshashsada, asosan, so'zlardir, lekin har bir so'z bevosita hissiyotlarga emas, balki mantiqqa, ongga yo'naltirilgan bo'ladi. E'tiqodga ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchi quyidagilarga amal qilishi kerak.

– asosiy fikrni aniq va lo'nda qilib, o'quvchiga tushuntirishi, fikrning tinglovchiga aloqador manfaatli tomonini tushuntirish, xulosa chiqarishni o'quvchiga havola etish;

– bir-ikkita tayanch iboralarini tanlab olib tushuntirish mobaynida ular fikrining xotirada o'rnatib qolishga sabab bo'ladi;

– ishonarli, qarama-qarshiliksiz fikrlarni aniq ifodalash, chunki umumiy fikr-mulohazalardan ko'ra aniq fikrlarga odam tezroq ishonadi.

– o'ziga ishonishi kerak, bu borada tinglovchini ham istiqbolga ishontirish va yangilikka umidvor qila olish;

– o'z qarashlari va fikrlarini ochiq va samimiy bayon eta olish ham auditoriyaning ma'ruzachini sevib qolishi va unga o'rganib qolishga imkon beradi;

– har bir tinglovchini gapirayotgan shaxsning unga shaxsiy munosabati juda qiziqtiradi, shuning uchun hammaga bir xilda teng munosabat bildira olish hech kimning shaxsiyatiga tegmaslik kerak.

<sup>1</sup> P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Umumiy psixologiya. Darslik, "O'zbekiston faylasuflari" milliy jamiyati nashriyoti, 2008, 93-bet.

<sup>2</sup> V.Karimova, F.Akramova, G.Ochilova, G.Musaxonova. Pedagogika. Psixologiya. O'quv qo'llanma, T., A.Qodiriy nomli nashriyot, 2011, 212-bet.

<sup>3</sup> O.Po'latova. The Peculiarity of Communication in Human Relations. Eastern European Scientific Journal. Ausgabe 02/2020 92-94 betlar [www.auris-verlag.de](http://www.auris-verlag.de)

Talabalarining muloqot psixologiyasini rivojlantirishda pedagogdan quyidagi vazifalarni amalga oshirishni belgilab beradi:

- hamqorlikdagi faoliyat jarayonida shaxslararo o‘zaro ta’sir va muloqot qonuniyatlarini o‘rganish;
- sharq allomalarining muloqot haqidagi qarashlarini tahlil qilish;
- talabani faollikka undovchi muomalaviy imkoniyatlari mavjudligini ta’kidlab o‘tish;
- talabalarda kasbiy layoqatni faollashtirishga qaratilgan muloqotni shakllantirish;
- shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirishda muloqotning rolini orttirish;
- o‘zaro ta’sir etishning ayrim oqibatlarini hisobga olish.
- muomala madaniyatining nazariy asoslarini;
- shaxslararo munosabatlar qonuniyatlarini;
- pedagogik muloqotning qonuniyatlarini;
- oilada, guruh va jamoalarda muloqotga qo‘yiladigan asosiy talablar haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak;
- shaxsda muloqot shakllanishini o‘rganish;
- muloqot madaniyatini barcha guruh va jamoalarda shakllantirish;
- shaxslararo munosabatlarda muloqotning ahamiyatini kuzatish;
- muloqot sirlarini bilishi va qo‘llay olishni;
- guruhlarda muloqotni shakllantirish metodikalarini o‘tkazish;
- oilada muloqot madaniyati, muloqot sirlaridan boxabar bo‘lish;
- muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida psixologik maslahatlar tashkil etish yuzasidan ko‘nikmalar hosil qilishdan iboratdir.

Talabalarda muloqotga kirisha olmaslikning asosiy omili – bu o‘zini-o‘zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o‘ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto‘g‘ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, asosan, quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samaralar sari yetaklaydi:

- hamqorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a’zolari o‘rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish;
- muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a’zoning qulay pozitsiyasini ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;
- insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to‘g‘risidagi axborotni egallashga oid maxsus mashg‘ulotlarni uyushtirish;
- shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo‘ljallangan ishbilarmonlik o‘yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratishdan iborat.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, pedagogik jarayoni murakkab bo‘lib, uning subyekti o‘qituvchi shaxsi hisoblanadi. Pedagog shaxsida muloqotchanlik ko‘nikma va malakalarining shakllantirish o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish, jamoada ko‘tarinki kayfitiyani, ishchanlik hissini tarbiyalashda muhim ahamiyatni kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yuqoridagi qoidalarga barcha pedagog va talabalar rioya qilib, gavdalarini to‘g‘ri tutish, muammoli vaziyatlarga va muloqot maqsadiga, maromiga mutanosib tushadigan hodisalar, holatlar, sharoitlar, muayyan muhit, mazmunli harakatlar, imo-ishoralar, mimika, pantomimika ustida ishtiyoq bilan shug‘ullansalar, yengil tabassum, iliq, miyig‘ida kulish, chiroyli yurish kabi mashqlarni amalga oshirsalar, noverbal nutq yordami bilan shaxslararo munosabatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkoniyatiga erishadilar.

Atrofdagilarda yoqimli taassurot qoldirish, ularda mehr-muhabbat tuyg‘usini o‘yg‘otish muloqotdosh tanlashga imkon tug‘diradi. Jismoniy va ma’naviy jihatdan erkinlikka erishish o‘ziga ishonch tuyg‘usini yuzaga keltirsa, mustaqillik muloqotda teng huquqli sherik bo‘lishga shart-sharoit yaratadi. Kelgusida xuddi mana shu yo‘sinda ta’lim-tarbiya olgan talaba uni hayotda qo‘llashning maqbul usullariga ega bo‘lishi mumkin. Shundagina u inson sifatida yetuk shaxsga va mamlakatimiz ravnaqiga hissasini qo‘shuvchi malakali mutaxassisga aylanadi.

**Muxammadiev Komil Burxonovich (Toshkent davlat Transport universiteti)**  
**TALABALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHGA TIZIMLI**  
**YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarda ekologik madaniyatini shakllantirishning tizimli yondashuvning ilmiy-pedagogik va metodik yo‘nalishlarini tatbiq etilgan bo‘lib, amaliy jihatdan samarali tajri-*

ba o'tkazish uchun o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurati, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonlarining serqirra va murakkabligi, o'quv-tarbiya jarayonida ilmiy va pedagogik omillarni birlashtirish zarurati keltirilgan.

**Аннотация.** В статье представлены научно-педагогические и методологические направления системного подхода к формированию экологической культуры у студентов, необходимость учета специфики практического и результативного эксперимента, многообразия и сложности процессов формирования экологической культуры, необходимости сочетать научный и педагогический факторы.

**Annotation.** The article presents the scientific, pedagogical and methodological directions of a systematic approach to the formation of ecological culture in students, the need to take into account the specifics of a practical and effective experiment, the diversity and complexity of the processes of formation of ecological culture, the need to combine scientific and pedagogical factors.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, atrof-muhit, ekologik muammolar, umumrivojlantiruvchi mashqlar kompleksi, gigiyena.

**Ключевые слова:** экология, окружающая среда, экологические проблемы, общеразвивающий комплекс упражнений, гигиена.

**Key words:** ecology, environment, ecological problems, general developmental complex of exercises, hygiene.

Talabalarda ekologik madaniyatini shakllantirishning tizimli yondashishni ilmiy-pedagogik va metodik yo'nalishlarini tatbiq etish, amaliy jihatdan samarali tajriba o'tkazish uchun o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurati davr talabiga aylanmoqda. Bu o'ziga xoslik o'rganilayotgan ekologik madaniyatning serqirra va murakkabligi, o'quv-tarbiya jarayonida ilmiy va pedagogik omillarni birlashtirish zaruratida namoyon bo'ladi. O'rganilayotgan muammolar o'quv va tarbiyaviy omillarning ko'pligi bilan belgilanadigan tizimlilik ekologik madaniyatli bo'lish tarbiyasiga tizimli yondashuvni zaruratga aylantiradi. Insonlarning ekologik madaniyati nihoyatda murakkab tizimli sifatida qaralar ekan, bu bilim, turli xil tuyg'ular va faoliyatning o'zaro ta'siridan yuzaga keladi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida bilishi zarur bo'lgan ma'lumotlar: jismoniy xislatlarni tarbiyalash metodini (kuchini, tezlikni, chidamlilikni chaqqonlikni va ixchamlilikni), mustaqil darslarda kuchni to'g'ri berish qoidalari, umumrivojlantiruvchi mashqlar kompleksi, gigiyenik gimnastikani to'g'ri tuzish qoidalari, muhandisning professional-amaliy tayyorgarligining yo'nalishini (muhandis, iqtisodchi, quruvchi va boshqalar), mustaqil va sog'lomlashtiruvchi mashqlar paytida kuchni to'g'ri aniqlash; har xil yoshdagi va sog'liqqa qarab kuch darajasi va dinamikasiga baho berish, yurak-tomir va nafas sistemasining profilaktikasi uchun harakat rejimlarini tavsiya etish, organizmning ish bajarish darajasini aniqlash uchun shifokor-o'qituvchi testlaridan foydalanish, umurtqaning biomexanik korreksiyalash maqsadida korregir xususiyatiga ega bo'lgan mashqlar kompleksini tuzish (skaliozlar, ostreoxondrozlar), jismoniy rivojlanishni amalga oshirishga yordam beradigan maslahatlar berish, sport turlari bo'yicha musobaqalarda hakamlik (basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi). Jismoniy tarbiya va jismoniy mashqlarning inson organizmiga ta'siri

**Biologiya fanida** – biosferadagi hayot, turli darajadagi tirik mavjudot tizimlari haqidagi ma'lumotlar mavjud. Fanning ekologiyaga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish yo'nalishi tabiat qonunlari, ulardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, tabiatga qadriyat sifatida qarash, tabiat va inson hamkorligidagi maqsad va oqibatlarni anglab etishga qaratilgan. Bunda, ayniqsa, toza atrof-muhitning insonni faqat jismoniy sog'ligi uchungina emas, balki ma'naviy kamoloti, go'zallik bilan muloqoti va ijodga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdagi alohida ahamiyatini ochib berish muhimdir.

**Geografiya fanida** – atmosfera, gidrosfera, litosfera, biosfera, yaqin kosmosda yuz beradigan ekologik jarayonlarni tatbiq etib, uni oldini olish yo'llarini ko'rsatadi, shu bilan birga tabiatning yaxlitligi, xususan, joy (landshaft), inson ega bo'lgan hududiy ishlab chiqarish majmualari tizimli xarakterga egaligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan barcha izlanishlar, geografik iqlimning o'zgarishi va uning natijasida kelib chiqadigan turli xil salbiy ekologik muammolarning inson salomatligiga ta'siri sport va turizmning turlari va ahamiyati kabilar etakchilik qiladi. Rivojlangan jamiyatning tabiatdan foydalanishi unumli me'yorlarini qo'llashida namoyon bo'ladi, bu ta'lim oluvchilarning iqtisodiy bilim saviyasini oshiradi.

**Tuproqshunoslik fanida** – ekologiyaga ehtiyotkorona munosabat bo'lish madaniyatni shakllantirishda fanlararo bog'lanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, yerga ishlov berishda kopillarlikni tiklash

va uni buzish, suv va yerdan unumli foydalanishga imkon beradi, tuproqning sho'rlanishi, suv, havoning sho'rlanishiga sababchi bo'ladi. Buning oqibatida insoniyat aziyat chekadi.

**Fizika fanida** – fizika fanining ahamiyati, tabiat qonunlarida fizikaviy omillarning o'rni, shovqin, elektromagnit tebranish va to'lqinlar, quyosh radiatsiyasi, radioaktiv moddalarni saqlashga oid tushunchalarning mohiyati bilan tanishtirishga e'tibor beriladi. Bunda bu omillar inson faoliyati uchun xavfli ekanligi uqitirilib, undan himoyalanihga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ozon qatlamining yemirilishi, parnik effekti, troposfera havosining isishi, ifloslantiruvchi manbalarning fizik omillarga ta'siri, fizik omillarning biotaga ta'siri, landshaftlarni antropogen-fizik omillardan muhofaza qilish, zamonaviy fizik usullar yordamida er osti boyliklarini topish va aniqlash kabilarning ahamiyatini ochib berish zarur. Bulardan qandy foydalanish va himoyalanih haqida ta'lim oluvchilarga atroflicha bilim beradi. Bu hol ularni ekologik madaniyatli bo'lishga tarbiyalaydi.

**Kimyo fanida** – kimyo fanining ahamiyati, tabiat qonunlarining kimyoviy talqini, biosferadagi moddalar aylanishining kimyoviy mohiyati haqidagi bilimlardan xabardor bo'lish, hozirgi kunda mavjud bo'lgan ekologik muammolarni kimyoviy nuqtayi nazardan asoslash va tushuntirish, atrof-muhitning kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi, o'simlik va hayvonlardan kimyoviy moddalar olish, kimyoviy tozalash usullari, shu bilan birga, kimyoviy moddalarni ekologiyaga ehtiyotkorona munosabatdagi o'rni ko'rsatish lozim. Radioaktiv va zaharli moddalarning atrof muhitda to'planishi inson hayotiga salbiy ta'sir etadi, undan himoyalanih kabi tushunchalar mohiyati ta'lim oluvchilar bilimni chuqurlashtiradi va ularni atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalaydi. Bunday holat aniq misollar asosida bayon etilmog'i zarur.

Tojikiston Respublikasi hududida joylashgan TadAZ aluminiy zavodidan chiqadigan zaharli moddalarning, Surxondaryo viloyatidagi Sariosiyo, Denov, Uzun, Oltinsoy tumanlaridagi tirik mavjudotlarga salbiy ta'siri, Qirg'iziston hududidagi Moylisuvdagi radioaktiv quduq ham eng xavfli manba. Qashqadaryo viloyatidagi Muborak gazni qayta ishlash zavodi chiqindilari Qarliq, Maymanoq qishloqlaridagi ba'zi qishloq xo'jalik ekinlariga hamda inson salomatligiga ta'sir ko'rsatishi misolida bayon etilishi atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabat tarbiyasini hududiy xususiyatiga molik ekanligini ko'rsatadi. Bunday ekologik fojialarning oldini olish chora-tadbirlari: kimyoviy ifloslanish bilan kurash strategiyasini o'zlashtirish, ishlab chiqarishning kimyo-texnologik jarayonlarida ekologik toza, chiqindisiz texnologiya turlaridan foydalanish, qayta ishlash yo'llarini o'rganishga imkon yaratadi.

Shuningdek, Prezidentimizning 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'z yuritir ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o'tolmaymiz. BMT Bosh kotibining "suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'liq",<sup>1</sup> degan pozitsiyasini to'la qo'llab-quvvatlaymiz. Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo'li yo'q. O'zbekiston BMTning preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi konvensiyalar loyihalarini qo'llab-quvvatlaydi. Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo'limda – Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O'ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo'q. Dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda. Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko'rgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to'liq amalga oshirilishi tarafdorimiz", degan edi.<sup>2</sup>

Ekologik madaniyatni shakllanishi tizimining asosi shaxsning tabiat bilan o'zaro ta'sir darajasini aks ettiradigan psixologik holatdir. Shuningdek, tizimlilik bo'lajak mutaxassislarining ekologik madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, ikki xil tarzda: olgan bilimlar natijasida atrof-muhitdan himoyalanihga tarbiyalash jarayoni hamda kelajakda xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida, tashkilot va korxonalarida ekologiyaga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish madaniyatning natijasi shaklida namoyon bo'ladi.

Ekologik madaniyatli bo'lish faoliyati mahsulining tahlili: ma'ruza, seminar mashg'ulotlari, nazorat va laboratoriya ishlari, referatlar hamda tabiat qo'yniga ekskursiyalar, venologik kuzatish, tadqiqotlar

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zlad. O'zbekiston Milliy axborot agentligi (20.09.2017). www. uza. uz.

<sup>2</sup> Shu manba.

o'tkazish qo'riqxonalariga sayohatlar, tabiat bag'riga sayohat, intellektual harakatli o'yinlar kabilarda atrof-muhit tabiatini muhofaza qilish harakatiga oid natijalardan iboratligi qayd etilgan. Atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatlari quyidagi metodlar yordamida aqiqlandi: kuzatish, savol-javob, suhbat, so'rov-noma, yangi pedagogik texnologiyalar (ma'ruza, munozarali ma'ruza, aqliy hujum, Bumerang texnologiyasi, zanjir, desant, hayot chizig'i ekologik g'amxo'rlik, qadriyatlarga aniqlik kiritish, bashorat qilish, masofaviy o'qitish) va amaliy harakatlarni kuzatish.

U talabalar amaliyotida ekologik munosabatlarga loqaydligi, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi bilimlarning pastligi ekologik madaniyatlarining shakllanmaganligi aniqlandi. Bu esa ularning ekologiya va atrof-muhit darajasini muhofaza qilish sohasidagi dunyoqarashlarini torligi va bilim darajasini sayoz ekanligidan darak berdi. Bu holatlarning oldini olish uchun talabalarga hozirgi zamon talablariga mos keladigan o'qitishning pedagogik innovatsion texnologiyalarini tatbiq etish lozim ekanligi aniqlandi.

O'qitishni ishonchli, ko'rgazmali oddiy usullardan foydalanish yaxshi natija beradi. Tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, talabalarining ekologik madaniyati uch xil yo'nalishda namoyon bo'ladi: ijobiy, salbiy, befarq.

Bunday hodislarni ko'plab keltirish mumkin. Talabalar suvni ichib, butilkani otib yuboradi... Sayohatga chiqqan yoshlar olovni o'chirmasdan ketadi, bunda qanday hodislar ro'y beradi? Sayohatchilar shishani nishonga olishdilar, shisha siniqlari atrofni iflosladi. Bu holatlarni tahlil etish asosida ekologiya ehtiyotkorona munosabat madaniyatni qanday shakllanganlik darajasini aniqlash mumkin:

◆birinchidan, shaxsda ekologik madaniyatning shakllanganlik darajasi uning ekologiyaga nisbatan ehtiyotkorona munosabati natijasi bilan belgilanadi;

◆ikkinchidan, tabiat, ekologiya, atrof-muhit, shaxsni shakllanishida obyekt bo'lib, kishidagi axloqiy munosabatlar unga nisbatan shakllanadi.

Ekologiya va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatning tizimliliigi:

◆birinchidan, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, bu hayvonot va o'simliklar dunyosini ko'paytirish, suv, tuproq va atmosfera havosini ifloslanishdan asrash;

◆ikkinchidan, tabiat zaxiralaridan tejab-tergab foydalanish bo'lib, bunda tizimdan to'g'ri foydalanilmasa, ziddiyatli ekologik vaziyatlar yuzaga keladi. Bularni bartaraf etish atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabat hamda uni muhofaza qilish zaruratining shakllanishini taqozo etadi.

**Калимбетов Камал Илалович (Ажиниёз номидаги Нукус Давлат**

**Педагогика институти Математика ўқитиш методикаси кафедраси ассистенти; [kamu.8787@mail.ru](mailto:kamu.8787@mail.ru))**

### **ИНФОРМАТИКА ФАНИДА ОТМДА ТАЛАБАЛАРНИНГ БИЛИМИНИ БАҲОЛАШГА ДАСТУРИЙ ТАЪМИНОТ ИШЛАБ ЧИҚИШ**

***Аннотация.** Мақолада таълим-тарбия жараёнида инновацион технологиялардан фойдаланиши учун зарур бўлган методик билим, кўникма, малака ва компетенцияни таркиб топтириши ва ўқитувчиларни ўз педагогик фаолиятини таҳлил қилишига ўргатиши, таҳлилий-танқидий, ижодий ва мустақил фикр юритиши, кўникмаларини ривожлантириши, самарали методларни танлаб олиши, талабаларда ўқитувчи ва ўқишига нисбатан ижобий муносабат пайдо қилиши, олий таълим муассасаларида информатика фанини самарали ўқитиши методларини танлаб олиши, қарорлар қабул қилиши тизимини ишлаб чиқиши ва қарорларни қабул қилиши тизимида компьютер воситаларидан фойдаланишида қарорларни қўллаб-қувватлаш тизими архитектураси шакллантирилди.*

***Аннотация.** В статье приводятся методические знания, навыки, компетенции, необходимые для использования инновационных технологий в образовательном процессе, и рекомендации для учителей по анализу своей педагогической деятельности, аналитико-критическому, творческому и независимому мышлению, развитию навыков, выбору эффективных методов. Сформировано отношение к обучению, выбор эффективных методов обучения информатике в высшей школе, разработка системы принятия решений и использование компьютерных инструментов в системе принятия решений, архитектура системы поддержки принятия решений.*

***Annotation.** The article describes the composition of methodological knowledge, skills and competencies required for the use of innovative technologies in the educational process and preparing teachers to analyze their pedagogical activities, analytical-critical, creative and independent thinking, skills development, selection of effective methods, a positive attitude towards teachers and students, the choice of effective methods of teaching computer science in higher education, the development of*

decision-making systems and the architecture of the decision-making system in the use of computer tools in decision-making.


**Калит сўзлар:** информатика, педагогика, таълим сифати, қатъиймас математик моделлаштириш, алгоритм, ўқитиш методлари, баҳолаш.

**Ключевые слова:** информатика, педагогика, качество обучения, строгое математическое моделирование, алгоритмы, методы обучения, оценивание.

**Key words:** computer science, pedagogy, quality of education, rigorous mathematical modeling, algorithms, teaching methods, assessment.

Ҳозирги кунда С++ тилининг бир неча хил редакторлари бор эканлиги ҳеч кимга сир эмас. Буларга мисол тариқасида DEV С++, С++ builder, Borland С++, Visual С++ каби редакторларни келтиришимиз мумкин. Бу редакторларда код ёзишнинг бир-биридан деярли фарқи йўқ. С++ builder редакторининг қолган С++ редакторларидан фарқли жиҳати С++ builder редакторида visual компонентлар билан ишлаш имкони яратилган. Бу эса дастурчиларга қатор қулайликларни юзага келтиради. Тўғри Visual С++ да ҳам visual муҳитда ишлаш имкони мавжуд ва қулайликларга эга. С++ builder редактори С++ редакторлари ичида биринчи визуал компонентлар билан ишлайдиган редактор. С++ builderнинг яна бир қулай тарафи, унда ҳар бир компонентда класснинг бирор функцияси сифатида ишлайди ва уни менюдан қидириш мумкин. Менюни эса пробел+Ctrl клавишини босганда куриш мумкин.

Borland С++ Builder 6 муҳитини ишга туширилган пайтда, бир неча ойналар автоматик тарзда тартиб билан очилади. Бу кўриниш RAD иловаларини ҳосил қилиш муҳити деб номланади (RAD – Rapid Application Development). Бундай деб номланишига сабаб, бу муҳитда тузилган дастур натижаси сифатида тайёр шакллар конструкцияси ишга тушади, кўплаб стандарт ва қийин операцияларни эса компьютер бажаради (1-расм).



1-расм. С++ Builder 6 муҳити интерфейси.

◆ **Компонентлар палитраси** иловаларни куришда таклиф қилинадиган 100 дан ортиқ такроран қўлланадиган компонентлардан иборат.

◆ **Шакллар муҳаррири** дастурнинг фойдаланувчи билан интерфейсини яратиш учун мўлжалланган.

◆ **Код муҳаррири** дастур матнини, хусусан, воқеаларга ишлов бериш функцияларини ёзиш учун мўлжалланган.

♦**Объектлар инспектори** қотиб қолган чигал дастурлаш заруратсиз объектлар хусусиятларини визуаль ўрнатиш имконини беради ҳамда шундай воқеаларни уларнинг пайдо бўлишига нисбатан объектлар редакцияси кодлари билан боғланиш мумкин бўлади.

Объектлар хазинаси маълумотларнинг шакли ва модуллари каби объектларга эга бўлиб, улар ишлаб чиқаришда вақт сарфларини камайтириш мақсадида кўплаб иловалар билан боғланади.

Дастур (илова) кодини киритиш майдони. Кодини киритиш майдони дастур матнини кўриш, ёзиш ва таҳрирлашга мўлжалланган. Биринчи юкланганда бу дарчада илованинг Windows-дарча кўринишида нормал амал қилиш учун зарур бўлган минимал операторларни ўзига олган матн бўлади.

Фойдаланувчи шакли. Фойдаланувчи формаси ўзида илованинг Windows-дарча лойихасидан фойдаланади. Бу дарчада иловани яратиш жараёнида зарур компонентлар жойлаштирилади. Шуни қайд этиш керакки, компонентлар лойиҳалаш босқичида шаклда қандай кўринишда бўлса, худди шу ҳолда илова ишлаганда номаён бўлади.

Илова яратиш. C++ Builder муҳитида дастур, форма билан боғлиқ қандайдир ҳодиса рўй берганда қилиниши керак бўлган алгоритмларни ёзиш асосида тузилади (масалан, сичқонча кўрсаткичи билан тугмани босганда юзага келадиган OnClick ҳодисаси ёки формани яратадиган OnCreate ҳодисаси).

Формадаги қайта ишланадиган ҳар бир ҳодиса учун (Events саҳифаси ёрдамида) дастур матнида функция ташкил этилади ва унинг ‘{’ ва ‘}’ белгилар билан чегараланган соҳаси (танаси)га дастур тузувчи томонидан C++ тилида зарур алгоритм ёзилади.

Ўнг юқорида интерфейснинг сарлавҳаси, яъни проект номи ва муҳити номи (C++ Builder 6-Project 1) намоён бўлиб туради. Сарлавҳадан кейин муҳитнинг барча функциялари ва командаларига мурожаат қилувчи асосий меню қатори жойлашган. Менюнинг чапдан паст қисмида пиктограмма (кнопка)лар жойлашган бўлиб, улар ёрдамида кўп ишлатиладиган командаларга тез мурожаат қилиш амалга оширилади. Ўнг томонда эса VCL (Visual Component Library, визуал компонентлар кутубхонаси) жойлашган бўлиб, улар Windows учун визуаль дастурларни тез яратиш компонентлари ҳисобланадилар.

Муҳитнинг марказида яратиладиган форманинг дизайни учун асосий майдон жойлашган бўлади. Унда сарлавҳалар қатори Form1 (автоматик равишда) ва ойнани бошқарувчи кнопкалар бўлади. Бу майдонда бўлажак дастурни бошқарувчи VCLнинг барча компонентлари жойлашади.

Forma майдони тагида дастур редактори учун майдон Unit1.cpp сарлавҳаси билан жойлашади. Бу майдонда керакли дастур коди ёзилади ва таҳлил қилинади.

Экраннинг чап бурчагида объект инспектори (Object Inspector) жойлашган. Бу ойна ёрдамида визуаль компонентларнинг асосий хоссалари ва хусусиятлари бошқарилади. Бу ойнани сичқончанинг чап тугмаси ёрдамида экраннинг исталган жойига кўчириш мумкин.

C++Builder иловаларини қуришнинг визуаль методикасини компоненталар палитрасидан керакли бошқариш элементларини танлаб олиш воситасида жорий этади. Ҳар бир компонента тури ва хулқ-атворини ўзгартирадиган хусусиятларга боғлиқ бўлади. Ҳар қандай компонента ушбу компонентанинг турлихилдаги тасирларга реакцияси (мунособати)ни аниқлаб берадиган воқеалар сериясини келтириб чиқариш мумкин. Бундан кейин=>белгиларисиз C++Builder муҳитида амалга оширадиган хатти-ҳаракатларини билдиради.

=>C++Builderни чақиринг ва бош менюдаги File|New Application командаси бўйича янги иловалар устига ишлашни бошланг. =>сичқончани компоненталар палитрасининг қўшимча иловалари устида босиб, фойдаланувчи иш кўрадиган дастур интерфейси элементларининг мавжуд асортиментининг кўриб чиқиш.


Палитранинг бир қўшимча иловасидан иккинчисига ўтиб, кириш мумкин бўлган бўлган компонентлар тўплами ўзгараётганининг гувоҳи бўлишимиз мумкин. Сичқонча курсори компонентлар белгиси устида тўхтаганда, айтиб туриш номи пайдо бўлади. Агар F1 клавишасини босса, тизимнинг маълумотномалар хизмати танлаб, олинган компонента ҳақида тўлиқ маълумот чиқариб беради.

Стандарт бўлмаган форма учун буйруқлар киритувчи тугмалар, панель, қийматларни чиқариш учун Label компонентлари бор.

Additional бўлимидан Image компонентасини ишлатдик. Image компонентаси ўзида .jpg, .png форматли расмларни сақлайди.

ADOQuery бўлими компоненталари Microsoft Accessda ҳосил қилинган маълумотлар базасини Builder дастури билан боғлашга хизмат қилади. Масалан, тугма босилганда оддий хабар ойнаси чиқариш.


Янги форма яратиб оламиз ва унга Label ва Button тугмаларини жойлаштирамиз.



Бунда дастур куйидагича ишлайди:

Тугма босилганда битта хабар ойнасида бирор хабар матни, формада ҳам бирор ёзув чиқади.

Дастлаб, Labelнинг Visible хусусияти false қийматни қабул қилади, яъни дастур ишга тушганда Label компоненти кўринмайди.



Тугмага тугма босилганда Labelning Visible хусусиятига true қиймат ўзгартириш кодиди киритамиз.

Дастур коди:

```
ShowMessage ("Siz\''Bosing\'' tugmasini bosdingiz! :D");
```

```
Label1->Caption = "Hammaga xayrli kun! :D";
```

```
Label1->Visible = true;
```


Дастур натижаси:






Ushbu ishda C++ Builder 6, унинг форма, компоненталари, уларнинг хусусият ва ҳодисалари ҳақида умумий тушунчалар ҳосил қилинди. Дастур яратишда шу тушунчалардан фойдаланилган ҳолда янги дастур яратилди.


Юқори дастурлаш тилларидан фойдаланган ҳолда, яъни, C++ Builder 6 да олий таълим тизими ёки бошқа ташкилотлар раҳбарларининг алтернативларни сайлашда қарорлар қабул қилиш жараёнларини такомиллаштирувчи дастур интерфейси қуйидагича:



1-расм. Дастурнинг асосий ойнаси.



2-расм. 1-эксперт маълумотлар киритилиш жарёни.



### 3-расм. 2-эксперт маълумотлар киритилиш жарёни.

Form 1

Принятия решения для выбор  
объектв водозаборов подземных вод

Объект 3 Экспорт 2 Параметр 3

0	0	0
1	0	0
0	1	0

Экспорт 2

Max Объект 2:0.41666666534882

b2  
m[2][2]0.5  
CO.333333343267441  
M[0]0.16666667163372  
CO.833333373069763  
M[1]0.41666666534882  
CO.833333373069763  
M[2]0.41666666534882

ВТВ

**Хулоса.** Талабаларни ўқитишни ташкиллаштириш, информатика фанида талабаларнинг билимини баҳолашга дастурий таъминот ишлаб чиқилиб, яъни қарорларни қабул қилиш тизимида компьютер воситаларидан фойдаланишда, қарорларни қўллаб-қувватлаш тизими архитектураси шакллантирилди ва талабаларни ўқитишни ташкиллаштириш, информатика фанида талабаларнинг билимини баҳолашга дастурий таъминот ишлаб чиқилиб, дастурлаш тилларидан фойдаланган ҳолда, яъни C++ Builder 6 да олий таълим тизими ёки бошқа ташкилотлар раҳбарларининг алтернативларни сайлашда қарорлар қабул қилиш жараёнларини такомиллаштирилди.

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Усманов Р.Н. Интеллектуализация процесса принятия решений в условиях нечеткой исходной информации. «Aloqa dunyosi», Ташкент, 2007, № 1, с. 52 – 56.
2. Усманов Р.Н. К вопросу интеграции нечетко-множественного подхода в процесс диагностики состояний сложных систем. Химическая технология. Контроль и управление. Ташкент, 2006, № 4, с. 71 – 77.
3. Seytnazarov Kuanishbay Kenesbaevich, Dosymbetov Allayar Muxambet Mustapayevich, Aytanov Anvar Kidirbayevich, Omarova Xawaxan Sulaymanovna. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2020, Volume 7, Issue 11, p. 319–323 [https://ejmcm.com/article\\_5057.html](https://ejmcm.com/article_5057.html)
4. Seytnazarov Kuanishbay Kenesbaevich, Kalimbetov Kamal Ilolovich. Psychology and education (2021) 58(2), p. 356–360 An Interdisciplinary Journal Article Received: 16th October, 2020; Article Revised: 30th December, 2020, Article Accepted, 08th January, 2021 <https://www.scopus.com/sourceid/50205>
5. Авдеева С.М. Учебные материалы нового поколения, разрабатываемые в проекте “Информатизация системы образования”. Мастер-класс: прилож. к ж. “Методист”, 2008, №3, с. 2 –10.
6. Андрианова Е.П. IV Всероссийский научно-методический симпозиум “Информатизация сельской школы” (“ИНФОСЕЛШ-2006”). Директор сельской школы. 2007, №1, с. 44 – 47.
7. Аницына Т.М. Единое информационное пространство ОУ. “Методист”, 2007, №7, с. 10 –13.
8. Анохин С. Интернет в образовании: смещение фокуса с аудитории на личность. Директор школы. 2006, №3, с. 33 – 36.
9. Апатова Н.В. Информационные технологии в школьном образовании. М., 1994, с. 227.
10. Башкатова Ю.И. Управленческие решения. Учебное пособие, руководство по изучению дисциплины. Практикум. Тесты. Учебная программа, М., 2005 ([http://www.eiir.ru/books/Upravlen4eskie\\_reshenia.pdf](http://www.eiir.ru/books/Upravlen4eskie_reshenia.pdf))
11. Белякова И.А. Компьютер – организатор, учитель и делопроизводитель. Директор школы. 2007, №9, с. 29 – 32.

**Imomov Obidjon Elamonovich (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti  
Fizika va elektronika kafedrası o'qituvchisi; e-mail: Imomov\_1985@bk.ru)  
FIZIKANI O'QITISHDA DIFFERENSIAL TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHNING  
METODIK MODELII**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada texnika yo'nalishlari bakalavriat talabalariga fizikadan differensial ta'lim berish, nochiziqli ta'lim trayektoriyalarini qurish to'g'risidagi metodik tizim ochib berilgan. Bo'lajak muhandislarga differensial yondashuv asosida ta'limning loyiha faoliyatida nochiziqli ta'lim trayektoriyalarini qurishning metodik modeli uni amalga oshirish doirasida umumkasbiy va umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish tamoyillari keltirib o'tilgan.*

***Аннотация.** В статье раскрыта методическая система дифференциального обучения по физике студентов бакалавриата технических дисциплин, построение нелинейных траекторий обучения. Методологическая модель построения нелинейных образовательных траекторий в проектной деятельности образования на основе дифференцированного подхода к будущим инженерам предусматривает принципы развития общепрофессиональных и общекультурных компетенций при ее реализации.*

***Annotation.** This article describes the methodological system of differential education in physics for undergraduate students of technical disciplines, the construction of nonlinear learning trajectories. Methodological model of construction of nonlinear learning trajectories in the project activities of education on the basis of a differential approach to future engineers provides the principles of development of general professional and general cultural competencies in its implementation.*

***Kalit so'zlar:** paradigma, didaktik tamoyil, sinergetik tamoyil, metodologiya, konsepsiya, nochiziqli ta'lim trayektoriyalari, differensial ta'lim, innovatsion ta'lim.*

***Ключевые слова:** парадигма, дидактический принцип, синергетический принцип, методология, концепция, нелинейные траектории обучения, дифференциальное образование, инновационное образование.*

***Key words:** paradigm, didactic principle, synergetic principle, methodology, concept, nonlinear learning trajectories, differential education, innovative education.*

Texnika oliy ta'lim muassasalarida fizika o'qitish jarayonini kuzatish va tahlil qilish jarayonida empirik tarzda tashkil etish, maqsadni qo'yish, fizikada oliy ta'limning muayyan standartlari rolini o'ynaydigan oliy muhandislik ta'limi, ta'limga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati, fizika, bo'lajak muhandis va kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni loyihalashni amalga oshirish.

Konsepsiyaning nazariy asoslariga quyidagilar kiradi:

– metodologik yondashuvlar: tizimli, kompetentli, faoliyatli;

– tushunchalar (bazaviy): kasbiy kompetensiya, muhandislik kompetensiyasi, fundamentallik, Umumiy fizika fani;

– o'quv predmetining didaktik nazariyasi;

– didaktik tamoyillar (ilmiy, tizimli, fanlararo bog'lanishli, tushunarlilik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, individuallashtirish va differensiallash, fundamental, kasbga yo'naltirilgan).<sup>1</sup>

Konsepsiyaning yadrosi konsepsiyaning mohiyatini ifodalovchi qoidalar tizimidan hamda texnika oliy o'quv yurtlari talabalariga umumiy fizikani differensiallab o'qitishning metodik modelidan iborat.

Metodik model ilmiy-nazariy asoslarga va umumiy fizika kursining mazmuniy modeliga va uning alohida bo'limlariga hamda talabalarga Umumiy fizikani o'qitish texnologiyalari konsepsiyaga muvofiq ishlab chiqilgan.<sup>2</sup>

Konsepsiyaning asosiy qoidalariga quyidagilar kiradi:

◆bo'lajak muhandislarni Umumiy fizika fanidan differensial o'qitish kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilishi lozim;

◆bo'lajak muhandisning kasbiy kompetensiyasi maxsus kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Predmetli, mafkuraviy, metodik va axborot-matematik, ular orasida asoslari fanning turli bo'limlarini o'rga-

<sup>1</sup> Смолкин А.М. Методы активного обучения (Метод. пособие для преподавателей и организаторов проф. и экон. обучения кадров). М., "Высш. шк.", 1991, с. 175.

<sup>2</sup> Пуришева Н.С. Методические основы дифференцированного обучения физике в средней школе (текст). Дис...д-ра пед.наук, 13.00.02, М., 1995, с. 518.

nish mazmuni va usullarini tanlash bo'yicha kompetensiyalar va fizikada o'quv faoliyatini tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak muhandislarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar:

– Fizikaning mazmun-mohiyatini tushuntirish;  
– Umumiy fizika o'qitishning metodik modelini ishlab chiqish va amalga oshirishda fundamental va kasbiy yo'naltirilganlik tamoyillari o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirish;

– Umumiy fizika kursi mazmunini umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bilan uzviylikini ta'minlash.

♦Umumiy fizika fanining asosiy qonunlari, nazariy va amaliy faoliyat shakllari, o'qitish usullari va o'qitishning tashkiliy shakllaridan iborat jarayonli blokini kiritish.

♦Bo'lajak muhandislar uchun fizikada fundamental o'qitish tamoyilini amalga oshirishning sharti umumiy fizika kursining mavzularini tanlash va uni fundamental fizikaning mazmuniga muvofiq tuzishdir.

♦Bilimning yetakchi shakli uning zamonaviy talqinida fizik nazariya bo'lishi kerak. Fizika kursining mazmuni talabanning nazariy tafakkurini rivojlantirish va uning kasbiy rivojlanishiga asos bo'lishi lozim.

Fundamentallik prinsipiga muvofiq, evolutsion fizika (sinergetika)ning o'rni, dinamik masalalari, tizimlarning o'z-o'zini tashkil etish, ularning evolutsiyasi va boshqalar.


Umumiy fizika kursining mazmuniy tuzishni quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

– invariant yadroni ajratish;  
– yadrodagi to'rtta mazmunni chiziqli tanlash, uning atrofida o'quv materialini birlashtirish:  
–predmetli-fundamental fizik bilim-invariant yadroni rivojlantirish;  
–mafkuraviy egallash: zamon haqidagi fizik g'oyalar dunyoning ketma-ketlik orqali tasvirlanishi, mexanik, elektrodinamik, kvant maydoni, olamni anglash, evolutsiya;  
–metodologik ilmiy tadqiqot metodologiyasini anglash: bilish, fizik nazariyaning asosiy bosqichlariga muvofiq rivojlanish: klassik, klassik bo'lmagan (kvanto-mexanik, evolutsion-sinergetik);  
–axborot va matematik-umumiy fizika kursida zamonaviy matematik usullar va kompyuterli modelashtirish usullarini o'zlashtirish;

– o'rganilayotgan materialdan fizik nazariyani shakllantirish jarayoniga mos keladigan va shunga mos ravishda yuqorida qayd yetilgan mazmundagi yo'nalishlarni hisobga olishning tabiiy usuli sifatida ilmiy bilish mantiqiga muvofiq taqdim etish, fundamental fizika.


Konsepsiyani shakllantirilgan qoidalari bo'lajak muhandislarga umumiy fizikani differensial o'qitishning metodik modelini qurish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.<sup>1</sup>

Metodik model bir necha kichik tizimlarni o'z ichiga oladi. Birinchisi "o'qituvchi-talaba" kichik tizimi (1-rasm), ushbu kichik tizimdagi o'zaro aloqalar mavzu mazmuni va ta'lim texnologiyalari orqali amalga oshiriladi. Metodologik komponentlarning o'zaro ta'sirining ikkinchi kichik tizimi metodik tizimdir. U har qanday metodik tizim uchun an'anaviy tarkibiy qismlarni: maqsadli, mazmunli, texnologik ("o'rganish" usullari, shakllari va vositalari) va o'quv natijalarini diagnostika qilishni o'z ichiga oladi (2-rasm).




1-rasm. Fizika o'qitishda "O'qituvchi-talaba" metodik tizim modeli.

<sup>1</sup> Tursunov Q.Sh., Toshpo'latov Ch.X. Fizika ta'limi texnologiyasi. Metodik qo'llanma, Qarshi, "Nasaf", 2012.



**2-rasm. Fizika o'qitish metodik tizimi komponentlarining o'zaro ta'siri.**

2-rasmda ko'rsatib o'tilgan metodik tizimning maqsadli modeli keltirilgan: o'qitish: umumiy; fizika. Bu model talabalarni umumiy fizikaga o'rgatishning asosiy maqsadlarini o'z ichiga oladi, bilimlarni predmetli va noan'anaviy (dunyoqarashli, metodologik) egallash, mavzu nazariy tadqiqotlar turli xil muammolarni hal qilish va hokazo (tajriba va tajriba ishlarini bajarish) va umumiy ta'lim (axborot, aloqa, tashkiliy va boshqalar), shuningdek, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ya'ni ularni muhandislik kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan turli muammolarni hal etishda qo'llay olish, boshqacha qilib aytganda, maxsus kompetensiyalarni ishlab chiqish, yuqorida asoslab berilganidek, bunday maxsus kompetensiyalarga subyekt, metodologik, mafkuraviy axborot va matematik masalalar kiradi.<sup>1</sup>




**3-rasm. Fizika o'qitishning metodik tizimi modelining maqsadlari.**

<sup>1</sup> Бордонская Л.А. Теория и практика отражения взаимосвязи науки и культуры в школьном физическом образовании и в подготовке учителя физики. Дис. ...д-ра пед.наук, 13.00.02, Чита, 2002, с. 500.

Mazmunli chiziqlarini ajratish umumiy fizika kursining mazmunli blokining ikkinchi qismi bo'lgan talabalarning umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bo'yicha mavzu bilimlarini shakllantirish vazifasiga mos keladi.

Ta'lim maqsadlariga muvofiq, kichik metodik tizim tarkibiy komponentining o'zini va jarayoni komponentini o'z ichiga oladi (4-rasm). Maqsadli komponenti mavzu bilimlarini, ya'ni umumiy fizikani bilish va mavzu bilimlarni o'z ichiga oladi.



4-rasm. Fizika o'qitish metodik tizimining mazmunli modeli.

Bo'lajak muhandislarni fizikadan differensial o'qitishning metodik tizimi konsepsiyasining asosiy qoidalariga muvofiq fizika kursining mazmunini o'ziga xos xususiyatlari, unda mazmun tanlash va taqdim etishdir.

Predmetli, metodologik, mafkuraviy, matematik-axborotli kabi chiziqli bog'lanishlar orqali fizika ta'limini rivojlantirish, fizika kursi mazmuni rivojlanish bosqichlarini ajratish, fizika ta'lim fundamentalligi tamoyili asosida mazmun va mantiq qurilishini amalga oshirish, fizika evolutsiyasi haqida talabalarning fikrlarini o'rganish, kurs materialini fundamental fizik nazariyalar atrofida guruhlash va kurs tuzilishida fizik nazariyalar tuzilishini aks ettirish.

Xulosa qilib aytganda, fizika o'qitishdan maqsad predmetli, metodologik, mafkuraviy, matematik-axborotli kabi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, fizika kursi mazmuni rivojlanish bosqichlarini ajratish, fizika ta'lim fundamentalligi tamoyili asosida mazmun va mantiq qurilishini amalga oshirish, fizi-

ka evolutsiyasi haqida talabalarning fikrlarini o'rganish, kurs materialini fundamental fizik nazariyalar atrofida guruhlash va kurs tuzilishida fizik nazariyalar tuzilishini aks ettirishdir.

**Махманов Эргаш Бинокулович (Қарши Мухандислик-иқтисодиёт институти  
Физика ва электроника кафедраси катта ўқитувчиси; e-mail: [emaxmanov.1976@mail.ru](mailto:emaxmanov.1976@mail.ru))  
ФИЗИКА ЎҚИТИШДА ТАЛАБАЛАРНИНГ МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШ  
ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ**

***Аннотация.** Мақолада бўлажак муҳандисларни тайёрлашда физика фанидан мантиқий фикрлашга ўргатишнинг асосий турлари ва уларнинг мазмуни, ўзига хос хусусиятлари кўрсатиб ўтилган. Бунинг учун физика фанининг олдидан турган муҳим вазифаларни ҳал қилишда фикрлашнинг кўп қиррали ва кўп ўлчовли эканлиги, ақлий ва амалий фаолиятнинг турли соҳаларида намоён бўлиши кўрсатиб ўтилган.*

***Аннотация.** В статье показаны основные виды обучения логическому мышлению по предмету физики в процессе подготовки будущих инженеров, их содержание, специфические особенности. Приводится мнение, что мышление многогранно и многомерно, проявляется в различных областях умственной и практической деятельности, при решении важных задач, стоящих перед наукой о физике.*

***Annotation.** The article shows the main types of teaching of logical thinking on the subject of physics in the preparation of future engineers and their content, specific features. For this, it has been shown that thinking is multifaceted and multidimensional, manifested in various areas of mental and practical activity, when solving important tasks facing the science of physics.*

***Калим сўзлар:** эмпирик, алгоритмик, инновацион, компетенция, фаолият, мантиқий фикрлаш.*

***Ключевые слова:** эмпирический, алгоритмический, инновационный, компетентностный, деятельностьный, логическое мышление.*

***Key words:** empirical, algorithmic, innovation, competence, activity, logical thinking.*

**Қириш.** Илм-фан шиддат билан ривожланаётган бир вақтда, ёшларнинг интеллектуал ва ижодий салоҳиятини ривожлантириш, табиий ва аниқ фанларни чуқур ўрганиш, хорижий тиллар, муҳандислик ва ахборот технологияларини ўзлаштиришни ташкил қилиш, ўқувчиларнинг инновацион ғоялари ва ишланмаларини ривожлантириш учун зарур шарт-шароитлар яратиш, талабаларни тезкор ва мантиқий фикрлашга ўргатиш муҳим аҳамият касб этади.<sup>1</sup>

Замонавий таълимнинг камчиликларидан бири фикрлаш қобилиятини шакллантиришга аҳамият берилмаганлигидир. Замонавий мактаб ва олий таълим муассасаси дарслик ва ўқув қўлланмаларининг аксарият қисмида материални тақдим этишга ахборот-тушунтириш ёндашуви ҳали ҳам устунлик қилмоқда.

Физика фанини ўрганиш жараёнида талабалар томонидан қабул қилинадиган катта ҳажмдаги билимлар ҳамда уларнинг интеграциялашмагани, билимлар тизимининг ишлаш механизмини чегаралаб қўяди, ўзлаштирилган билимларнинг «ўлик вазн»га айланишига ва янги вазиятларда қўлланилмаслиги ҳамда келгусида шахс ривожланишига ҳисса қўшмаслигига олиб келади. Аммо аксарият муҳим масалаларни юзаки кўриб чиқиш билан ўқув дастурларини қисқартиришнинг қарама-қарши жараёни ҳам қабул қилиниши мумкин эмас. Шундай қилиб, маълумотларга бой курс зарур бўлиб, у физиканинг ўқув предмети сифатида барча имкониятларини рўёбга чиқаришга имкон берадиган ўқитиш усуллари асосида яратилиши, физиканинг мазмуни маълум бир предмет соҳасининг турли ўзига хос ҳодисаларини мустақил равишда ўрганишга имкон берадиган билим воситаси, шунингдек, олинган билимларни бошқа фан материалларига ўтказиш вазифасини бажариши керак.

Ушбу муаммоларни ҳал қилиш учун талабаларда ақлий фаолиятнинг универсал воситаларини, хусусан, мантиқий фикрлаш усуллари бирор мақсадга йўналтирилган равишда шакллантириш зарур. Умумий физика курси доирасида ушбу муаммонинг ечими ривожланган мантиқий ва

<sup>1</sup> Makhmanov Ergash Binokulovich. The development of laboratory practice-trainings in the identification of comparative specific heat capacity in liquids and solids, European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8, № 9, 2020, p. 158 – 163.

математик аппарати бўлган фундаментал фан сифатида ўзининг катта имкониятлари билан оқланади.

**Асосий қисм.** Фикрлашнинг ривожланиши муқаррар равишда дунёқарашнинг ўзгаришига олиб келади, бу эса, ўз навбатида, шахснинг маънавий-ахлоқий қадриятларининг шаклланишини қатъият билан белгилаб беради. Ушбу муаммо дидактика ва педагогикага ўзига хос аҳамиятга эга: фикрлашнинг ўзи ҳал қилинмаган асосий ҳодиса (феномен) бўлиб қолишига қарамай, улар унинг ривожланишига катта ёки кичик даражада муваффақият билан эришмоқдалар. Фикрлаш умуман инсоният фаолиятининг асосий ҳодисасидир (феноменидир), шунингдек, таълим фаолияти ҳодисасидир (феноменидир). Фикрлаш тараққиётининг барча дидактик ва педагогик моделлари эмпирик бўлиб, улар замонавий фан тараққиёти даражасида оддийгина фарқ қилиб бўлмайди. Шу сабабли методология, кўпинча, фикрлашни эмас, балки унинг фаолиятда намоён бўлишини кўзда тутаяди. Фаолиятнинг барча турлари, шакллари ва соҳаларида унинг муваффақияти учун зарур бўлган фикрлашнинг индивидуал хусусиятлари муҳим аҳамият касб этади. Бу ажойиб “кўп ўлчовли” фикрлашни кўрсатади. Қуйидаги келтирилган жадвалда баъзи фикрлаш турларининг хусусиятлари кўрсатилган (1-жадвал). Жадвалда жамланган фикрлаш турлари яхлитликка ёки тўлиқликка эга эмас, балки фақат фикрлаш кўп қиррали ва кўп ўлчовли аклий ва амалий фаолиятнинг турли соҳаларида намоён бўлади. Уларнинг ҳар бирида бу ўзига хос алоҳида нарса сифатида қаралса-да, шубҳасиз, фикрлашни умуман, алоҳида турини ривожлантириш орқали, биз унинг барча турларини ривожлантираемиз.

*1-жадвал*

#### Фикрлаш турларининг хусусиятлари

Эмпирик	• Визуал тасаввурлар яратади.
Назарий	• Асосан, абстракт тушунчалар билан ишлайди.
Физик	• Мантикий фикрлашларни физика фанининг методологиясига мувофиқ амалга оширади.
Алгоритмик	• Алгоритмиклар тузади, уларни жараёнларга қўллай олади.
Математик	• Абстракт моделлар яратади, уларни ишлатиш қоидаларини яратади.
Ижодий	• Ички фикрлаш оламида илгари мавжуд бўлмаган янги нарсаларни яратади.
Экологик	• Ўзининг ва бошқаларнинг хатти-ҳаракатларининг экологик жиҳатини доимий равишда назорат қилади.
Муҳандислик	• Муҳандислик фаолиятини техник объектлар билан когнитив ва инструментал ҳамкорлигини таъминлайди.
Инновацион	• Янги билимларни татбиқ қилиш фаолиятини когнитив ва инструментал даражада таъминлайди.

Физика ўқитишда эмпирик билиш бу физик тушунчалар (траектория, илгариланма ҳаракат, механик ҳаракат, моддий нукта, инертлик ва ...), катталиқ (м, кг, сек, моль, кандела, ...), физик жараёнларни (механик, термодинамика, электр, оптика..) ва тажрибаларни кузатиш орқали бошлангич билимга эга бўлишдир. Эмпирик билишда объектнинг айрим қисмлари ажратилади, унинг ху-



сусиятлари аниқланади, оддий ўлчашлар ва умумий юзасидаги нарсаларни қайд этиш амалга оширилади.<sup>1</sup>

Физика ўқитишнинг назарий билиш босқичда фикрий эксперимент методини қўллаш орқали янги илмий билимга асос бўладиган билим – оламнинг илмий манзараси шакллантирилади. Оламнинг илмий манзараси деганда, ўрганилаётган объект ҳақидаги дастлабки назарий билимлар, тушунчалар, тамойиллар, тахминлар назарда тутилади ва етарли даражада кўргазмали томонларига эга бўлиб, моделлар ёрдамида ҳосил қилинадиган мавҳум назарий билимлар билан характерланади. Шундай қилиб, оламнинг илмий манзараси – ҳар хил илмий назарияларнинг синтези ва уларнинг сифатий умумлашмаси бўлиб, ўзига хос билимлар системасининг алоҳида шакли.

Оламнинг физик манзараси тўғрисидаги таълимотларнинг тарихан ўзгариб борганлигини қарайдиган бўлсак, 16–17-асрларда оламнинг натур фалсафий манзараси ўрнига механик манзараси тасдиқланади, бунда оламдаги рўй берадиган ҳодисалар табиатнинг ҳамма қонунлари асосида ётувчи Галилей-Ньютоннинг механика қонунлари билан тушунтирилади. 14-асрда оламнинг механик манзараси ичида молекуляр-кинетик концепция ва эҳтимоллик статистик қонунларига асосланган оламнинг термодинамик манзараси пайдо бўлди. Кейинчалик М.Фарадей ва Ж.К.Максвеллар томонидан 19-асрнинг иккинчи ярмида ишлаб чиқилган электромагнит майдон назарияси оламнинг механик манзарасини тўлигинча емирилишга олиб келди. Бу назарияга асосан, физик реал борлиқ турли хил турдаги узлуксиз майдонлардан иборат ва ҳ.к.<sup>2</sup>

**Муҳокамалар ва натижалар.** Фикрлашнинг физик босқичда физикадан муҳандислик, ишлаб чиқариш ва кундалик ҳаётда физик ҳодисалар ва жараёнларнинг қўлланилишини кўрсатиш талабаларни физика қонунларининг ҳақиқийлигига ишонтиради. Айниқса, ўқув эксперименти физика ўқитишнинг мазмуни, методи ва воситаси бўлиши мумкин. Унинг ҳар хил турларидан (олий таълим муассасаларида намоёиш қилиш ва лаборатория, уй шароитида тажрибалар) фойдаланилганда ўқувчиларнинг билимлари чуқурлашади ва кенгаяди, ўқувчиларнинг фикрлаш ва ҳиссий-эмоционал соҳаси ривожланади, амалий ва тажриба кўникмалари шаклланади. Чунончи, билиш қизиқишларини шакллантириш учун ўқув-физик экспериментнинг эмоционал компонентидан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Намойишдан олинган таассуротлар узок вақт хотирада қолади. Уларда кузатилаётган ҳодисанинг ҳақиқий сабабини билишга ва уни такрорлашга интилиш уйғонади, яъни ўқувчиларни экспериментга чорлайди. Шу билан бирга, талабаларга фикрлашнинг, хусусан, мантикий фикрлашнинг ривожланиши учун ўқув физик эксперимент имкониятларини кўрсатиш керак.

Фикрлашнинг алгоритмик босқичда физика фанини ўқитишнинг ўзига хос хусусиятлари ҳисобга олинади ва ҳар бир бўлим учун алоҳида масала ечишнинг алгоритмлари ишлаб чиқилади. Масалан, механика курси: моддий нуқта кинематикаси, моддий нуқта динамикаси, механикада сақланиш қонунлари, статика элементлари, механик тебраниш ва тўлқинлар ва ҳ.к. Физикада масала ечишнинг асосий босқичларига мувофиқ, ечишда кинематикадан масалалар ечиш учун алгоритми:

1. Масалада тасвирланган физикавий вазиятни таҳлил қилинг ва масаланинг аниқ ва номаълум объектларини танланг.

2. Координата бошини танланг, инерциал санок системага нисбатан моделлаштириш имкониятини баҳоланг.

Моделлар билан алмаштиринг, уни ечими учун ишлатилиши мумкин бўлган физик қонунларни танланг. Фойдаланиш мумкин бўлган қонунларни танланг.

4. Схематик чизмадаги кинематик характеристикаларни кўрсатинг, кўриб чиқилган вақт давомида ҳаракатнинг бошида ва охирида оний тезлик, тезланиш ва вақт.

5. Объектлар учун танланган кинематик ҳаракат қонунларини ёзинг, физик тизимга, вектор шаклида киритилган.

6. Вектор тенгламаларни координата ўқлари бўйича проекциялаш ва ҳосил бўлган тенгламалар системаси (тенгсизликлар) тўла эканлигини текшириш.

7. Кинематик муносабатлардан, геометрик муносабатлардан ва масалада кўрсатилган махсус шартлардан фойдаланиб, етишмаётган тенгламалар (тенгсизликлар)ни тузинг.

<sup>1</sup> Балаш В.А. Задачи по физике и методы их решения (текст). Пособие для учителя, 4-е изд., перераб. и доп., М., “Просвещение”, 1983, 432 с.

<sup>2</sup> Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М., “Педагогика”, 1989, с. 192.

8. Олинган системани номаълумларга нисбатан ечинг.

9. Умуман, ечимнинг тўғрилигини текширинг.

10. Сонли ҳисоблашларни бажариш. Натижаларни таҳлил қилинг.

Фикрлашнинг математик босқичда физикадан ҳисоблаш масалаларини қўйиш ва математик усуллардан фойдаланиб, ечимларни топа билиши, татбиқий муҳандислик масалаларини математик моделлаштириши ва ечишини ўрганиши, математик анализ, назарий ва экспериментал тадқиқотларни қўллаш олиш компетенцияларини шакллантириш лозим.

Фикрлашнинг ижодий босқичда физикавий ҳодиса ва жараёнларни кузатиш ва тажрибалар ўтказиш орқали олинган кўникма ва малакаларни ўз касбий фаолиятига кўчиради, мустақил равишда янги лойиҳаларни яратишга ҳаракат қилади, доимий равишда янги экспериментлар ўтказиши ва хулосалар чиқариш қобилияти ривожланади.

Фикрлашнинг экологик босқичда талабаларга физикадан яратилаётган кашфиётлар ва уларни амалиётда қўлланилиши нафақат биосферани айрим қисмларига, балки бутун сайёрага мисли кўрилмаган даражада кучли таъсир ўтказиши мумкинлиги тўғрисидаги компетенцияларни шакллантириш лозим. Тараққиёт шиддат билан ривожланаётган ҳозирги вақтда физик-химик циклдаги фундаментал, техник фанлар билан биосфера ва айрим биогеоценозларни тадқиқ қилувчи фанлар ўртасида жипсий алоқа жуда катта аҳамият касб этади. Ваҳоланки, улар ўртасида, айниқса, табиий муҳитни тадқиқ қилувчи фанлар (геология, география, биология) ва табиий муҳитни ўзгартириш йўллари ишлаб чиқишга қаратилган техник фанлар ўртасида жипсий алоқанинг етарли эмаслиги атроф-муҳитга салбий таъсир ўтказиши ҳақида мантикий фикрлашни уйғотиш лозим. Ўсимлик ва ҳайвонот олами учун муҳим аамиятга эга бўлган ёруғлик, физикавий нуқтаи назардан олганда, ёруғлик манбаидан чиқаётган электромагнит тўлқинларидан иборат энергия туридир. Сайёрамизга куёшдан келадиган ёруғлик нури тирик организмлар ҳетида муҳим роль ўйнайди.<sup>1</sup>

Фикрлашнинг муҳандислик босқичда физикадан жисмларнинг мувозанат тенгламалари, механиканинг асосий қонунлари, теоремалари, принциплари, ҳаракатнинг устуворлиги ва барқарорлиги, механик системанинг ҳаракати ва мувозанатини билиши, ҳаракат содир бўлаётган фазо ва унинг хоссаларини ҳамда ишлаб чиқариш технологик жараёнларига энг содда физик ва математик моделларни куриш ва бу моделлар асосида технологик жараённинг барқарорлигини таъминлаш ҳақидаги билимлар шаклланади.

Лаборатория машғулотлари жараёнида лаборатория жиҳозларини чизма асосида йиғиш кўникмаси, тажриба ва экспериментларни ўтказиш жараёнида конструкторлик қобилиятлари, амалий ишлар мавзуси бўйича математик, инфорацион ва имитацион моделларни ишлаб чиқиш ва тадқиқот қилиш компетенцияларини шакллантириди.

Электр бўлими ўқитилаётганла электр тизимида қўлланиладиган жиҳоз ва асбобларни конструкциялари ва жиҳозларини монтаж қилиш, сошлаш бўйича билимларга эга бўлишади, лаборатория машғулотларида синаш ишларини олиб бориш ва шу асосида ҳисобот ёзиш ва тақдимот қилиш технологияси шаклланади, лаборатория жиҳозларининг техник ҳолати ҳақида тасаввурга эга бўлишади ва мантикий фикрлашлари ривожлантирилади.

Фикрлашнинг инноваторлик босқичда физиканинг долзарб муаммолари суюқ кристаллар, нанотехнология, магнит ва суюқ магнитлар асосида наноматериаллар яратиш ва ҳ.к.нинг яратиши ва қўлланилиш соҳасини чуқур англаган ҳолда, янги материаллар яратишга, электроника ва радиотехника, медицина, космонавтикага саёхат соҳаларида инновацион ғояларни яратиш бўйича ишларни амалга оширади.

**Хулосалар.** Шундай қилиб, олий таълим муассасаларида бўлажак муҳандисларни тайёрлашда физика фанидан мантикий фикрлашга ўргатиш:

◆ биринчидан, талабаларнинг ҳар томонлама ривожланиши учун шарт-шароитлар яратади, табиий ва аниқ фанларни чуқур ўрганишга олиб келади;

◆ иккинчидан, танқидий фикрлаш, ахборотни излаш, таҳлил қилиш ва қайта ишлаш, олинган билимларни амалиётда қўллаш малакасини оширади;

◆ учинчидан ўсиб келаётган авлоднинг интеллектуал имкониятларини намоён этишга ёрдам беради, лойиҳалаш, конструкциялаш ва янги инновацион ғояларни яратишга ва ностандарт фикрлашга ўргатади.

<sup>1</sup> Зиёмухаммедов Б., Тожиев М. Педагогик технология – ўзбек миллий модели. Т., “Lider Press”, 2009, 9-бет.

**Хасанова Дилбар Каримджоновна**  
(Ўзбекистон Халқаро Ислоҳ академияси ўқитувчиси; e-mail: [d.xasanova@jiau.uz](mailto:d.xasanova@jiau.uz))  
**КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВГА АСОСЛАНИБ ЎҚИТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС**  
**ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Аннотация.** Диншунослик йўналиши талабаларини ўқитишда уларнинг малака талабларидан келиб чиқиб, ўзига хос ёндашувни талаб этади. Мақолада уларнинг малака талаблари, касбий компетентлиги ва ҳозирги кунда фарқланаётган “компетенция” ва “компетентлик” тушунчалари билан алоқадорлиги айтиб ўтилган. лингвистика ва коммуникатив компетенция ўртасидаги фарқ бу маълумот алмашинувининг сўзловчиларда икки томонлама бўлишига имкон берилишидир. Баъзи муаллифлар Хомскийни компетенция атамасининг асосчиси деб билишади. Аммо Хомскийнинг тилишунослик соҳасига қўшган ҳиссаси ва унинг ушбу атамани қўллаши бошқа тадқиқотчилардан фарқ қилади. Мақолада Хомский бошқа муаллифлар фикрлари таққосланади ва ўзига хос хусусиятлари таҳлил қилинади.

**Аннотация.** Сфера религии требует уникального подхода к обучению студентов, основанного на их квалификационных требованиях. В статье отмечается их связь с квалификационными требованиями, профессиональной компетенцией и понятиями «лингвистическая компетенция» и «коммуникативная компетенция», которые сегодня различаются. Разница между лингвистикой и коммуникативной компетенцией состоит в том, что у говорящих происходит двусторонний обмен информацией. Некоторые авторы считают Хомского основоположником термина «компетентность». Но вклад Хомского в область лингвистики и использование им этого термина отличается от мнений других исследователей. В статье Хомский сравнивает взгляды других авторов и анализирует их особенности.

**Annotation.** The field of religion requires a unique approach to teaching students based on their qualifications. The article notes their connection with qualification requirements, professional competence and the concepts of “competence” and “competence”, which differ today. The difference between linguistics and communication competence is that speakers have a two-way exchange of information. Some authors consider Chomsky the founder of the term “competence”. But Chomsky’s contribution to the field of linguistics and his use of the term differs from the contributions of other researchers. In the article, Chomsky compares the views of other authors and analyzes their features.

**Калим сўзлар:** касбий фаолият, компетенция, компетенциявий ёндашув, компетент, малака талаблари, қобилият, лаёқатлилиқ, мотивация, соҳага оид.

**Ключевые слова:** профессиональная деятельность, компетентность, компетентностный подход, компетентность, квалификационные требования, способности, мотивация, относительно сферы.

**Key words:** professional activity, competence-based approach, competence, qualification requirements, ability, motivation, specific purpose.

Жамиятнинг талабларига асосланиб, турли миллат вакиллари билан чет тилида мулоқотга кириша оладиган, ижтимоий-иқтисодий муаммолар ва жараёнларни мустақил таҳлил қила оладиган ахборот йиғиш, сақлаш, қайта ишлаш ва ундан фойдаланиш усулларини эгаллаган бўлиши, ўз касб фаолиятида мустақил асосланган қарорларни қабул қила оладиган жаҳон меҳнат бозорига рақобатбардош кадрларни тайёрлаш устувор мақсадлардан бири бўлиб келмоқда. Эндиликда олий таълим муассасалари нофилологик йўналиш битирувчиларининг чет тилини билиш даражаси В 2 бўлишини таъминлаш мақсадида таълим сифатини ошириш учун чора-тадбирлар кўрилмоқда. 2019 йил 16 январдаги “Таълим сифатини назорат қилиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4119-сонли қарорида миллий олий таълим муассасаларида кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш мақсадида халқаро стандарт ва хорижий тажрибаларни қўллаш белгилаб берилган. Биз олиб борган тадқиқот мақсади ҳам бўлажак диншуносларни умумий ва касбий компетенцияларига қўйилган талабларга мос келадиган шакл ва методларни аниқлашдан иборат.

Биз тадқиқотлар жараёнида бўлажак диншуносларнинг касбий компетенцияларига қўйилган малака талабларини белгилашда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли қарори билан тасдиқланган “2017 – 2021 йилларда олий таълим тизимини комплекс ривожланти-

риш чора-тадбирлар Дастури ижросини таъминлаш бўйича Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Дастури” асос бўлиб хизмат қилади. Шу жумладан, улар:

–хорижий тиллардан бирида касбий фаолиятига оид хужжатлар ва ишлар моҳиятини тушуниши, гуманитар фанлар бўйича касбий фаолияти доирасида зарурий билимларга эга бўлиши ҳамда улардан замонавий илмий асосда касб фаолиятида фойдалана билиш;

–ахборот технологияларини касбий фаолиятида қўллаш билиши, ахборотларни йиғиш, сақлаш, қайта ишлаш ва улардан фойдаланиш усулларини эгаллаган бўлиши, фаолиятида мустақил асосланган қарорлар қабул қила олиш, дин тушунчаси, динни ўрганишдаги ёндашувлар, диншуносликнинг алоҳида фан сифатида шаклланиши, унинг соҳалари ҳақида билиш;

–дин никобидаги таҳдидларга қарши курашнинг маънавий-маърифий асослари, экстремистик оқимларнинг ғоялари, фаолият услублари тўғрисида кўникма ҳосил қилиш;

–миллий жаҳон динлари тарихи, таълимотлари, байрамлари, диний манбалари, оқим ва йўналишлари ҳақида кўникмаларга эга бўлиш;

–исломшунослик асослари, қуръоншунослик, Қуръон илмларининг шаклланиши ва ҳозирги кундаги ҳолати, ҳадисшунослик ва ушбу соҳага оид замонавий тадқиқотлар. ақидавий ва фикҳий мазҳаблар, ҳанафийлик, мотуридийлик таълимоти асосларини билиш;

–давлат ва дин муносабатлари, дунёвий давлат ва диннинг ўзаро муносабатлари ва уларнинг ҳуқуқий асосларининг мазмун-моҳиятини тушунтириш;

–дин социологияси, дин психологияси, дин фалсафаси ва моҳиятини шарқ фалсафаси, хусусан, ислом фалсафасининг асосий масалалари ва концепциялари ҳақида билиш;

–диний манбаларнинг таснифлаши, манбалар билан тадқиқот олиб бориш, динларнинг муқаддас манбалари – Алигрантх, Авесто, Танах, Трипитака, Библия, Қуръондаги мавзулар баёнини қиёслаш кўникмасига эга бўлиш<sup>1</sup> сингари касбий компетенция ва малакага эга бўлишлари керак.

Юқоридаги диншунослик йўналиши талабалари олдида қўйилган малака талабларидан келиб чиқиб, уларнинг касбий компетентлигини А.К.Маркованинг классификацияга асосланиб, уч қисмга бўлишимиз ўринлидир.<sup>2</sup> Улар мазмуний, мотивацион ва амалда қўллашдан иборат.

Коммуникатив компетенция тушунчасига 1950 ва 1960-йилларда тилшунослар ва тадқиқотчилар томонидан структурал ва когнитив тенденция сифатида эътибор қаратилиши бошланган ҳамда 1970 йилнинг бошларига бориб, Делл Хаймес (1972) ва Полстон (1974) томонидан унга конструкция сифатида аниқ таъриф берилган. Уларнинг фикрига кўра, лингвистика ва коммуникатив компетенция ўртасидаги фарқ бу маълумот алмашинувининг сўзловчиларда икки томонлама бўлишига имкон берилшидир. Баъзи муаллифлар Хомскийни (1968) компетенция атамасининг асосчиси деб билишади. Аммо Хомскийнинг тилшунослик соҳасига қўшган хиссаси ва унинг ушбу атамани қўллаши бошқа тадқиқотчилардан фарқ қилади. Таълим соҳасида, масалан, Мессик (1984) компетенцияни “шахснинг бир мавзуда нимани билиши ва нима қилиши мумкинлиги” деб таърифлайди. Шу билан бирга, у таълим шароитида у ўқувчининг билим ва кўникмага эга бўлишини зарурлигини таъкидлайди, хоҳ у йўриқнома орқали бўлсин, хоҳ тажриба орқали бўлсин. Аммо Хомскийнинг фикрини бир жиҳатига эътибор қилиш керакки, компетенция айнан “ёпиқ, кўринмайдиған” салоҳиятни “ишлатилиш”дир. Унинг таъкидлашича, “ишлатилиш” бу сўзловчининг онгли равишда фикрларини тилга кўчиришидир. Р.Уайт эса ўзининг “Мотивация қайта кўриб чиқилди: компетенция тушунчаси” китобида таърифлашича, компетенция категорияси шахсий компонентлар, шу жумладан, мотивация билан тўлдирилади. Шу борада ўтган асрнинг 60-йилларига келиб, ҳозирги кунда фарқланаётган “компетенция” ва “компетентлик” тушунчалари кўриб чиқилган. “Чет тили сўзларининг қисқа луғатида” берилишича,<sup>3</sup> “компетентли” лотин тилидаги *competens, competentis* сўзларидан келиб чиққан бўлиб, “билувчи”, маълум соҳада билимли ва ўз билимига таянган ҳолда соҳа масалаларида қарор чиқара олувчи, деган маънони билдиради. Н.Федотованинг назарида, компетентлилик “ноанъанавий вазиятлар, кутилмаган ҳолларда шахснинг ўзини қандай тутиши, мулоқотга киришиши, рақиблар билан ўзаро муносабатларда янги йўл тутиши, но-

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги 5120600-Диншунослик бакалавриат таълим йўналишининг малака талаблари.

<sup>2</sup> Маркова А.К. Психология профессионализма. М., “Знание”, 1996, 308 с.

<sup>3</sup> Краткий словарь иностранных слов. Под редакцией И.В.Лехина и проф. Ф.Н.Петрова, 1952.

аниқ вазифаларни бажаришда, зиддиятларга тўла маълумотлардан фойдаланишда изчил ривожланиб борувчи ва мураккаб жараёнларда ҳаракатланиш режасига эгалик” деган маънода келади.<sup>1</sup>

**Matvapaev Azizbek G‘ayibnazar o‘g‘li (UrDU o‘qituvchisi)**

## **JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISINING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGI**

***Annotatsiya.** Maqolada jismoniy madaniyat mutaxassisiga qo‘yiladigan pedagogik talablar va sportchilarni tayyorlash jarayonida muomala madaniyati hamda yuqori malakali sportchilarni tayyorlay olish masalalari yoritilgan.*

***Аннотация.** В статье освещаются вопросы педагогических требований к специалисту по физическому воспитанию, его культуры общения в процессе занятий и подготовки высококвалифицированных спортсменов.*

***Annotation.** This article deals with the problems of developing of the culture of greeting and preparing higher qualified sportsmen and the demands to the specialist of physical education.*

***Kalit so‘zlar:** jismoniy tarbiya mutaxassisi, pedagogik talablar, mashg‘ulot jarayoni, shug‘ullanuvchilar, muomala madaniyati, tarbiya jarayonini boshqarish, xususiyat.*

***Ключевые слова:** физическое воспитание, спортивная этика, нравственное воспитание, нравственные качества, спортсмены, тренер, тренировочный процесс.*

***Key words:** physical education specialist, pedagogical demands, process of training, trainers, culture of greeting, controlling education process features.*

Pedagog xodim ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha‘ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘sinini hurmat qilishi, o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi, ta‘lim oluvchilarning psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlaniшинini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e‘tibor qaratishi, pedagogik kompetentligini muntazam ravishda oshirib borishi respublikasmizda malakali kadrlarni etishib chikishiga zamin yaratadi.

Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta‘sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.<sup>2</sup>

Tarbiya jarayonining ko‘p qirraliligi va murakkabligi jismoniy tarbiya mutaxassisi zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Agar sen o‘quvchingni mashhur sportchi qilib tayyorlamoqchi bo‘lsang, o‘zing ham o‘z ishingning ustasi bo‘lishing kerak. Unda mehnatsevarlik va g‘alabaga intilishni tarbiyalashga harakat qilsang mehnatni qanday sevish kerakligini, oldiga qo‘ygan maqsadga erishishda uchragan qiyinchiliklarni qanday bartaraf etish zarurligini amalda ko‘rsat, uni vijdonli, rostgo‘y, o‘z so‘zida qat‘iy turadigan, kamtar bo‘lishga chaqirsang – o‘zing ham bu borada nuqsonsiz bo‘l, o‘quvchilarning estetik didlarini o‘stirmoqchi bo‘lsang, avvalo, o‘zing intellektual va madaniyatli bo‘l. Demak, tarbiyachining o‘zi ham tarbiyalangan bo‘lishi kerak.

Jismoniy tarbiya mutaxassisining pedagogik mahorati, fundamental va maxsus yunalishdagi o‘quv dasturining asoslarini, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi dastur va ko‘rsatmalarni bilishi, ommaviy sport darajasida sport ishlarini tashkil qila olishi, sport zaxiralarini, yuqori malakali sportchilarni tayyorlay olishida ko‘rinadi.<sup>3</sup>

Jismoniy tarbiya mutaxassisi shug‘ullanuvchilarning harakat tajribalarini shakllantirish va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, ularning ma‘naviy qiyofasini ham tarbiyalaydi, ularga hayot yo‘lini tanlab olishga va insoniylik burchini bajarishga yordam beradi.

<sup>1</sup> Федотова Наталья Александровна. Дисс “Развитие исследовательской компетентности старшеклассников в условиях профильного обучения”, 2010.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli qonuni.

<sup>3</sup> Masharipov F.T., Ro‘zmetov N.Q., Ro‘zmetov R.T. Voleybol mashg‘ulotlarini olib borish va boshqarishning pedagogik asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, Urganch, 2012, 10-bet.

**Annotation.** The article discusses the content and main types of economic destruction. According to the author, economic destruction manifests itself in a variety of factors aimed at the degradation of the specifics of the economy, the violation of its stability. Its main manifestations are associated with the depletion of the potential of the subject of labor, the obsolescence of the material and technical base of society, the obsolescence of production technologies, the negative nature of people's attitude to the means of production, the violation of relations that develop between people in order to produce products, its exchange, distribution, consumption, irrational organization of labor organization and management relations.

**Калим сўзлар:** деструкция, ижтимоий деструкция, иқтисодий деструкция, меҳнат субъекти салоҳиятининг тушиб кетиши, жамият моддий-техника базасининг эскириши, ишлаб чиқариш технологияларининг эскириши, кишиларнинг ишлаб чиқариш воситаларига бўлган муносабатининг негатив тус олиши, кишилар ўртасида маҳсулот ишлаб чиқариш, уни айирбошлаш, тақсимлаш, истеъмол қилиш мақсадида йўлга қўйилган муносабатларнинг бузилиши, меҳнатни тақсим қилиш ва уни бошқариш борасидаги муносабатларнинг нооқилона ташиқил этилиши.

**Ключевые слова:** деструкция, социальная деструкция, экономическая деструкция, снижение потенциала субъекта труда, устаревание материально-технической базы общества, устаревание технологии производства, возникновение негативного отношения людей к средствам производства, нарушение установленных отношений производства, обмена, распределения и потребления товаров, нерациональная организация процесса распределения и управления труда.

**Key words:** destruction, social destruction, economic destruction, reduction of the potential of the subject of labor, obsolescence of the material and technical base of society, obsolescence of production technology, the emergence of a negative attitude of people to the means of production, violation of established relations of production, exchange, distribution and consumption of goods, irrational organization of the process of distribution and management of labor.

Ўтган XX асрда фан ва техника ютуқларининг ишлаб чиқаришга илдам жорий этилиши иқтисодий тараққиёт суръатларини тезлаштирди. Бироқ янги аср воқелиги кўрсатмоқдаки, иқтисодий зафарлар юксалиши билан кишилиқ жамиятида иқтисодий инқирозларнинг юзага келиши эҳтимоли ҳам ортиб бормоқда. Шу муносабат билан, иқтисодий соҳадаги деструктив ҳолатларнинг қонуниятларини муфассал ўрганиш зарурияти вужудга келмоқда.

Ижтимоий фалсафада ижтимоий деструкция деганда жамиятнинг турли соҳаларидаги барқарорликка путур етказувчи, уни тараққиётдан мосуво қилувчи, регресс ва таназзулга элтувчи жараён ва омиллар, негативлик ва вайронкорлик ҳолатлари тушунилади. Ижтимоий-деструктив жараёнларнинг юзага келиши, шаклланиши ва кечиши қатор диалектик хусусиятларга эга. Ижтимоий-деструктив жараён ва ҳолатлар жамиятнинг турли соҳаларида намоён бўлиши мумкин. Барча соҳаларда у системанинг асосий хусусиятларини емирувчи ва барқарорлигига путур етказувчи омил сифатида рўй беради. Масалан, сиёсий деструкция деганда ҳокимият дискредитацияси, сиёсий партияларнинг инертлигига сабаб бўлувчи омиллар, фуқаролик жамияти институтлари фаолиятининг бесамарлигига сабаб бўлувчи омиллар, сиёсий фаолият стратегик ва тактик мақсадларининг аниқ белгиланмаганлиги, сиёсий мақсадлар билан уларга эришиш услублари ва усуллари, омиллари ва воситалари ўртасидаги номутаносиблик, сиёсий мақсадлар йўлида муваффақиятли фаолият кўрсатишга кодир кадрлар танқислиги ёки салоҳиятсизлиги, сиёсий ҳуқуқ нормаларининг жамият аъзолари эҳтиёж ва манфаатларига мос эмаслиги назарда тутилади.

Ижтимоий деструкция миллий ўзига хосликни емирувчи, оила институти инқирозига олиб келувчи, ижтимоий гуруҳ ва синфлар манфаатлари ўртасидаги мувозанатни бузувчи, таълим, соғ-

лиқни сақлаш, ижтимоий таъминот тизимлари салоҳиятини емирувчи, маданият муассасалари фаолияти самарасини туширувчи, фуқаролар маиший турмуш даражасини пасайтирувчи омиллардан таркиб топади. Маънавий деструкция маънавий ишлаб чиқариш жараёнини издан чиқарувчи, ижтимоий онг шакллари ривожига халал берувчи, ижтимоий психология ва мафкурага салбий таъсир кўрсатувчи омилларни англатади.

Иқтисодий деструкция ана шундай деструктив жараёнларнинг ўзига хос шаклини ташкил этади. Маълумки, иқтисодиёт “кишилар томонидан меҳнатни қўллаган ҳолда, инсон учун зарурий бўлган неъматлар, ҳаёт шароитлари ва воситаларини яратиш орқали тирикчиликни таъминлаш, эҳтиёжларни қондиришда фойдаланиладиган хўжалик, воситалар, объектлар, жараёнлар мажмуини” англатади. У “ишлаб чиқариш, айирбошлаш, тақсимот, истеъмол соҳасидаги ижтимоий муносабатларни қамрайди”.

Юқоридаги иқтибослардан кўриниб турибдики, иқтисодиётнинг икки томони мавжуд.

Биринчидан, у муайян ишлаб чиқарувчи кучларнинг мавжуд бўлишини тақозо қилади. Ишлаб чиқарувчи кучлар таркибида меҳнат субъекти – инсон алоҳида ўрин тутди. Бундан ташқари, моддий ишлаб чиқариш жараёни жамиятнинг моддий-техника базасига таянади. Бу база ишлаб чиқариш воситаларининг (ишлаб чиқариш жараёнини амалга ошириш учун зарур бўлган меҳнат предметлари, меҳнат қуроллари, бинолар, омборлар, транспорт кабиларни ўз ичига олувчи меҳнат воситалари, ишлаб чиқариш технологиялари) яхлит системасидан таркиб топади.

Иккинчидан, иқтисодиёт мақсадга мувофиқ ишлаб чиқариш муносабатларининг ҳукм суришини тақозо қилади. Мазкур муносабатлар кишиларнинг ишлаб чиқариш воситаларига бўлган муносабати, кишилар ўртасида маҳсулот ишлаб чиқариш, уни айирбошлаш, тақсимлаш, истеъмол қилиш мақсадида йўлга қўйилган муносабатлар, меҳнатни тақсим қилиш ва уни бошқариш бора-сидаги муносабатларни ўз ичига олади.

Ҳар қандай жамиятда иқтисодиётнинг барқарорлиги ва узлуксиз ривожини айнан ана шу икки томон – ишлаб чиқарувчи кучлар ва ишлаб чиқариш муносабатлари ўртасидаги мутаносибликнинг мавжудлигига боғлиқ. Бу мутаносиблик нафақат жамиятнинг иқтисодий тараққиётига, балки бошқа соҳаларнинг ҳам барқарор раванқига замин яратади.

Юқоридаги хусусиятларни емирувчи ва барқарорлигига путур етказувчи ҳар қандай омил ижтимоий деструкция сифатида баҳоланиши мумкин. Иқтисодий соҳадаги деструктив жараёнлар ва ҳолатлар қуйидагилар билан боғлиқ бўлади:

а) меҳнат субъекти салоҳиятининг тушиб кетиши; инсон меҳнат субъекти сифатида ишлаб чиқарувчи кучларнинг асосий ва марказий элементи ҳисобланади. Ишлаб чиқариш жараёни айнан унинг шарофати билан ҳаракатга келтирилади ва ривож топади. Инсоннинг меҳнат субъекти сифатидаги салоҳияти, касбий маҳоратининг тушиб кетиши охир-оқибатда бутун иқтисодиётнинг таназзулга юз тутишига олиб келади. Меҳнат субъекти салоҳиятининг пастлигини на ривожланган моддий-техника базаси, на оптимал ишлаб чиқариш муносабатлари билан қоплаб бўлади. Шу муносабат билан, ушбу омилни иқтисодий соҳа билан боғлиқ марказий деструктив жараён деб аташ мумкин;

б) жамият моддий-техника базасининг эскириши; ишлаб чиқариш жараёнини амалга ошириш учун зарур бўлган меҳнат предметлари ва қуролларининг талабга жавоб бермай қўйиши ёки эскириши, иқтисодий жараёнларга жалб қилинган бино ва омборларнинг етишмаслиги ёки замон талабларидан ортда қолиши, транспорт воситаларининг ишлаб чиқариш талабларига мос тушмаслиги жамият иқтисодий соҳаси учун жиддий хатарлар туғдиради. Эскирган моддий-техника базаси иқтисодий тараққиёт суръатларини сусайтиради, кўзланган иқтисодий мўлжалларга эришиш имкониятларини камайтиради;

в) ишлаб чиқариш технологияларининг эскириши; ишлаб чиқарувчи кучлар таркибида ишлаб чиқариш технологияларининг айрича ўрни бор. Илмий асосланган ва замонавий характерга эга бўлган технологиялар ишлаб чиқариш воситаларидан оқилона фойдаланиш, иқтисодий жараёнларни бошқариш, меҳнат самарадорлигини ошириш имконини беради. Унинг эскириши эса меҳнат субъектлари фаолиятининг бесамар кечишига, моддий-техника базасининг унумсиз ишлатилиши ва сарфланишига сабаб бўлади. Бугунги кунда миллий иқтисодиётнинг замонавий технологиялардан ортда қолиши энг катта деструктив ҳолатлардан бири сифатида баҳоланмоқда;

г) кишиларнинг ишлаб чиқариш воситаларига бўлган муносабатининг негатив тус олиши; ишлаб чиқариш воситаларига оқилона муносабат касбий маданиятнинг ажралмас қисмларидан биридир. Бундай муносабат шаклланмаган жамиятда иқтисодий тараққиётга эришиб бўлмайди. Иқ-

тисодий жараёнларга жалб этилган фукараларнинг меҳнат предметлари, куруллари ва воситаларига нооқилона муносабати жамият моддий-техника базасининг емирилишига, ишлаб чиқариш самарадорлигининг пасайишига, охир-оқибатда иқтисодий юксалиш суръатларининг заифлашишига олиб келиши мумкин;

д) кишилар ўртасида маҳсулот ишлаб чиқариш, уни айирбошлаш, тақсимлаш, истеъмол қилиш мақсадида йўлга қўйилган муносабатларнинг бузилиши; иқтисодиёт турли горизонтал алоқаларни ўзида мужассам қилган тар-кибий-функционал системадир. Мазкур системанинг мавжудлиги маҳсулот ишлаб чиқариш, айирбошлаш, тақсимлаш, истеъмол қилишга қаратилган муносабатлар характериға боғлиқ. Бундай муносабатларнинг замондан ортда қолиши иқтисодий турғунликка, айрим ҳолларда иқтисодий анархияга, уларнинг бузилиши эса иқтисодиётнинг таркибий-функционал деградациясига сабаб бўлади;

е) меҳнатни тақсим қилиш ва уни бошқариш борасидаги муносабатларнинг нооқилона ташкил этилиши; иқтисодиёт турли вертикал алоқаларни ўзида мужассам қилган иерархик система ҳамдир. Мазкур системанинг мавжудлиги кўп жиҳатдан иқтисодиёт секторларида меҳнатнинг тўғри тақсим қилиниши, меҳнат жараёнининг оқилона бошқарилишига боғлиқ. Нооқилона тақсимланган ва бошқарилган меҳнат ишлаб чиқариш жараёнининг мазмуни ва мантиғига путур етказди, иқтисодий фаол аҳоли тадбиркорлиги ва ташаббускорлигини емиради, иқтисодиётнинг иерархик деградациясига сабаб бўлади.

Хуллас, иқтисодий деструкция иқтисодиётнинг ўзига хос хусусиятларини емиришга, унинг барқарорлигини бузишга йўналган турфа омилларда намоён бўлади. Унинг асосий кўринишлари меҳнат субъекти салоҳиятининг тушиб кетиши, жамият моддий-техника базасининг эскириши, ишлаб чиқариш технологияларининг эскириши, кишиларнинг ишлаб чиқариш воситаларига бўлган муносабатининг негатив тус олиши, кишилар ўртасида маҳсулот ишлаб чиқариш, уни айирбошлаш, тақсимлаш, истеъмол қилиш мақсадида йўлга қўйилган муносабатларнинг бузилиши, меҳнатни тақсим қилиш ва уни бошқариш борасидаги муносабатларнинг нооқилона ташкил этилиши билан боғлиқ. Жамиятнинг барқарор ижтимоий тараққиётини таъминлаш учун мазкур деструктив ҳолатларни бартараф этиш йўллари хусусида пухта фикр юритиш зарур бўлади.

**Жайсанов Абдувахоб (Ўзбекистон Миллий университети  
Ижтимоий фанлар факультети таянч докторанти)  
ЎЗБЕКИСТОННИНГ МАРКАЗИЙ ОСИЁ БЎЙИЧА ОЧИҚЛИК, ДЎСТОНА ВА  
ПРАГМАТИК ТАШҚИ СИЁСАТИ**

***Аннотация.** Мақола муаллифлари Ўзбекистоннинг Марказий Осиё мамлакатлари билан минтақалараро ҳамкорлигини мустаҳкамлаш масалаларини мамлакат ва унинг минтақалари сиёсий тараққиёт ҳамда иқтисодий ўсишининг муҳим манбаи сифатида талқин этадилар. Тадқиқотнинг мақсади Ўзбекистон билан Марказий Осиё давлатлари ўртасида минтақалараро ҳамкорликнинг устувор йўналишларини белгилаб беришдан иборат. Халқаро муносабатларни баҳолаш, мамлакатнинг рақобат устунликлари ва салоҳияти, Ўзбекистон минтақалараро ҳамкорлигининг тамойиллари ва асосий йўналишларини белгилаш ҳисобланади.*

***Аннотация.** Авторы статьи трактуют вопросы укрепления межрегионального сотрудничества Узбекистана со странами Центральной Азии как важный источник политического развития и экономического роста страны и ее регионов. Целью исследования является определение приоритетов межрегионального сотрудничества между Узбекистаном и Центральной Азией. Это оценка международных отношений, конкурентных преимуществ и потенциала страны, определение принципов и основных направлений межрегионального сотрудничества Узбекистана.*

***Annotation.** The authors of the article interpret the issues of strengthening interregional cooperation of Uzbekistan with Central Asian countries as an important source of political development and economic growth of the country and its regions. The purpose of the study is to identify priorities for interregional cooperation between Uzbekistan and Central Asia. It is the assessment of international relations, the competitive advantages and potential of the country, the definition of the principles and main directions of interregional cooperation of Uzbekistan.*

***Калим сўзлар:** Марказий Осиё, дунё ҳамжамияти, Буюк ушак йўли, иқтисодий тараққиёт, табиий бойликлар, инсон капитали.*



**Ключевые слова:** Центральная Азия, мировое сообщество, Великий шелковый путь, экономическое развитие, природные ресурсы, человеческий капитал.

**Key words:** Central Asia, world community, Great Silk Road, economic development, natural resources, human capital.

Миллий Конституциямизда таъкидланганидек, Ўзбекистон халқаро ҳуқуқнинг умумэтироф этилган қоидалари устувлигини тан олиб, фуқароларнинг тинчлиги ва миллий тотувлигини таъминлаш мақсадида барча мамлакатлар билан муносабатларда тўла ҳуқуқли субъект сифатида халқаро майдонга кириб келди. Истиклол йилларида юртимизда тинчлик ва барқарорликни мустаҳкамлаш, инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва манфаатларини таъминлаш, Ватанимизни ҳар томонлама тараққий эттириш, унинг халқаро майдондаги обрў-этиборини юксалтириш борасида кенг кўламли ислохотлар амалга оширилди.

Мустақиллик минтақамиз халқлари ижтимоий ҳаётини, келажак ҳақидаги тасаввурларини мутлақ ўзгартиришга, жаҳон халқлари билан интеграцияга киришиб, янги, глобал муносабатларда фаол қатнашишга ундади. Бунинг учун эски тасаввурлар ва ҳаёт тарзини янгича тарзда ўзгартиришни талаб этади. Жамиятда амалга оширилаётган туб ўзгаришлар, модернизация жараёнлари инсон табиатига мос бўлганидагина эски халқ манфаатларидан йироқ анъаналар ўрнига янги маънавий қадриятлар, ижтимоий онгда янги қарашлар, тасаввурлар ва идеаллар шаклланади. Янгиланиш – бу эски, ўз умрини яшаб бўлган, кишилар онги, ҳаёт тарзи ва фаолиятдан жой олган, лекин жамият тараққиёти учун маълум бир маънода тўсик бўлаётган анъаналарнинг, мезонларнинг замон талабларига мувофиқ алмашилиши жараёни.

Ўзбекистоннинг ўз мустақил ташқи сиёсат борасида амалга оширган ижобий ташаббуслари бугун ўз натижасини беришни бошлади. Олий даражадаги учрашувлар мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамияти олдидagi хурмати ортишига ижобий таъсир кўрсатди. Ўзбекистон БМТ, ШХТ, МДХ, ЕҲҲТ каби халқаро тузилмалар билан ҳамкорликни кенгайтирмоқда. Бугунги кунда давлатимиз хорижий мамлакатлар билан муносабатларни сиёсий ишонч ва ҳамкорлик асосида қурмоқда.

Позитив имиджини мустаҳкамлаш борасидаги ишлар ўз самарасини бераётганини гувоҳи бўлиб турибмиз. Хорижий инвестицияларни ва янги технологияларни жалб этиш борасида кўплаб шартномалар тузилиб, мамлакатимиз иқтисодиёти ривожланишига асос бўлмоқда. Миллий маҳсулотлар экспорт ҳажми жадал суръатлар билан ўсиб бормоқда. Халқаро иқтисодий алоқалар тизимида миллий туризмнинг ривожланиши катта аҳамиятга эга. Шунинг учун мамлакатнинг туристик имкониятларини дунёга намоён қилиш мақсадида халқаро туристик ярмаркалар ва кўргазмалар ўтказиб келинмоқда. Фан, таълим, маданият соҳасида ҳам чет эл мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлик йўналишлари йилдан-йилга кўпайиб бормоқда. Мамлакатимизда қатор хорижий олий ўқув юр்தларининг филиаллари ўзбекистонлик ёшларини рақобатбардош кадр этиб тайёрлашни бошлади.

Ташқи сиёсат фаолияти асосида очиқлик, тенглик ва ўзаро манфаатлилик тамойиллари ётганлиги боис мамлакатимиз барча давлатлар билан дўстона муносабатларни ўрнатишга муваффақ бўлди. Айниқса, Марказий Осиё минтақасидаги мамлакатлар билан барча соҳаларда ўзаро дўстлик, яхши қўшничилик ва стратегик шериклик руҳидаги муносабатларни сифат ва мазмун жиҳатдан янги босқичга олиб чиқиш долзарб вазифа ҳисобланади. 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” да амалга оширишга оид давлат дастурининг бешинчи йўналишида қатор тадбирлар белгиланди. Буларга яхши қўшничилик муносабатларини мустаҳкамлаш йўлидаги мавжуд тўсиқларга биргаликда ечим топиш, иқтисодий алоқаларни ривожлантириш, ўзаро савдо ҳажмини ошириш ва кооперацияни мустаҳкамлаш учун қулай шароитлар яратиш, минтақанинг транзит ва логистика салоҳиятидан самарали фойдаланиш, транспорт инфратузилмаси жадал ривожланишини таъминлаш, минтақада сувдан адолатли фойдаланиш масалаларини тезкорлик билан ҳал этиш, Марказий Осиё давлатлари ҳудудлари (шу жумладан, чегарадош минтақалар) ўртасидаги ҳамкорликни фаоллаштириш, маданий-гуманитар соҳаларда биргаликда тадбирларни ўтказиш киради. Чунки “ён қўшни–жон қўшни” халқ мақолига таяниб, келажакимизни режалаштиришимиз давлатлар раўнақиға олиб келишиға ишончимиз комил.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Мустақилликка 29 йил очик, дўстона ва прагматик сиёсат. <https://adolat.uz/news/mustaqillikka-29-jil-ochiq-dostona-va-pragmatik-siyosat#!>

Президентимиз Шавкат Мирзиёев ўз Мурожаатида Марказий Осиё Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсатининг устувор йўналиши эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтди. Марказий Осиёда минтақавий ҳамкорликни ривожлантириш масалалари доимий равишда давлатимиз раҳбарининг диққат марказида, буни биз Президентимизнинг нуфузли минтақавий ва халқаро ташкилотларнинг юқори минбарларидан туриб минтақа масалалари бўйича илгари сурган таклиф ва ташаббусларида ҳам кўришимиз мумкин.

Президентимизнинг Олий Мажлисга Мурожаатларида Марказий Осиёни ташқи сиёсатимизнинг устувор йўналиши эканлигига яна бир бор урғу беришларининг қўйидаги муҳим жиҳатларини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим.

Биринчидан, Ўзбекистон Марказий Осиё минтақасининг узвий ва чамбарчас боғлиқ қисми ҳисобланади. Ўзбекистон Марказий Осиёнинг барча давлатлари билан чегарадош минтақадаги ягона давлат, яъни минтақадаги у ёки бу давлатдаги ҳар қандай сиёсий, иқтисодий ва маданий соҳадаги ўзгаришлар бевосита Ўзбекистонга таъсир қилади. Қолаверса, транспорт, иқтисодиёт, энергетика ва сув соҳасидаги йирик лойиҳаларни амалга ошириш минтақа давлатларининг ҳамкорлик даражасига боғлиқ. Шу муносабат билан, Марказий Осиёнинг барқарор ривожланиши ва гуллаб-яшнаши Ўзбекистон Республикасининг бош мақсади ҳисобланади.

Иккинчидан, барчамизга маълум, Марказий Осиё геостратегик минтақа ҳисобланади. Бунга, бир томондан, минтақанинг қулай географик ҳудудда, яъни муҳим минтақавий ва халқаро транспорт йўлаклари кесишмасида жойлашганлиги, бой табиий ресурсларга эга эканлиги сабаб бўлса, иккинчи томондан, Марказий Осиёнинг халқаро муносабатлар тизимида муҳим ўрин тутадиган Яқин Шарқ, МДХ ва Осиё давлатлари билан чегарадошлигидир. Бошқача қилиб айтганда, Марказий Осиё дунёнинг етакчи давлатларнинг манфаатлари кесишган ҳудуд ҳисобланади.<sup>1</sup>

Юқоридаги омиллар минтақада хавфсизлик ва барқарорликни таъминлашга фақатгина ўзаро тушуниш ва манфаатларга асосланган ҳамкорлик орқали эришиш мумкинлигини яна бир бор тасдиқлайди. Бу эса, ўз навбатида, Ўзбекистоннинг бугунги кундаги очиклик, яхши кўшничилик, стратегик шерикчилик, ўзаро ишонч ва мавжуд муаммоларни оқилона мураса йўли билан ҳал этиш тамойилларига асосланган мутлақо янги минтақавий сиёсати Марказий Осиёда барқарорлик ва изчил ривожланишни таъминлашда, минтақанинг ҳамкорлик маконига айланишида муҳим гаров сифатида хизмат қилишидан далолат беради.

Учинчидан, Парламентга Мурожаатномада Президентимиз томонидан Марказий Осиё давлатлари билан кўп асрлик дўстона муносабатларни яна-да мустаҳкамлаш масаласининг кўтарилганлиги, Ўзбекистоннинг минтақавий ҳамкорликнинг барқарор ривожланишига қатъийлигини ва кўшни давлатлар билан ўзаро манфаат ва ишончга асосланган ҳамкорликнинг узоқ муддатли харақтерга эга эканлигини яна бир қарра исботлайди.<sup>2</sup>

Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев Президент сифатида сайланганларидан кейин илк бор Марказий Осиё давлатлари билан ҳамкорликни ривожлантириш ташқи сиёсатимизнинг устувор йўналиши эканлиги тўғрисида 2016 йил 14 декабрда Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқида айтган эди.

Ўтган давр мобайнида эришилган ютуқ ва натижаларни таҳлил қилсак, бутун дунёда кўп томонлама ҳамкорлик инкирозга учраган ва ўзаро ишонч камайиб кетаётган бир вақтда Марказий Осиё давлатлари ўртасидаги ҳамкорликнинг янги босқичга чиқаётганлигини кўришимиз мумкин.

Тарихан қисқа вақт ичида Марказий Осиё давлатлари ўртасидаги муносабатларда мисли кўрилмаган ютуқларга эришилди. Энг асосийси, аввал минтақавий ҳамкорликнинг ривожланишида тўсиқ ҳисобланган чегара ва сув ресурсларидан фойдаланиш бўйича муҳим ва ўзаро манфаатли келишувларга эришилди. Президентимизнинг ташаббуслари билан ҳамкорликнинг янги механизмлари ташкил этилди. Бунга мисол сифатида Марказий Осиё давлат раҳбарларининг Маслаҳатлашув учрашувларини, парламентлараро гуруҳлар, чегараолди ҳудудлар ҳамкорлиги кенгаши, вазирлик ва идоралараро комиссиялар, инвестиция фондларининг ташкил этилганлигини айтиш мумкин.

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг минтақавий сиёсати Марказий Осиёда барқарор ва изчил ривожланишининг муҳим гарови. <http://isrs.uz/uz/smti-ekspertlari-sharhlari/uzbekistonning-mintakavij-siesati-markazij-osieda-barkaror-va-izcil-rivozlanisining-muim-garovi>

<sup>2</sup> Ўша манба.

Ўзбекистоннинг янги минтақавий сиёсати натижасида Марказий Осиёда шаклланган сиёсий муҳит бугун минтақа давлатларининг улкан иқтисодий салоҳиятини очишга муҳим ҳисса қўшмоқда. Юқоридаги гапларнинг тасдиғи сифатида Марказий Осиё давлатларида ташқи савдо айланмаси ва инвестиция ҳажмининг, туристлар сонининг ошганлиги мисолида кўришимиз мумкин.

Хусусан, 2019 йил минтақа давлатларининг ташқи савдо айланмаси ҳажми 2016 йилга нисбатан 56 фоизга ошиб, 168,2 миллиардни ташкил этди. Минтақа давлатларига жалб қилинган инвестициялар ҳажми эса 2019 йил 2016 йилга нисбатан 40%га ошиб, 37,6 миллиардни ташкил этди. Марказий Осиё давлатларига ташриф буюрувчи туристларнинг сони ҳам йилдан-йилга ортиб бормоқда. Мисол тариқасида минтақа давлатларига 2019 йил келган туристлар сони 2016 йилга нисбатан 93%га ошиб, 18,4 миллион кишини ташкил қилди.<sup>1</sup>

Мисрнинг етакчи нашрларидан бири – «Аль-Ахбар аль-Йаум» газетасида «Марказий Осиё давлатлари билан дўстона ҳамкорлик – Ўзбекистон ташқи сиёсий фаолиятининг устувор йўналиши» сарлавҳали мақола чоп этилган. Унда мирслик сиёсий шарҳловчи, етакчи журналист Фотима Бадави қаламига мансуб ушбу материалда сўнгги йилларда Ўзбекистон ички ва ташқи сиёсатида кузатилаётган кенг қамровли ислохотлар, очкилик ва янгиланиш жараёни ҳақида сўз боради.

Хусусан, Марказий Осиё минтақасидаги мамлакатлар билан барча соҳаларда ўзаро дўстлик, яхши кўшничлик ва стратегик шериклик руҳидаги муносабатларни сифат ва мазмун жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш борасида 2020 йил давомида ташқи сиёсий ва иқтисодий фаолият бўйича давлат идоралари томонидан 23 та олий даражада ва 12 та юқори даражада ташриф ва турли тадбирлар амалга оширилди. Бу жараёнда “халқ дипломатияси” амалда жуда фаол бўлгани кузатилди. Қайд этиш жоизки, сўнгги йилларда Президент Шавкат Мирзиёев ташаббусларининг кўшни давлатлар раҳбарлари томонидан қўллаб-қувватланиши натижасида Марказий Осиёда сиёсий мулоқот ва ўзаро ишонч мустаҳкамланди, давлат раҳбарларининг Маслаҳатлашув учрашувлари йўлга қўйилди.

Натижада минтақадаги икки ва кўп томонлама ҳамкорлик даражаси янги босқичга кўтарилди. Хусусан, 2017–2019 йиллар давомида Марказий Осиё мамлакатлари билан савдо айланмаси йиллик ўртача 50 фоиздан кўпроққа ўсди. 2020 йил натижаларига кўра эса глобал пандемия шароитига қарамай, Ўзбекистоннинг Марказий Осиё давлатлари билан савдо айланмасининг умумий ҳажми 5 млрд. долларни ташкил этди.

Мақолада қайд этилганидек, 2017–2020 йиллар давомида Ўзбекистоннинг Марказий Осиё мамлакатларига нисбатан очиқ, конструктив ва прагматик сиёсати натижасида сув ресурсларидан фойдаланиш, давлат чегараларини делимитация ва демаркация қилиш, транспорт коммуникацияларидан фойдаланиш, давлат чегараларини кесиб ўтиш каби мураккаб ва чалкаш муаммоларга ечим топилди.<sup>2</sup>

Бизга маълумки, Ўзбекистонда халқларимиз ўртасидаги қардошлик ришталари ўзаро ҳурмат ва дўстлик муносабатлари, маданий кадриятлар орқали узвий боғланганлиги ҳам ҳеч кимга сир эмас. Дўстлик – қудратли куч. Мамлакатимизда ички сиёсатида ҳам миллатлараро ҳамдўстликни юксак даражага олиб чиқиш борасида яхши ташаббуслар илгари сурилмоқда. 2017–2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегиясининг бешинчи йўналиши миллатлараро тотувликка қаратилгани, ҳар йили “Ўзбекистон – умумий уйимиз” фестиваллари ўтказилиши, турли миллат вакиллари билан иборат миллий маданий марказларнинг фаолият олиб бориши ҳам бу борада қилинаётган ишларнинг исботидир. Ўзбекистонда “Халқлар дўстлиги” кўкрак нишони таъсис этилиши ва ҳар йили 30 июль “Халқаро дўстлик куни” ҳамда 16 ноябрь “Халқаро бағрикенглик куни” арафасида топшириш таклиф этилди. “Халқлар дўстлиги” кўкрак нишони тўғрисидаги низомга кўра, кўкрак нишони билан ўзининг жонқуярлиги билан юртимизда яшаётган барча миллат ва элатларнинг вакиллари ўртасида миллатлараро дўстлик ва тотувлик муҳитининг мустаҳкамланишига муносиб ҳисса қўшган, миллий-маданий марказлар ва дўстлик жамиятлари фаолияти самарадорлигини ошириш борасида фидокорона меҳнат қилган, шунингдек, хорижий мамлакатлар халқлари би-

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг минтақавий сиёсати Марказий Осиёда барқарор ва изчил ривожланишининг муҳим гап-риви. <http://isrs.uz/uz/smti-ekspertlari-sharhlari/uzbekistonning-mintakavij-siesati-markazij-osieda-barkaror-va-cil-rivozlanisining-muim-garovi>

<sup>2</sup> «Аль-ахбар аль-йаум»: марказий осие давлатлари билан дўстона ҳамкорлик – ўзбекистон ташқи сиёсий фаолиятининг устувор йўналиши. <http://uzbekistan-geneva.ch/al-ahbar-al-jaum-markazij-osiio-davlatlari-bilandv-stona-%D2%B3amkorlik.html>

лан дўстлик ва ҳар тарафлама ҳамкорликни ривожлантиришда самарали натижаларга эришган фуқаролар тақдирланади.

Марказий Осиё давлатлари ва халқлари ўртасида ўзаро ҳамкорлик, дўстлик ва биродарликни яна-да мустаҳкамлаш ва ривожлантиришда яна қуйидагиларга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ деб биламиз:

Биринчидан, Марказий Осиё давлатлари халқлари тилларида уларнинг ижтимоий турмуш тарзини ёритиб борадиган “Марказий Осиё ҳаёти” кунлик интернет газетаси ва ойлик журналини ташкил этиш мақсадга мувофиқ.

Иккинчидан, минтақавий ҳаётни ёритадиган ва муаммоларни ўрганадиган журналистларни тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш лозим.

Учинчидан, Марказий Осиё мамлакатлари спортчилари орасида турли хил турнирларни ташкил этиш керак.

Тўртинчидан, минтақа халқлари ўртасида куда-андачиликни рағбатлантириш мақсадга мувофиқ.

Бешинчидан, минтақа давлатлари олий ва бошқа таълим тизими дипломларини ҳеч бир истисносиз тан олиши лозим.

Олтинчидан, Марказий Осиё давлатлари ўзаро маданият кунларини доимий равишда йўлга қўйиши мақсадга мувофиқ.

Еттинчидан, “Минтақа ҳаёти” номли телеканални йўлга қўйиш ва унда бу ерда яшовчи халқларнинг турмуш тарзи, ҳаёти ва янгиликлардан бохабар қилиш.

Саккизинчидан, олий ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлашдаги ҳамкорликнинг узоқ йилларига мўлжалланган минтақавий дастурни ишлаб чиқиш ва олимлар, ёзувчилар, шоирлар учрашувларини йўлга қўйиш зарур.

**Hamrayev Nodir (ToshDO‘TAU, yoshlar bilan ishlash,  
ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi xodimi; e-mail: [nodir\\_hamrayev@nbk.ru](mailto:nodir_hamrayev@nbk.ru))  
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINI TAKOMILLASHTIRISH – DAVR TALABI**

***Annotatsiya.** Maqolada ommaviy axborot vositalari, nodavlat radiolar, tashkil etilayotgan dasturlarning nomlanishida davlat tili qoidalariga e’tibor berilish holati, mavjud muammolar va ularning yechimi bilan bog‘liq ayrim xulosalar bayon qilingan.*

***Аннотация.** В статье описывается состояние внимания к правилам государственного языка в нейминге СМИ, негосударственного радио, организованных программ, существующие проблемы и некоторые выводы по их решению.*

***Annotation.** The article describes the state of attention to the rules of the state language in the naming of the media, non-governmental radios, the existing programs, the existing problems and some conclusions about their solutions.*

***Kalit so‘zlar:** radio, eshittirish, jurnalist nutqi, til, nodavlat radiokanali, davlat tili, adabiy til me’yorlari, yozuv, matbuot, davlat va nodavlat radiolar, so‘z, matn, tining ahamiyati, imkoniyatlari.*

***Ключевые слова:** радио, передача, публицистическая речь, язык, негосударственное радио, государственный язык, литературные языковые нормы, письмо, пресса, государственные и негосударственные радиостанции, слово, текст, важность языка, возможности.*

***Key words:** radio, broadcast, journalistic speech, language, non-state radio channel, state language, literary language norms, writing, press, state and non-state radios, word, text, importance of language, possibilities.*

Bugungi kunda dunyo global taraqqiyot davridan axborot asriga qadam qo‘ydi. Xabar oltinga teng ne’mat sifatida baholanmoqda.

O‘zbek jurnalistikasining o‘zining tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega.<sup>1</sup> Davrlar o‘tishi bilan zamon talablari asosida taraqqiy topdi, demokratik mazmun kasb etdi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Abduazizova N. Mustaqil O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. Toshkent, “Akademiya”, 2007.

<sup>2</sup> Do‘stmuhammad X. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. T., “O‘zbekiston”, 2005.

Ko'p millatli O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari ma'lumot yetkazishda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar targ'ibotida muhim o'rin tutadi.<sup>1</sup>

Albatta, zamon rivojlangan sari insonlarning axborot olish manbalari ko'lami kengayib bordi. Internet tarmoqlari tobora keng ko'lamni qamrab olayotgani sabab bosma nashrlarga bo'lgan talab bir muncha pasaydi. Hatto omma oldida bosma nashrlarga zarurat yo'qligi, barcha axborot internet orqali olinishi lozimligi haqida fikr-mulohazalar ham aytiladi. Internet tizimi axborot asrining muhim vositasiga aylandi. Axborot olishda qulay imkoniyatlar yaratildi. Ma'lumot olish tezligi va hajmi oshdi. Muhimi, isonning vaqti tejaldi, mehnati yengillashdi. Internet tarmoqlari axborot kommunikatsion texnologiyasi-ning yangi ko'rinishlari yaratish imkonini berdi. Natijada internet inson hayotining ajralmas qismiga, suv va havo darajasidagi ehtiyojga aylandi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarning keng yoyilishi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, axborot oqimining miqdor jihatdan ko'pligi va tarqalish tezligi ommaviy axborot vositalarining o'z imkoniyatlarini kengaytirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Internet tarmoqlari, butunjahon axborot to'ri kishilik jamiyatida katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan holda, ayrim cheklangan jihatlari borasida ham to'xtalamiz.

Birinchidan, internet ma'lumotlari turg'un emas, o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchidan, internetdan muntazam ravishda foydalanish inson salomatligiga zarar keltiradi.

Uchinchidan, bosma manbalar, kitoblar, davriy nashrlar mutolaa-sidan olingan zavq, ruhiyat, qoniqish hissini internet bera olmaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining ma'lumot almashishda muhim o'rin tutishini alohida ta'kidlash zarur. Jurnalistlar, birinchi navbatda, e'tibor berishlari lozim bo'lgan jihat – tildan foydalanish mahorati va nomlash san'atidir.

Axborot uzatishda raqobat kuchaygan bir paytda ommaviy axborot vositalari faoliyati talab darajasida bo'lishi, omma e'tiborini torta olishi, muxlislar talabini qondirishi zaruriy ehtiyojga aylandi.

Radio – ommaviy axborot vositalarining axborot tarqatuvchi keng tarqalgan turlaridan biri. O'z o'rnida radiojurnalistika sohasida ham bir qator o'zgarishlar kuzatildi. Dasturlar rang-barangligi, mavzu ko'lami hamda janrlar borasida innovatsion yondashuvlar ko'zga tashlana boshladi.

«Jurnalistikaning qaysi turi, shakli bo'lmasin, uning texnik imkoniyatlari nechog'li o'ziga xos bo'lmasin, jurnalistning birlamchi vositasi, quroli – til, so'z, matn! Jurnalist gapiradimi, ko'rsatadimi, yoza-dimi – har qanday holatda ham u yozadi! Jurnalistika – yozish san'ati, yozish iste'dodi, yozish mahorati orqali namoyon bo'ladigan o'ziga xos kasbdur!».<sup>2</sup>

Radio o'z tabiatiga ko'ra akustik vositadir, ya'ni bir vaqtning o'zida axborotni eshitishga va tushunishga mo'ljallangan. Radioeshittirish tovush ifodasi orqali amalga oshirilib, tinglash funksiyasiga ta'sir qiladi. Tinglab tushunish o'qib tushunishdan farq qiladi. O'qishda matnning katta yoki kichik shrift bilan ifodalanishi, shakli, rang tasvirlar, rasmlar, turli bezaklar bilan ziynatlanishi kitobxonga ta'sir qilish darajasini oshiradi. Tinglab tushunishda og'zaki matn ifodasidagi ohang, tovush tembri, musiqa bilan uyg'unlashtirish imkoniyati matnning tinglovchi shuuriga tez va ta'sirchan singishini ta'minlaydi. «Tovushli kitoblar» muallifi, adib I.Andronikov, tez orada hikoya qilish ko'pchilik uchun xos janr bo'lib qo'lishi, ko'p adiblar gapiruvchi adabiyot yuzaga keltirishini bashorat qilgan edi».<sup>3</sup>

Radioeshittirish dasturlari eng umumiy tarzda olganda ikki katta guruhga bo'linadi: ijtimoiy-siyosiy radioeshittirish va badiiy-publitsistik radioeshittirish. Birinchi guruh informatsion va targ'ibot xarakteridagi, shuningdek, bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan eshittirishlarni o'z ichiga olsa, ikkinchi guruhga adabiy-dramatik, publitsistik hamda musiqiy dasturlar kiradi.

Nodavlat va mustaqil radiokanallar xususida so'z borganida respublikamizda tobora ko'payib borayotgan FM to'lqinlaridagi radiokanallar xususida to'xtalish joiz. Ushbu to'lqinda efirga chiqadigan «Vodiy sadosi», «O'zbekim taronasi», «Oriyat dono», «Navro'z», «Zamin» singari radiokanallar juda qisqa fursatlarda ommalashib ulgurdi. Bu o'z-o'zidan bo'lmadi, albatta. Har bir radiokanal raqobat maydonida mustahkam o'rin egallash uchun harakat qiladi. Jurnalistlarning sa'y-harakatlari kasb etikasi, til va uslub nuqtai nazaridan tahlil qilinsa, ko'pgina mulohazalar tug'ilishi tabiiy.

Dasturlarning tipologiyasidan kelib chiqqan holda, ularning nomlanishi ham turlichadir. Nomlar shakliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, informatsion radioeshittirishlar, odatda, bir yoki ikki so'zdan iborat

<sup>1</sup> Abduazizova N. Ko'p millatli O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari masalasiga doir (O'zbekistonda millatlararo munosabatlar: tarix va hozirgi zamon. (ilmiy-amaliy anjuman), Toshkent, O'zMU, 2003.

<sup>2</sup> Do'stmuhammad X. Xalqaro jurnalistikada gumanitar huquq va kasb etikasi. Toshkent, 2011, 91–92-betlar.

<sup>3</sup> Xudayqulov M. Radiojurnalistika asoslari. Toshkent, 2005, 83-bet.

nomlar bilan ataladi va ular ot va ot+sifat soʻz turkumlaridan iborat boʻladi. Quyida radiodustur nomlarining uslubiy-semantik xususiyatlarida toʻxtalamiz.

Radioeshittirish nomlari orasida mavzu mohiyatini yoritib oladigan, uslubiy muvofiq tanlanganlari koʻp. Tahlil obyekti sifatida MTRK tasarrufidagi radio dasturlarni oldik. Ular orasida eng koʻp auditoriyaga ega boʻlgan radioeshittirish – bu «Davri yangiliklari» va «Davri hafta ichida» dasturlaridir. Bu dasturlar oʻz nomiga koʻra, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-maʼrifiy hayotidagi kundalik voqealarni yoritib boruvchi videodasturdir va bu dastur nomiga mos davri yangiliklaridan aholini xabardor qilishga moʻljallangan. Nomlardagi “davri” soʻzi zamonda kechayotgan voqe-hodisalarni rivojlantirishda, taraqqiyotda koʻrsatishga xizmat qiladi. “Yangiliklar” muhim maʼlumotlar xabariga qaratilgan boʻlsa, “hafta ichida voqealarning sodir boʻlish vaqtiga” ishora qiladi.

«Sport yangiliklari» dasturi ham nomiga mos tarzda mamlakatimiz va jahon sportiga oid eng soʻngi voqealar haqida tezkor axborot berib boradi.

«Azim daryo» – xalqimizning asrlarga teng nomoddiy madaniy merosini targʻib etuvchi dastur. Eshittirishda xalq ogʻzaki ijodining eng yirik janri hisoblangan dostonlar mutaxassislar, baxshilar va, albatta, talaba yoshlar ishtirokida eʼfirga olib uzatiladi. Dastur tinglovchida insonparvarlik tuygʻularini kuchaytirishga, yoshlarning xalq ogʻzaki ijodiga boʻlgan qiziqishini oʻrttirishga xizmat qiladi. Shu oʻrinda dasturning nomlanishi haqida toʻxtalsak. Aslida, bu eshittirish nomi azim “katta”, “ulkan” maʼnosidagi soʻz boʻlib, xalq ogʻzaki dostonlarining hajmiga va qadimligiga ishora qiladi. “Daryo” soʻzi “tuganmas”, “barhayot”, “boqiy” maʼnolarini anglatadi. Nom xalq ogʻzaki ijodining tengsizligi, cheksizligi, azaliy va abadiylikka ishora qiladi.

Radioeshittirishlardan yana biri «Biznes-konsultant» boʻlib, u yoshlarda tarbirkorlik koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Dasturda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik loyihalarni ishlab chiqish tartiblariga, yosh tadbirkorlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, marketing va yangi texnologiyalarga, tadbirkorlikning iqtisodiy huquq va erkinliklarini kengaytirishga, biznes sirlarini oʻzlashtirishga qaratilgan maslahatlar berib boriladi. Bu dastur nomi oʻz uslubiy xususiyatiga koʻra, toʻgʻri tanlangan va mohiyatan koʻzlangan maqsadni ifoda etgan. “Biznes” soʻzi radioeshittirishning kimlarga qaratilganini taʼkidlasa, “konsultant” soʻzi dasturning mazmun-mohiyatini aks ettirgan.

«Radiopatrul» dasturi oʻz nomiga mos ravishda yoʻl harakati bilan bogʻliq favqulodda hodisalar toʻgʻrisida tezkor xabarlar tarqatuvchi hamda yoʻl harakati qoidalarini borasida aholiga keng bilim beruvchi informatsion-tahliliy yangiliklarni eʼfirga uzatadi. Haftada bir bor toʻlqinlarda namoyon boʻladi.

Yana bir dastur «Gulshan aro gulchehralar...» nomli ilmiy-maʼrifiy radioeshittirish boʻlib, haftada bir bora eʼfirga uzatiladi. Oʻzbek xalqi azaldan qizlar tarbiyasiga katta ahamiyat berib keladi. Ularga xos boʻlgan andisha, ilmga, hayotga va oʻz oʻrnini topishga intilish, zamonaga xos bilim va xarakterga ega boʻlish bilan birga farzand tarbiyasidagi masʼuliyat, qadriyatlarimizni qadrlash eshittirishning asosiy mavzusi qilib olinadi. Dastur nomidagi “gulshan” gullab-yashnayotgan yurtimizni ifoda etadi, “gulchehra”, birinchi navbatda, gul qiyofali goʻzal, orasta qizlarni anglatadi, qolaversa, qizlar ismiga ham ishora qiladi.

Shu bilan bir qatorda, ayrim dastur nomlari maʼno va uslubiy jihatdan mos emas. Masalan, mazmun-mohiyati va janriga koʻra, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahamiyatga ega boʻlgan «Menga soʻz bering» radiodasturining nomlanishi ham munozarali. Sababi eshittirishda demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish, turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi yoshlarda immunitetni shakllantirish borasida yoshlarning mulohazalari yoritiladi. Munozarali ekanligining boisi shuki:

– birinchidan, tanlangan nom gap shaklida. Koʻrsatuv va eshittirishlar nomi soʻz, qoʻshma soʻz, birikma shaklida boʻlgani maʼqul. Ikkinchidan, ijtimoiy-siyosiy janrlarni yorituvchi radiodastur soʻzlashuv uslubiga xos nomlangan. Dasturni “Yoshlar ovozi” yoki “Yoshlar fikri” deb nomlagan maʼqul edi, bizningcha.

Informatsion-tahliliy radiodasturlardan yana biri – «Yuridik klinika» eshittirishidir. Bu dasturda mamlakatni demokratik yangilash, inson huquqlari va erkinliklarini himoya etish borasida yoshlar dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladigan eshittirishlar taqdim etiladi. «Savol sizdan» deb nomlangan sahifda tinglovchilarning savollariga mutaxassis javobi taqdim etiladi. Shuningdek, mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilingani, korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi milliy qonunchilik tizimi yaratilganligi, korrupsiyaning mamlakat milliy xavfsizligiga tahdidlardan biri deb eʼtirof etilgani va unga qarshi olib borilayotgan kurash usullari haqida soʻz yuritiladi.

Shu yerda eshittirish nomidagi «klinika» soʻzi hech qanday maʼno anglatmayotganligiga guvoh boʻlishingiz mumkin. Bu soʻz uslubiy xususiyatiga koʻra ham ishlatilish oʻrni va mazmuni jihatidan ham mos tushmagan.

Radioda yana turkum eshittirishlar ham mavjud boʻlib, uni bir yoki bir nechta boshlovchi olib borishi mumkin. Aksariyat holatlarda esa turkum eshittirishlar bir boshlovchi tomonidan oʻqib eshittiriladi. Bunday paytlarda baʼzi bir nomutanosibliklar ham kelib chiqishi mumkin. Filologiya fanlari doktori Sanjar Sodiq “Oʻzbekiston” radiokanali orqali berilgan “Yulduzli tun” turkum eshittirishlaridan birida “Oʻtgan kunlar” romanidan sahifalar oʻqilgani, unda Kumushbibining Otabekka yoʻllagan xatini erkak boshlovchi oʻqiganini mutlaqo notoʻgʻri deb hisoblaydi.<sup>1</sup>

Bunda unga qoʻshilmasdan ilojimiz yoʻq.

Shuni ham aytib oʻtish kerakki, radioda tilga eʼtibor masalasida muammolar mavjud. Shevada gapirish, tinglovchilar bilan erkin ohangda muomala qilish, ortiqcha pafosga berilish, boshlovchilarning professional kasbiy mahoratining yetishmasligi hali bu sohada qilinishi kerak boʻlgan ishlar borligidan dalolat beradi.

**Urazmetov Ravshanbek (UrDU oʻqituvchisi), Yoʻldashova Maftuna (UrDU talabasi)**  
**ILMIY-FANTASTIK MATNLARDA XRONOTOP**

***Annatsiya.** Mazkur maqolada ilmiy-fantastik matnlarda xronotopning oʻziga xos yoʻnalishda voqelanashi haqida fikrlar bayon qilingan. Ilmiy-fantastik matnlarda turli zamon va makon munosabatlarining namoyon boʻlishi haqida fikr yuritilgan. Ilmiy-fantastik matnlarda bayon qilinayotgan voqealar turli zamon-makon munosabatlari bir necha omillarga bogʻliq ekanligi yoritib berilgan.*

***Аннотация.** В статье обсуждается идея о том, что хронотоп встречается определенным образом в научно-фантастических текстах. Считается, что тексты научной фантастики отражают отношения между временем и пространством. События, описанные в научно-фантастических текстах, объясняются тем фактом, что отношения между временем и пространством зависят от нескольких факторов.*

***Annotation.** This article discusses the idea that the chronotope occurs in a specific direction in science fiction texts. Science fiction texts are thought to reflect the relationship between time and space. The events described in the science fiction texts have been explained by the fact that the relationship between time and space depends on several factors.*

***Kalit soʻzlar:** xronotop, xronologik tartib, davriylik, kommunikativ-pragmatik mazmun, temporal tizimlar, retrospeksiya, prospeksiya, pragmatik maydon, diskurs, pragmatolingvistika.*

***Ключевые слова:** хронотоп, хронологический порядок, периодичность, коммуникативно-прагматическое содержание, временные системы, ретроспектива, проспект, прагматическое поле, дискурс, прагматлингвистика.*

***Key words:** chronotope, chronological order, periodicity, communicative-pragmatic content, temporal systems, retrospective, prospectus, pragmatic field, discourse, pragmatlinguistics.*

Makon va zamon – mavjudlikning asosiy belgisi ekanligi barchaga maʼlum, badiiy tasvirda esa ular oʻzgacha xislatlarga ega boʻlishi, oʻzgarishi, biri ikkinchisiga oʻtishi mumkin. Shuning bilan birgalikda, badiiy matnda zamon-makon munosabatlarining namoyon boʻlishi asarning qaysi janriga oidligi bilan bogʻliqdir. Shu jumladan, ilmiy-fantastik matnlarda xronotop oʻziga xos yoʻnalishda voqelanadi. Badiiy adabiyotning alohida shakli boʻlgan ushbu janr, bir tomondan, olamni bilishning mantiqiy asosi boʻlgan ilm-u fan bilan bogʻliq holda rivojlansa, ikkinchi tomondan, insonning xayoliy ijodi, toʻqimalar, xayolot dunyosini yaratish qobiliyati mahsulidir. Bunga, hatto janrning nomlanishi ham aniq ishora qilib turibdi: science – fiction – «ilmiy toʻqima».

Bu janrdagi asarlarda yoritilayotgan hodisalar ham xayoldagi toʻqimalar boʻlib, ular kechayotgan zamon, makon muallifining «kashfiyoti». V.P.Beyaninning taʼbiricha, fantastik bayonda voqealar ikki (baʼzan uch) «qavatli» zamon-makon maydonida kechadi. Bulardan birinchisida voqealar muallif hozir bayon qilayotgan badiiy zamon dahrasida kechsa, ikkinchisi, oʻtgan yoki kelgusi zamonlarda xayol qilinayotgan voqealar bayonidir. «Uchinchi qavat» esa zamon ilmiy-fantastik adabiyotlarning ayrimlarida yuzaga kelib, unda zamon tasavvuridagi davriylik butunlay buzilib, voqealar kechayotgan davrni aniq ta-

<sup>1</sup> Sodiq S. Radiojurnalistika asoslari va audiovizual jurnalistika. Toshkent, “Mumtoz soʻz”, 2010, 36-bet.

savvur qilish qiyinlashadi. Masalan, «Alisa sarguzashtlar olamida» asarining muallifi L.Kerrolning aytishicha, «trans holatiga tushgan odam, aniqrog‘i, uning nomoddiy gavdasi, atrofidagi voqelikni sezmasdan uyqu holatiga o‘tib, sehrli (g‘aroyib) olamga o‘tib qoladi».<sup>1</sup>

Ilmiy-fantastik matnlarda zamon doimiy harakatda, undagi davriylik almashinadi, ya‘ni o‘tmish voqealar hozirgi yoki kelajak zamonlar bilan bog‘lanib ketadi, ba‘zan o‘z harakatini sekinlashtiradi yoki tezlashtiradi, ba‘zan «bekat» izlab to‘xtab ham turadi. Bolgar matnshunosi Todorov ilmiy-fantastik matnlarda xronotop yaqqol ko‘zga tashlanuvchi lisoniy ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, tamoman to‘xtab qolishi, hatto yo‘qolib qolishi mumkinligini e‘tirof etgan.<sup>2</sup>

Ilmiy-fantastik matnlarning xronotop tuzilishi murakkab bo‘lib, matnda bayon qilinayotgan voqealar zamon-makon munosabatlari bir necha omillarga bog‘liq. Ushbu munosabatlarni idrok etish uchun o‘quvchi tarixiy voqealar, raqamlarni bilishi kerak, fandagi yangiliklardan xabardor bo‘lishi, kashfiyotlar sanalari haqida ma‘lumotga ega bo‘lmog‘i darkor.

Yuqorida aytilganidek, ilmiy-fantastik matnlarning xronotop strukturasi «ko‘p vakantli» bo‘lib, unda ikki, ba‘zan undan ham ortiq temporal tizimlar o‘zaro munosabatga kirishadilar. Tadqiqotchi M.A. Gornostayev guvohlik berishlaricha,<sup>3</sup> nemis tilshunosi H.Vaynrix bundan ko‘p yillar oldin zamon shakllarining matndagi vazifasi vaqtni ifodalash bo‘lmasdan, balki ikki kommunikativ hududni, ya‘ni, «muho-kama va bayon qilinayotgan voqelikni» olam idrokining ikki yo‘nalishi sifatida ajratish hamda lisoniy voqelantirishdan iborat ekanligini uqtirishga harakat qilgan edi.<sup>4</sup>

Badiiy kommunikatsiyada turli «olamlar» uchrashuvi kutilgan hol. «Muhokama qilinayotgan» va «bayon qilinayotgan» olamlar tasviri matnda temporal mazmunining o‘ziga xos dixotomiyasini shakllantiradi. Shu sabab bu matn temporal strukturasi tahlilida ushbu qarama-qarshi zamon ko‘rsatkichlarining faollik doirasini qiyoslash muhimdir.

Ilmiy-fantastik mavzudagi hikoyalarning janr xususiyatlaridan biri ularda monolog-dialogik nutq bilan o‘zaro bog‘lanib ketishidadir. Matnlarning monologik qismida o‘tgan zamon formasida bayon temporallikning asosiy yo‘nalishini belgilab beradi. O‘tgan zamon, odatda, voqealar xronologik ketma-ketligini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Ammo ilmiy-fantastik asarlarda bu ketma-ketlik bir tekisda kechmasdan, turli ko‘rinishlarni oladi ham turlicha kommunikativ-pragmatik mazmunni shakllantiradi.

Ba‘zi asarlar matnida voqealar kechishi juft yoki parallel yo‘nalish olishi kuzatiladi. Voqealarning bunday parallel xronologiyasi ikki (real va to‘qima) olam tasvirida ko‘proq o‘rin oladi. Bundan tashqari, juft xronologiya muallif va personajning eshlari visitasida oldingi (o‘tmishda) kechgan hodisalarni batafsil bayon qilish ehtiyoji natijasida yuzaga keladi.

O‘tgan zamonning badiiy kommunikatsiyada faollashuvida nutq odatdagidek vaziyatidan oldingi harakat ifodalanmaydi, balki bunda badiiy bayonning hozirgi onlari aks topadi. O‘tgan zamon shaklida ifodalanayotgan badiiy hozirgi zamon matn mazmunining obrazlilik, ko‘chma xususiyatlarini ta‘kidlaydi va bu, o‘z navbatida, soxta faollik tasavvurini uyg‘otadi. Natijada o‘quvchi bayon qilinayotgan to‘qima faktlarni xuddi haqiqatdek qabul qila boshlaydi. Muallifda o‘quvchini o‘zi tasvirlayotgan soxta yoki ehtimolli dunyoga ko‘chirib o‘tish imkoniyatining tug‘ilishi badiiy zamonning matnda yaxlit struktura sifatida namoyon bo‘lishi natijasidir.

Ilmiy-fantastik asar matnida voqealar kechishida xronologik tartibning buzilishi retrospektiv va prospektiv ko‘rinish oladi. Davriylik tartibi buzilishining eng ko‘p uchraydigan retrospeksiya muallifning o‘tmishga «sayyohati», o‘tmish voqealarini eslashi bilan bog‘liq hodisadir. Retrospektiv tasvirni yaratishda o‘tgan va hozirgi zamon bir xilda ishtirok qilishi mumkin.

Voqealar bayonidagi ketma-ketlikning buzilishi prospeksiya holatida ham kuzatiladi. Badiiy asarda prospeksiya jarayoni ikki yo‘nalishda keladi. Birinchisida o‘tgan zamon bayoni hozirga ko‘chsa, ikkinchisida hozirgi va kelasi zamonlar o‘rin almashadi.

Grammatik birliklarning diskurs sharoitida faollashuvi va ularning pragmatik imkoniyatlarining voqelanishini o‘rganish pragmalogiklikning muhim vazifalaridandir. Har qanday lisoniy birlik pragmatik

<sup>1</sup> Белянин В.П. Психологическое литературоведение. Текст как отражение внутреннего мира автора и читателя. М., «Генезис», 2006, с. 195.

<sup>2</sup> Тодоров Ц. Введение в фантастическую литературу. Перевод с французского Б.Нарумова. М., «Дом интеллектуальной книги», 1997 (Introduction à la littérature fantastique, Seuil, 1970).

<sup>3</sup> Горностаев М.А. Грамматическая семантика перфекта и его стилистические функции в немецкой художественной прозе XIX–XX вв. Автореф. дисс...канд.филол.наук, Л., 1981, с. 9.

<sup>4</sup> Weinrich H. Tempus. Besprochene und erzählte Welt. Stuttgart, 1971.



ma'no ifodalashga qodir. Pragmatik ma'no lisoniy tuzilmalar mundarijasidan o'rin olib, nutq subyekti (asar muallifi)ni axborotni qabul qiluvchi adresat bilan bog'laydi. Badiiy muloqotda, so'zsiz, axborotni qabul qiluvchi va idrok etuvchi shaxs-o'quvchidir. O'z paytida akademik D.S.Lixachev san'at asari adresanti haqida gapirib, bunday asarlardan olinadigan estetik taassurot olingan axborotdan tashqari, idrok etuvchi shaxsning asarga munosabati bilan ham bog'liq ekanligini uqdirgan edi.<sup>1</sup> Lisoniy vositalarning ekspressivlik vazifalari ularning berilayotgan axborotning ayrim jihatlarini alohida bo'rttirib, ta'kidlab ifodalash yo'li bilan adresat ruhiyatiga, xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarida namoyon bo'ldi.

Zamon va aspekt kategoriyalariga oid birliklarning pragmatik, estetik vazifalari muntazam tadqiq qilinib kelinmoqda. «Matn sathida, deb yozadi Z.Y.Turayeva, zamon va aspekt shakllari integrativ munosabatlarga kirishadilar. Paradigmatik sathdagi qarama-qarshiliklar qatoriga matnga xos kategoriyalar ham qo'shiladi va zamon-aspekt shakllarning semantik vazifalari murakkablashadi».<sup>2</sup> Matn bo'laklari turli kategoriyalarning integratsiyalashuvi lisoniy maydon yaxlitligining ramzidir. Til pragmatik maydonining yaxlitligi turli sathlarga oid birliklarning integratsiyasini talab qiladi. Jumladan, morfologik birlik sifatida qaraladigan zamon-aspekt shakllari matn tarkibiy elementi mavqesiga ega bo'lishi zahotiyoyq, ularning vazifaviy doirasi kengayadi. Asosiy grammatik ma'nolar matn tarkibida qo'shimcha ma'nolar hisobidan bo'yiydi. Bunday ma'nolarni olish uchun har qanday sathga oid birlik matnning yaxlit semantik tuzilma sifatida shakllanishiga o'z «hissasini» qo'shishi kerak. Kontekst tahlili til birliklarining matn pragmatik maydonidan egallaydigan o'rnini aniqlash imkonini beradi.

Imiy-fantastik matnlarga xos bo'lgan to'qima voqealar bayoni bilan mashg'ul bo'lgan muallif nutqi ko'proq hozirgi zamonga yaqinlashishga intiladi. Muallif fantaziyasi o'quvchini voqealar ishtirokchisi bo'lishga, xayolotni haqiqat kabi idrok etishga chaqiradi. Voqealarni o'quvchi ko'z o'ngida sodir bo'layotgandagi ruhda tasvirlash istagi muallifni jarayonlarni hozir davom etayotganligini ifodalovchi til birliklarini tanlashga majburlaydi. Aks holda, muallifning pragmatik maqsadi amalga oshmasdan qolishidan tashqari, badiiy effekt yo'qoladi va intellektual axborotni yetkazish qiyinlashadi.

**Қаршибаева Улжан (ф.ф.д., СамДЧТИ)**

#### **ВИКТОР ГЮГОНИНГ “ДЕНГИЗ ЗАҲМАТКАШЛАРИ” РОМАНИ ПОЭТИКАСИ**

**Аннотация.** Мақолада Виктор Гюгонинг 1851–1870 йилларда ёзган йирик романлари универсализми ҳамда “Денгиз заҳматкашлари” романи таҳлил қилинган. Асардаги оддий, заҳматкаш денгизчи, очиқ қалб ва метин иродали йигит Жильят ва «Дюранда» номли кема хўжайини жаноб Летъери образлари таҳлили орқали асар поэтикаси очиб берилган.

**Аннотация.** В статье проанализированы основные романы, которые написаны Виктором Гюго в 1851–1870 годах, а также универсализм романа “Труженики моря”. Поэтика произведения была раскрыта анализом образов простого, трудолюбивого моряка, молодого человека с открытым сердцем и твердой волей и хозяина судна “Дюранда” г-на Летъери.

**Annotation.** The article analyzes the main novels written by Victor Hugo in 1851–1870, as well as the universalism of the novel “The Toilers of the Sea”. The poetics of the work were revealed through the analysis of the images of a simple, hardworking sailor, a young man with an open heart and concrete will and a ship cell named “Dyuranda” Mr.Leteri.

**Калим сўзлар:** романтизм, драматургия, ижтимоий-сиёсий, роман, сюжет, дин, жамият, табиат.

**Ключевые слова:** романтизм, драматургия, социально-политический, роман, сюжет, религия, общество, природа.

**Key words:** romance, dramaturgy, socio-political, novel, plot, religion, society, nature.

Виктор Гюго XIX асрнинг 20-йилларида шоир ва романист сифатида адабий жараёнга кириб келди. 1820–30-йиллар давомида француз адабиёти ва санъатида романтизм ақидаларининг тантанаси бевосита Виктор Гюго ижоди билан боғлиқ, десак, адашмаган бўламиз. Гарчи XVII–XVIII

<sup>1</sup> Лихачев Д.С. Несколько мыслей о неточности искусства и стилистических направлениях. Исследования по языку и литературе. Памяти академика В.М. Жирмунского. Л., «Наука», 1973, с. 394.

<sup>2</sup> Тураева З.Я. Художественный текст и пространственно-временные отношения. Семантико-стилистические исследования текста и предложения. Л., 1980, с. 7.

асрларда француз шеърляти ва дараматургиясида ҳукмрон бўлган абсолют монархияга хизмат қилувчи классицизм санъати ақидалари ўз ўрнини романтизмга осонликча бўшатиб берган эмас.

1851–1870-йиллар қувғиндалиқ даврида Виктор Гюго ўзининг шоҳ асарлари “Хўрланганлар” (Les Misérables, 1862), “Денгиз заҳматкашлари” (Les Travailleurs de la mer, 1866), “Кулиб турувчи киши” (L’Homme qui rit, 1869) романларини, “Интиком” (Les Châtiments, 1853), “Мушоҳадалар” (Les Contemplations, 1836) каби шеърлий китобларини яратди. Қарийб йигирма йил ватандан йироқда яшаган адиб император Луи Бонапарт режимига қарши курашди, ўз асарларида халқ эркини, озодлик ва тенглик ғояларини тараннум этди. Даврнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётини ўзида ифода этувчи романларидаги Жан Вальжан, Жильят, Гуинплен каби иродали, табиат ва жамиятнинг ноинсоний қонунлари, инжиқликлари олдидан бош эгмаган олижаноб қиёфали образлар ёзувчи дунёқарашининг маҳсули сифатида гавдаланади.

Адибнинг «Денгиз заҳматкашлари» (Les Travailleurs de la mer, 1866) романи Норманд ороларида яшаган даврида ёзилган бўлиб, унда ерли халқ – заҳматкаш балиқчиларнинг оғир турмуши тасвирланади. Оддий денгизчи, очик қалб ва метин иродали йигит Жильят ва «Дюранда» номли кема хўжайини жаноб Летьери мол-дунё қулига айланган бир тўда очкўз кимсалар билан рақибона курашадилар. Асарда ҳалол-покиза Жильят ўз севгисига эришмоқ ниятида табиат билан яккама-якка олишаркан, унинг сабр-тоқати, олижаноблиги худди Прометей тимсолида гавдалантирилади. Роман мазмунидаги инсоний фазилатлар ҳамда гуманистик мушоҳадаларнинг кўтаринки руҳда, романтик кайфиятда тасвирланиши ўқувчида катта қизиқиш уйғотади. Роман 1956 йилда Нурбек ва Э.Миробидов томонидан ўзбек тилига таржима қилинган.

“Денгиз заҳматкашлари” (“Les Travailleurs de la mer”, 1866) романи биринчи нашри муқаддимасида Гюго илгари ёзилган учта романидаги ҳар бирининг ғоясини, имкон борича, умумлашган кўринишда таърифлаб беради. Уларда ёзувчи учта тақдир, учта ёзмиш – дин, жамият, табиатни тасвирлаган, қайсики улар билан инсон тўхтовсиз кураш олиб боришга мажбур (la religion, la société, la nature, telles sont les trois luttes de l’homme)<sup>1</sup> – дин, жамият, табиат, бу одамлар курашининг мазмуни.

Бирок “илоҳийлик” тушунчаси Гюго наздида, диний ақидалардан жуда узоқ. Рус адабиётшуноси Е.М.Евнина ёзганидек, “Худо” тушунчаси Гюго учун “маънавий-ахлоқий идеал” тушунчасининг синонимини англатади. Бу ички бир овоз, у инсонга ҳақиқат қаерда ва ёлғон қаердалигини билдиради, бу эзгу-хайрлилик боши, у кўзга кўринмайдиган ҳолда бутун оламда, бутун коинотда қоронғилик ва ёвузликка доимий қарши ҳаракатда мавжуд бўлади.<sup>2</sup>

Айният фалсафаси Гюгонинг ижодий усулига ҳам бевосита катта таъсир ўтказган. “Символизм руҳидаги таққослашда, – ёзади Б.Г.Реизов,– Гюго ўз фалсафасини, ўзининг “дунёни поэтик ҳис этиш”ини ифода қилиш шаклини излайди. Шоирона символизм у учун қандайдир бир муҳим нарсани – жаҳон миқёсидаги бирдамлик қарор топишини, бутун олам маънавий-ахлоқий мазмун-моҳиятини, дунё узлуксиз такомиллашини англатади”.<sup>3</sup> Аслини олганда, бу жараён романтизм руҳидаги эстетик ривожланиш йўлида борапти.

Ёзувчининг символизм руҳидаги таққослаш чегаралари бепоён кўринади. Гюго гувоҳликка мустасносиз бутун борлиқни чакиради. Ёзувчи символизм руҳидаги муқоясаларни топиб ололмаган соҳани кўрсатиш қийин вазифа бўлар эди. Мифологиядан ташқари, бу ерда дин, маданият, табиат, тарих, тўғриси айтганда, инсониятнинг бутун руҳий-маънавий ва моддий дунёси мавжуддир.

Ёзувчи инсониятни тавсифлашда бошқа даражадаги синонимиядан ҳам фойдаланади. Масалан, “Денгиз заҳматкашлари” романидан бир парчада битта ўзақдан ўсиб чиққан бир неча сўзларни келтириб, Гюго исм-номлар умумийлигини (бир хиллигини) тасдиқлайди ва шу орқали уларни ифодаловчиларни умумийлигини (бирлигини) ҳам исботлайди: *Après avoir créé ce bateau à vapeur, Lethierry l’avait baptisé. Il l’avait nommé Durande. La Durande, – nous ne l’appellerons plus autrement. On nous permettra également, quell que soit l’usage typographique, de ne point souligner ce nom Durande, nous conformant en cela à la pensée de mess Lethierry pour qui la Durande était presque une personne.*

*Durande et Déruchette, c’est le même nom. Ce diminutif est fort usité dena l’ouest de la France.*

<sup>1</sup> Hugo V. Les Travailleurs de la mer. Paris, Club des Amis du Livres progressiste, 1966, p. 3.

<sup>2</sup> Евнина Е.М. Виктор Гюго. М., “Художественная литература”, 1976, с. 208.

<sup>3</sup> Реизов Б.Г. Пьер Леру и “символический стиль”. Из истории европейских литератур. Л., 1970, с. 226.

*Les saintes dans les campagnes portent souvent leur nom avec tous ses diminutives et tous ses augmentatifs. On crairait à plusieurs personnes là où il n'en a qu'une... Lise, Lisette, Lisa, Elisa, Isabelle, Lisbeth, Betsy, cette multitude est Elisabeth. Il est prorable que Mahout, Maclou, Malo et Magloire sont le même saint.*<sup>1</sup>

Durande va Déruchette исмларнинг бир-бирига яқинлиги (қардошлиги) нафақат кема эгасининг ўз кемасига ва ўз тарбиясида ўсган қизга бўлган бирдек барабар садоқат ва меҳр-муҳаббат туйғусининг исботи сифатида хизмат қилади. Ёзувчига ҳис-туйғу ва оташин эҳтиросларга бутун вужуди билан берилган одамнинг ўз қўллари билан яратган асарларга абадий ҳаёт бағишлаш қобилияти ҳақидаги фикрни ифода этиш муҳимдир (Галатейя ҳақидаги афсонанинг янги талқини). Ономастикага асосланиб, муфассал очиб кўрсатилган мисол эса ушбу ғоянинг жонли чегараларини гўё кенгайтиргандек туюлади.

Шу каби контекстда (период қисқалиги ёки вақтга боғлиқ кўрсаткич) феълнинг ўтган замон тугалланмаган шакли (*imparfait*) *passé simple* функциясига эга бўлади:

*...Deux chandelles pasées sur la table éclairaient Gilliatt de la tête aux pieds.*

– *Qu'il est beau! Cria Lethierry.*

*Gilliatt était hideux.*<sup>2</sup>

– *...стол устига қўйилган иккита шам Жильятнинг бошидан оёғигача ёритиб турарди.*

– *Қандай гўзал! Хитоб қилди Летьерри.*

*Жильят хунук эди.*

Харакатни бир лахзада ўтишини англатадиган *imparfait*даги феъллар муаллифда ўша лахза-ни (пайтни) тўхтатиш зарурияти туғилиб қолса, анча кенгроқ контекстга қўйилиши ҳам мумкин. Бу дунё миқёсидаги муаммо бўлиши учун ҳодиса ёки ҳаракат жузъий бир ҳол доирасидан чиқиб кетганда содир бўлади, ўшанда *imparfait* яна бир вазифани, яъни универсаллик, вақтга тааллуқсизлик функциясини бажара бошлайди.

Баъзан жараённинг доиралари чексизликкача кенгайиши мумкин. Масалан, “Денгиз захматкашлари” романида, Жильят денгиз бўронини кутиб олишга тайёрланаётган сахналарда Гюго жил-ловлаб бўлмайдиган денгиз табиий кучини, шиддатли довул манзарасини тасвирлайди, ёзувчи бунга тўртта бобни бағишлаган, қайсики улар тўртта қисқа абзац билан тугайди:

*Nous venons de le dire, le Vent, c'est tous les vents.*

*Toute cette horde arrivait.*

*D'un côté, cette legion.*

*De l'autre, Gilliatt.*<sup>3</sup>

*Биз шамол дейишимиз биланоқ шамол бошланади.*

*Бу тўдалар ёприлиб келишди.*

*Бир томондан бу легион,*

*Бошқа томондан Жильят.*

Бундай яқунланишнинг синтактик тузилиши чуқур маъно-мазмунга эга. Денгизнинг бутун куч-қудрати худди кичик бир нуқтага ёпирилиб ташлангандек ва Жильятнинг куч-қуввати йўққа чиққандек туюлади. Аммо ушбу бир-бирига тенг бўлмаган қарама-қарши қўйишда диалектикага асосланган ихтиёрий равишда ҳамма нарсадан воз кечиш мавжуддир, чунки фактни ўзи қаҳрамон фойдасига ўйнайди. У ерда миқдорий устунлик бўлса, бу ерда сифат устунлиги мавжуд. Катта ва кичик нафақат тенглашади, балки кичик анча оғир келади, негаки ушбу кичик нарса – ИНСОН. Қисқагина абзац: *De l'autre, Gilliat* – даҳшатли ва ваҳимали табиий кучларнинг енгилмаслиги нотўғрилигини исбот қилади, бу билан қаҳрамон инсоннинг тантанавор ғалабаси таъкидланади.

Виктор Гюго асарларида сюжет ривожини йил фасллари, ойлар, кунлар, соатлар, ҳатто дақиқаларни ғоят синчковлик билан ҳисоблаб санаб чиқишга мажбур қилади.

Хронологияга риоя қилиш, романда орқага қайтиш ёки келажакка назар ташлаш йўқ, дегани эмас, асло. Вақтга доир қатламлар, бир-бири билан ўралашиб кетиб ва ўзаро боғланган ҳолда ҳаракат қилиб, ўз-ўзидан мураккаб ва бир чизиклига, асло, ўхшамайдиган структурани ҳосил қилади. Ҳатто тарихий роман ҳисобланмаган “Денгиз захматкашлари” романида ҳам эллиқ мартадан ортик

<sup>1</sup> Hugo V. Les Travailleurs de la mer. Paris, Club des Amis du Livres progressiste, 1966, p. 68.

<sup>2</sup> Ўша ерда. 415-бет.

<sup>3</sup> Шу манба. 313–323-бетлар.

аср ёки йил тилга олинади. Гюго асарларида саналар кўплиги, ҳатто бир ерга тўпланганлиги ҳақида бемалол гапириш мумкин.

Хулоса қилганимизда, универсализм, воқеа-ҳодиса ёки шахсни бадий умулаш Виктор Гюго романларида ҳам дунё ўзининг чексиз ва ранг-баранг бойлиги, ўзининг кўринишлари хилма-хиллиги ва кўплиги орқали намоён бўлади. Буюк адиб асарларининг пафоси ҳам айнан шундадир.

Гюго романларида айрим бино, иншоотлар тасвири (Биби Марьям Собори – Жомеъи), айрим ҳайвонлар (саккизоёқ, “Денгиз захматкашлари”) универсаллик касб этиб, тимсолларга айланади. У асарларида воқеа ва характерлар тасвирида аниқ хронотопни – вақт ва маконни кўрсатиш билан бирга, уларга тааллуқли ахлоқий, маънавий, фалсафий масалаларни барча маконларга ва замонларга тааллуқли универсал масалаларга айлантиради.

**Yusupova Ziynat (UrDU stajyor-tadqiqotchisi)**

## **VERBAL VA NOVERBAL KOMMUNIKATSIYA VOSITALARINING TADQIQI VA NOVERBAL VOSITALARNING TARJIMADA BERILISHI**

**Annotatsiya.** *Mazkur maqola verbal va nonverbal kommunikatsiya vositalarining tilshunoslikda o'rganilishiga bag'ishlangan bo'lib, unda ko'plab olimlarning fikr-mulohazalariga munosabat bildirilgan. Shuningdek, o'zbek adiblarning badiiy asarlarida qo'llanilgan nonverbal vositalarning ingliz tiliga tarjimasini tahlil etilib, bu kabi vositalar tarjimasini yuzasidan tavsiyalar berilgan.*

**Аннотация.** *Статья посвящена изучению вербальных и невербальных средств общения в лингвистике и является ответом на взгляды многих ученых. Также проанализирован английский перевод невербальных средств, используемых в произведениях узбекских писателей, даны рекомендации по переводу таких средств.*

**Annotation.** *This article is dedicated to the study of verbal and nonverbal means of communication in linguistics, and responds to the views of many scholars. It also analyzes the English translation of nonverbal means used in the works of Uzbek writers and provides recommendations for the translation of such means.*

**Kalit so'zlar:** *verbal, nonverbal, imo-ishoralar, xatti-harakat, muqobillik, tarjima adekvatligi.*

**Ключевые слова:** *вербальный, невербальный, жесты, поведение, альтернатива, адекватность перевода.*

**Key words:** *verbal, nonverbal, gestures, behavior, alternative, translation adequacy.*

Prosodik va vizual til birliklari ko'pchilik olimlar diqqatini tortgan bo'lsa-da, umumiy tilshunoslikda ko'proq e'tibor so'z va uning leksik, grammatik, pragmatik va stilistik xususiyatlariga qaratilgan. Vizual qatlam amaliy psixologiyada muhim tadqiqot obyekti bo'lib, tadqiqot natijalari kinematik birliklar yetkazilmoqchi bo'lgan xabarning yarmidan ko'pini qamrab olishini ko'rsatgan. S.Sulgerning tadqiqoti natijalariga ko'ra, og'zaki muloqot nutq faoliyatida xabarni yetkazishdagi uchta birlikning ulushi tahlil qilinganda imo-ishoralar 55%, prosodiya 38% va so'z ifodasi 7%ni tashkil qilgan.<sup>1</sup>

Biz bu ma'lumotlar bilan imo-ishoralar va prosodiya tilning so'z ifoda xususiyatidan afzalroq, insonlar so'zsiz ham muloqot qilishi mumkin, masalan, logopediya degan fikrni ilgari surishdan yiroqmiz. Bu nazariya tillar kesimida tahlil qilinishi ma'qul. Masalan, o'zbek tilidagi muloqotda muloyimlikni anglatuvchi imo-ishoralar va prosodik birliklarning barchasidan foydalanib, ekspletiv (haqoratomuz) so'zlar bilan tinglovchiga murojaat qilinsa, bunda yuqorida S.Sulgerning tadqiqoti natijalari o'z isbotini yo'qotadi. Bunda bir haqiqat borligini ta'kidlash kerak, aynan shu ikki jihat so'zlashuv tilini yozma tildan farqlovchi asosiy belgi sanaladi.<sup>2</sup>

Ma'lumki, insonlar o'zaro verbal va nonverbal muloqotda bo'ladilar. Verbal muloqot faqat insonga xos bo'lib, zarur shart sifatida tilni o'zlashtirishni belgilab beradi. Nutq muloqot vositasi sifatida bir vaqtning o'zida ham axborot manbasi sifatida, ham suhbatdosh bilan o'zaro ta'sirlashuv vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

<sup>1</sup> Sulger S.A. Parallel Analysis of Have-type Copular Constructions in Two have-less Indo-European Languages. M Butt TH King. Proceedings of the Lexical-Functional Grammar 11 Conference. Stanford, CA ...<https://scholar.google.com/citations?user=aMBLKRkAAAAJ&hl=vi>

<sup>2</sup> Сапарбаева Г.М. Оғзаки мулоқот акти ва унинг лексик-грамматик хусусиятлари. Урганч, фил.фалс.док., 2021, 63-бет.

Noverbal muloqot til, tovush nutqining qo‘llanilishiga asoslanmagan bo‘lib, bu mimika, imo-ishoralar, pantomimika, sensor yoki tana orqali aloqalar vositasidagi muloqot demakdir. Bu boshqa odamdan qabul qilinadigan taktil, ko‘rish, eshitish, hid bilish hamda boshqa sezgi va tasavvurlar sirasiga kiradi. Odam muloqotining noverbal shakl va vositalarning ko‘pchiligi tug‘ma bo‘lib, faqat o‘ziga o‘xshashlar bilan emas, balki boshqa tirik jonzorlar bilan ham hissiyot va xulq-atvor darajalarida hamfikrlikka erishish orqali o‘zaro ta‘sir ko‘rsatishga imkon beradi.

Verbal va noverbal kommunikatsiya vositalari yuzasidan ko‘plab olimlar, jumladan, S.F.Feldman, John L.Barkai, A.A.Sazonova, G.E.Kreidlin, I.N.Kuznesov, V.A.Labunskaya, A.Piz yillar davomida izlanishlar olib borganlar.

Muomala va uni mustahkamlovchi imo-ishoralarning inson tanasining boshdan to oyoqqacha bo‘lgan barcha qismlari nimani anglatishi mumkinligi haqida o‘z izlanishlari natijalari bilan o‘rtoqlashadi. Tadqiqot markazidan, hatto soch va uning turmaklanishi ham muomala va muloqotda katta ahamiyatga ega ekanligi aytib o‘tilgan. Muloqotga kirishayotgan paytda imo-ishoralar, tana a‘zolarining harakatidan tashqari, tananing qay holatda turganligi ham ma‘lum bir signal vazifasini o‘tashi ham misol tariqasida keltirilgan.

Boshqa tadqiqotchilardan farqli ravishda, S.F.Feldman<sup>1</sup> nafaqat tana a‘zolarining harakati va imo-ishoralar, balki bosh kiyimining, sigaret chekishning, ko‘ylak yoki ustki kiyimning yoki uning tugmasini yechib qo‘yilishi ham ma‘lum bir ma‘nolarni anglatishi haqida fikr yuritgan.

Aynan shu fikrlarni Allan Piz ham o‘z ilmiy izlanishlarida muhokama qilib, bundan tashqari, u sigara, trubka va ko‘zoynaklarning ham roli muhim ekanligini ta‘kidlagan.<sup>2</sup>

John L.Barkai o‘z ilmiy maqolalarida<sup>3</sup> noverbal kommunikatsiya vositalarining huquq-tartibot orqanlari faoliyatidagi ahamiyati haqida misollar keltirgan. Kuzatishlarga, asosan, so‘roq qilinayotgan shaxsning muloqot davomida kuzatilgan tana harakatlari, ko‘z qarashlari, yuzidagi har qanday o‘zgarishning qanday ma‘noni bildirishlari haqidagi tadqiqot natijalari muhokama qilingan.

A.A.Sazonova<sup>4</sup> o‘z tadqiqotlarida “qo‘l” konsepti bilan bog‘liq imo-ishoralar va tana harakatlari-ning holatlarini o‘rgangan. Bundan tashqari, zamonaviy tasvirlangan imo-ishoralarning xilma-xilligi lingvistik va psixologik adabiyotlarda 194 birlikdan iboratligi haqida fikr bildirilib, ularni quyidagi tematik guruhlariga ajratgan:

- ◆modal imo-ishoralar;
- ◆shaxsning holatini aks ettiruvchi imo-ishoralar;
- ◆tasviriy imo-ishoralar;
- ◆ikki tomonlama imo-ishoralar;
- ◆belgi xususiyatlarini ochib beradigan imo-ishoralar;
- ◆kognitiv harakatlarni tasvirlaydigan jarayonlari va boshqa.

Bu sohaning so‘nggi yillardagi eng muhim ishi bu G.E.Kreydlinning<sup>5</sup> “Verbal bo‘lmagan semiotika: tana tili va tabiiy til” tadqiqotidir. Muallif ushbu asarida verbal bo‘lmagan semiotikani tashkil etuvchi maxsus fanlarni sanab o‘tadi. Bularga quyidagi ilmiy sohalar kiritilgan:

1. “Paralingvistik – bu og‘zaki bo‘lmagan muloqotning tovush kodlari haqidagi fan.
2. Kinesika – imo-ishoralar va imo-ishoralar, imo-ishorali jarayonlar va imo-ishora tizimlari haqidagi fan.
3. Okulesika – ko‘z tili va muloqot paytida odamlarning vizual xatti-harakatlari haqidagi fan.
4. Auskultatsiya – bu tovushlarni eshitish orqali qabul qilish va muloqot jarayonida odamlarning eshitish xatti-harakatlari haqidagi fan.
5. Gaptika – teginish va teginish aloqasi tili haqidagi fan.
6. Gastika – bu oziq-ovqat va ichimliklarning ramziy va kommunikativ funksiyalari, oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilish, dori-darmonlar va muolajalarning madaniy-kommunikativ funksiyalari haqidagi fan.

---

<sup>1</sup> Sandor S. Feldman “Mannerisms of Speech and Gestures in Everyday Life”, New York, International Universities Press, Inc. 1973.

<sup>2</sup> Пиз А. Язык телодвижений. Как читать мысли окружающих по их жестам. 2004, с. 179 – 188.

<sup>3</sup> Barkai J.I. Nonverbal Communication from the Other Side: Speaking Body Language ”San Diego” Law review. 1990, vol. 27, p. 101.

<sup>4</sup> Сазонова А.А. Невербальная репрезентация концепта. “ARM” Вестник ИГЛУ, 2014, с. 55.

<sup>5</sup> Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика. Новое литературное обозрение, Москва, 2002.

7. Olfaksiya – hidlar tili, hidlar orqali yetkaziladigan ma'nolar va muloqotda hidlarning o'rni haqidagi fan.

8. Proksemika – bu aloqa makoni, uning tuzilishi va vazifalari haqidagi fan.

9. Xronemika – aloqa vaqti, uning tarkibiy, semiotik va madaniy vazifalari haqidagi fan.

10. Sistemologiya – odamlar o'z dunyosini o'rab turgan obyektlar tizimlari, bu obyektlar muloqot jarayonida ifodalaydigan vazifalari va ma'nolari haqidagi fan.

Bu kitobga kiritilmagan auskultatsiya, gastika, olfaksiya, xronemika va sistemologiya sohalariga tegishli nazariyalarga ko'plab dunyo olimlari tomonidan ishlab chiqilmoqda.<sup>1</sup>

Muayyan shaxs (suhbatdosh)ning atrofdagilar tomonidan tarbiyalilik darajasini baholashda yuz ifodalari va imo-ishoralar katta rol o'ynaydi. Masalan, ba'zi odamlar qo'llarini qay holatda ushlashni bilmay ikkilanadilar, asosan, bo'sh qo'llar tinch holatda saqlanadi. Agar siz tinch holatda ham barmoqlaringizni stolga yoki stulga ursangiz, bosh barmog'ingizni shiqillatsangiz, boshingiz yoki qulog'ingiz orqasini ishqalasangiz, yonoqlaringiz yoki burningizni ishqalayversangiz, bu odatlarni tark etish kerak. Barmoq bilan ishora qilish odobsizlik sanaladi. Ovqatlanish, raqsga tushish yoki chekish paytida kichkina barmog'ingizni ko'rsatmasligingiz kerak.<sup>2</sup>

Yuz ifodalari va imo-ishoralar odamning og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlarining elementlari sifatida ontogeneza da assimilyatsiya, ya'ni organizmning individual rivojlanishi mobaynida o'zlashtiriladigan birinchi vizual, imo-ishora tizimlaridan biridir. Og'zaki bo'lmagan nutqning og'zaki so'zlardan ustunligi haqidagi eng ishonchli dalillar – bu asosiy yuz ifodalari, pozitsiyalar, imo-ishoralar majmuasining xalqaro xarakterini, shuningdek, imo-ishoralar va yuz ifodalarning xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi natijalarini o'zida namoyon qilib, insonning genetik belgilari sifatida harakat qiladi, masalan, his-tuyg'ularni ifodalashning tug'ma usullaridan iborat.

O'z-o'zidan verbal bo'lmagan xatti-harakatlar asta-sekin ramziy mimikalar, imo-ishoralar, intonatsiyalar, pozalar bilan to'ldiriladi, ulardan foydalanish madaniy, guruhli, vaziyatli kelishuvlarga asoslanadi. Verbal bo'lmagan xatti-harakatlarning tuzilishi, mazmuni, shakli, uning aktuallashuvi ko'p asrlik muloqot amaliyotiga bog'liq.<sup>3</sup>

Tarjimada ushbu noverbal vositalarning saqlanishi tarjima sifatini belgilovchi muhim omillardan sanalib, u badiiy asarning ta'sirchanligi, qahramonning ichki kechinmalarining aniq ifodalanishi, milliy-madaniy etiketning, qolaversa, asar ruhiyatining tarjima tilida to'la qayta tiklanishini ta'minlovchi omillardan sanaladi. Afsuski, noverbal ifoda vositalari tasviri har doim ham tarjimada saqlab qolinmaydi. Bunga tarjimonning ushbu leksik birliklarni tarjima matnida unchalik ahamiyatsiz deb hisoblashi yoki bu boradagi lingvistik va psixologik bilimlari yetishmasligi yoki, umuman, e'tiborsiz qoldirishi natijasida tushirib qoldirish holatlari ko'p kuzatiladi. Xususan, o'zbek tilida yozilgan badiiy asarlarning ingliz tiliga tarjima qilinishi jarayonida noverbal kommunikatsiya vositalarining tarjimalari quyidagicha berilgan:

1) direktor vazifa yo'layotganda shunday bahaybat odam, yana deng – rais, mash'al rais unga *allaqanday iliqlik bilan tikilib turdi*. – For instance, when the publishing house boss changed the young editor with this mammoth task, this giant man, the avant-garde kolkhoz director, *looked at him with eyes full of compassion* (Erkin A'zam. "Yozuvchi". A'zam Obid tarjimasini).

Ushbu jumlada o'zbek milliy madaniyatiga xos bo'lgan hurmat belgisini ifodalash jarayonini ko'rishimiz mumkin. Masalan, o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'atida *ili+q* so'zi: 1) bir oz issiq, miliq. Iliq sut ichmoq; 2) yoqimli, xush keladigan. Iliq gap aytmoq.

*iliq+lik* so'zi esa: 1) bir oz isiganlik. Badaniga iliqlik yugurmoq; 2) yoqimlilik, yaxshi munosabat. O'rtalarida iliqlik paydo bo'lmoq ma'nolari keltirilgan.<sup>4</sup>

Bundan ko'rinadiki, ingliz tilida faqat haroratni ifodalashi mumkin bo'lgan bu so'zning o'zbek tilida bir qancha ma'nolarini uchratish mumkin, shuning uchun bu so'z ingliz tilida "full of compassion" turg'un iborasi orqali tarjima qilingan. Bundan tashqari, "iliqlik" so'zi o'zbek tilida ijobiy ma'noga ega ekanligini ko'rish mumkin, chunki bu so'z salbiy yoki betaraflikni anglatuvchi ma'noga ega emas. Mer-

<sup>1</sup> Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика. Новое литературное обозрение. Москва, 2002, с. 484.

<sup>2</sup> Кузнецов И.Н. Этикет невербального общения. Онлайн библиотека Гумера. [https://www.google.com/url?client=internal-element;https://www.gumer.info/bibliotek\\_Buks/Culture/Article/\\_Kyznecov\\_Neverbal](https://www.google.com/url?client=internal-element;https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Culture/Article/_Kyznecov_Neverbal)

<sup>3</sup> Лабунская В.А. Невербальное поведение (социально-перцептивный подход). Ростов, изд-во Ростов, ун-та, 1986, с. 5 – 35.

<sup>4</sup> Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobbiddinov S., Kokren K., Saidxonov M., Sobirov A., Quronov D. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent, «Sharq», 2001.

riam-Vebster lug'atiga ko'ra, ingliz tilida ushbu so'z "rahm-shafqat, boshqalarning qayg'usiga hamdard bo'lish va uni yumshatish istagi"dir.<sup>1</sup>

Shuningdek, New-Oxford Amerika lug'atida rahm-shafqat "boshqalarning azoblari yoki baxtsizliklariga achinish va qayg'urmoq" sifatida ta'riflanadi.<sup>2</sup>

Ko'rib turganimizdek, har bir lug'atda "rahm-shafqat" ma'nosining turli jihatlarini ko'rsatilgan. Merriam-Vebster lug'ati "boshqalarning qayg'usini yengillashtirish istagi" haqida ma'lumot bersa, New-Oxford Amerika lug'ati esa "rahm-shafqat"ni keng ko'lamli simpatik tuyg'ular sifatida ta'riflaydi. Bu hamdardlik va rahm-shafqat tuyg'ularini hech qanday harakat yoki harakatlar haqidagi fikrlar bilan bog'lamaydi, bu, haqiqatan ham, to'liq ta'rif emas.

2) Muharrir peshonasini **tirishtira-tirishtira** yillik rejalar ro'yxatida bunaqa qo'lyozma borligini eslayolmadi. – The editor **wrinkled** his forehead but could not remember such a proposal in the annual plan (Erkin A'zam. "Yozuvchi". A'zam Obid tarjimasini).

Tirishmoq: 1) ajin tushmoq. Peshonasi tirishmoq; 2) biror ishni uddalash uchun astoydil harakat qilmoq. O'z gapini o'tkazishga rosa tirishdi.<sup>3</sup>

O'zbek tilida *tirishtira-tirishtira* juft so'z sifatida berilgan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida sodda so'z yordamida ifodalangan. Bu misolda ushbu juft so'z ijobiy yoki salbiy ma'noga ega emas, balki oddiy ta'rif ma'nosiga ega so'z yordamida tarjima qilingan, vaholanki, o'zbek tilidagi misolda ushbu juft so'z orqali qahramonga bu holatning yoqmayotganligi va u bundan juda ham hayronligi ifodalangan.

Ingliz tili izohli lug'atida *wrinkle* so'zi ajin, chiziq yoki burmalar hosil qilish (biror narsaga, ayniqsa mato yoki teriga) tarjimada "yoshiga qarab qo'llari va yuzlari ajinlardi" degan ma'noda qayta tiklangan;

3) *Yozuvchi shogirdchasiga qarab daf'atan baqrayib qoladi.* – *The writer looks at his disciple attentively* (Erkin A'zam. "Yozuvchi". A'zam Obid tarjimasini).

O'zbek tili izohli lug'atida *baqraymoq* so'zi ko'zlarini katta ochib tikilmoq, hayron holatda bo'lmoq, deb ta'riflangan. *Bola baqrayib turardi.*<sup>4</sup>

Ingliz tili izohli lug'atida *to look at somebody attentively* turg'un iborasiga "kimnidir diqqat bilan kuzatib turish, ayniqsa, siz noto'g'ri ish qilyapsiz deb o'ylayotganingiz uchun" deb ta'riflangan.<sup>5</sup>

4) *Aybdor esa yerga qarab munofiqona tirjayib turganmish: Nu vse, Dilya, konchay, pojaluysta, ya je tebya lyublyu! – But Nurali just smiled hypocritically and said; Oh, shut up, Dilya, you know I love you!* (Erkin A'zam. "Shovqin" romani. A'zam Obid tarjimasini).

O'zbek tili izohli lug'atida *munofiq* so'zi tili va dili boshqa bo'lgan, ichi qora, samimiyligi yo'q, ikki yuzlamachi deb izohlangan. *Munofiq odam. munofiq+ona* nosamimiy tarzda, ichi qorachilik bilan degan ma'noda keltirilgan.

*Tirjaymoq* so'zi yuzaki kulmoq, kulimsiramoq tarzida berilgan. *Notiqqa tirjaydi.*<sup>6</sup>

*Smile* so'zi fe'l sifatida ishlatilganda yuzda tabassum paydo qilish, tabassum bilan biror narsa ay-tish yoki ifodalash deb berilgan.<sup>7</sup>

*Smile* – yuzning baxtli yoki do'stona ifodasi, og'izning uchlari biroz egilib, lablari bir-biridan uzoqlashib, tishlar ko'rinib turadi.

*Hypocritically* – muayyan axloqiy e'tiqod samimiy emasligini ko'rsatadi deb izohlangan.<sup>8</sup>

O'zbek tilidagi misolda *yerga qarab munofiqona tirjaymoq* ko'proq negativ ma'noni ifodalasa ham buni ochiqchasiga namoyish etmagan, aksincha, birgina *yerga qarab* iborasi bu holatni qaysidir ma'noda yumshatishga xizmat qilganligi bilan ingliz tiliga tarjima qilingan shaklda berilgan *smile hypocritically* tarzida, ya'ni *ochiqchasiga ustidan kulmoq* negativ variantdan farq qiladi;

<sup>1</sup> <https://www.merriam-webster.com/>

<sup>2</sup> <https://www.oxfordreference.com/view/10.1093/acref/9780195392883.001.0001/acref-9780195392883>

<sup>3</sup> A.Hojiyev, A.Nurmonov, S.Zaynobiddinov, K.Kokren, M.Saidxonov, A.Sobirov, D.Quronov. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent, «Sharq», 2001.

<sup>4</sup> Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S., Kokren K., Saidxonov M., Sobirov A., Quronov D. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent, «Sharq», 2001.

<sup>5</sup> <https://www.merriam-webster.com/>

<sup>6</sup> Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S., Kokren K., Saidxonov M., Sobirov A., Quronov D. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent, «Sharq», 2001.

<sup>7</sup> <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/>

<sup>8</sup> <https://dictionary.cambridge.org/ru>

5) *shest sekund!* – deya **artistona qiliq ko'rsatib**, qo'shxonasi sari shoshdi Baxtiyor. – *One second, replied Bakhtiyor with a flourish, and rushed to bring that drink* (Erkin A'zam. "Shovqin" romani. A'zam Obid tarjimasini).

O'zbek tili izohli lug'atida *artist+lik* so'zi artist kasbi, *artist+ona* artistlarga xos xatti-harakat izohlangan. *Artistlikka kirmoq*.

*Qiliq*: 1) insonning o'ziga xos xatti-harakatlari, xulq-atvori. Qilig'i o'ziga yarashmagan odam;

2) g'ayritabiiy, nojo'ya ish, harakat, odat. Qilig'i sovuq odam. Qiliq chiqarmoq;

3) noz, ishva, tantiqlik. Qaylig'ining qilig'iga e'tibor bermay qo'yimoq.<sup>1</sup>

Ingliz tiliga tarjimada ushbu holatni ifodalashda qo'llanilgan so'zga e'tibor qaratamiz. *Reply* – biror kimga yoki biror narsaga javob sifatida aytish yoki yozish, javob berish (biror narsaga, biror narsa bilan), biror narsani kimdir aytgan yoki qilganiga munosabat sifatida aytish.

*Flourish*: 1) belgi yoki imo-ishoraning harakati yoki misoli; 2) nutq yoki yozishning yengil qismi, yozma yoki bosma bezak zarbasi, dekorativ yoki tugallovchi detal; 3) e'tiborni jalb qiluvchi xatti-harakat.<sup>2</sup>

*Reply* so'zi yozma javob berish, qonuniy javob qaytarish, biror harakatga javoban biror narsa qilish xususan: otishma yoki hujumni qaytarish kabi ta'rif berilgan.

*Flourish* so'ziga gullab-yashnayotgan davr, mo'l-ko'lchilik, biror narsa qilishda shuhratparastlik, to'satdan portlash<sup>3</sup> kabi holatlarni ifodalaydi deb berilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tarjima jarayonida noverbal vositalarning tarima qilinayotgan tildagi aynan noverbal muqobili topib tarjima qilinsa, o'quvchi original matn muallifining tasvirlashi, xatti-harakat qay tarzda amalga oshganligini to'liq anglay oladi. Agar tarjima tilida ushbu noverbal vosita-ning muqobili bo'lmasa, uning ijobiyliги, salbiyligi, neytralligini aks ettiruvchi so'z, so'z birikmasi kabilardan foydalanishi maqsadga muvofiq sanaladi. Albatta, shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu kabi noverbal vositalarning tarjimasida bitta yoki ikkita emas, balki bir nechta lug'atlarga, jumladan, frazeologik birliklarning izohli lug'atlariga, turg'un birikmalarning bilingval yoki izohli lug'atlariga murojaat etish o'rinlidir. Lug'atshunoslikda ilg'orlikni qo'ldan bermay kelayotgan Yevropa olimlarining noverbal vositalar, mimika va jestlar lug'atlaridan foydalanish tavsiya etiladi, masalan David B.Givens tomonidan 2002-yilda yaratilgan "The Nonverbal Dictionary of Gestures, Signs&Body Language Cues" shular jumlasidandir.

**Холмуродова Мадина (Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети таянч докторанти)  
АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НАСРИДА ҚЎЛЛАНГАН "МАЪНАВИЯТ" ТУШУНЧАСИНИ  
ИФОДАЛОВЧИ АТОВ БИРЛИКЛАРИНИНГ СТРУКТУР ВА ТАРИХИЙ-ЭТИМОЛОГИК  
ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Аннотация.** Мазкур мақола Абдулла Қодирий насрида қўлланган "маънавият" тушунчасини ифодаловчи атов бирликларининг структур ва тарихий-этимологик хусусиятларига бағишланади. Мақолада унинг "Ўткан кунлар", "Меҳробдан чаён" асарларида маънавият масалаларига алоҳида аҳамият берилган.

**Аннотация.** Статья посвящена структурным и историко-этимологическим особенностям именных единиц, которые представляют собой понятие «духовность», используемое в прозе Абдуллы Кадыри. В статье уделяется особое внимание вопросам духовности в его произведениях «Минувшие дни», «Скорпион из алтаря».

**Annotation.** The article is dedicated to the structural and historical-etymological features of nominal units, which represent the concept of "spirituality" used in the prose of Abdullah Kadiry. The article pays special attention to the issues of spirituality in his works "Bygone Days", "Scorpio from the altar".

**Калим сўзлар:** маънавият, атов бирликлари, ўзлашма сўзлар, семантик силжиши, маъно кенгайиши, маъно торайиши, маъно кўчиши.

<sup>1</sup> Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobbiddinov S., Kokren K., Saidxonov M., Sobirov A., Quronov D. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent, «Sharq», 2001.

<sup>2</sup> <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/>

<sup>3</sup> <https://www.merriam-webster.com/>



**Ключевые слова:** *духовность, именные единицы, слова усвоения, семантический сдвиг, расширение смысла, сужение значения, сдвиг значения.*

**Key words:** *spirituality, nominal units, words of assimilation, semantic shift, expansion of meaning, narrowing of meaning, shift of meaning.*

Абдулла Қодирий миллатпарвар, ўз тилини чуқур билган ва ҳис қила олган ижодкорлардан бўлганлиги маълум. Ёзувчи ўз асарларида ўзлашма сўзлар, маънодош ва антонимлардан самарали фойдаланган. Адиб ўзлашма сўзларга мурожаат этиш заруратини куйидагича асослайди: “Ҳамма тил ҳам кўшни тиллардан “қарз” олади. Бусиз иложи йўқ. Асар фақат ўз тилидагина ёзилса, ширасиз, қуруқ чиқади. Ёзувчи ўз халқининг тилини, фольклорини камол ўрганиши шарт ва бир неча тилларни, айниқса, яқин қўшни тилларни билиши фазилат. Шундагина тили бойийди, асари жонланади”.<sup>1</sup> Дарҳақиқат, Абдулла Қодирий ижодини таҳлил этарканмиз, унинг тасвир тили бой, ифода имкониятлари сарҳадсиз эканлигини англаймиз. Бундай хилма-хиллик, лексик ранг-барангликни, хусусан, маънавият атов бирликлари доирасида ҳам кузатишимиз мумкин.

Маълумки, ўзбек тили луғат таркибининг салмоқли қисми ўзлашма сўзлар улушига тўғри келади. Тилимиз араб, форс ва қардош тиллардан ўзлашган сўзлар воситасида бойиган. Ушбу ўзлашма сўзлар бадий адабиётда ҳам, оғзаки нутқда ҳам фаол қўлланилади. Бир тилдаги воситаларнинг бошқа тилга тарихий ижтимоий шароитлар сабаб кириб келиши эса тилнинг ижтимоий ҳодиса эканлигини яна бир бор исботлайди.

Бугун оламнинг ўзбек лисоний тасвири ажралмас қисми деб баҳоланаётган “маънавият” парадигмаси асосида нафақат миллий менталитет, балки исломий қадриятлар ҳам ётгани сир эмас. Шундай экан, Абдулла Қодирий асарларида араб тилидан ўзлашган, ислом фалсафаси ва маданиятини акслантирувчи “маънавият” атов бирликларига бот-бот мурожаат этилганига гувоҳ бўламиз. Масалан: *Қисқаси маҳдумнинг ота-боболари хонлар қошида мумтоз ва халқ назарида “шарафлик ва муҳтарам” мавқийни ушлаб келганлар* (А.Қодирий. “Меҳробдан чаён”). *Қисқаси биз юқорида Раънонинг шеърий бир ҳуснини кўрганимиздек уни фазл ва заковатда ҳам ўткан хон замонлари асрининг нодир учрайдирган якто фозила қизларидан санаймиз ва санашга ҳам ўзимизда мажбурият ҳис этамиз* (А.Қодирий. “Меҳробдан чаён”). – *Баракалла, – деди Шаҳидбек, – асли инсоф шудир? Иккиланчи, домодлиқ учун насабдан илғари илму адаб, фазлу камол лозимдирким, бу ҳам ўзларидан маҳфий эмас, хррр?* (А.Қодирий. “Меҳробдан чаён”).

Ўзбек адабиёти ва ўзбек тилининг йирик ислохотчиларидан бири, дея эътироф этиладиган А.Қодирий ўз асарларида ўзбек тили луғат таркибининг ўз қатлаמידан самарали фойдаланишни мақсад қилганлиги муқаррар. Зеро, бу маҳорат асарларда “маънавият” парадигмасининг соф туркий этимологияга эга воситаларини қўллашда ҳам кузатилади. Масалан: *Мен, мирзобоши жуда хафа кўринади, деганингиздан иуни ўйлаган эдим. Баайни сурат: киши ҳам бундай жириим бўлар экан* (А.Қодирий. “Меҳробдан чаён”). *Султонали кулимсиди, аммо ўзида ўнғайсизлиқ, тусида қизариниш бор эди. Хатни мирзонинг қўлидан олиб ўқуди* (А.Қодирий. “Меҳробдан чаён”). *Андиша ва эҳтиёт юзасидан бу хатни алоҳида ёзиб, китоб ичига яширдим* (А.Қодирий. “Меҳробдан чаён”). *Оғир дақиқаларда арзимас гапни кўнгулга олиш сизнинг каби олижаноблар иши бўлур, деб ким ўйласин* (А.Қодирий. “Меҳробдан чаён”).

Маълумки, бир тилдан ўзлашган сўз бошқа тилда ўз семаларидан маълум бир миқдорини йўқотиши, аксинча, ўзлашган сўз луғавий маъносига қатор бошқа маънолар қўшилиши мумкин. Бундай трансформациялар товуш таркиби ва грамматик категориядаги ўзгаришлар билан бир қаторда юз беради. Ўзлашма сўзнинг барча кўрсаткичлари ўзгариши мумкин, бадий асарларда, оғзаки нутқда қўлланганда эса улар маъносида яна семантик силжишлар рўй бериши табиий. Масалан, куйидаги воситалар ушбу контекстларда муайян даражада семантик торайиши ва кенгайиши кузатилади. Семантик силжиш масаласи тилшуносларни узоқ даврлар мобайнида қизиқтириб келган. Муаммо юзасидан олиб борилган тадқиқотлар ичида инглиз тилшуноси С.Уильманнинг ишлари эътиборга молик. Сабаби олим ўз тадқиқотларида маъно силжишининг асосий сабаблари метафора, метонимия, эллипсис ва халқ этимологияси эканлигини асослаб берган бўлса,<sup>2</sup> кейинчалик, А.Бланк маъно силжишини метонимик, метафорик, маъно торайиши, маъно кенгайиши, маъ-

<sup>1</sup> Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. Тошкент, “Янги нашр”, 2019, 3-бет [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)

<sup>2</sup> Ullmann Stephen. Principles of Semantics. 2<sup>nd</sup> edition. Oxford: Blackwell, 1957; Ullmann, Stephen. Semantics: An introduction to the science of meaning. Oxford: Blackwell, 1962.

но алмашиши, антифразис, энантиосемия, автоконверсия, эллипсис, халқ этимологияси каби турларга бўлади.<sup>1</sup> Кейинчалик, ушбу турларга қўшимча сифатида гиперболизация, литота, маъно яхшиланиши, маъно ёмонлашуви кабилар қўшилди.<sup>2</sup>

Абдулла Қодирий асарларида қўлланилган “маънавият” атов бирликларида ҳам семантик силжиш ҳолатларини кузатамиз. Масалан, куйидаги жумлага назар ташлайлик, ундаги *дуруст* сўзи, аслида, *маъқул*, *арзийдиган* каби маъноларни ифодаласа-да, айти контекстда ёзувга нисбатан *тўғри*, *хатосиз* деган маънони англатмоқда, яъни бунда маъно торайишини кузатамиз: *Махдум этни уйга бериб чиқгандан кейин икки соат чамаси ҳуснихатдаги болалар билан шугулланди, орадан абжад сўзини дуруст ёзиб чиқарган бир боланинг қўлини боғлаб уйга юборди* (А.Қодирий. “Меҳробдан чаён”). *Раъно шу сўзни айтиб, орқасига қайта берди, эшикни бояғича ёпиб, хўжрадан йироқлашди. Аҳволга бироз тушунган Анвар кўрпачани бўрғага солиб, устига чиқди ва эркин нафас олиб ёнбошлади* (А.Қодирий. “Меҳробдан чаён”). *Эркинлик сўзи озодлик, ҳурлик* каби тушунчалар билан бир қаторда туради. Ушбу тушунча кишининг мазлумиятдан холи бўлиши, ўзига ўзи хўжайин бўлиши, қарамликдан қутулиши каби маъноларни англатсада юқорида берилган мисолда ушбу сўз маъноси анчайин торайган. Масалан, бу ўринда *эрк* боқий ҳолатни эмас, вақтинчалик энгил тортишни англатмоқда. Бунда *эркин нафас олоқ* бироз хотиржамлашмоқ маъносига яқин турибди.

Бирок, шахс характерини очиб беришга қаратилган, асосан, муаллиф тилидан сўзланган матнларда шахсни тавсифловчи “маънавият” атов бирликлари ўз луғавий маъноларини тўлиқ намён этади дейишимиз мумкин. Зеро, куйидаги мисолларда ҳеч қандай семантик силжиш кўзга ташланмайди: *Иншоолло, шу йигит мирзабоши бўлар, – деди Сафар бўзчи суҳбатнинг руҳини билмаган ҳолда, – ўзи ажаб зукко йигит, фуқоронарвар бола: бўгани маъқул, а, лаббай, тақсир?* (А.Қодирий. “Меҳробдан чаён”). *Юраги тор – асабий Султоналининг бу сўзи “ширин суҳбат” устидаги муфтиларни ҳайрон қилиб қўйди* (А.Қодирий. “Меҳробдан чаён”). *Маънан ва жисман эзилган, айниқса, ҳозирги аҳвол ичида кўз ўнги қоронгиланган Анвар меҳмонхонага кириб келгучи Султоналидан ҳам ибo қилмай, гўё ҳушсиз каби бошини иккиқўли орасига олиб, сандал устига энгашти...* (А.Қодирий. “Меҳробдан чаён”).

Юқоридаги икки жумла шахс хулқ-атворидаги ижобий ёки салбий хусусиятларни очиб беришга қаратилган, уларда қўлланилган барча “маънавият” атов бирликлари ўз луғавий маъносини акслантирмоқда. Фақат, *фуқоронарвар* сўзи бизга таниш *халқнарвар* маъносида эмас, камбағалларни севувчи, жўмард маъносида қўлланилмоқда. Зеро, тарихий ҳақиқат шундан далолат берадики, ёзувчи яшаб ўтган даврда *фуқаро* сўзи сизу бизга маълум давлатда истиқомат этувчи киши маъносини ифодаламай, *фақир кимса* маъносида қўлланилган. Англашиладики, тавсифий, тасвирий матнларда, муаллиф ўз номидан ҳикоя қилувчи парчаларда қўлланган “маънавият” атов бирликларида семантик силжиш имконсиз.

А.Қодирий асарларида қўлланилган “маънавият” атов бирликлари замонавий ўзбек тилида ҳам фаол учрайди, шунингдек, ёзувчи асарларида бугунги кунда қўлланилмайдиган воситалар ҳам мавжуд. Бундан ташқари, адиб асарларида учрайдиган маънавият атов бирликларининг йирик улушини диний-эътиқодий қадриятларни акслантирувчи воситалар ташкил этади, ушбу бирликлар шу сабабдан ҳам ўз актуаллигини йўқотмаган. Масалан: *Ҳасанали қутидорга ўзининг миннатдорчилигини айтиб тугата олмас, сўз ораларида уни дуолар билан гарқ этмакда эди* (А.Қодирий. “Ўткан кунлар”). *Қутидор ихлос ва самимият билан: – Қутлуг бўлсин! – деди* (А.Қодирий. “Ўткан кунлар”). *Мен қонхўрлик учун худонинг фарз қилган ҳажини адо қилмадим; олдимда ўғлум бор, менда бошқаларнинг ўғлини даррага ётқизиши чоғида кўндаланг келадирган виждон бор, дин бор, диёнат бор* (А.Қодирий. “Ўткан кунлар”). *Бегим, гарчи аччиғлансангиз ҳам айтишика мажбурман: сизда виждон, инсоф, раҳм, ваъда, вафо, яхшиликни билиш, боринг-чи, одамгарчиликдан ҳеч гап йўқ эмиш* (А.Қодирий. “Ўткан кунлар”).

Юқоридаги мисолларда ажратиб кўрсатилган сўзларнинг барчаси “маънавият” парадигмасини ташкил этади. Улар сирасида *фарз, раҳм, инсоф, дин, диёнат, ихлос, намоз, таҳорат, Жаноби Ҳақ* каби сўзлар эътиқодий тушунчаларни гавдалантиради. Гарчи айти контекстда ихлос сўзи

<sup>1</sup> Blank Andreas. Why do new meanings occur? A cognitive typology of the motivations for lexical Semantic change. Blank, Andreas, Koch, Peter. Historical Semantics and Cognition. Berlin, New York: Mouton de Gruyter, 1999, p. 61–99.

<sup>2</sup> Bloomfield Leonard. Language. New York, Allen&Unwin, 1933.

одатдаги ишонч тушунчасидан биров тор маънони англашмоқда, адиб бу сўзни қўллаш орқали қаҳрамоннинг миннатдорчилигини билдириш мақсадида бўлганлиги контекстдан англашилади. Қолган ҳолатларда эътиқодий тушунчалар қўлланишида уларда семантик силжиш кузатилмайдди. Бироқ *самимият, яхшиликни билиш* ва ёки *одамгарчилик* каби бирликлар киши ахлоқига ишора қилади. Сўзлашув одоби, бошқаларга муносабат одобини намоён этади.

Шунингдек, адиб асарларида диний ва эътиқодий қарашларга боғлиқ бўлмаган “маънавият” атов бирликлари ҳам бот-бот учрайди. Масалан: *Сизни ҳийлакор дедим: эсингизда борми, содда отамни, гўл онамни қандоғлар қилиб алдадингиз?* (А.Қодирий. “Ўткан кунлар”). *Ҳозир биз сизнинг адолатлик ҳукмингиздан бир нарсани сўраймиз: ул шулдурким, бизнинг тўғримизда ёмон мақсад билан сизга чақимчилик қилгучи игвогар ва гаразгўлар бу мажлиска ҳозирлансинларда, ўзларининг машъум кашфларини ва ё кўрган-ешитканларини исбот қилиб бизни қайта бошдан дор остига юборсинлар* (А.Қодирий. “Ўткан кунлар”). Диний, эътиқодий тушунчаларни англашувчи воситалардан фарқли ўлароқ, ахлоқ ва маърифат гуруҳидаги воситалар матн контекстида маъно силжишига учрашга мойиллиги кучлироқ.

Демак, Абдулла Қодирий ўз асарларида эътиқодий, ахлоқий ва маърифий тушунча ва фикрларни ифодалашда араб, форс-тожик ва соф туркий асосга эга сўзларга мурожаат этади. Ушбу сўзлар матн контекстида маъно кенгайиши, маъно торайиши, маъно кўчиши ва гипербола каби семантик силжишга учраши мумкин. Маъно силжиши “эътиқод” гуруҳидаги воситаларда камдан-кам кузатилса, бу ҳолат “ахлоқ” ва “маърифат” гуруҳидаги сўзларда кўпроқ учрайди.

**Ibotova Nasiba Komilovna (“Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti)**

### **AHMAD DONISHNING TARAQQIYPARVARLIK QARASHLARI**

***Annotatsiya.** Maqolada o‘z asri uchungina emas, bizning davrimiz uchun ham dono ustoz, bag‘ri-keng muallim, ilg‘or fikrli, matonatli rahnamo, e‘tiqod va masligiga sadoqatli shaxs sifatida qadrlil bo‘lgan Ahmad Donish hayoti va faoliyatining akademik I.Mo‘minov tomonidan o‘rganilishiga doir kuzatishlar, tahlillar bayon qilingan. I.Mo‘minovning mustabid tuzum hukmronligi davridagi ma‘naviy jasorati, shuningdek, Ahmad Donish ilmiy merosining ahamiyati tavsiflangan.*

***Аннотация.** Статья описывает наблюдения и анализ исследований Муминова, посвященных жизни и деятельности Ахмада Дониша, передового мыслителя, мудрого наставника, верного своим убеждениям, являющегося примером для всех и в наши дни. Описываются духовное мужество И.Муминова в период правления диктатуры, а также важность научного наследия Ахмада Дониша.*

***Annotation.** The article is dedicated to narrate observations, analysis and the study of Akhmad Danish’s life and creation by academician I.Muminov. At the same time, the moral courage of I.Muminov during the reign of the dictatorship, as well as the importance of the scientific heritage of Ahmad Donish are described.*

***Kalit so‘zlar:** qomusiy alloma, millat, tarix, tamaddun, taraqqiyot, ma‘rifat, fanlar chorrahasi, jadidchilik, ma‘naviyat, islohot.*

***Ключевые слова:** энциклопедист, нация, история, цивилизация, прогресс, просвещение, перекресток наук, джадидизм, духовность, реформа.*

***Key words:** encyclopedic scholar, nation, history, civilization, progress, enlightenment, crossroads of sciences, jadidism, spirituality, reform.*

Yozuvchi, rassom, xattot, olim, ma‘rifatparvar zot Ahmad Donish Mahdum ibn Nosir (taxallusi Kalla. 1826–1897) o‘zining ilg‘or fikrlari, ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan 19-asrda Buxoroda taraqqiyparvar muhitining yuzaga kelishida muhim o‘rin tutgan. Mudarris oilasida tug‘ilgan Ahmad Donishga ilk savodini onasi chiqargan, so‘ng maktabda, madrasada tahsil olgan. Adabiyot, tarix, falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya fanlarini mustaqil tarzda o‘rgangan. Xattotlik, rassomlik va naqqoshlikni puxta egallagan, shuningdek, munajjimlikdan yaxshi xabardorligi bilan Nasrullaxon nazariga tushgan. Uning amir Muzaffar taklifiga ko‘ra, 1865-yilda «Manozir ul-kavokib» («Sayyoralarning joylashishlari») nomli ilmi nujumga oid kitob yozganligi bu sohani ham mukammal bilganligidan dalolat beradi.

Ahmad Donish Buxoro shahri tarixi, uning joylashish o'ri, geografiyasiga tegishli qimmatli ma'lumotlar yiqqan, Buxoro shahrining tarh, ya'ni sxema-planini qog'ozga tushirgan, bunda shaharning barcha inshoot, bino, suv yo'llari, ko'chalari nomlarini birma-bir sanagan. Buxoro tarixini o'rganishda bu faktlar muhim tarixiy manba ekanligi bilan qadrlidir.<sup>1</sup> Rangli xarita yaqin tariximiz haqida ma'lumot beruvchi muhim ashyoviy manba sifatida ilmiy qimmatga ega va olimning qiziqish doirasi kengligidan dalolat beruvchi noyob ilmiy meros.

«Ahmad Donishning, – deydi akademik Ibrohim Mo'minov, – Fuzuliyning ozarbayjon tilida yozilgan she'rlaridan olgan parchalari juda e'tiborli. Bu esa Donishning Fuzuliy g'oyalari, uning astronomiya haqidagi fikrlari bilan qiziqanidan dalolat beradi».

Ahmad Donish 1857, 1869, 1873-yillarda Buxoro amirining elchilarining mirzasi bo'lib Rossiya (Peterburg)ga borgan. Ana shu safar taassurotlari asosida «Navodir ul-vaqoe'» va «Tarjimai ahvoli amironi Buxoro» («Buxoro amirlarining tarjimai hollari») kabi asarlar yozgan.<sup>2</sup> Ahmad Donish bu kitoblarda mavjud amirlik tuzumini isloh qilish masalasida o'z fikr-mulohazalari va takliflarini bayon qilgan. Shuning o'ziyiq uning o'z zamonisidan ancha ilgari ketgan alloma, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotni teran anglagan faylasuf ekanligi ko'rsatadi. 1870–73-yillarda yaratilgan «Risoi dar nazmi tamaddun va taovun» («Madaniyat va jamiyat tartibi haqida risola») asari islohot haqida bo'lib, undagi fikrlar amirga ma'qul tushmagan, shu sabab uni saroydan uzoqlashtirgan (1874). U ma'lum muddat Buxoro tumanlarida qozi lavozimida ishlagan, Amir Muzaffar vafotidan so'nggina Buxoroga qaytib, madrasada mudarrislik qilgan.

Ahmad Donishning I.Mo'minov tomonidan o'rganilgan «Nodir voqealar» asarida fan, texnika yangiliklari, tabiat hodisalari, geografiya, insonning uzoq umr ko'rishi, koinotning kelib chiqishi, Oy va Quyosh tutilishi, zilzila haqida fikr yuritilgan, Yevropa ilm-fanini o'rganishga da'vat etilgan. I.Mo'minovning bu asarni o'rganishiga o'ziga xos sabablar bor. Birinchidan, I.Mo'minov Ahmad Donishning asarlari bilan uzoq yillar tanish bo'lgan, aniqrog'i, Samarqandda Ayniy, Fitrat, Abdurahmon Sa'diy singari jadidlar bilan birga ishlaganda bu zotning ilmiy salohiyati, tafakkur olami to'g'risida ma'lumotga ega bo'lgan. Ikkinchidan, ma'lum bir muddat zamonasining eng ko'zga ko'ringan ziyolilari, peshqadam olimlari – jadidlar davrasida bo'lgan I.Mo'minov ulardan ta'sirlanmasligi mumkin emas edi.

Ahmad Donish va ozarbayjon yozuvchisi Hoja Marog'iyning hamda jadid ma'rifatparvarlarining asarlari Ayniyning dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatganligini inobatga olsak, Ahmad Donish g'oyalari jadidlar uchun ilhomlantiruvchi manba bo'lganligi ko'zga tashlanadi (Ahmad Donish → jadidlar (Fitrat, Ayniy, Abdurahmon Sa'diy)→I.Mo'minov). Hech ikkilanmay aytish mumkinki, I.Mo'minovning ilmiy tadqiqotlari mavzu mundarijasiga e'tibor qilsak, unda yuqoridagi ketma-ketlikning ta'siri yaqqol seziladi. Faqat tarixiy vaziyat taqozosidan kelib chiqib, I.Mo'minov xuddi Sadriddin Ayniy singari, ma'rifat yo'lini tanladi va mavjud imkoniyatdan juda unumli foydalanib, milliy madaniyatimiz, ma'naviy merosimizni xalq ong-tafakkuriga singdirish lozim, deb hisobladi. Chunki kishilarning ongi o'zgarmas ekan, ko'riladigan biror tadbir, chora, vosita bilan hech narsa o'zgarmasligini alloma chuqur idrok qilardi. Chor Rossiyasi tomonidan Turkistonning bosib olinishining asl sababi taxt tepasidagi turgan amiru xonlarning dunyoqarashidagi noqislik, ma'naviy ojizlik edi, xolos. Agar amir-u xonlar sal boshqacha fikr yuritganlarida, bir bayroq ostida birlashganlarida, ehtimol, vatan tarixi mutlaqo boshqa o'zanga burilib ketarmidi. Yoxud Amir Temur saltanatini inqirozga yetaklagan fojia temuriy shahzodalarning xato fikr yuritishlari–o'z manfaatlarini butun millat, xalq manfaatidan ustun qo'yishlari natijasi ekanligiga tarix guvoh. I. Mo'minov faylasuf sifatida ana shularning barchasini teran anglagan edi, ammo mustabid tuzum oldida ojiz va ilojsiz bo'lishiga qaramasdan, millatni uyg'otish uchun, kimligini tushuntirish uchun unga tarix nomidan murojaat qilish yo'lini tanladi. Shu mashaqqatli va xatarli yo'lda bor kuch-g'ayratini sarfladi.

Filologiya fanlari doktori I.G'aniyev o'zining «Ahmad Donish va jadidchilik» maqolasida Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy, So'fizoda, Avloniyalar ma'rifat, jadidchilik harakati qarashlariga Ahmad Donish asarlari ham poydevor bo'lganligi ta'kidlaydi.<sup>3</sup> Ahmad Donish va jadidchilik masalasini «Navodir ul-vaqoe'» asosida tekshirib, quyidagilarni bayon etadi:

<sup>1</sup> Xasanov X. Сайёҳ олимлар. Т., «Фан», 1981, 232-бет.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т., ЎзМЭ давлат илмий нашриёти, 556-бет.

<sup>3</sup> Ганиев И. Аҳмад Дониш ва жади́дчилик. «Наводир ул-вақоеъ» асари – адабий, фалсафий, ахлоқий, маънавий манба ва унинг замонавий моҳияти» мавзусидаги республика анжумани материаллари. Бухоро, 2017, 106–107-бетлар.

1. Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoe” asari – 19-asr Turkiston, ayniqsa, Buxoro xonligi davlat boshqaruvi, diplomatiyasi, moliya va iqtisodi, dehqonchilik va ziroat, harbiy va strategiya masalalari, din va axloq, adabiyot va sn’at muammolarining yaxlit bir qomusi, real tarixidimr.

2. Ahmad Donish asarining qadri, ilmiy qimmat va ta’sir kuchini oshirgan qudrat – bu mullifning Hind, Xitoy, arab-fors, turk hukamolari merosidan teran xabardorligi, Aflotun, Arastu, Suqrot, ibn Sino, Umar Xayyom, Navoiy, Bedil, Fuzuliy ijodini o’ta chuqur bilishi, har bir sohada qiyosga amal qilishi (Qur’on, Hadis)dadir, dunyo tarixini yaxshi bilishidadir.

3. “Navodir ul-vaqoe” boshdan-oxir islohotchilik g’oyasi bilan yozilgan. Kitobning 23 bobida ham shu g’oya ustuvor. Ayniqsa, kitobning muqaddimasi bo’lmish “Mamlakatni boshqarish va xalqni ma’rifatli qilish haqida risola” faslida islohotchilik g’oyalari aniq, oshkora, hayotiy va Qur’oniylar bilan asoslangan.

4. Ahmad Donish “Navodir ul-vaqoe”da jamiyatni tubdan isloh qilish, taraqqiy ettirish uchun quyidagi talablarni qo’yadi:

a) kuchli, odil, insof va adolatli, qanoat va himmatli, oqillarga quloq tutguvchi, diplomat va strateg, xalqqa yaqin podsho;

b) insofli amaldor va hokimlar;

d) har bir shaharda hoziq tabiblar yetarli bo’lishi, shahar xalqi musofirparvar va g’aribsevar bo’lishi;

e) dehqonchilik, ziroat, hunarmandchilik va fan uchun yetarli sharoit.<sup>1</sup>

Ahmad Donish dunyoqarashidagi bunday ilg’or qarashlarning sarchashmalari teran bilgan faylasuf I.Mo‘minov inson va uning mohiyati, shaxs va jamiyat, davlat boshqaruvi va adolatli siyosat, oila va uning farovonligi, xullas, qaysi bir masalani muhokama qilmasin, bu qarashlarni vatanparvarlik, millatsevarlik ruhida yashayotgan olim, o’z ajdodlarini behad hurmat qiladigan munosib voris sifatida qadrlaydi. Uyg’oq ruh, ilg’or fikrlar falsafaning qon tomiri deb bilgan alloma, Ahmad Donish tomonidan bayon qilingan fikrlar ayni o’zi yashayotgan davr uchun ham zaruriy ma’naviy ehtiyoj ekanligini, ularni o’qib-o’rganish orqaligina adolatli jamiyat, farovon hayotga erishish mumkinligini uqdiradi.

Bedil → Ahmad Donish → Sadridin Ayniy, Fitrat → Ibrohim Mo‘minov. E’tibor berilsa, bu allo-malarni birlashtirib turuvchi Bedil ekanligi ayonlashadi. Ularning barchasi so’z sehgari Bedil asarlarini sevib mutolaa qilgan, undan ilhomlangan, o’zlari uchun Bedilni yo’lchi yulduz deb bilishgan, uning ijtimoiy-falsafiy g’oyalarini takomillatirishga harakat qilishgan. Maslak birligi, e’tiqoddagi yakdillik, olam va odam, tabiat, jamiyatni tushuntirishdagi o’xshashlik, hurfikrlik kabi mutanosib jihatlarda bu ulug’ zotlarning maqsad-muddaolari o’zaro uyg’unligini ko’rsatadi.

“Navodir ul-vaqoe” o’n besh yil davomida yozilgan bo’lib, 23 fasldan iborat.<sup>2</sup> Asar mundarijasini ijtimoiy, siyosiy, axloqiy, ta’limiy, falsafiy, ma’rifiy masalalar tashkil qiladi. Kitobda mullif o’zining turli mavzulardagi nazariy mulohalarini asoslash uchun tarixiy voqea, naql, tamsil keltiradi va fikrning ta’sirchanligini oshirish maqsadida ruboiy, bayt, qit’a, she’r keltirishni lozim topgan. Ko’hna Sharq pand-monachiligi an’analari ruhida yozilgan asarda didaktika yetakchilik qiladi.

“Ahmad Donish asar mavzu-mohiyati haqida fikr bildirib, “to xalq bidonand, ki baroi chi omadand va bar chi buvand va chi kardaand” deydi. Mazmuni: “Toki xalq nega dunyoga kelganligi, nima uchun yashayotganligi va nimalar qilganini bilsin”. Bu bilan alloma insonning o’zligini anglashi, o’tmish ajdodlariga nisbatan ehtirom bilan munosabatda bo’lishi, inson degan nomni yuksaklikka ko’tarishi kerakligini ta’kidlaydi”.<sup>3</sup> I.Mo‘minov Ahmad Donishning qarashlarini tahlil qilarkan, inson omiliga urg’u beradi, jamiyat va inson o’rtasidagi munosabat, yashashning mohiyati, mehnat va uning foydasi, olamning yaratilish asosi kabi qator masalalarni atroflicha tadqiq etadi.

Dunyo o’tkinchi, o’tkinchi narsaga umid bog’lash esa g’ofillikdir. Faqat ezgu ishlargina insonning nomini abadiyatga muhrlaydi. Ezgulikning, yaxshilikning, oliyanoblikning yo’llari turli-tuman, lekin hammasining boshlang’ich nuqtasi yagona, ilmdir. Ma’rifatli kishigina halolni haromdan, yaxshini yomondan farqlay oladi, nafsini tiyishga kuch topadi, har doim yaxshilikka qilishga intiladi. I.Mo‘minov ki-

<sup>1</sup> Shu manba. 107 – 108-betlar.

<sup>2</sup> Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe. T., “Fan”, 1964, 213-bet.

<sup>3</sup> G. Navruzova, X. Rahmatova. «Navodir ul-vaqoe»da komil inson goyasi. “Navodir-ul-vaqoe” asari – adabiy, falsafiy, axloqiy, ma’naviy manba va uning zamonaviy mohiyati” mavzuidagi respublika anjumani materyallari. Buxoro, 2017, 64-bet.

tobdagi ayni shu masala to'g'risida fikr yuritib, eng to'g'ri yo'l va maqsadga yetkazuvchi vosita ilm ekanligini ta'kidlab ko'rsatadi.

“Navodir ul-vaqoe”ni Ahmad Donishning umr kitobi deyish mumkin. I.Mo'minovning ilmiy izlanishlarini milliy istiqlol nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish va bu asar ustidagi ilmiy-falsafiy tadqiqotlarni yangicha aspektida ko'rib chiqish oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir.

Авезов Элбек (ЎзДЖТУ 1-босқич таянч докторанти)

## ЎТКИР ҲОШИМОВНИНГ “УРУШНИНГ СЎНГГИ ҚУРБОНИ” ҲИКОЯСИДА БАДИИЙ ПСИХОЛОГИЗМ КОНЦЕПТИ

**Аннотация.** Мазкур мақола Ўзбекистон халқ ёзувчиси ва жамоят арбоби, моҳир журналист Ўткир Ҳошимовнинг ижодига бағишланади. Мақолада унинг “Урушнинг сўнги қурбони” номли ҳикоясидаги қаҳрамонларнинг психологик таҳлили масалаларига алоҳида аҳамият берилган.

**Аннотация.** Статья посвящена творчеству Народного писателя Узбекистана и общественного деятеля, талантливого журналиста Уткира Хошимова. В статье уделяется особое внимание вопросам психологического анализа героев повести «Последняя жертва войны».

**Annotation.** This article is dedicated to the work of the People's Writer of Uzbekistan and public figure, talented journalist Utkir Khoshimov. The article pays special attention to the issues of psychological analysis of the heroes of the story “The Last Victim of the War”.

**Калим сўзлар:** қаҳрамон руҳияти, кечинма, ҳис-туйғу, руҳий талқин, персонаж, ҳолат, давр тафсилоти, реал воқеа.

**Ключевые слова:** психика главного героя, переживания, эмоции, ментальная интерпретация, характер, ситуация, детали периода, реальное событие.

**Key words:** psyche of the protagonist, experiences, emotions, mental interpretation, character, situation, period details, real event.

Адабиёт ҳар доим инсон ҳаётининг маънавий жиҳатини, унинг кечинмалари, ҳис-туйғулари ва мулоҳазаларини тасвирлашга интиланган. Бугунги кунда инсон психологиясига қизиқиш тобора ортиб бормоқда ва бу жиҳат барча фанларни, шу жумладан, адабиётни ҳам четлаб ўтмади.

Замонавий ёзувчиларнинг ўзи ҳам, ҳар қандай адабий ижодга мурожаат қилган ўқувчилар ҳам қаҳрамонлар психологиясини таҳлил қилиш ва ўрганиш учун адабий қаҳрамонларнинг ички дунёсига чуқурроқ киришга интилишади. Шу боис айнан ҳозир, ҳеч қачон бўлмаганидек, бадиий психологизм муаммосини адабий асарлардаги персонажларни тасвирлаш усули сифатида ўрганишга чуқурроқ назарий ёндашув зарурати туғилди. Ёзувчиларнинг инсон шахсий ҳаёти тасвири уларнинг қаҳрамонларнинг ички дунёсини психологик таҳлил қилиш воситаларини жадал ривожланишига ёрдам берди. Сўзнинг ҳар қандай бадиийлаштирилган шакли, у оғзаки ёки ёзма бўлишидан қатъий назар, инсон маънавий-психологик оламига таъсир ўтказиши жиҳатидан муҳимдир. Бадиий асар тайёр ҳолга келган тақдирда ҳам, ўқувчисини топмагунига қадар, ўзининг етакчи эстетик вазифасини бажара олмайди. Фақат бадиий асарнинг ўқувчи билан “мулоқоти” бошланган нуктада у жонланади, рецептив моҳият касб этади. Худди шу нуктада бадиий психологизм механизми ишга тушади. Сўзловчи ёки ёзувчи бадиий баёни, тасвир усули, психологик ифодалаш услуби жонланади.<sup>1</sup>

Ўзбек адабиётида ҳам қаҳрамон психологияси ёрқин очиб берилган асарлар талайгина. Шу ўринда Ўзбекистон халқ ёзувчиси Ўткир Ҳошимовнинг асарларини таъкидлаб ўтишимиз жоиз. Чунки Ўткир Ҳошимов асарларини шунчаки ўқиб бўлмайди. Бу асарлар шу қадар самимий, қалбдан ёзилганки, бевосита ўқувчини ўзига тортади. Асар қаҳрамонлари билан биргаликда севиниб қувонсангиз, улар азоб чекса, сиз ҳам биргаликда азобланасиз. Шунинг учун ҳам адибнинг ўлмас асарлари нафақат юртимизда, балки дунёнинг кўплаб мамлакатларида кенг ўқилмоқда, эътироф этилмоқда.<sup>2</sup>

Ёзувчининг “Урушнинг сўнги қурбони”, “Нега? Нега-а-а?!” деган ҳикоялари эса уруш орасидаги ҳаёт ҳақида бўлиб, бизнингча, ёзувчи бу асарларни уруш оқибатлари ва ундан нафрат-

<sup>1</sup> Ботирова Ш.И. Ҳозирги ўзбек романларида бадиий психологизм (Улугбек Ҳамдамнинг “Мувозанат”, “Исён ва итоат”, “Сабо ва Самандар” романлари мисолида). Фалс. фан. бўй. докт. дисс. ...автореф., Т., 2012, 11-бет.

<sup>2</sup> [https://uza.uz/uz/posts/kongillarda-yashayotgan-adib\\_268015](https://uza.uz/uz/posts/kongillarda-yashayotgan-adib_268015)

лангани учун ёзган. Иккинчи жаҳон уруши тавсилотлари ҳали-ҳануз инсонлар нафратини кўзгаб келмоқда. Гарчи уруш ўзбек ўлкасида содир бўлмаса-да, неча минг аскарларимиз ватан ҳимояси учун жанг бўлаётган жойда мардонавор иштирок этганлар. Неча минг аскарларимиз она-ватани учун ўзларини қурбон қилишган. Қанчадан-қанча ўзбек болалари отадан, ёш келинлар суюкли ёридан, кута-кута орзулари рўёга айланган онаизорлар сеvimли фарзандларидан айирилганлар. Ўткир Ҳошимовнинг уруш ҳақидаги асарларини ўқир эканмиз, ўша воқеалар кўз олдимизда гавдаланади.

Ёзувчининг “Урушнинг сўнгги қурбони” номли ҳикоясидаги илк сатрлар шу жумлалар билан бошланади: “Шоикром айвон тўридаги сандал четида хомуш ўтирарди. Аллақачон баҳор келиб, кунлар исиб кетганига қарамай, ҳамон сандал олиб ташланмагани, аммо ҳеч ким бу тўғрида ўйлаб кўрмаганини у энди пайқагандай ғаш келди. Бўз кўрпа устидан ёпилган, шинни доғи қотган куроқ дастурхон ҳам, ҳозиргина гўжадан бўшаган сопол товоқ, банди куйган ёғоч қошиқ ҳам унинг кўзига хунук кўришиб кетди”.<sup>1</sup>

Ушбу мисралар ўқиб, кўз олдимизда зўрғагина рўзгор тебратиб, қора қозони кун ўтарга қайнаб турган ўзбек оиласининг уруш даврдаги ҳолати гавдаланади. “Доғи қотган куроқ дастурхон”, “ҳозиргина гўжадан бўшаган сопол товоқ”, “банди куйган ёғоч қошиқ”, баҳор келган бўлса-да, “ҳамон олиб ташланмаган сандал” – бу деталларнинг барчасини муаллиф шунчалик маҳорат билан тасвирлаганки, ўқувчи бу сатрларни ўқиган заҳоти асар қаҳрамони бўлмиш Шоикромга ачиниш хисси пайдо бўлади ва гап камбағал оиланинг рўзгори ҳақида боришини тез англаб олади.

Қаҳрамонлар руҳиятининг ёритилиши нуқтаи назаридан қараганда, Ўткир Ҳошимов ижодида қаҳрамон психологияси, баъзан фикр ва туйғулар оқими ва ички монолог воситасида амалга ошган. Ҳикоядаги навбатдаги тасвирда буни гувоҳи бўлишимиз мумкин: “Қаёқдандир шамол келди. Ҳовли этагидаги ёнғоқ шохлари бир гувиллаб қўйди. Шоикром уйқу элита бошлаган кўзлари билан ўша томонга қаради-ю, тер ҳиди анқиб турган лўлаболишга бошини ташлади. Шу ондаёқ яна ўша товоққа, банди куйган қошиққа кўзи тушиб, тагин ғашланди. “Зикна бўлмай ўл! – деб ўйлади хотинини сўкиб. – Азалдан курумсоқ эди, замон оғирлашгандан буён баттар бўлди”.<sup>2</sup>

Ёзувчи ўз қаҳрамонининг руҳий оламини, руҳий ҳолатларини тасвирлашга бир дебоча яратяпти. Бу деталлар орқали биз ҳикоя қаҳрамонини камбағал оиладан эканини англаган бўлсак, “замон оғирлашгандан буён” деган жумласидан уруш йиллари эканлигини тушунишимиз мумкин. “Зикна бўлмай ўл!” дея ўз турмуш ўртоғини койиши, ўзбек аёлларининг оиладаги тежамкорлиги, айниқса, йўқчиликда болалари учун ёки эртанги кунига тежаб қўйиши тасвири ўз ифодасини топган. Бадиий психологизм инсон руҳиятини идрок этиш, таҳлил қилиш натижаси ўлароқ, бадиий асарда акс эттирилган руҳий ҳолатлар тасвири, ёзувчининг бадиий психологик талқинлари маҳсулидир.<sup>3</sup> Ёзувчи ҳикоя аввалида хонадон тасвири орқали ҳам қаҳрамоннинг руҳий кечинмаларини ифода эта олган, ҳикояни давомида қаҳрамонларнинг руҳий оламига яна-да кириб боришимиз мумкин. “Камбағалнинг эккани унмайди, боласи кўпаяди ўзи, – деб ўйлади Шоикром ижирғаниб. – Шу кунимдан кўра урушга бориб, ўлиб кета қолганим яхшийди”. Шоикромнинг қийин вазиятда оила тебратаётгани, ўз кунидан норози эканлиги шу сатрларда яққол акс этган. Ёзувчи мамлакатда кечаётган вазиятларни асар қаҳрамонларининг тасвирий ифодаси билан бирга маҳорат билан ёритади. Қуйидаги жумлалардан буни яққол билиб олишимиз мумкин: “Урушнинг қора қаноти узоқлаб кетган бўлсаям, эрта-индин Гитлернинг тўнғиз кўпиши кўришиб қолган бўлсаям, ҳамон унинг сояси одамлар бошига кўланка ташлаб турибди. Ҳали у қўшниникида аза очилади, ҳали бу қўшниникида”.<sup>4</sup> Асардаги воқеа уруш тугалланай деб қолган йилларни тасвирляпти. Бадиий макон қишлоқни акс эттирса, бадиий замон 1945 йилларни акс эттиряпти.

Бадиий психологизм инсон руҳиятини идрок этиш, таҳлил қилиш натижаси ўлароқ, бадиий асарда акс эттирилган руҳий ҳолатлар тасвири, ёзувчининг бадиий психологик талқинлари маҳсулидир. Ёзувчи ўз қаҳрамонининг руҳий оламини, руҳий ҳолатларини тасвирлайди, акс эттиради. Шунинг учун ҳам В.Белинский ижодкорга нисбатан “инсон руҳининг буюк рассоми” иборасини

<sup>1</sup> Ҳошимов Ў. Ҳикоялар. Урушнинг сўнгги қурбони. Тошкент, “Ўқитувчи”, 126-бет.

<sup>2</sup> Шу манба. 127-бет.

<sup>3</sup> Тулабаева Р. Худойберди Тўхтабоев романларида бадиий психологизм. Фил. фан. бўй. фалс докт дисс. ...авторреф., Тошкент, 2019, 13-бет.

<sup>4</sup> Ҳошимов Ў. Ҳикоялар. Урушнинг сўнгги қурбони. Тошкент, “Ўқитувчи”, 127-бет.

ишлатади.<sup>1</sup> Ҳикоядаги Умри хола образи орқали ёзувчи бетоб бола учун ҳамма нарсага тайёр бўлган муштипар она сиймосини яратади. Умри хола ва Шоикром хатти-ҳаракатларидаги ўхшашлик китобхонни ажаблантирмайди. Она ўғирлик қилиш катта гуноҳ эканини ўйлаб кўрмаганидек, фарзанд ҳам бировнинг жонига қасд қилиш салбий иллат эканини тушунишни истамайди. Бу ерда асосий айбдор – уруш ва унинг салбий асоратларидир. Яъни уруш туфайли она ҳам ўғил ҳам шундан бошқа ишни қилишлари мумкин эмасдек кўринади, гўё.

Хулоса қилиб, шуни айтиш мумкинки, ўзбек адабиётида такрорланмас из қолдирган, миллионлаб ўзбек китобхонларининг сеvimли ёзувчиси Ўткир Ҳошимовнинг барча асарларидаги қаҳрамонлар ўзининг бадиий тасвир ифодаси билан ажралиб туради. Унинг проблематик роман, қисса ва ҳикояларида сўз санъатининг азалий бош муаммоси – инсон тақдири ва қалбининг бадиий таҳлили мавжуд. Муаллиф долзарб ижтимоий муаммолар талқини билан ёндаш ҳолда кўп ўринларда персонаж руҳиятидаги ғоят нафис жараёнларни моҳирона ифода этади. Ҳикояларидаги ҳар бир қаҳрамон ҳис этган кечинмалар, қаҳрамон яшаган замон ва воқеа тавсилотлари китобхон кўз ўнгида гавдаланади. Бунинг боиси унинг аксарият асарларида инсон қисмати, дарди ва изтиробларининг ётишидир.

**Raupova Ra'no Soyibovna (Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi (PhD))**  
**XOJA ISMAT BUXORIYNING TASAVVUFIIY-FALSAFIY QARASHLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xoja Ismat Buxoriyning tasavvufiy-falsafiy qarashlarining o'ziga xosligi, mutafakkir ta'limotida insonlarni insofga, adolatga, diyonatga, halolikka, vafoga da'vat qiluvchi, umrning o'tkinchiligiga oid falsafiy qarashlari tahlil qilingan hamda ushbu qarashlarning yoshlarni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan.*

***Аннотация.** В статье анализируется специфика мистических и философских взглядов Ходжи Исмата Бухари, философских взглядов мыслителя на быстротечность жизни, призывающих людей к честности, справедливости, благочестию, честности, верности и духовному развитию молодежи. объясняется роль и важность воспитания детей.*

***Annotation.** This article analyzes the specificity of the mystical and philosophical views of Khoja Ismat Bukhari, the philosophical views of the thinker on the transience of life, calling people to honesty, justice, piety, honesty, fidelity, and the spiritual development of young people. The role and importance of parenting is explained.*

***Kalit so'zlar:** e'tiqod, imon, ibodat, tariqat, tasavvuf, komil inson, adolatli jamiyat, insonparvarlik.*

***Ключевые слова:** вера, совесть, молитва, секта, мистицизм, совершенный человек, справедливое общество, человечество.*

***Key words:** faith, pray, sect, mysticism, a perfect man, just society, humanity.*

Xoja Ismatning dunyoqarashini u yashab faoliyat ko'rsatgan XIV asr oxiri va XV asr birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda o'tgan. Xoja Ismat Buxoriy dunyoqarashi bir jihatdan islomiy ta'limot, ya'ni tasavvufga tayanadi. Tasavvuf tariqatlar vositasida insonlarda Payg'ambarimiz amal qilgan axloqni tarbiyalab bosqichma-bosqich oliy kamolot darajasiga yetkazadi. E'tiqod, imon, ibodat insonni ruhan poklaydi, qalbiga va ruhiga osoyishtalik baxsh etadi. Tariqatga kirmasdan, shariat talablarini bajargan inson ma'naviyati yetuk shaxs bo'lib shakllanishi mumkin. Yuksak insoniy sifatlarga ega bo'lgan odam, Allohning sifatlarini chuqurroq idrok etish, anglash, hikmatlarini tushunish uchun tasavvuf tariqatiga kirishi lozim bo'lgan.

Tasavvuf ta'limoti va so'fiylarning asosiy maqsadi suhbat emas, balki jamiyatda yo'qolib borayotgan, e'tiqod, insoniylik, poklik, halollikni, eng asosiysi, go'zal axloqni saqlab qolishni targ'ib qilish bo'lgan. Shu mazmunda, xususan, naqshbandiya tarafdorlari ham o'z fikr-mulohazalarini bayon etganlar.<sup>2</sup> Ta-savvuf jamiyatda diniy-axloqiy munosabatlarini eng to'g'ri, eng yaxshi, manfaat tuyg'usidan yiroq bo'l-gan holda tartibga solgani va ta'lim bergani uchun ham seviladi. Axloq tarbiyasini tasavvuf ta'limotidan o'rganish mumkin.

<sup>1</sup> Тулабаева Р.С. Худойберди Тўхтабоев романларида бадиий психологизм.

<sup>2</sup> Муршиди комил хикматлари. Доктор, профессор, Шайх Махмуд Асъад Жўшон хикматларидан сайланма. Тошкент, "Янги аср авлоди", 2004, с. 17 – 39.



Jamiyatda komil inson tarbiyasida soʻfiylar iymonsizlikka, muqaddas maʼnaviyatimizga hurmatsizlikka, inson dilining ranjishiga, umuman, jamiki adolatsizlikka qarshi kurashuvchi targʻibotchilar boʻlgan. Xoja Ismat Buxoriyning oʻz davri uchun ilgari surgan axloqiy qarashlari hozirgi davrda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotgan emas. Shoirning tasavvufiy-falsafiy qarashlari oʻzining peshqadam gʻoyalari bilan ajralib turadi. Bir soʻz bilan aytganda, u Allohni inson qalbida, uning yuragida, deb tushunadi. Bu Bahoudin Naqshbandning falsafiy taʼlimotidagi tasavvufiy qarashlari bilan hamohangdir. Fikrimizning dalilini mutasavvif shoirning quyidagi sheʼrlarida koʻramiz:

*Hijron nakashed, badii gʻami vacl chi doned,  
To dard nabined, davoro nashinosed.  
Ey ahli ibodat, hama dar ishq nakoʻshed,  
Gar sajdayu cathi xudoro nashinosed.<sup>1</sup>*

Koʻrinib turibdiki, Allohni tanimoq uchun banda unga intilishi, bu yoʻlda hijron-u azoblarga tayyor turishi lozim. Mutasavvif fikricha, yuzaki va soxta ibodat chinakam iymon-eʼtiqod hicoblanmaydi. Allohni bilish va tanish uchun uning sathini bilish zaruratdir. Shuningdek, alloma “ilmi nazar” iborasi orqali Naqshbandiya taʼlimotining rashhalaridan biriga eʼtiborni qaratganiga guvoh boʻlish mumkin. Yaʼni, solik oʻz maqsadi yoʻlida qadam bosar ekan, uning eʼtiboridan olamning mutlaq moʻjizasi chetda qolmasligi zarur.

Tasavvufiy mazmunda uchraydigan asosiy holatlardan biri botiniy maʼnoda yor timsolida Allohni koʻrishdir. Unga shunday sifatlar beriladi: yorning qoshlari gajjak, ular tutashgan joy – mehrob. Islomiy udumlardan ayonki, masjidagi toat-u ibodat qiblaga – mehrobga qarab amalga oshiriladi. Mutasavvif shoir ana oʻsha tasavvufiy mazmunga ishora qilish orqali misralarning faqatgina zohiriy jihatlariga emas, balki botiniy maʼnolariga urgʻu berishga erishgan. Buning uchun mehrob timsolidan mohirona foydalaganini koʻrish mumkin. Namozu ibodatdan nazarda tutiladigan tayanch maqsad, Alloh vasliga vosil boʻlish ekanligi nozik ishoralarda aksini topadi. Shu asnoda majoziy va haqiqiy ishq yonma-yon qoʻyiladi. Majoziylikning sidqu sadoqat tufayli haqiqiy ishq maqomiga koʻtarilishi muqarrarligi taʼkidlanadi.

Diniy taʼlimotga koʻra, Alloh farishtalarini eʼtirof etmoq iymondandir. Shoir ham shu fikrdan uzoqlashmaydi, aksincha, tan oladi. Gʻoyat rangli va oddiy soʻzlar yordamida hosil qilingan misralarda oʻsha maylni ravshan koʻrish mumkin. Maloikalar – parichehralar, ular oy-u quyoshday nur sochish, mulki borliqni yoritish qudratiga ega. Misralardan ayonlashadiki, shoir har bir soʻzning oʻz va tag maʼnosiga urgʻu beradi. Farishtalar va yer goʻzalini yonma-yon tutish, ularni ulugʻlash yoʻlidan boradi. Shoir uchun har qanday goʻzalning faqat zohiriy husni emas, balki botiniy olami qadrliroqdir. Xoja Ismat dunyoqarashida jamiyat osoyishtaligi ham muhim ahamiyat kasb etadi:

*Murodi odami az zindagi hacl xotirjaʼmi,  
Agar chunun nabud zindagiba chikor oyad?<sup>2</sup>*

Ikki qatordan iborat yuqoridagi sheʼrda bir olam maʼno mujassam desak, yanglishmaymiz. Inson tabiatning gultoji ekan, tiriklik chogʻida xotirjam, osoyishta yashamogʻi, mavjudotdagi neʼmatlardan bahramand boʻlishi lozim. Ayni chogʻda, oʻz haddini bilmogʻi, tabiat koʻrkiga koʻrk qoʻshmogʻi zarur. Shunday boʻlmas ekan, umr mazmunsiz oʻtadi. Mutafakkir shoirning bunday oliyjanob qarashlari bugun uchun ham ahamiyatlidir.

Mutasavvif shoirning yuqorida tahlilga tortilgan misralaridagi umumbashariy gʻoyalar uning quyida keltiriladigan sheʼriy parchalarida mantiqan rivojlantirilgan:

*Figʻon ohicta kun Ismat shabi hajr,  
Ki shahr az gʻucca barham zad, jahon ham.<sup>3</sup>*

*Mazmuni:* Hijron kechasi figʻoningni pastroq qil, Ismat, Yoʻqsa samo ham koʻrinmay qoladi.

Maʼshuqa hijronidan oshiqning figʻoni falakka oʻrmlaydi va u falakni oʻz domiga (hatto butun jahonni ham) tortadi. Oshiqu maʼshuqa oʻrtasidagi mojarolargagina daxldor boʻlib koʻringan ayni fikrlar chuqur ijtimoiy-siyosiy tagmaʼnoga ham egadir. Xoja Ismat yashagan zamondagi tarixiy-siyosiy voqealar qiyosida oʻrganilsa, ularning tub mohiyati ravshan boʻlib qoladi yoki mutasavvif shoir toju taxt, mol-u mulk uchun olib borilgan maqsadsiz kurashlar jamiyatdagi goʻzallikni yoʻqqa chiqaradi, degan fikrni oʻrtaga qoʻygan.

<sup>1</sup> Бухорий, Хожа Исмаи. Девон. Техрон, “Толоркитоб”, 1987, 291-бет.

<sup>2</sup> Шу манба. 293-бет.

<sup>3</sup> Шу манба. 403-бет.

Mutasavvif shoirning teran ijtimoiy-falsafiy hamda ma'naviy-axloqiy g'oya va qarashlari singdirilgan, yuqorida tahlil etganimiz qit'adagi oliyjanob insoniy fazilatlarini mantiqan rivojlantiradi. Ishq va hayotga munosabatda sidq-u sadoqatdan, ahdgga vafodan boshqa ustunroq narsa bo'lmasligiga urg'u beradi. Hamma narsani siym-u zar bilan o'lchovchi muxlislarga nisbatan nafratini yo'naltiradi. Xususan, ishqday pokiza tuyg'uni boylikka almashtiruvchilar shoir nafratiga sazovordir.

Xoja Ismat Buxoriy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida insof va diyonatga, vafoga da'vat qiluvchi, vafodan ko'ra jafoga yon bosuvchilar davronining o'tkinchiligiga doir tagdor ishoralar zamiridan ismatona ohang quloqqa chalinganday bo'ladi.

Xoja Ismat Buxoriyning ijtimoiy-falsafiy qarashlaridan ijtimoiy adolat masalasi ham muhim o'rin olgan. Adolat insoniylikning mardlik, halollik va to'g'rilik, oddiylik va kamtarlik, imon va e'tiqod, samimiylik va sadoqat, uyatchanlik va or-nomusdan iborat oliyjanob fazilatlar qatorida alohida ahamiyat kasb etadi. Adolat bor joyda sadoqat, mehr-oqibat va baraka bor. U insonlarni g'oliblikka, ahllik va inoqlikka chorlaydi. Tinchlik, osoyishtalikning, o'zaro ishonch va hurmatning zamini ham adolatdir. Adolatsiz muhitda esa kelishmovchilik va ziddiyatlar ildiz otib, kattadan katta ijtimoiy, iqtisodiy va manaviy o'pirilishlar sodir bo'lishi mumkin. Adolat jamiyat, davlat va kishilik hayoti uchun o'ta zarur va ulug' ne'mat. Adolat – arab tilida odillik va to'g'rilik ma'nosini bildirib, u ijtimoiy, falsafiy, axloqiy va huquqiy ma'nomalarda ishlatiladi.

Xalqimizning eng qadimgi og'zaki ijodida ham, yozma manbalarda ham adolat tushunchasi haqida fikr yuritilganda, u insonlar o'rtasidagi ezgulik, odamiylik, yaxshilik tamoyili sifatida qayd etiladi. Darhaqiqat, adolat so'zining zamirida qancha-qancha hikmat bor, har bir inson qalban, jisman adolatga intiladi.

Allomaning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy qarashlariga nazar tashlar ekanmiz, ayniqsa, insonning sabr-qanoatli bo'lishi ulug'langanligining guvohi bo'lamiz. Xoja Ismat ijodiyotidagi qita janriga mansub bo'lgan she'rda insonlar uchun buyuk bir fazilat hisoblanmish sabr-qanoat yuksak darajada aks ettirilgan.

*Agar poktab'ivu pokizaroy,*

*Tavakko' 'ba dargohi dunon mabor.*

Tarjimasi:

*Gar pokta'b san-u pokiza dilsan,*

*Nopoklar dargohin orzu aylama.*

Xushsurat, pokiza, fikru mulohazasi puxta inson hech qachon past, nopoklar bilan hamjihat bo'la olmaydi. Razil insonlar molidan xomtama bo'lmasdan, ulardan hech nima talab qilmay sabr-bardoshli, qanoatli bo'ladi. Qanoat – bu inson ma'naviyati xazinasidagi noyob va qimmatbaho gavhar bo'lib, u kishini poklikka chorlaydi. Har bir fazilat sabr va qanoatga muhtojdir. Masalan, shijoat nafs xohishlariga sabr-qanoat qilishidir. Iffat esa shahvatlarga sabr qilishdir. Halimlik esa jahlni chiqaruvchi ko'pgina narsalarga sabr qilishdir. Shuningdek, inson dunyosining hoy-u havas va dunyo jilvasiga uchmay ogoh bo'lib yashashi darkorligi ta'kidlangan. Shu o'rinda, Yutrboshimiz aytganlaridek, fikr-u mulohazasi barkamol inson, mafkuraviy poligonlar jo'sh urib turgan zamonda, doimo har tomonlama ogoh bo'lib yashaydi. Loqaydlikka bosh egmaydi. Mafkuraviy tazyiqni uning ta'siri va oqibatlarini ilg'ab etish darajasiga erishadi.

*Labi noni xushk az sari xoni xesh,*

*Xo'ri beh, ki az digshare gulshakar.*

Tarjimasi:

*Quruq non totginu dasturxoningdan,*

*Nokaslar boliga bo'lma xomta'ma.*

Razillarning gul murabbosidan ko'ra o'z uyingda bir burda qotgan non totganing yaxshiroqdir. Kulbada qanoat qilib o'ltirgan darvesh, ta'magir podshohdan afzaldir. Qanoat qilganning joyi izzat taxtidir.

*Ba yak ustuxon sulh kun chun xumoy,*

*Magasvor bar shaxdi dunon mapar.*

Tarjimasi:

*Xumoydek shukr qil parcha suyakka,*

*Pashshaday tekindan lazzat poylama.*

Xoja Ismat bu misralarda Humo va pashsha timsollaridan juda o'rinli foydalangan. Humo baxt-sodat keltiruvchi qush bo'lib, pashsha (chivin) nopoklik, pastkashlik sifatida namoyon bo'lmoqda. Bir parcha suyakka qanoat qilib, past-u razillarning asal-u shakarlarini deb, o'zingni beqadr qilma.

*Bizan ko'si shohi bar ayvoni faqr,*

*Matoi du olam bar yak jav maxar.*

Tarjimasi:

*Shohlik nog'orasin chal faqirlikda,*

*Ikki olam matosini bir arpaga alishma.*

Shunday shijoat bilan harakat qilginki, qanoat shohiga aylanib, ikki dunyo mol-u mulkni o'z halol mehnating bilan topgan bir siqim arpaga almastirma. Qonoat yo'lini tanla, chunki bu yo'l izzat yo'lidir. Qanoat sohibi uchun qaramlik emas, hokimlik xosdir. Uning shohligi ruhan yer-u ko'kni egallash kamotidir. Unga yer bir taxt bo'lsa, ko'k yuksaklik chodiridir.

*Guzashtam ba qasri malikzodaye,*

*Xate didam on jo navishta ba zar:*

*"Chi mo'r az qanoat shavi xok beh"*

*Ki toji Sulaymonat omad ba sar.*

Tarjimasi:

*Shoh qasri yonidan o'tardim, ko'zga –*

*Chalindi zar bitik shundoq kalima:*

*"Chumoli kabi xoksor bo'l qanoatda, lek,*

*Sulaymon tojini zinhor tilama".*

Chumoliday, ya'ni behisob qanoatga ega bo'lgan inson tuproq qadriga yetadi. Bunday qanoatli kishi nazarida, hatto bir kaft tuproq Sulaymon tojidan afzaldir.

Loqayd, beparvo va shunday manfaatparast shaxslar borki, ular boylik va mol-dunyoni qanday yo'llar bilan topayotganiga befarqdirlar. Ularning fikricha, peshona terini to'kib, Alloh bergan aql-idrok va tafakkurni ishlatib topilgan boylik, qing'ir-qiyshiq, harom-harish yo'llar bilan orttirilgan boylikdan hech qanday farqi yo'q.

Xoja Ismat ijodidan tahlil qilingan birgina qit'ani dengizdagi tomchiga o'xshatish mumkin. Umu-man, jamiyatimizda tinchlik va barqarorlik, insonparvarlik va ezgulik amalga oshishida Xoja Ismat Buxoriyning sabr-qanoatlilik g'oyalari insonlar qalbi va ongiga chuqur singdirish zarurdir.

Xoja Ismat dunyoqarashida inson mansabi ulug'lanadi. Boylik va mansab o'tkinchi narsa. Faqat insoniylik martabasi hamma narsadan ulug'dir. Xoja Ismat bu sharafli unvonni qadrlaydi. Bunday sharafli unvon o'rnini hech qanday boylik va mansab egallay olmaydi. Shoirning ijtimoiy-falsafiy qarashlari shu o'rinda etika nazariyasidagi axloqiy talablarni zid asoslash tamoyili bo'lgan gedonizmga qarshi qo'yiladi. Gedonizm huzur-halovat, lazzatlanishga intilish insonning oliy maqsadi deb hisoblovchi axloqiy ta'limot bo'lib, insonga huzur-halovat keltiruvchi va uni azob-uqubatdan qutqazuvchi narsa yaxshilik deb, azob-uqubat keltiruvchi narsa esa yomonlik deb ta'riflanadi. Uning ijodiy nayzasi asliyatda shu markazga yo'naltirilgan. Shu sababdan u darveshlik mulkini hamma narsadan baland qo'yadi. Chunki darveshda zohiriy mulkdan ko'ra qalb mulki – Allohga sajda qilish, unga sig'inib, ibodat qilish ustun hisoblanadi.

Tasavvuf ta'limoti jamiyatda axloqiy munosabatlarini eng to'g'ri, eng yaxshi, manfaat tuyg'usidan yiroq bo'lgan holda tartibga solgani, ta'lim bergani bilan ahamiyatlidir. Xoja Ismat Buxoriyning tasavvufiy-falsafiy qarashlarining o'ziga xosligi shundaki, mutafakkir ta'limotida axloqsizlikning har qanday ko'rinishini qoralagan, insonda va jamiyatda yuksak axloqiy fazilatlar mavjud bo'lishi lozimligi haqidagi g'oyalarni ilgari surgan. Ayniqsa, adibning insonlarni insofga, adolatga, diyonatga, halollikka, vafoga da'vat qiluvchi axloqiy qarashlari bugungi kunimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Нуриддинов Шохобиддин Бабаярович**

**(Қарши ДУ докторанти, филология фанлари номзоди; [shahnur.82@mail.ru](mailto:shahnur.82@mail.ru))**

**КОМИЛ ХОРАЗМИЙНИНГ “ДЕВОН”ИГА КИРМАГАН ШЕЪРЛАРИ**

*Аннотация. Мақолада Комил Хоразмий девони таркибига кирмаган шеърлари тадқиқ қилинган. Қўлёзма ва тошбосма баёзлардан ўрин олган шеърлар таҳлилга тортилган. Шунингдек, иморатларга битилган таърихлар ўрганилган.*

*Аннотация. В статье исследуются стихи Камилы Хорезми, не входящие в состав дивана. Проанализированы стихи из рукописей и литографий. Также были изучены хронограммы, прикрепленные к зданиям.*

*Annotation. The article examines the poems of Kamil Khorezmi, which are not part of the divan. Poems from manuscripts and lithographs are analyzed. Chronograms inscribed on the buildings were also studied.*

**Калим сўзлар:** девон, баёз, қўлёзма, тошбосма, газал, мураббаъ, мухаммас, таърих, нашр.

**Ключевые слова:** диван, антология, рукопись, литография, газель, четверостишие, пятистишие, хронограмма, издание.

**Key words:** divan, anthology, manuscript, lithoprint, gazelle, murabba', mukhammas, chronogram, edition.

Ўзбек мумтоз шеърятининг етук намояндаси Комил Хоразмий ўзидан салмоқли лирик мерос қолдирган. Ўндан ортик лирик жанрларда яратилган шеърларини тўплаб, девон тартиб берган. Шоир девонининг қўлёзма нусхалари Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида 1949, 1025, 922/III, 1119/IV, шунингдек, Ҳамид Сулаймон фондида 1035/IV рақамлари остида сақланмоқда. Шунингдек, мазкур девон уч марта – 1880, 1895 йилларда Хивада, 1910 йилда Тошкентда тошбосма усулида нашр этилган. Бундан ташқари, Комилнинг бир қатор шеърлари борки, улар юқорида кўрсатилган девон таркибига кирмаган. Турли қўлёзма ва тошбосма баёзлар, мусавваллар, иморатлар пештоқидан ўрин олган бу шеърларнинг мавзу кўлами, жанрий ва бадиий хусусиятларига эътибор берсак, ушбу асарлар Комил Хоразмий шеърятининг сара намуналари эканига гувоҳ бўламиз. Қуйида ана шу шеърлар матни ва бадиияти хусусида тўхталамиз.

Шарқшунослик институтининг Ҳамид Сулаймон фондида сақланаётган 797-рақамли қўлёзманинг 96<sup>а</sup>–97<sup>б</sup>-саҳифаларидан ўрин олган ўттиз байтдан иборат “Қасидаи Комил” шоир асарларининг бошқа манбаларида учрамайди.

*Қуёш шабдизига жавлонгаҳ эрди хут майдони,*

*Ҳамал гулзориға азм айлади қатъ айлаб они<sup>1</sup>*

байти билан бошланувчи ушбу шеър ғазал шаклида қофияланган бўлиб, унинг дастлабки ўн уч банди баҳор тасвирига бағишланган. Кейинги байтда эса қуёшнинг Ҳамал буржига ўтиши, баҳорги тенг кунлик гўзал ифода билан тавсифланади:

*Қилиб тун жодасин кам-кам яқин кун шохроҳидин,*

*Зиёд этти мунга ондин кам айлаб чарх даврони.<sup>2</sup>*

Бу вақтда тундан оз-оздан камайиб кундузга қўшила бориши ва Наврўзда кун ва туннинг тенглашашиши назарда тутилмоқда. Учинчи байтда эса бу воқелик тазод ва ташбеҳ санъатлари воқитасида маҳорат билан тасвирланади:

*Иссиғлиғ лашкари хайли бурудатга келиб голиб,*

*Синон меҳри ила юз пора бўлди муз қалқони.<sup>3</sup>*

Иссиқлик лашкарининг совуқлик устидан ғолиб келиши, қуёш найзасининг муз қалқонини юз пора қилиши оҳорли ташбеҳ. Шоир бу табиат ҳодисасининг ўзига қадар яратилган бадиий тасвирларига маҳорат билан ёндашади. Кейинги ўн байт эса табиатнинг уйғониши, бутун оламнинг яшилликка бурканиши, табиатнинг ранго-ранг тус олиши, жонсиз дарахтларга янгидан жон кириши, бутун оламни муаттар гулларнинг бўйи тутиб кетишини завқ-шавқ билан тасвирлайди. Шоир баҳорни “Масихо анфос” (Масих нафасли – жон бағишловчи, тирилтирувчи) деб сифатлайди. Ушбу тасвирлар Рабғузийнинг туркий адабиётда яратилган илк ғазал сифатида эътироф этиладиган

*Кун ҳамалга кирди эрса келди олам Наврўзи,*

*Кечди баҳман, замҳарир қиш, қолмади қору бузи –  
матлаъли ғазалига ниҳоятда ҳамоҳанг.*

Қасиданинг ўн тўртинчи байтидан шоҳ мадҳи бошланади. Асар Хива хони Саййид Муҳаммадхон мадҳига бағишланган. Комил хонни ўз даврининг етук маърифатпарвари, улуг ҳукмдори сифатида тасвирлайди:

*Не янглиғ шаҳки султони замон Саййид Муҳаммадхон,*

*Жаноби туфроқи шаҳларгадур куҳли Сулаймони(й).<sup>4</sup>*

Маълумки, “қасидада бирданига асосий мақсадга, мавзуга кўчилмайди. Шоир, аввал, ё табиат тасвирини беради ёки ахлоқий фалсафий насихатни, бирор масаланинг, ниятнинг изоҳини баён этади, бунда зарурий бир шарт шу бўладики, бу муқаддималар қасиданинг кейинги сюжет чизиғи

<sup>1</sup> Муҳаммасот. Баёз. Қўлёзма. Ўз Р ФА ШИ Ҳамид Сулаймон фонди, инв. №.797, 96<sup>а</sup>-бет.

<sup>2</sup> Шу манба.

<sup>3</sup> Шу манба. 96<sup>б</sup>-бет.

<sup>4</sup> Шу манба.

ва ғоявий руҳига мослашиб, у билан органик боғланиб кетиши керак”<sup>1</sup>. Қасиданинг мазмунига, воқелик тасвирига кўра, унинг Саййид Муҳаммадхон ҳукмдорлик қилган (1856–1864) йилларда яратилган.

Комилнинг девон манбаларига кирмаган шеърлари Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида сақланадиган 1284-рақамли қўлёзмада ҳам аниқланди. Ушбу қўлёзма айрим тавсифларда шоир девонининг бир нусхаси сифатида қайд қилинади.<sup>2</sup> Бироқ ундаги шеърларнинг тартибсиз жойлашиши, тўлиқ эмаслиги ҳамда кўплаб саҳифаларнинг бўш қолдирилгани унинг девон эмас, балки мусаввада (оққа кўчирилмаган дастлабки нусха, қоралама) эканини кўрсатади.

Қўлёзманинг 5<sup>б</sup>-саҳифасида шоирнинг

اگر معشوق نینگ كويى سارى عزم ايلاسانگ نكرا

ايچيب كوكنارنى مست اول داغى او غلاق كيىبى سكررا

матлаъси билан олти байтдан иборат ғазали ўрин олган.<sup>3</sup> Ушбу ғазал Комил шеърлари қиритилган бошқа бирор манбада учрамайди. Шайх Сулаймон Бухорий ўзининг “Луғати чиғатоий ва турки усмоний” асарида сўзларни шарҳлаш учун Лутфий, Навоий, Мунис, Огаҳий каби шоирлар билан бир қаторда Комил Хоразмий шеърларига ҳам кўп бора мурожаат қилади. Хусусан, қуйидаги ўринда бунга гувоҳ бўламиз: “Бакра (بكره) – бир навъ кичик болиқдир, моҳи. Комил:

*Гар ўлса мастлиг дуррини топмоқ мақсадинг, эй ринд,*

*Кириб кўкнор дарёсига чўмгил ўйлаким бакра.*<sup>4</sup>

Луғатнинг 1880 йилда нашр этилгани инобатга олинса, ғазал Комил ижоди дастлабки даврларида яратилгани ойдинлашади.

Қўлёзмадаги янги аниқланган иккинчи шеър Комилнинг

*Истимоъ эт шарҳ ҳоли зоримни,*

*Хўблиқ сариринда султон нигорим.*

*Белу оғзинг гами йўқу боримни,*

*Нобуд этти қўймай нишон, нигорим –*

банди билан бошланувчи мураббаъсидир.<sup>5</sup> Ушбу шеър ҳам шоир девони манбаларининг ҳеч бирига кирмаган. Етти банддан иборат мураббаъ Комилнинг ушбу жанрда яратилган кам сонли шеърлари, қолаверса, унинг лирик меросини тўлдириши билан аҳамиятли.

Адабиётимиз тарихида мухаммас энг кўп истифода этилган жанр сифатида маълум. Бунда, айниқса, бирор ижодкорнинг салафлари, устозлари ёки ижодига ҳурмат билан қараган замондошларининг ғазалларига мухаммас (тахмис) боғлаши алоҳида адабий анъана тусини олган. Комил Хоразмий ижодида Навоий, Нишотий, Мунис, Огаҳий, Феруз, Хожа, Рожий сингари етук шоирларнинг ғазалларига тахмислари маълум.

Мусаввадан ўрин олган бир тахмис алоҳида диққатга сазовор. Тахмис

*Дарди ишқ аро кирманг ҳаргиз, эй мусулмонлар,*

*Кўргасиз юз туман меҳнат, савдоу пушаймонлар,*

*Қилмади тараҳҳумлар, тош кўнгулли жононлар,*

*Ваҳки, кўзларим гирён қилди лаъли хандонлар,*

*Жамъ қўймади кўнглум кокули паришонлар –*

*банди билан бошланади. Эътиборлиси, ушбу тахмис шоирнинг*

*Ваҳки, кўзларим гирён қилди лаъли хандонлар,*

*Жамъ қўймади кўнглум кокули паришонлар.*

матлаъли ўз қаламига мансуб ғазалига боғланган. Мумтоз шеърятимизда шоирнинг ўзи ёзган ғазалга мухаммас боғлаши камёб бўлса-да, учрайди. Хусусан, Навоий ва Огаҳий ижодида бу каби тахмислар учрайди.<sup>6</sup>

Ғазал ўн бир байтдан иборат бўлиб, Комил девонининг барча нусхаларига мавжуд. Қолаверса, кейинчалик чоп этилган турли тўплам, антология, хрестоматия ва девон нашрига ҳам кири-

<sup>1</sup> Орзибеков Р. Ўзбек поэзиясида мураккаб структурали жанрлар. Самарқанд, СамДУ, 1984, 41-бет.

<sup>2</sup> Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. Т. VII, Т., издательство АН Р Уз., 1964, с. 134.

<sup>3</sup> ديوان كامل. Мусаввада. Қўлёзма. Ўз Р ФА ШИ асосий фонди. инв №.1284, 5<sup>б</sup>-бет.

<sup>4</sup> شيخ سليمان افندى بخارى . لَعْنَتِ جَعْنَتَايِ وَ تُرْكِي عِثْمَانِي . استانبول . ۱۲۹۸ . ۷۵ سحيفه

<sup>5</sup> ديوان كامل. Мусаввада. Қўлёзма. Ўз Р ФА ШИ асосий фонди, инв. №.1284, 59<sup>б</sup>–60<sup>а</sup>-бетлар.

<sup>6</sup> Қуронон Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. Тошкент, “Академнашр”, 2010, 196-бет.

тилган.<sup>1</sup> Шоир ғазалнинг барча байтларига уч мисрадан қўшади, яъни тахмис ўн бир банддан иборат. Албатта, тахмис матнини мукаммал дейиш тўғри эмас. Айрим ўринларда котиб томонидан кiritилган тахрирлар кузатилади. Шунингдек, ёзиб тугаллангач, тахмис бандлари устидан чизилган ҳолат мавжуд. Бироқ тахмис шоирнинг бошқа манбаларда учрамайдиган шеъри экани билан аҳамиятли.

Умуман, айти пайтга қадар эътибордан четда қолиб келган ва ногўлиқ манба сифатида қаралган 1284-рақамли қўлёзма бизга Комил лирик меросининг янги намуналарини тақдим этиши билан аҳамиятлидир.

Комил Хоразмий қаламига мансуб, бироқ шоирнинг лирик девонига кирмаган шеърлар нафақат қўлёзма манбалар, балки тошбосма баёзларда учрайди. Шулардан бири “Баёзи янги”<sup>2</sup> бўлиб, ундан Лутфий, Навоий, Машраб, Хувайдо, Фузулий, Фурқат, Муқимий, Фазлий, Ҳазиний, Завқий, Ҳофиз каби ўттиздан ортиқ шоирларнинг ижод намуналари жой олган.

Баёзнинг 97–99-саҳифаларида “Мухаммаси Комил бар ғазали Фузулий” сарлавҳаси остида Комилнинг етти бандли тахмиси берилган. Маълумки, Фузулий ижодда Навоийни ўзига устоз деб билган, унинг ижодидан таъсирланган. Ўз навбатида, ўзбек мумтоз шеърятининг кўплаб вакиллари Фузулий ижодидан таъсирланганлар. Унинг асарларига назиралар, тахмислар боғлаганлар. Хусусан, ўзбек шеърятини Фузулий ғазалётининг энг сара намуналаридан бўлган “Ўландин сўр” радифли ғазалига ўнлаб тахмислар битилган. Мазкур тошбосмадан жой олган тахмис ҳам айти шу ғазалга боғланган. Тахмиснинг дастлабки бандидаёқ Комилнинг фузулиёна оҳангга ҳамоҳанг қалам тебратганига гувоҳ бўламиз:

*Асири ишиқи ошубин биравга зор ўландин сўр,  
Тани мажруху ранжин сийнаси афғор ўландин сўр,  
Сиришики лолагун ҳолин кўзи хунбор ўландин сўр,  
Шифойи васл қадрин ҳажр ила бемор ўландин сўр,  
Зулоли шавқу завқин то саҳар бедор ўландин сўр.*<sup>3</sup>

Ғазалда тасвирланган ошиқнинг ҳижрон ғамидан чеккан аламлари, афтодахоллигини янада кенгрок тасвирлайди. Комил томонидан қўшилган мисралардаги “бировга зор”, “сийнаси афғор”, “кўзи хунбор” бирикмалари воситасида ошиқ сурати ва сийрати яна-да яққол намоён бўлади. Бошқа бир ўринда эса шоир ошиқнинг дил кечинмаларини, қалб тугёнларини унга ҳамдардларгина биллади, ғофиллар бу ҳисдан Мосуво, – дейди:

*Паривашлар рухи олин на билсун мардуми гофил,  
Лабинг “юҳйил изом” болин на билсун мардуми гофил,  
Муанбар хат ила холин на билсун мардуми гофил,  
Кўзи ёшлуларин ҳолин на билсун мардуми гофил,  
Кавокиб сайрини шаб то саҳар бедор ўландин сўр.*<sup>4</sup>

Диққат қилинса, шоир ғазал лирик қаҳрамони – ошиқнинг ҳолати (кўзи ёшлуларин ҳолин)га қадар ўқувчини тайёрлаб боради. Ошиқ бўлмаганлар паривашларнинг қизил юзи, болдек лаби, анбар тусли хату холидан айро тушган кўзи ёшли ошиқнинг аҳволидан беҳабар. Комил бу ўринда нафақат ўз салафи билан ижодий мусобақага киришади, балки ўз ўрнида бетакрор бадий воситалардан фойдаланади. Иккинчи мисрадаги “юҳйил изом” ибораси Қуръони каримнинг “Ёсин” сураси 78-оятинида учрайди:

وَضَرَبَ لَنَا مَثَلًا وَنَسِيَ خَلْقَهُ قَالَ مَنْ يُحْيِي الْعِظْمَ وَهِيَ رَمِيمٌ

Мазмуни: У Бизга: “Чириб кетган суякларни ким ҳам тирилтира олур?” – деб, масал келтирди-ю, (аммо) ўзининг (қандай) яралганини унутиб қўйди.<sup>5</sup> Бу ўринда шоир иқтибос санъати билан бирга, Ислом арконларидан бири иймоннинг муҳим шартларидан бири – ўлимдан сўнг қайта тирилишга ишора қилиш воситасида талмех санъатини қўллайди.

<sup>1</sup> Комил. Девон. Нашрга тайёрловчилар: А.Ҳайитметов, В.Мўминова. Тошкент, 1975, 61-бет.

<sup>2</sup> Баёзи янги. Тошбосма. Тошкент, Яковлев босмаҳонаси, 1911 (х. 1329). Ношир Саййид Умархон махдум. 144-бет, Ўз Р ФА ШИ асосий фонди, инв. №.9489.

<sup>3</sup> Баёзи янги. Тошбосма. Ўз Р ФА ШИ асосий фонди, инв. №.9489, 97-бет.

<sup>4</sup> Баёзи янги. Тошбосма. Ўз Р ФА ШИ асосий фонди, инв. №.9489, 97 – 98-бетлар.

<sup>5</sup> Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Т., ТИУ НМБ, 2016, 445-бет.

Бундан ташқари, Комил Хоразмий қаламига мансуб яна бир туркум шеърлар борки, улар “Ичан қалъа” давлат музей-қўриқхонасидаги айрим иморатларнинг турли ўринларида битилган.<sup>1</sup> Улардан иккита шеър уч жойда – Муҳаммад Раҳимхон II мадрасасининг шимолий ва ғарбий пештоқлари ҳамда кириш эшиги юқорисидаги мрамор лавҳада битилган форсий таърихлардир. Умуман, “мадраса ички ҳовлисининг тўртта пештоқиға Оғаҳий ва Комил Хоразмийнинг иккитадан шеърий таърихлари ёзилган. Уларда хоннинг шарофатидан мамлакат обод бўлиб, адолати жаҳонга ёйилгани, олимлар даража топиб, мақсадларига етишгани, хоннинг ўзи олиму фозилларга ғамхўрлик қилиб, “Илм-маърифат маъдани” номига сазовор бўлгани тараннум этилади”.<sup>2</sup>

Улардан биринчиси ғарбий пештоққа битилган таърих саккиз байтдан иборат.

*Шоҳаншаҳи ситора сипаҳи фалак макон,*

*Султони нуқтадон хадиви мулкнишон.*

байти билан бошланувчи таърихда шоир Муҳаммад Раҳимхони сонийнинг адолатли ва маърифатпарвар ҳукмдор сифатида тасвирлаб, ушбу мадрасани юксак мартабали олимлар учун бунёд қилганини эътироф этади. Сўнгги байтда шоир бинонинг бунёд этилган йилига ишора қилади:

*Тарихи ў бигуфт ба Комил сирруши гайб:*

*“Бонийи он буқъаи Муҳаммад Раҳимхон”.*

Бу ўринда таърих моддаси “بانى آن بقاع محمد رحيمخان” жумласи бўлиб, абжад ҳисоби бўйича унинг жумали 1288 га тенг. Ҳижрий ҳисобдаги ушбу сана милодий 1871 йилга тўғри келади. Бу эса мадраса барпо этилган йилдир.

Кириш эшигидаги мрамор лавҳада айни шу таърихнинг тўрт байт ёзилган. Таърих сўнгида “Амали уста Паҳлавон Ниёз Хоразмий. 1289” жумласи битилган. Бизнингча, бу ўринда шоир ва таърихни лавҳага ёзган устанинг исмлари ўхшаш. Унда келтирилган сана (1289) эса матннинг лавҳага ёзилган вақтини билдиради.

Мадрасанинг шимолий пештоқида ҳам худди шундай саккиз байтли яна бир янги таърих битилган.

Комил Хоразмий турли воқеалар муносабати билан, ўзбек ва форс тилларида ўн учта таърих яратган бўлиб, улар шоир девонидан ўрин олган. Юқорида келтирилган таърихлар эса Комилнинг ушбу жанрдаги шеърлари кўламини яна-да бойитиш билан аҳамиятли. Шу ўринда, Мусо тўра мадрасасининг кириш эшиги кесагисига битилган таърих тўғрисида ҳам айтиб ўтиш жоиз. Ушбу мадраса қурилишга атаб Комил Хоразмий “Таърихи Саййид Мусо тўра” (7 байтли) ҳамда “Таърихи дигар Саййид Мусо тўра” (8 байтли) сарлавҳали иккита таърих ёзган ва улар шоир девонидан ўрин олган.

Комил Хоразмий шеърлари айни пайтга қадар икки марта<sup>3</sup> нашр этилган бўлса-да, улар шоир лирик мероси тўлиқ қамраб ололмайди. Ҳатто давр мафқураси тақозоси билан кўплаб ноўрин таҳрир қилинган. Бу эса матншунослик ва адабиётшуносликнинг сўнгги ютуқларига таяниб, шоир асарларини қиёсий ўрганиш ҳамда нашрга тайёрлаш зарурлигини кўрсатади.

Комил Хоразмийнинг изланишларимиз натижасида аниқланган турли жанр ва мавзудаги янги шеърлари унинг лирик мероси девони орқали бизга маълум бўлганидан ҳам каттароқ экани тўғрисида хулоса чиқаришга асос бўлади.

**Maxmudova Malaxat (O‘zbekistonda Xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi,  
O‘zbekiston davlat Xoreografiya akademiyasi Xoreografiya kafedrasi dotsenti)  
O‘ZBEK RAQSI OLIY XOREOGRAFIK TA‘LIM TIZIMINING FANI SIFATIDA**

*Аннотатсия. Мақоллада о‘zbek xalq raqsining uchta mahalliy maktablari: Farg‘ona, Buxoro, Xorazm raqs maktablarini o‘rganishni o‘z ichiga olgan, keng xarakterga ega bo‘lgan mavzu dasturi haqida so‘z boradi. Har bir maktabning o‘ziga xos uslubi, o‘ziga xos majoziy asosi, o‘z tizimi va til qonunlari*

<sup>1</sup> Бизга бу тўғрисида қимматли маълумотларни тақдим этган заҳматқаш олим, “Ичан қалъа” давлат музей-қўриқхонаси илмий ходими, тарих фанлари номзоди Комилжон Худойбергановга самимий миннатдорчилик билдирамиз – Ш.Н.

<sup>2</sup> Худойберганов К. Хива дунёдаги энг кўхна қалъа. Тошкент, 2012, 72-бет.

<sup>3</sup> Комил Хоразмий. Танланган шеърлар. Нашрга тайёрловчи Р.Мажидий. Тошкент, Бадиий адабиёт нашриёти, 1961, 52-бет; Комил. Девон. Нашрга тайёрловчилар: А.Ҳайитметов, В.Мўминова. Т., Фафур Фулом АСН, 1975, 224-бет.

mavjud. *Farg'onada tabiatning she'riyatlashtirishi, Buxoroda go'zallikning ulug'lanishi, Xorazm raqsining jonkuylarlik olovi – bular o'zbek raqsining obrazli tomonlari.*

**Аннотация.** В статье рассказывается о предметной программе широкого характера, включающей изучение трех местных школ узбекского народного танца: Ферганской, Бухарской, Хорезмской танцевальных школ. У каждой школы свой стиль, своя образная основа, своя система и свои языковые законы. Гармонизация природы в Фергане, прославление красоты в Бухаре, пылающий огонь Хорезмского танца – вот образные стороны узбекского танца.

**Annotation.** The article talks about the theme program of Uzbek folk dance, which includes the study of three local schools: Fergana, Bukhara, Khorezm dance schools, which have a wide character. Each school has its own unique style, its own figurative basis, its own system and language laws. In Fergana there is a of nature, the glorification of beauty in Bukhara, the fire of vivacity of Khorezm dance – these are the figurative sides of Uzbek dance.

**Kalit so'zlar:** xoreografiya, raqs, fan, ritm, maktab, innovatsion, xarakter, uslub, estetika, an'anaviy she'riyat, madaniyat.

**Ключевые слова:** хореография, танец, наука, ритм, школа, новаторство, характер, стиль, эстетика, традиционная поэзия, культура.

**Key words:** choreography, dance, science, rhythm, school, innovation, character, style, aesthetics, traditional poetry, culture.

Xalq raqsi O'zbekiston milliy madaniyatida muhim o'rinlardan birini egallaydi. Xalq raqsi o'zbek xalqining she'riy, falsafiy qarashlarini, badiiy va estetik ideallarini aks ettiradi. O'zbek milliy raqs san'atining rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 15-fevraldagi "O'zbekiston madaniyat va sport sohasi boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi PQ-4956-sonli farmoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2017-yildagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3022-sonli qarori muhim rol o'ynaydi.<sup>1</sup>

Hozirgi bosqichda haqiqiy O'zbek xalq raqsining an'alarini saqlab qolish muammolari keskinlashmoqda. Bunday vaziyatda milliy raqsning g'oyaviy-badiiy konsepsiyalarini tasdiqlaydigan xalq sahna xoreografiyasini o'rganish alohida dolzarblikka ega. O'zbek xalq xoreografiya san'atining turli shakllarini o'rganishni madaniyat va san'at oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlariga kiritish milliy raqsni saqlash va rivojlantirishning muhim yo'nalishidir. O'zbek raqsi o'qituvchilari va ijrochilarining kasbiy tayyorgarligi jarayoni nazariy jihozlarni, o'zbek raqsini o'rganish va o'qitish uslublarini oliy ta'limning zamonaviy talablariga javob beradigan sharoitlarda o'zlashtirishni talab qiladi. Yigirma yildan ziyod vaqt mobaynida O'zbekiston davlat Xoreografiya akademiyasi xoreografiya san'ati va milliy raqs sohasida professional mutaxassislarni tayyorlash markazi bo'lib kelgan. Hozirgi vaqtda Xoreografiya akademiyasi o'zbek xalq raqsini uslubiy va janr xilma-xilligi bilan to'liq o'rganishga qaratilgan bir qator fanlarni ishlab chiqdi. "O'zbek raqsini o'qitish uslubiyati" va "O'zbek xoreografiyasining namunalari" fanlari O'zbekiston davlat Xoreografiya akademiyasining "O'qituvchi-xoreograf" va "Xoreografiya guruhi rahbari" fakultetlarda o'quv dasturining majburiy fanlaridir.

Ushbu fanlarning pedagogik vazifalari – o'zbek raqsida uslubiy xususiyatlarni, leksik materialni va ijro mahoratini rivojlantirishda kasbiy mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish, bo'lajak o'qituvchi-rahbarlarning o'zbek raqsining turli yo'nalishlarining eng yaxshi namunalari va uslublari yaratish orqali ijodiy fikrlash va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, uni o'qitish usullarini o'zlashtirish va xalq raqsi uslubida zamonaviy xoreografik asarlar yaratish. "O'zbek raqsini o'qitish uslubiyati" va "O'zbek xoreografiya namunalari" fanlarini o'zlashtirishning maqsadi xoreografiya fanlarini o'qitish uslubiyotining nazariy va amaliy asoslarini yaxshi biladigan mutaxassislarni, baletmeysterlarni, ustalar-repetitorlarni tayyorlash, amaliy pedagogik ishlarga tayyor bo'lishdir, qo'shimcha va o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalarida, havaskor va professional darajadagi xoreografik guruhlarda ijrochilarni tayyorlash va tarbiyalashdir.

"O'zbek xoreografiya namunalari" va "O'zbek raqsini o'qitish uslubiyoti" fanlari mazmuni o'ziga xosdir, chunki u Xoreografiya akademiyasining ekskluziv o'quv dasturidir. "O'zbek raqsini o'qitish uslubiyoti" kursi muallifi xoreografiya kasbining amaliy va nazariy asoslarini anglash, ijodiy faoliyatning shaxsiy tajribasini umumlashtirib, M.Turg'unboyeva rahbarligidagi "Bahor" raqs ansamblining taniqli ja-

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. T., "O'zbekiston", 2017, O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017, 18-son, № 19, № 24, № 37 <https://lex.uz/docs/-3171590>



moasida to'plagan natijalarini taqdim etdi. Ushbu fan milliy raqsni o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini o'z ichiga oladi. Nazariy qism kelajakdagi mutaxassisning pedagogik qarashlarini, kasbiy qarashlarini shakllantiradi. "O'zbek raqsini o'qitish uslubiyoti" fanining ilmiy tamoyillarining nazariy tizimi milliy raqsning turli xil tasniflarini, plastik harakatlarini stilistikasini leksik lug'atning alohida guruhlariga ajratadi, harakatlarning semantik ma'nosini ochib beradi. Uslubiy yondashuv mavzularni o'rganish bosqichlarida bosqichma-bosqich aniq tasniflashga asoslanadi. Fanning amaliy qismi kasbiy ijro mahoratidan tashqari, raqs darsini qurishning uslubiy tamoyillari, o'zbek raqs elementlari ijrosini o'rgatish usullarini: qo'llar, oyoqlarning holati, aylanish holatlarini o'zlashtirishga yordam beradi. Misol ichida aylanishlar o'zbek raqsining yorqin ifodalovchi vositasi bo'lib, o'ziga xos (charh, shox, aylanish) turlariga ega. Aylanishlarni bajarishda bosh va gavda oyoqlar bilan birgalikda ishlaydi. Aylanishlarni bajarishda muhim tavsiya – bu aylanish paytida bosh, oyoqlarning yerga urilishi bilan aniq aylanishi kerak, qo'llar esa muvozanatni ta'minlaydi.

Amaliy ijrodan tashqari, talabalar raqs mazmunini obrazli taqdim etish, xoreografik rivojlanish dramasi analitik tushuntirishning og'zaki mahoratiga ega bo'lishlari kerak. "O'zbek raqsini o'qitish uslubiyoti" faniga, shuningdek, o'zbek xalq-sahna raqsining ekspressiv vositalariga asoslangan raqs o'quv kompozitsiyalarini yaratish uslublari, raqs kombinatsiyalarini yozish va xoreografik matnni yozib olish usuli bilan o'rganish kiradi, darslarni musiqiy tartibga solish tamoyillari.<sup>1</sup>

"O'zbek raqsini o'qitish uslubiyati" fanining dasturi keng qamrovli, chunki u uchta: Farg'ona, Buxoro va Xorazm mahalliy xalq raqs maktablarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Har bir mahalliy uslub o'zining asl shaklli asoslarini, o'z tizimini va til qonunlarini ochib beradi. Farg'ona raqs maktabida tabiatni poetiklashtirish, Buxoro maktabida go'zallikni ulug'lash, Xorazm raqsining olovli jonkuyar hissiyotlar – bular hammasi o'zbek raqsining obrazli qirralari. Uchta asosiy maktabdan tashqari Uyg'ur va Qoraqalpog'iston raqs maktablari ham fan dasturiga kiritilgan. O'zbek raqsining mahalliy xususiyatlarini yaxshi bilmaslik muammo bo'lib tuyuladi. Mahalliy maktablarning barcha uslubiy nozikliklariga rioya qilish o'zbek raqsining o'ziga xosligini saqlaydi. R.Karimova (shuningdek, E.Petrosova, O'.Muhamedova va boshqalar) ixtisoslashgan adabiyotlarida mavzuning yetarli darajada rivojlanganiga qaramay, xoreograflar o'z amaliyotlarida, ko'pincha, mahalliy maktablarning o'zbek raqsining mintaqaviy xususiyatlarini bilmasliklarini namoyish etadilar. Shu sababli festival (tanlov) va boshqa tadbirlar dasturlari davomida bir mintaqadan musiqa, boshqasidan liboslar va uchinchisidan leksik materiallardan foydalaniladigan raqs-larni ko'rish mumkin. Shu munosabat bilan, o'zbek raqsining kanoni bo'lgan "Doira dars" siklini o'rganish "O'zbek raqsini o'qitish uslubiyati" fani doirasida alohida ahamiyat kasb etadi: ushbu sikl Farg'ona raqs maktabining barcha asosiy harakatlarini jamlaydi. "Doira dars" barcha xoreografiya o'quv bo'limlarda I – VI semestrlar davomida o'rganiladi. Sikl suita xarakteridagi katta qurilma shaklda bo'lib, besh qismdan iborat. Ularning har biri faqat ushbu qismga xos bo'lgan aniq raqs harakatlarini o'z ichiga oladi. O'qituvchining vazifasi – harakatlarning obrazli mazmunini ochish, ijroning kanonik tozaligini kuzatish. "Doira dars"da bir nechta vizual namoyishlarni, keyinchalik, harakatlarni aniq bajarish texnikasini o'rganishni talab qiladigan murakkab raqs harakatlari mavjud. O'qituvchi talabalar bilan har bir harakatni o'rganib chiqib, ushbu materialni ishlab chiqadi va mustahkamlaydi. "Doira dars" siklining musiqiy va raqs dasturini o'zlashtirishi o'zbek raqs bo'yicha yosh mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun badiiy asos bo'lib xizmat qiladi. "Doira dars" sikli muallifi Usta Olim Komilov "har bir doira ustasi, har bir raqqosa raqs quriladigan uslubiy ritmlarni bilishi lozim. Busiz bo'lmaydi. Usullar – bu raqsning alifbosi".<sup>2</sup> Mashg'ulotlar davomida maqsadli, muntazam ravishda usullarni tinglab, yosh mutaxassislar ularni ovoz chiqarib ijro qilishni o'rganishlari kerak. "Doira dars" hajmli plastik lug'at talaba-xoreografga raqs etyudlarni yaratish, bundan tashqari, turli janrdagi xoreografik sahnalashtirishlarni yaratish imkoniyatini beradi.

Talaba-xoreografning pedagogik fazilatlarini rivojlantirishda o'zbek xalq sahnasi xoreografiya san'atining mumtoz asarlarini tizimli o'rganishga asoslangan "O'zbek xoreografiyasi namunalari" faniga muhim ahamiyat beriladi. M.Turg'unboyeva, K.Mirkarimova, I.Oqilov, K.Mo'minov kabi baletmeysterlarning merosini anglash tamoyillari bo'yicha yosh mutaxassisda ijodiy dunyoqarash va ijodiy fikirlash qobiliyatlari ishlab chiqiladi. Aytilgan ustalarning har birining ijodkorligi, ular murojaat qilgan obrazlar, shakllar va janrlarning boyligi bilan ajralib turadi. III semestrda Issoxor Oqilov merosi "Davra", "Fargonacha yoshlar raqsi" raqslari misolida o'rganiladi, IV semestr M.Turg'unboyevaning "Rohat", "Yeti

<sup>1</sup> Obidov T., Usto Olim Komilov. T., 1958.

<sup>2</sup> Shu manba.

go‘zal”, “Katta o‘yin”, “Rohat” (ommaviy), “Bayot” raqslar misolida xoreograf uslublarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Yetakchi o‘zbek xoreograflarining badiiy uslubini o‘rganish, ularning niyatlari bilan tug‘ilgan raqs asarlarni tahlil qilish, ijrochilik maktabini yaratish tamoyillari klassiklar ijodini davom ettiradigan yangi g‘oyalarni yaratish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatdiki, hozirgi bosqichda o‘zbek xalq raqsini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun yuqori xoreografik ta‘limga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Amaliy dars – konsert darsi, tahlil darsi, professional fikrlar darsi shaklida bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, “Doira dars” siklini o‘rganish jarayonida talabalar dars davomida faol qatnashganda, harakatlarni bajarishda, xatolarni tahlil qilganda, o‘qitishning interaktiv usullaridan foydalanish samarali bo‘ladi.

An‘anaviy xalq madaniyatini saqlash va rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-madaniy, badiiy, ijodiy, tashkiliy va pedagogik faoliyatlarda, balki inson uchun fuqarolik, vatanparvarlik tashabbuslarini namoyon etish, uning estetik, axloqiy va siyosiy madaniyatining o‘shishi imkoniyatlari nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Etnik-madaniy qadriyat va g‘oyalar, ehtiyotkorlik bilan saqlanib va rivojlantirilgani, albatta, yoshlarning ma‘naviy-axloqiy, vatanparvarlik tarbiyasiga va mamlakatimiz birligini mustahkamlashga yordam beradi.

**Allaberganova Dilbarjon Atabekovna (UrDU ‘O‘zbek tili ixtisosligi  
tayanch doktoranti; [allaberganovadilbarjon@gmail.com](mailto:allaberganovadilbarjon@gmail.com))**

### **OMON MATJON SHE‘RIYATI TILIDA DIALEKTIZMLARNING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI HAQIDA**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Omon Matjon she‘rlarida qo‘llangan dialektizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, shoirning hayotning realistik tasvirini chizish, mahalliy koloritni berish, personajlar nutqini individuallashtirishda yoki biron tushunchaning shevadagi atamasi kitobxonga ahamiyatli bo‘lgan holatning mahalliy belgisini bildirish maqsadida qo‘llangan dialektal so‘zlar tahlil qilingan, shoir she‘rlaridagi dialektizmlarning fonetik, leksik va grammatik ko‘rinishlari o‘rganib chiqilgan.*

**Аннотация.** *Статья посвящена особенностям диалектики, используемой в стихотворениях Омона Матжона, и для читателя важно нарисовать реалистичную картину жизни, регулярно ее подавать, сообщать личную информацию, распространять или написать личную информацию. Проанализированы диалектные слова, которые могут выразить знак события, изучаются фонетические, лексические и грамматические проявления диалектизмов в стихотворениях поэта.*

**Annotation.** *This article discusses the peculiarities of the dialectics used in the poems of Omon Matjon, and analyzes the dialectal words used by the poet to draw a realistic picture of life, to give a local color, to individualize the speech of the characters or to express a local sign of a situation, the phonetic, lexical and grammatical forms of dialectics in the poet's poems have been studied.*

**Kalit so‘zlar:** *Xorazm shevalari, lingvopoetika, Omon Matjon, dialektizmlar, she‘riyat tili.*

**Ключевые слова:** *Хорезмские диалекты, лингвопоэтика, Омон Матжон, диалектизмы, язык поэзии.*

**Key words:** *Khorezm dialects, linguopoetics, Omon Matjon, dialectisms, poetic language.*

Omon Matjon o‘zbek she‘riyatida o‘z ovozigaga, o‘z uslubiga ega bo‘lgan, adabiyotimizda serjilo shoirlik maktabining asoschilaridandir. Shoir she‘riyatida xalqqa, insonga chuqur hurmat va muhabbat ruhining namoyon bo‘lishini kuzatamiz. Ijodkor yurtga cheksiz mehr ufurib turgan mazmundor satrlarni yaratishda umumxalq tili boyliklaridan unumli va mohirona foydalangan.

Omon Matjon ijodida ham so‘z tanlashdagi va qo‘llashdagi mahoratining tadqiq etilishi tilshunosligimiz rivojida o‘ziga xos ahamiyatga ega. O‘zbek tilshunosligida ijodkor badiiy nutqining o‘ziga xosligi, uning til vositalaridan foydalanishi kabi jihatlar bosh mavzu darajasiga ko‘tarilib bormoqda. Fikrimizning dalili sifatida shoir she‘rlarida qo‘llangan dialektizmlarning tahlil jarayoniga e‘tibor qaratmoqchimiz.

Dialektlarga xos so‘zlar qo‘llanishi territoriyaga ko‘ra chegaralangan leksemalardir.<sup>1</sup> Dialektizmlar faqat ma‘lum dialekt yoki sheva vakillari tomonidagina faol qo‘llaniladi. Adabiy tilda ular ishlatilmaydi, ammo til taraqqiyoti shuni ko‘rsatdiki, umumiste‘moldagi leksika bilan dialektal leksika o‘rtasida doi-

<sup>1</sup>Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Talqin”, 2005, 198-bet.

miy aloqa mavjuddir. Bu, ayniqsa, ijodiy asarlarning jozibador bo'lishida namoyon bo'ladi.

Yozuvchilar o'z asarlarida hayotning realistik tasvirini chizish, mahalliy koloritni berish, personajlar nutqini individuallashtirishda yoki biron tushunchaning shevadagi atamasi kitobxonga ahamiyatli bo'lgan holatning mahalliy belgisini bildirsagina dialektal so'zlardan foydalanishi mumkin.<sup>1</sup>

Dialektizmlarning fonetik, leksik va grammatik ko'rinishlari mavjud bo'lsa, Omon Matjon she'rlarida ularning barchasiga misollarni uchratishimiz mumkin. Shoir o'z she'rlarida Xorazm farzandi sifatida Xorazm dialektiga xos so'zlarni o'rni bilan qo'llagan.

*Hoy og'a, hay do'stim, ukam, hoy singlim,  
Bilmadim yoshingiz kattami kichik,  
Ilk sarob ko'riboq maqsaddan qaytib,  
Dunyoni yolg'onchi etishlik nechuk?!<sup>2</sup>  
Lekin nima kechar oqillar holi,  
Hayot nodonlarni etsa **kadxudo!**<sup>3</sup>*

Misralardagi *og'a*, *kadxudo* so'zlari leksik dialektizmlar bo'lib, adabiy tilda ekvivalenti mavjuddir. *Og'a* so'zining adabiy tildagi ko'rinishi aka. *Aka* – o'zidan katta er kishiga murojaatda yoki unga hurmat yuzasidan ishlatiladi (bunda yakka holda yoki nutq qaratilgan shaxsni bildiruvchi so'z bilan qo'llanadi).<sup>4</sup>

*Kadxudo* so'zi adabiy tildagi *oqsoqol* so'zining shevadagi ko'rinishidir. *Oqsoqol* – soch-soqoli oqargan keksa odam; mo'ysafid.<sup>5</sup> *Yoshi ulug'*, *donishmand*, *maslahatgo'y odam* ma'nosida Xorazm shevasida *kadxudo* so'zidan foydalanilgan. Shoir ham *elning ulug'i* ma'nosida bu so'zni qo'llagan. Mazmunan tahlil qilsak, nodonlar el kattasi, maslahatgo'yi bo'lolmasligiga ishora qilgan.

*Sozchi tanburni tuzdi,  
Duldul arqonni uzdi,  
**Degish** qirg'oqni buzdi.  
Daryoga kim yetkazdi  
Nera borajagimni.<sup>6</sup>*

Ushbu she'riy parchada qo'llangan *degish* so'zining esa adabiy tilda ekvivalenti mavjud emas. *Degish* Xorazm shevalarida ishlatilib, *o'pirilish*, *toshqin natijasida daryo qirg'og'ining o'pirilishi* ma'nolarida qo'llanadi.

Shoir she'rlarida qo'llangan shevaga oid so'zlarning ichida fonetik dialektizmlarga misollarni ham ko'pgina uchratishimiz mumkin.

Bilamizki, fonetik dialektizmlar adabiy tildagi so'zlardan o'ziga xos fonetik xususiyatlari – unilarning cho'ziqligi va yumshoqligi, bir tovush o'rnida boshqa tovushning kelishi, tovush orttirilishi va tovush tushirilishi kabilar bilan farq qiladigan so'zlardir. Aynan Xorazm shevasining adabiy tildan farqi ham uning fonetik xususiyatlarida ko'zga tashlanadi.

*Lekin **muni** ko'ring, ebi, birovlar  
Qanoat qilmaydi o'z nonini yeb.<sup>7</sup>*

Ajratib ko'rsatilgan *muni* so'zi *bu* olmoshiga kelishik -ni qo'shimchasini qo'shish orqali yuzaga kelgan *buni* ko'rsatish olmoshining shevada qo'llanishidir. Ya'ni, *b* sonor tovushi o'rniga *m* sonori ishlatilgan.

*Bu – navbahor, **o'ynoli**,  
Sayradi tor, **o'ynoli**.  
O'rtada yor **o'ynoli**,  
Dil intizor **o'ynoli**.<sup>8</sup>*

*O'ynoli* so'zi adabiy tildagi *o'ynamoq* fe'lining "raqs tushish" ma'nosidagi o'ynaylik so'zining shevadagi ko'rinishidir. O'yna asosidagi *a* unlisi *o* unlisiga o'tgan.

*Ishq bog'ini sayr etdim – qish yoz bo'lib ko'rindi,  
Dunyo – kelin, **durmushi** pardozi bo'lib ko'rindi.<sup>1</sup>*

<sup>1</sup> Shomaqsudov A. va boshqa. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1983, 57-bet.

<sup>2</sup> Omon Matjon. Iymon yog'dusi. Toshkent, "Adabiyot va san'at", 1995, 254-bet.

<sup>3</sup> Yuqorida ko'rsatilgan manba. 254-bet.

<sup>4</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, "O'zbekiston", 2013, 60-bet.

<sup>5</sup> Shu manba. 181-bet.

<sup>6</sup> Omon Matjon. Umr o'tar, vaqt o'tar. Toshkent, "O'zbekiston", 2016, 104-bet.

<sup>7</sup> Omon Matjon. Iymon yog'dusi. Toshkent, "Adabiyot va san'at", 1995, 254-bet.

<sup>8</sup> Omon Matjon. Yuqoridagi manba. 36-bet.

*Durmushi* soʻzida soʻz boshidagi jaransiz *t* undoshi oʻrniga jarangli *d* undoshi kelgan. Bu soʻz adabiy tildagi *turishi* soʻzining shevada qoʻllanilishidir.

Omon Matjon sheʼrlarida ishlatilgan dialektizmlarni soʻz turkumlari boʻyicha quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

1. Ot turkumiga mansub dialektizmlar: Yuqoridagi misollarda qoʻllangan *ogʻa*, *kadxudo* soʻzlari shaxs oti hisoblanadi. Quyidagi misralarda “dugona” maʼnosida qoʻllangan *chiqonjon* soʻzi ham shaxs otiga misol boʻladi:

*Osmonga qarasam oynning bolasi,*  
*Orqamga qarsam Gurlan qalʼasi.*  
*Umidimga yetkazmadi, **chiqonjon**,*  
*Harom oʻlsin ulli boyning bolasi.<sup>2</sup>*  
*Qator-qator minor koʻrdim Xivada,*  
*Koʻk toqini bekor koʻrdim Xivada.*  
***Ichon** uchun **Dishon** qurbon boʻlibdir,*  
*Elga jonlar nisor koʻrdim Xivada.<sup>3</sup>*

Bu yerda *Ichon* va *Dishon* soʻzlari atoqli otlar boʻlib, Xivadagi *Ichon* qalʼa va *Dishon* qalʼani ifodalash uchun qoʻllanilgan. Adabiy tilda *ichon* – ichkari, *dishon* – tashqari maʼnolarini bildiradi.

2. Sifat turkumiga oid dialektizmlar:

*Bir koʻna vulqon bor ichingda, bildim,*  
*Dud – quyqum pusqurging kelar damodam.<sup>4</sup>*  
*Jumaniyoz Qoʻziyev oʻzim boʻlaman,*  
***Qisinchoq** el bilan savash boshlayman*  
*Faylasuf emasman, lekin dunyoga*  
*Balandroq masnaddan nazar tashlayman.<sup>5</sup>*

Misollardagi *koʻna* – eski, *qisinchoq* – tortinchoq maʼnolarida qoʻllangan dialektizmlardir.

*Koʻna* soʻzi adabiy tildagi *koʻhna* soʻzining shevadagi shaklidir. *Koʻhna* soʻzi fors tilidan oʻzlashgan boʻlib, “eski”, “qadimgi” maʼnolarini ifodalaydi. Misolda soʻzdagi *h* tovushining tushib qolgan holatda, yaʼni *koʻna* shaklida qoʻllanishini koʻramiz. Bunday *h* tovushi tushish hodisasini Xorazm shevalariga oid koʻpchilik soʻzlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, Ahmad – Amat kabi.

3. Feʼl turkumiga oid dialektizmlar:

*Quyosh tong oldida qizargan kabi,*  
*Gʻunchalar **qisinib** yuz yorgan kabi,*  
*iymanib kelasan, ochilolmaysan...<sup>6</sup>*  
*Sal bulutga barglarimni **gizlab** teskari,*  
*Sal shamolga **qoʻporilib** ildizim bilan.<sup>7</sup>*

Misralarda koʻrganimiz, *qisinib* – *tortinib*, *gizlab* – *bekitib*, *qoʻporilib* – *koʻtarilib* maʼnolarini bildirgan shu kabi feʼl soʻz turkumiga oid dialektizmlarni Omon Matjon sheʼrlarida talaygina uchratishimiz mumkin.

Yuqoridagi sheʼriy misrada *qoʻporilmoq* soʻzi “yer bagʻridan sugʻurib ol” maʼnosini anglatuvchi *qoʻpor* leksemasi shaklidir. Qadimgi turkiy tilda ham shunday maʼnoni anglatgan bu soʻz “koʻtaril” “tik tur” maʼnosini anglatuvchi *qop* feʼliga -(u)r orttirma qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan: *qop* + *ur* = *qopur*.<sup>8</sup> Qadimgi turkiy tildayoq bu soʻz *qopar* tarzida ham talaffuz qilingan; oʻzbek tiliga ana shu shakli a unlisi o unlisiga almashgan holatda yetib kelgan: *qopur*→*qopar*→*qopâr*.<sup>9</sup>

Bizningcha, *xalta* soʻzining sinonimi boʻlgan *qop* leksemasi, Xorazm shevalaridagi *qopchi* (ilib ol), *qopmoq* (tishlamoq), *qopqoq*, *qopi* (eshik) leksemalarining barchasi tarixan *qoʻp* asosiga borib taqaladi,

<sup>1</sup> Shu manba.

<sup>2</sup> Omon Matjon. Iymon yogʻdusi. Toshkent, “Adabiyot va sanʼat”, 1995, 182-bet.

<sup>3</sup> Omon Matjon. Yuqoridagi manba. 91-bet.

<sup>4</sup> Omon Matjon. Yuqoridagi manba. 318-bet.

<sup>5</sup> Omon Matjon. Yuqoridagi manba. 254-bet.

<sup>6</sup> Omon Matjon. Umr oʻtar, vaqt oʻtar. Toshkent, “Oʻzbekiston”, 2016, 42-bet.

<sup>7</sup> Omon Matjon. Iymon yogʻdusi. Toshkent, “Adabiyot va sanʼat”, 1995, 246-bet.

<sup>8</sup> PDP, 414; Devon, II, 75; DS, 457

<sup>9</sup> Rahmatullaev Sh. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. 1-jild, Toshkent, “Universitet”, 2003, 588-bet.

asosning o‘zi esa “tik turmoq” ma’nosidan tashqari, “qopmoq”, ya’ni, “biror narsaning orasiga olmoq”, “ushlab tortmoq”, “yopmoq” ma’nolariga aloqador deb o‘ylaymiz.

Navoiy asarlari tilida ham *qo‘por* so‘zi 1. “ko‘tarmoq”, “qo‘zg‘atmoq”, “turg‘izmoq”, “tiriltir-moq”:<sup>1</sup>

*Labing malohati g‘avg‘o qo‘pordi olamdin,*

*Shakarni bo‘yla kishi hayda ko‘rdi sho‘rangez.*

Tengri taolo kufroni ne‘mat qilg‘anlarni va‘da qilg‘an dastur bila to‘ng‘uz shakli bila o‘runlaridin *qo‘pordi*.

2. “ag‘darmoq”, “buzmoq”:

*Pand ila sabrim uyin, ey aql, ma‘mur istama,*

*Qim qo‘pormish ko‘z yoshim sayli ani bunyodidin.*

A.Primov “Zafarnoma”da *qo‘pormoq* so‘zi “qurmoq”, “bunyod qilmoq” ma’nolarini ham ifodalagani haqida qiziqarli misollar keltiradi.<sup>2</sup>

Omon Matjon o‘ziga xos shoirdir. Uning she’rlari o‘ziga xos ohanglarda bitilganligi bilan boshqa shoirlar ijodidan farqlanadi. Ana shu o‘ziga xoslikni ta’minlovchi badiiy til vositalarini chuqur o‘rganish va tadqiq etish orqali shoirning lingvistik tafakkur doirasi qay darajada keng ekanligini ko‘ra olamiz.

Omon Matjon she’riyatining tili nihoyatda boy, rang-barang va serqirra bo‘lib, dialektizmlar uning bir qirrasini, xolos. Shoir tomonidan qo‘llanilgan dialektizmlar tasvirlanayotgan voqeaning real, jozibali chiqishini ta’minlab, kitobxonga milliylikni, xalq tili bilan yaqinlikni singdira olgan.

**Садриддинзода Сафия Шахобиддиновна (преподаватель Самаркандского государственного института иностранных языков; email address: [sadriddinzoda.safiya@mail.ru](mailto:sadriddinzoda.safiya@mail.ru))**  
**ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ ДЕМОНОЛОГИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА**

*Аннотация. Мақоламизда о‘zbek asarlarining demonologik leksikasini lingvokultural yondashuv yordamida o‘rganishga harakat qildik. Tahlilimiz jarayonida semantikaning lingvokultural o‘ziga xosligini kengroq tushunchadan farqlashga va bu tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga harakat qildik.*

*Аннотация. В нашей статье мы постарались изучить демонологическую лексику узбекских произведений с помощью лингвокультурологического подхода. В ходе нашего анализа мы постарались отграничить лингвокультурную специфику семантики от более широкого понятия – национальной специфики семантики, определить соотношение этих понятий.*

*Annotation. In our article, we have tried to study the demonological lexicology of Uzbek works with the help of linguocultural approach. In the course of our analysis, we have tried to differentiate linguocultural specificity of semantics from a broader notion of national specificity of semantics and determine the correlation of these concepts.*

**Kalit so‘zlar:** *lingvokulturologiya, tilshunoslik, demonologik so‘z, milliy madaniyat, ma’naviy (shaytoniy kod).*

**Ключевые слова:** *лингвокультурология, лингвистика, демонологическая лексика, национальная культура, духовный (демонический код).*

**Key words:** *linguoculturology, linguistics, demonological vocabulary, national culture, spiritual (demonic code).*

К.Л.Строс утверждал, что «язык есть одновременно и продукт культуры, и её важная составная часть, и условие существования культуры. Более того, язык – специфический способ существования культуры, фактор формирования культурных кодов». По справедливому замечанию В.А. Маслова, «если культурология исследует самосознание человека по отношению к природе, обществу, истории, искусству и другим сферам его социального и культурного бытия, а языковедение рассматривает мировоззрение, которое отображается и фиксируется в языке в виде ментальных моделей языковой картины мира, то лингвокультурология имеет своим предметом и язык, и культуру, находящегося в диалоге, взаимодействии». В.М.Савицкий утверждает, что “в динамическом

<sup>1</sup> Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. To‘rt jildli, Toshkent, “Fan”, 1983–1985, 4-jild, 1985, 91-bet.

<sup>2</sup> A.Primov. Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari leksikasi. Filol. fan. dokt. ...dis. qo‘lyozmasi, 2021.

